

84(50)7  
T 98 ad  
408044

udoyberdi

IO'XTABOYEV



JANNATI

ODAMLAR

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV



JANNATI  
ODAMLAR

*ROMAN VA ERTAKLAR*

*Qayta nashr*

Toshkent  
“Yangi asr avlodi”  
2015

**UO‘K: 821.512.133-3**

**KBK: 84 (5O‘zb)7**

**T - 98**

**To‘xtaboyev, Xudoyberdi.**

Jannati odamlar /Ertak-roman.X.To‘xtaboyev. –T.: «Yangi asr avlodi», 2015. – 268 b.

ISBN 978-9943-27-029-9

*O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, bolalarimizning sevimli adibi Xudoyberdi To‘xtaboyevning ushbu ertak-qissalarini eng avvalo mehribon bobojonlar suyukli nabiralariga o‘qib bersinlar, so‘ngra suyukli nabiralar yonboshlab yotgan bobojonlariga o‘qib bersinlar. Har ikki tomon qissaning «mazasini shimib» turguncha, endi buvijonlar asaldek shirin qizlariga o‘qib bersinlar. Keyin muallifga «Ey Xudoyberdi bobo, o‘zingizning bobongiz bilan ertakchi enangiz haqida yozibsizu, nega mening bobom bilan ko‘zoynak taqqan buvijonim haqida yozmabsiz, nega, nega, nega» degan mazmunda xat yozib, bobojoni aytgan mataldan, buvijoni aytgan ertakdan bittadan qo‘shib jo‘natsinlar.*

**UO‘K: 821.512.133-3**

**KBK: 84 (5O‘zb)7**

ISBN 978-9943-27-029-9

© Xudoyberdi To‘xtaboyev. «Jannati odamlar». «Yangi asr avlodi», 2015-yil.

## NABIRALARIMGA OCHIQ XAT

*Qizdirsiz, o'g'ildirsiz – hammangiz ham mening jonimsiz, jahonimsiz, bugunimsiz, ertamsiz. Quvonchim ham, tashvishim ham sizlarning o'zingizsiz. Shuning uchun ham quvonamanki, sihatsiz, salomatsiz, xuddi bo'liq yerga ekilgan niholdek «gurkirab o'sayapsiz». Ma'naviyatingiz, ruhiy olamingiz but bo'layaptimikan, deb o'yalaymanu, ana shundan tashvishlanaman. Ma'naviyat, ruhiy holat, e'tiqod degan holatlarning shakllanishida, ya'ni sizning komil inson bo'lib yetishuvingizda turli-tuman omillar bor, albatta. Shulardan biri, eng qizig'i, yo'q kulmang, chindan ham eng qiziqarlisi, bobolarimiz, buvilarimiz aytadigan ertaklar, rivoyatlar, afsonalardir. Biz ularni o'qiganda yo tinglaganimizda jasur qahramonlar bilan, dovyurak, yengilmas bahodirlar bilan xalqi uchun, millati uchun jonini fido qilishga tayyor turgan botir yigitlar bilan tanishamiz. O'zining bilimdonligi bilan hatto podsholarni ham lol qoldiradigan oqila qizlar bilan, eng og'ir sharoitda ham osongina yo'l topib, qiyinchilikdan chiqib keta oladigan donishu donishmand onaxonlar bilan tanishasiz.*

*Ertaklarni berilib tinglayotganingizda men ham ana o'shanday yigit bo'laman yoki ana o'sha aqlli qizdek bo'laman, deb qo'lingizni musht qilib o'rningizdan turib ketgan paytlaringiz ko'p bo'lgan. To'g'rimi? Uyalmay aytavering, shunday qilgansiz!*

*Demak, «ertaklar — yaxshilikka yetaklar», deganlari to'g'ri ekan-da.*

*Men ham rostini aytsam, rahmatli enam Pobiyabibining ertagu rivoyatlarini tinglab, bora-bora so'zga muhabbat qo'yganman, so'zlarning ma'nosini chaqadigan bo'lganman. O'zim ham sezmaganda holda eshitgan ertaklarim menda yozuvchilikka havas uyg'ota boshlagan. Asta-sekin o'zim ham ertak to'qiy boshlaganman. Bolalikda to'qigan ertaklarim bora-bora hikoyaga, qissaga, romanlarga aylanib ketgan. «Sariq devni minib» romanim ana shunday qilib yuzaga kelgan.*



*Ertaklar tinglovchilarni keng fikrlashga, xayolot olamiga ketishga, shirin-shirin orzular qanotida parvoz qilishga o'rgatadi.*

*Orzusi bor odam kuchli odam bo'ladi.*

*Chunki orzu kishiga ilohiy quvvat beradi, g'ayratu shijoat beradi, irodasini mustahkamlaydi.*

*Bolaligida ertagu rivoyatlarni ko'p tinglab ulg'ayganlar orasida katta olim, tengsiz kashfiyotchi, buyuk rassom bo'lib yetishgan kishilarning ko'pini bilaman. Eng muhimi, ertaklar kishini odobga, xushmuomalikka, mehnatsevarlikka, kamtarlikka, xullas, go'zal insoniy fazilatlariga o'rgatadi. Bunday kishilar hamisha el hurmatida bo'lishgan.*

*Mayli, gapim cho'zilib ketayotganga o'xshaydi. Buni o'zim ham sezib turibman. Gapimning lo'ndasini aytib qo'ya qolay, ko'pchiligingizning bobongiz mehribon, buvilaringiz hayot. Ba'zi birlaringizda ikkitadan boboyu, ikkitadan buvi bor desam, ishonavering. Ana o'sha donishmand bobolaru, mehribon buvilaringizda qat-qat ertaklar bor. Hadeb televizor qarshisida esnab o'tirib, uyqusirab bo'lar-bo'lmas tomoshalarni ko'ravergandan ko'ra, bobolaringiz va buvilaringizdan ertak so'rang. Ular jon-jon deb aytib berishadi, uyqungiz kelguncha aytishadi. Bu ertagu rivoyatlarni aslida bobolaringizu buvilaringiz siz uchun asrab yurishibdi. Ilojini qilsangiz, ana o'shalardan ko'p-ko'p yozib oling, agar yozib olmasangiz, bu qimmatbaho qadriyatlarimiz bobolaru buvilarimiz bilan ketib qolishi mumkin.*

*Ko'pchilik mamlakatlarda bolalar ertak yig'ib, kitob nashr qilganlarini eshitganman, ko'rganman. Litva mamlakatining Kaunas shahridagi bir maktabda bo'lganimizda bobolaru buvilardan yozib olgan ertaklarini kitob qilganini ko'rdik. O'sha kitoblardan bizga ham sovg'a qilishadi. Bunaqa misollardan yana bir necha keltirsammikan. Yo'q, yetar endi.*

*Jondan shirin nabiralarim, bilasiz, bobolaru buvilarimiz qarib qolishayapti. Ularning xotirasida avlod-ajdodlardan kelayotgan juda ko'p axloqiy boylik saqlangan. Ana o'shalarni yozib olishga shoshilaylik. Mayli, hozircha, kitob qilmasak ham, keyinchalik yozilajak katta-katta kitoblaringizga ana shu ertaklar, rivoyatlar, afsonalar «masalliq» bo'ladi.*

*Hammalaringizni yaxshi ko'raman.*

*Ertakchi bobongiz  
XUDOYBERDI TO'XTABOYEV*

*Shafqatsiz davrda yashab, qalbi to'la armon  
bilan olamdan o'tgan marhum onam  
Sorabibi Erkavoy qizining xotirasiga  
bag'ishlayman.*

*Muallif*

## ERKACHOLNING O'RIGI

**T**ug'ilib o'sgan qishlog'imga borib qarindosh-urug'lar huzurida bir necha kun mehmon bo'ldim. Tengqurlarim, yoshlar davrasida ishtirok etib, goh qizg'in suhbatlarga qo'shildim, goh aytilayotgan fikrlarning «mzasini» shimayotgandek, jimgina o'tirdim. Yoshlar orasida ko'proq bo'ldim desam ham bo'ladi, ularning beg'ubor suhbatini yoqtiraman, ruhiyati, dunyoqarashlari qanday ekanligini bilgim keladi. Bir galgi suhbatda yigitchalardan biri: «Amaki, o'rikdan yeng, og'zingizda erib ketadi. Qoraqandak deyishadi, bu navi Erkacholning o'rigidan», deb qoldi. Yuragim hapqirib ketdi. Shirin-shirin entika boshladim. Suhbatdoshlarimga qayta-qayta tikilaman, yuzu ko'zlarida yeyayotgan o'riklaridan olayotgan huzurdan o'zga ifodani sezmayman. Erkacholning kimligini ham, u kishi menga bobo bo'lishini ham bilishmaydi, deb o'ylayman. Bilmasliklari ham mumkin, axir u jannati zotning olamdan o'tganiga necha-necha yillar bo'ldi-ku...

Otam olamdan o'tgach, yigirma yoshda beva qolgan onam ikki-uch yildan so'ng turmushga chiqib, mening tarbiyam bobomning ixtiyorida qolgan edi. Yoshi yetmishlarga borib qolgan, novcha bo'yli, tik qomatli, tarashadek qotma, cho'ziq yuzli, serzarda va eng muhimi, tinib-tinchimas bir kishi edi. O'ziyam tinmasdi, rahmatli enam ikkimizni ham tinchitmasdi. Hatto ishonsangiz, og'ilxonadagi qo'yu mollarni ham tinch qo'ymas, mol yotganda emas, yeganda semiradi, deb ularni ham turtkilagani-turtkilagan edi. Men bobomga juda bog'lanib qolgan edim.

Sutga to‘ymagan qo‘zi onasining orqasidan qolmaganidek, erta-kech bobomning ortidan ergashib yurardim. Hatto tunda ham bir o‘rinda yotardik. Yotishim bilan barmoqlarim bilan soqollarini tarab, ertak aytib berasiz deya, qiyin-qistovga olardim. Ko‘pincha hassasinimi yoki taqillab yuradigan kavushinimi berkitib qo‘yib hukmimni o‘tkazishga, so‘ragan narsamni undirib olishga harakat qilardim. Bobomning, jon o‘g‘lim, topib bersang senga bir narsa beraman, deya yolvorishini xush ko‘rardim.

Bir kuni ertalab katta ko‘k eshagimizni yetaklab chiqib:

- Qani, orqamga mingash-chi, – deb qoldilar.
- Qayoqqa boramiz? – deya so‘rayman sevinib.
- Qashqar qishloqdan o‘rik ko‘chat olib kelamiz.
- O‘rik ko‘chat o‘zimizda bor-ku?
- U boshqasi, o‘g‘lim.
- Qanaqasi?
- Bas, endi jim ket.

– Yo‘q, oldin qanaqaligini ayting, keyin jim ketaman.  
Bo‘lmasa eshakning junidan tortaman.

Bobom gapimga kirmasa, ko‘pincha eshakning dumg‘azasidagi o‘siq junidan tortib shataloq ottirardim. Bir-ikki bor gupanglab yiqilib ham olganmiz.

– Qo‘y, bolam, junidan torta ko‘rma, yana yiqitsa ishimiz bitmay qoladi. Qashqarda «Qoraqandak» degan o‘rik bo‘ladi, faqat o‘sha yerda o‘sadi u. Quruq, suvsiz yerni xohlaydi shekilli. Mevasi hey-hey, biram. shirin bo‘ladiki, tog‘alarningnikiga borganda yegansan-ku.

– Yeganim yo‘q, – deyman.

– Yegansan, cho‘ntagingni to‘ldirib solib berishardi-ku.

– Hecham-da, menga doim qurt tushganidan berishadi...

Bobojon, nega qoraqandak deyishadi?

– Quriganda shirasi ko‘p bo‘lgani sabab rangi qorayib qoladi-da.

– Nega oqarib qolmaydi?

– Endi bas qil, miyamni achitib yubording.

– Bobojon, miya achiganda qanaqa bo‘ladi?

– Aytmayman.

– Aytasiz, bo‘lmasa eshakning junidan yana tortaman, mana tortyapman, tortvuraymi?

– Miya achiganda odamning gapirgisi kelmaydi-da, o‘g‘lim.

– Siz gapiryapsiz-ku?

– Uh!

– Bobojon, odam nega uh tortadi?

Shu yo‘sin Qashqarga borib bir quchoq mayda ko‘chat olib qaytdik.

Dala hovlimiz tog‘ etaklarida bo‘lib, yarim chaqirimcha narida, adir tomonda sahni bir tanobcha keladigan do‘nglik bo‘lguchi edi. Yozda yantoq, shuvoqqa o‘xshash giyohlar o‘sar, qishda agar qalin qor yog‘sa, qishloq hovlimizdan ham tepalik yaltirab ko‘rinib turardi. Ko‘chatni olib kelgach, bobojonim ketmon, dankov, qaylani eshakka yuklab meni ham o‘zi bilan olib ketdi. Olib ketmasa ham bo‘lmasdi, nega desangiz, qumg‘on ostiga o‘t qalab choy qaynatishga juda usta edim.

Hali-hali esimda, erta bahor, yerdan nam ketib ulgurmagan, tuproq ham xamirdek ko‘chib turibdi. Tepalikning kunga betgay tomonida chuchmomalar yerni yorib chiqa boshlagan, havo ham xiyla ayoq bir palla edi. Bobom bir hafta davomida tepalikni gir aylantirib, orasida besh-olti gaz joy qoldirib chuqurchalar o‘ydi. U kishi chuqur kavlash bilan mashg‘ul bo‘lganda men goh o‘tgan yilgi hovhashaklardan yig‘ib, guldiratib olov yoqib yuboraman, goh katta qumg‘onni toshdan qurib yasayotganimiz o‘choqqa qo‘yib, varaqlatib choy qaynataman, goho nima maqsaddaligiga o‘zim ham tushunmagan holda yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga halloslab yugurib terga botaman.

– Kel endi, mana bu ko‘chatni ushlab tur, – deydi ba‘zan bobom.

Ushlab turaman.

– Angrayma, nihol qiyshayib qolyapti, – tanbeh bergan bo‘ladi bobom.

- Qiyshaysa nima bo‘ladi? – deya so‘rayman.
- Nima bo‘lardi, daraxt qiyshiq bo‘lib o‘sadi-da.
- Qiyshiq bo‘lsa yaxshi-ku, ustiga chiqish oson bo‘ladi.
- Unda mevasi bemaza bo‘ladi, o‘g‘lim.
- Nega bemaza bo‘ladi?
- Shohlar bir-birining ustida o‘sib, pastki qismiga oftob tegmay qoladi. Oftob tegmasa mevasi bemaza bo‘ladi, toylog‘im.
- Mevalar mazani oftobdan oladimi?
- Shunday, toylog‘im, oftobdan oladi.
- Nega bo‘lmasa niholchanning bir xillarini yarmigacha yerga ko‘mib qo‘yapsiz?
- Ko‘mmasak ovqat yeyolmaydi-da.
- Iya, – deyman hayron bo‘lib, – ko‘chat ham ovqat yeydimi?
- Yeydi.
- Rostdanmi?
- Rost.
- Og‘ziyam bormi?
- Bor.
- Tishi hammi?
- Tishi ham bor, bo‘talog‘im. Mana shu mayda-mayda tomirchalar, ko‘rmayapsanmi, nihollarning ham og‘zi, ham tishi hisoblanadi. Ana shu tomirchalar orqali nihollar ham suv ichadi, ham ovqat yeydi. Keyin senga o‘xshab unib-o‘sadi. Faqat ular kamroq gapiradi.
- Bobojon, bog‘imizda o‘rik ko‘p-ku, endi qolganini ekmay qo‘yaqolaylik, qishloqqa qaytgim kelyapti, enamni sog‘indim.
- Yo‘q, bo‘talog‘im, hammasini ekib ketganim yaxshi. Katta bo‘lsa, meva qiladi, mevasini odamlar yeb sen bilan meni duo qilishadi.
- Duo qilishsa nima bo‘ladi?
- Savob bo‘ladi-da, buncha ezmalik qilding.
- Savob bo‘lmasa-chi, unda nima bo‘ladi?
- Yo‘q, endi aytmayman.
- Aytasiz, jon bobojon, ayta qoling. Aytmasangiz ko‘knori xaltangizni berkitib qo‘yaman.

– Berkitmaysan.

– Allaqachon berkitib bo‘lganman, hecham topolmaydigan joyga berkitganman.

– Ha, mayli, aytsam ayta qolay, savob olgan kishi narigi dunyoga borganda jannatda yashaydi.

– Bobojon, jannat yaxshimi?

– Yaxshi, o‘g‘lim.

– Biz uyoqqa qachon boramiz?

– Qo‘y, bo‘tam, bunaqa gaplarni aytma.

Shu yo‘sin nihollarni ekib tugatdik. Rahmatli bobom o‘sha yili ham, keyingi paytlarda ham xurjunning ikki ko‘ziga ikki ko‘zani solib tepalikka suv tashigani-tashigan edi. Meni qanchalik suyub erkalasa, nihollarini ham to‘hosilga kirguncha ana shunday erkalagani hali-hali esimda.

Demak, deb o‘ylayman, yigitchalar davrasida o‘tirganimda bobojonim allaqachon olamdan o‘tib ketgan bo‘lsa ham, uning nomi shundayligicha o‘zi ekan nihollariga o‘tib, nihollar qiyofasida hamon yashab kelayotgan ekan-da. Rahmatli daraxt eksang, jannati bo‘lasan, derdi, ehtimol jannati ham bo‘lgandir, arvohi shod-shod uchib yurgandir.

Shularni o‘ylab, quvonchimni ichimga sig‘dirolmay, entika-entika o‘rnimdan turib ketdim. Yigitchalar esa hech narsani o‘ylamay, qo‘shnimizning o‘g‘li o‘rtaga to‘kkan o‘riklardan talashib-tortishib yeb, danagini baquvvat tishlari bilan qarsillatib chaqib, ekkanga ham, yeganga ham rahmatlar aytishib, nima sababdandir xaxolab kulishar edi.

Bobom ekan o‘riklarni ko‘rgim kelib, shoshilib dashtga jo‘nadim.

## ERKACHOLNING KO‘PRIGI

**H**ali aytganimdek, yoshlar davrasida bo‘lganimda har xil mavzu va ma‘nodagi suhbatlar chog‘ida «Erkacholning ko‘prigi yonida», «Erkacholning ko‘prigidan o‘tgandan keyin» deganga o‘xshash so‘zlar tez-tez qulog‘imga chalinib

turdi. Bu ko‘prik hozir quloch yetmaydigan beton ustunlar ustiga uzunligi 10 metr, eniga 6 metr keladigan qumay betonlar yotqizilib, kattakon yuk mashinalari ham bemalol varillab o‘tib ketaveradigan, zo‘r hafsala bilan qurilgan ko‘prik hisoblanadi. Axir bu beton plitalarni rahmatli bobom yotqizgani yo‘qku, u kishining olamdan o‘tganiga necha-necha zamonlar bo‘ldi, yoshlar bobojonimning kimligini bilishmaydi, nega endi ko‘prikning nomini u kishining tabarruk nomi bilan atashyapti ekan, deya bot-bot o‘ylanib qolgan paytlarim ko‘p bo‘ldi.

Bu voqeaga taxminan 60 yillarcha bo‘ldi-yov. O‘sha yili qish erta tushib, qishloq uyimizga ko‘chishga ulgurmay bog‘ hovlimizda qolib ketdik. Avvaliga, qish zaptiga olib, qorbo‘ronlar bilan kelib hammayoqni muzlatib ketdi-yu, keyin darmoni qurib qoldi shekilli, bo‘shashib yiltirab oftob ham chiqa boshladi. Kech payti edi, barkashdek quyosh sarg‘ayib botayotgan daqiqalar. Bobom ikkimiz iliqqina oftobchuvoqda savatdagi chala mayizdan tergilab yeb o‘tirgan edik. Bir ayol qo‘lida chaqalog‘i, egni-boshi ho‘l, hu-hulab, dildirab kirib keldi. Chaqalog‘ini tabibga ko‘rsatgani borgan ekan. Dahanasoydan o‘tayotganida muz yorilib, suvga pallom bo‘lib tushibdi. Kech bo‘lib qolgani uchun olisdagi ko‘prikka bormay qo‘ya qolgan ekan. Aytuvdim shekilli, bog‘imizdan bir chaqirimcha narida soy oqadi. Suv goh ko‘payib, goh ozayib turganidan uni Tentaksoy ham deyishar edi. Hozir kelgan opa ana shu soyga yiqilib tushibdi. Enam rahmatli o‘choqqa guldiramazon qilib o‘t yoqib yubordi. Opani yechintirib chaqalog‘i bilan sandalga o‘rab qaynoq-qaynoq asal choy ichira boshladi.

Ertasiga bobom barvaqt uyg‘otdi, birga namoz o‘qiysan, bilmasang ham mayli, yonimda dumalab tursang bas, deb hamisha shunday qilardi. Bomdoddan so‘ng soy bo‘yiga jo‘nadik.

- Ko‘prik quramiz, – dedi bobom.
- O‘zimiz quraveramizmi? – deb so‘rayman.
- Ha, o‘zimiz quramiz.

– Men ham quramanmi?

– Sen ham qurasan, bo‘talog‘im, sen bo‘lmasang ishlay olmayman.

– Keyin men ham jannati bo‘lamanmi?

– Xudo xohlasa, jannati bo‘lasan.

– O‘sha yerda ham birga bo‘lamizmi? – deb so‘rayman yana. Nega desangiz, bobomsiz bir daqiqa ham vaqtimni tasavvur qila olmas, otam ham, onam ham, birga o‘ynaydigan o‘rtog‘im ham bobojonim edi.

– Xudo xohlasa.

– Enam-chi?

– Uyam.

– Buvijonim-chi?

– Aytdim-ku, hammamiz birga bo‘lamiz, deb.

Men jannati bo‘lishni juda-juda xohlardim. Enajonimning aytishicha, u yerda hamma narsalar mo‘l-ko‘l bo‘lar ekan. Ariqlarda suv o‘rniga sharbatlar sharqirab oqar ekan, savat-savat popukli qandlar shundoqqina yo‘lning chekkasida turar ekan, anvoyi gullar ochilib, sayroqi qushlar chaqchaqlashib turar ekan. Bolalar o‘ynaydigan o‘yinchoqlar: zuvulloq, ipakdan to‘qilgan koptok, mix soladigan oltin qutichalar, qush ovlaydigan, tortilishi oson rezinka cho‘zmalar shundoqqina qo‘l yetadigan joyda turar ekan, u yerda alvasti, jinlar hech ham bo‘lmas ekan.

– Xo‘sh, o‘g‘lim, qani ayt-chi, ko‘prikni mana shu yerga qursak bo‘larmikan? – deb so‘radi bobom soyning torroq joyini ko‘rsatib.

– Bo‘ladi! – dedim shoshilib.

– Yo‘q, bu yer xiyla keng ko‘rinadi, yana ham torroq joyni topaylik, – o‘ylanib turib dedi bobom.

– Mayli, torroq joyni topa qolaylik, – dedim men ham o‘ylanib turib. Nega desangiz, men shu daqiqalarda yupqagina muz bilan qoplangan soyga tikilib baliqlar suv ostida qolib ketgan bo‘lsa, sovqotmasmikan, qorong‘u tushganda qayerda uxlashar ekan, deya xayol surayotgan edim.



– Yo‘q, avvalgi tanlagan joyimiz ma‘qul ekan, – dedi bobom orqaga qaytib.

– To‘g‘ri, bobojon, o‘sha yer ma‘qul, – deb tasdiqladim.

Qaytsak enajonim zog‘ora non yopib, savatga yoyib, ustiga bo‘z dasturxon yopib qo‘ygan ekan. Bug‘i ko‘tarilib ishtaha qo‘zg‘aydigan hidi uyni qoplab ketibdi. Enajonim non yopsa, menga atab jizza va oshqovoqlar solib xitoy piyolaning og‘zidek kulchalar yopib berar edi. Bu gal ham shunday qilibdi. Enajonim-ey, biram yaxshi ko‘ramanki u kishini, mazza qilib nonushta qildik. Keyin bobojonim ikkimiz dastarra, oybolta, o‘tkir teshamizni olib bog‘imiz etagidagi terakzorga jo‘nadik. Enajonim:

– Hoy, nima qilasiz, bolani sovuqda qiynab, tanchada yotsin, – deya iltimos qilgan bo‘ldi.

– Gangir-gungir ishlaymiz-da, – deb qo‘ydi bobom.

Men ham yurishdan to‘xtab:

– Ena, biz gangir-gungir ishlamoqchimiz, – deb qo‘ydim.

Hov birda aytuvdim shekilli, men ana shu chakalak bo‘lib o‘sadigan terakzorimizdan judayam qo‘rqaman. Butalar orasida ajina, alvastilar berkinib yotadi. Bir marta Sanambuvi ikkovimiz o‘sha tarafga o‘ynagani borganimizda alvastining buvisini ko‘rganmiz. Malla sochlarini yozib, mammalarini tizzasiga osiltirib, bolalarini o‘ynatib o‘tirgan ekan, shataloq otib qochib qolganmiz.

Bobojonim o‘tkir oyboltamiz bilan terak kesishga tushdi. Men u kishining, qo‘y, xalaqit berasan, deyishiga ham qaramay ikki qo‘llab terakning silliqqina, muzdakkina tanasidan narigi tomonga itarib turdim.

– Bobojon, – deyman goho, – bolta urganingizda terak nega qaltirab ketyapti?

– Joni og‘riydi-da, – deb qo‘yadi bobojonim.

– Voy, uniyam joni bormi?

– Bo‘lmasam-chi, taq-taq deb ovoz beryapti-ku.

– Taqillagani yig‘laganimi?

– Ha, yig‘lagani. Tegma-tegma, deb yig‘layapti-da... ana, ko‘zidan yosh ham oqyapti.

- Bo‘lmasa kesmay qo‘ya qolaylik, jon bobojon.
- Kesmay ko‘prik qurolmaymiz, ko‘prik qilmasak odamlar soydan o‘tolmay, suvga yiqilishyapti. Teraklar ko‘prik bo‘lishini bilganda yig‘lamasdi. Aslida ular men ko‘prik bo‘laman, men uylarga yog‘och bo‘laman, men terakman, kerakman, deb o‘shihadi.
- Voy, teraklar ham gapiradimi?
- Gapiradi, o‘g‘lim.
- Mana bu niholchalar uning bolalarimi?
- Ha, bolalari.
- Unda onasi qaysi?
- Shu kesayotganimiz – onasi-da...
- Dadasi-chi?
- Hu anavi yo‘g‘oni, qat-qat po‘sti bor-ku, ana o‘sha dadasi bo‘ladi. Endi, o‘g‘lim, nariroq tur. Xalaqit beryapsan.
- Ikkovlari er-xotinmi? – deb so‘rashda davom etaman.
- Ha, ikkovlari er-xotin bo‘lishadi.
- Bobojon, enam sizning xotiningiz bo‘ladi-a? – deb so‘rayman yana.
- Ha, xotinim bo‘ladi, – deb qo‘yadi bobom.
- Bir nafas jim turaman-da, yana so‘rayman:
- Bobojon, katta bo‘lsam menga ham xotin olib berasizmi?
- Olib beraman, toylog‘im, albatta, olib beraman, – bobom qaddini rostlab chuqur-chuqur entikadi. Negadir, bir daqiqagina ma‘yuslanib qoladi, xo‘rsinadi, – xudo xohlasa katta to‘y ham qilib beraman, karnaylar chaldiramiz.
- Lekin, bobojon, menga Sanambuvini olib bermaysiz, xo‘pmi?
- Nega unday deysan. Sanambuvi yaxshi qiz-ku.
- Hecham-da, u doim meni aldaydi. Ko‘zingni yumib tursang qiziq o‘yin ko‘rsataman deydi-da, ko‘zimni ochsam cho‘ntagimdagi jiydalarimni olib qo‘ygan bo‘ladi.
- Kimni olasan, bo‘lmasa?
- Bir oz o‘ylanib turaman-da:
- Yo‘q, endi hech kimni olmayman, – deb qo‘yaman.

Shu yo'sin suhbatlashib to'rt tup terak yiqitdik. Bobojonim har gal daraxt yiqilganda guppi choponini taxlab ustiga tashlaydi-da, o'tirib, kel endi, bir nafas dam olaylik, deya ko'zlarini chirt yumgan ko'yi ancha mahal jim qoladi. Men bo'lsam o'li tomondan borib barmoqlarim bilan soqolini mayin-mayin tarashga tushaman. Anuv kuni aytganimdek, mening bu mashg'ulotim bobojonimga juda-juda xush yoqadi. Charchog'imni sidirib olyapsan, barakalla, deya duo qilib turadi.

Teraklarni butab, uchini kesib, ikkita-ikkitanidan bog'lab xuddi xurjun yuklagandek qilib ko'k eshagimizga ortib soy bo'yiga tashib oldik. Tashiyotganda men judayam mazza qildim. Nega desangiz men eshakda, bobojonim teraklarning uch tomonini qo'ltig'iga olib orqada borar, tezroq hayda, kech qolyapmiz, deya menga yolvorar, u kishi yolvorgan sari men huzur qilardim. Yog'ochlarni soy ustiga tashlayotganda bobojonim bilan avval arazlashib, keyin chinakamiga urishib qoldik. Avvalgidek ikki terakni eshakka yuklab ikki yoniga osiltirib, men ustida, qo'nji uzun rezinka etik kiyib olgan bobom ortda muzlarni g'arch-g'urch sindirib, shaloplatib suv kechib o'tayotgan edik, ko'k eshagim suvning qoq o'rtasiga borganda to'rt oyog'ini yerga tirab, dir-dir qaltiragancha tek turib qoldi. Yog'ochlarning uch tomonini ko'tarib olgan bobom:

- Hayda tezroq, qo'lim tolib ketdi, - deya ovoz berdi.
- Haydayapman-ku, - deya qichqirdim.
- Xala qil, qattiqroq qil.
- Qilyapman, mana, mana!

Yozda gajava savatlarga uzum ortib bozorga ketayotganimizda mana shu qaysar eshagim suv o'rtasida yotib olgani esimga tushdi-yu, qo'rqib ketdim. O'shanda uzumni qaytarib uyga olib kelgandik. Shuni eslab qo'rquvim oshib eshagimning dumg'azasidagi o'siq junlaridan jonjahdim bilan tortqilay boshladim. Eshak orqa oyoqlarini osmonga otib shunday bir silkindiki, shunday silkindiki,

yog'ochlar bog'langan arqon uzilib, ikkovi ikki yonga shaloplab tushdi. Ikki qo'llab to'qimiga mahkam yopishib olgan edim, baribir bo'lmadi, narigi qirg'oqqa o'tar-o'tmas o'zim ham shag'alga gupillab tushdim...

Bechora bobom eshakni tutib kelguncha ancha ovora bo'ldi. O'zim bo'lsam huv nariga borib olib hiqillab yig'lab, uzoq-uzoqlarga qochib ketsam-chi, buvijonim qayerda hozir, o'shaning oldiga borib issiq bag'riga boshimni qo'yib arz-dod aytsam-chi, deya o'ylarga berilib, o'zimni ovutish uchun bo'lsa kerak, tinmay soyga tosh otardim.

Bobojonim eshakni tutib kelgach, soyning narigi yuziga olib o'tib tutga bog'ladi-da, guldiratib olov yoqib yubordi. Rezinka etigini yechib, ho'l bo'lgan paytavalarni quritib, goho-goho men tomonga tanbehli nazar tashlab qo'yar, lekin negadir hech ham gap qo'shmas, mening esa olovga qo'llarimni toblab juda-juda isingim kelardi. Alam qildi, hech chidab turolmadim. O'rnimdan irg'ib turib:

– Endi senga hech ham o'g'il bo'lmayman! – deya qichqirdim.

– Bo'lmasang, bo'lmay qo'yaqol, – qo'l siltadi bobom.

– Ahmadqul bobomga o'g'il bo'laman, bildingizmi?

– Bo'lsang, bo'laqol.

Bog'qo'shnimiz Ahmadqul bobomnikiga mehmonga chiqqanimizda meni tizzasiga olib: «Shu Erkacholga o'g'il bo'lib nima naf ko'rasan, undan ko'ra menga o'g'il bo'lgin, har yakshanba bozorga olib borib popukli qand, qush bo'lib sayraydigan hushtak, chamandagul do'ppilar olib beraman», degan edi. O'sha gap esimga tushdiyu:

– *Erkachol,*

*Jinni chol,*

*Erkachol,*

*Shinni chol,*

– deya alam bilan irg'ishlay boshladim.

Bobom o'rnidan turib ikki qo'lini keng yozib:

– Kel, o‘g‘lim, yarasha qolaylik, – deya shaloplab suv kechib men tomonga kela boshladi, – ayb senda emas, mana bu hayvonda. Yemni ko‘p yeb quturib ketibdi, endi unga hecham yem bermaymiz.

Shuni kutib turgan edim. Jon-jon deb bobomning yelkasiga chiqib, qo‘limni bo‘ynidan o‘tkazib oldim. Meni chirsillab uchqun chertib yonayotgan olov yoniga o‘tqizib bobomning o‘zi suv kechib kesilgan teraklarni soyning ustiga tashladi. Qadam bosganda silkinib ketmasin deb bo‘lsa kerak, uch-to‘rt joyiga ko‘ndalang taxta tashlab mix qoqdi. O‘sha mixlar meniki edi. Men umuman mixni yaxshi ko‘raman, nega desangiz, teshaning orqasi bilan yengil ursangiz ham yerga lopillab kirib ketaveradi. Ko‘prik bitgach, bobom ikkimiz uyog‘-buyog‘iga o‘tib ko‘rdik, o‘rtasida turib olib silkindik.

– Zo‘r-a? – dedi bobom.

– Zo‘r! – deb qo‘ydim men ham.

– Sen bo‘lmasang, toylog‘im, baribir bitkazolmasdim.

– To‘g‘ri, bobojon, baribir bitkazolmasdingiz, – dedim eshakning orqasiga mingashayotib...

Keyin bobojonim qattiq kasal bo‘lib, qish chiqquncha yotib qoldi. Ahmadqul bobom asal keltirib oyoqlariga surtar, uqalar, enajonim har oqshom sutga asal qaynatib ichirar, xolam hidini men yoqtirmaydigan g‘alati-g‘alati dorilar keltirib badaniga surtar edi. Goho enajonim:

– Savob olaman deb shu sovuqda muz kechish shartmidi, – deb tanbeh berar, bobom bo‘lsa:

– Shart edi, – deb qo‘yar edi.

– Xudo ko‘rsatmasin, biron narsa bo‘lib qolganingizda men nima qilardim, o‘ylamadingizmi?

– O‘yladim. Sochingni yulib rosa yig‘larding.

– Hech odam bo‘lmadingiz-bo‘lmadingiz-da.

– Sen odam bo‘lsang ikkovimizga ham yetadi, – miyig‘ida kulib qo‘yadi bobojonim. Men shartta o‘rnimdan turamanda:

– Enajon, siz odam bo‘lsangiz uchovimizga ham yetadi, – deb qo‘yaman.


Keyinchalik bozor-o'charga, tegirmonga qatnaydigan odamlar shu to'rt yog'ochdan yasalgan ko'priikka «Erkacholning ko'prigi» deb nom berishdi. Hozir ko'priik ustida turib, ana shu voqealarni eslab ketdim.

## BETOBLIK

**B**obojonim ikki-uch kundan keyin butunlay yotib qoldi, shunday qattiq kasal bo'ldiki, bilmadim, og'riqning zo'ridanmi, haroratning balandligidanmi, o'zidan ketib qolgan paytlari ham ko'p bo'ldi.

– Otajon! – deydi goho enajonimni chaqirib. Aytganday, sizga aytaman deb yodimdan chiqib qolibdi, bundan bir necha yillar oldin qo'rboshilar zamonida Otajon tog'am bilan Olimjon tog'amlarni shapka kiygan askarlar qo'llarini orqasiga bog'lab, yerga cho'kka-latib qo'yib, peshonalaridan otib tashlashgan ekan. O'shanda askarlar shu qishloqni bizga berasan, deyishibdi. Tog'amlar, yo'q, bermaymiz, deyishibdi. Bo'lmasa, qishloqning yarmini berasan, deyishibdi, tog'amlar bermayman, deyishibdi. Otimizga besh arava beda, uch arava yem berasan, deyishibdi. Tog'amlar anavi kuni berdik-ku, deyishibdi. Askarlar yana berasan, deyishibdi. Tog'amlar endi hech narsa qolmadi, qishloq qup-quruq deyishibdi. Unda miltiqni qayerdan olganingni aytasan, deyishibdi. Tog'amlar aytmaymiz, deyishibdi. Shundan so'ng peshonalarini mo'ljallab turib varanglatib otib tashlashgan ekan. O'shanda enajonim ham, bobojonim ham rosa yig'lashgan ekan. Shunday yig'lashibdiki, ko'zlaridan oqqan yosh Dahansoydagi suvdan ham ko'p bo'libdi. O'shandan beri ikkovlari bir-birlarini katta tog'amning nomini aytib chaqirishar ekan. Tog'amlar narigi dunyoda tirik yurishgan bo'lsa, xayriyat bizni eslashyapti, deb xursand bo'lishsa kerak-da.

– Otajon! – deydi goho bobom yoninginasida o'tirgan enamni chaqirib.



– Shu yerdaman, – deb qo‘yadi enajonim.

– Sandaling sovib ketdi-ku!

– Yo‘g‘-ey, lovillab turibdi. Hozirgina olov soldim. O‘rik o‘tindan ataylab yoqqan edim, – tushuntiradi enam, – Xudo xohlasa, terlaysiz, o‘rik o‘tinining xosiyati ko‘p deyishadi. Terlasangiz, darddan qutulasiz.

– Qo‘lingni peshonamga qo‘y...

– Kaftim peshonangizda turibdi-ku.

– Sezyapman, Otajon, sezyapman.

Yana jim bo‘lamiz. Men ko‘kragimgacha ko‘rpani tortib yonboshlab, o‘choqdagi asta-sekin so‘nib borayotgan olovga tikilib o‘y surib ketaman: olov nega oldin yonib, keyin o‘charkin, yonganida nega qip-qizil bo‘lib ko‘rinadiyu o‘chganda yo‘q bo‘lib qolarkan? Yo o‘sha qizilligi tuynukdan osmonga chiqib ketarmikan, hamma tuynuklardan olov chiqaversa, osmon kuyib ketmasmikan yo bari to‘planib quyoshga aylanarmikin, ehtimol, tunda ko‘ringan yulduzlar o‘choqlardan ko‘tarilgan qizil olovlardir?..

Tashqari qorong‘i, juda qorong‘i. Sandal ustiga osganimiz yettinchi chirog‘imiz miltillab yonadiyu baribir, chorxari uyimizni yaxshi yoritolmaydi. O‘choqdagi qizil olovni chirog‘imiz shishasiga joylaganimizda eh, qanday soz bo‘lardiya? Uyimizda quyosh porlab turardi... Bo‘ldi, ertaga enam qo‘shnikiga chiqib ketganda shishaning ichiga olov yoqib ko‘raman, qog‘oz yoqaman, yoqaman, qog‘oz tez yonadi, uning olovi ham ko‘p...

– Enasi, – deb ingraydi bobojonim, – shu yerdamisan, hay, dunyo shunaqa ekan-da, kelgan odam baribir bir kun ketarkan-da.

– Unday demang, – deydi enajonim yolvorib, – odamning yuragiga vahima solyapsiz. Isitmangiz yana ko‘tarildi shekilli. Hozir peshonangizga latta ho‘llab bosaman.

– Yo‘q-yo‘q, o‘tir... Yonginamda o‘tir, baribir, issiq jon bor joyda qazo ham bor. O‘tir, gapirib olay, – bobojonimning nursizlanib qolgan ko‘zlarida miltillab yosh ko‘rindi. – Xudoga shukur, umr berdi, rizq berdi, obro‘ berdi... faqat

farzandlarimdan erta judo qildi-da. Arslonday yigitlar edi-ya! Har yelkasida bittadan odam o'tiradigan pahlavon yigitlar edi-ya, o', zolimlar, o', zolim zamona... Senga qiyin bo'ladi, onasi, yolg'izlik yomon... Rahmonberdi, yaxshi o'g'lim, qayerdasan, beriroq kel, qani, qo'lingni menga uzat-chi.

Men shosha-pisha bobojonimning yoniga o'tib, paypaslab qo'lini ushlayman. Issiq, bilch-bilch terlab ham turibdi... Nima deyishimni bilmayman, juda yaxshi gap aytgim keladi, ammo o'sha gapni topolmayman. Boshimni asta ko'ksiga qo'yib, xush yoqarmikan, deya nam barmoqlarim bilan soqollarini ohista-ohista silay boshlayman.

– Barakalla, o'g'lim, – entika-entika qiynalib so'zlaydi bobojonim. – Qo'llaring biram yoqimlikli... Enajoningni yolg'iz tashlab ketmagin, lekin ko'priknini boplab qurdik-da... Hay, jon bor joyda o'lim bor, roziman, hammasiga roziman. Qani, azamatim, enajonimni yolg'iz tashlab ketmayman, deb menga so'z ber-chi.

– Bobojon! – dedimu yig'lab yubordim.

– Hoy, Otajon, qo'ying bu gaplarni, – yana yolvordi enam, – bolamning yuragiga qo'rquv solib nima qilasiz? Isitmangiz ko'tarilib ketdi shekilli, alahlayapsiz. Xudo xohlasa, ertalabgacha tuzalib qolasiz.

– Ha, onasi, umrimning aziz yo'ldoshi, yaxshilik uchun tug'ilgan ekansan, sendan nuqul yaxshilik ko'rdim, ammo qaytarolmadim. Mayli, mayli... Rahmonberdi o'g'limni, bu azamatimni o'gaylar qo'liga topshirib qo'ymagin, o'gay aka-ukalar, o'gay ota, begona hovli... Mung'ayib qoladi-ya. O'zing bag'ringda olib yurgin... O', zolimlar, o', zolim zamona... Nasriddinboyning nabirasi bo'ladi-ya bu o'g'lim. Otasini quloq qildilar, boyligini tortib oldilar, kaltakladilar, qamadilar, oxiri yigirma bir yoshida o'ldirdilar. Mayli, toylog'im, shularni sen bilib ol. Hoy, miltiqni ber menga, otaman, hammasini otaman. Ana, o'g'illarim kelyapti, miltiq molxonada, ustiga xashak tashlab qo'yganman...

Bobojonim o'rnidan turib ketdi. Enam ham turib uni mahkam quchoqlab oldi. Nima qilishimni bilmay qoldim.



Yig'lay deyman-u, yig'i kelmayapti. Chiqib qo'shnilarimizni chaqirib kelay desam, ko'cha qop-qorong'i, zimiston. Men qorong'idan juda qo'rqaman. Nega desangiz, ajinalar qorong'ida qari daraxtlarning ortiga berkinib olib, ko'zlarini lo'q qilib qarab turishadi. Faqat bizning hovlimizda yo'q, xolos. Enam har xil duolar o'qib ularni uzoq-uzoqlarga haydab yuborgan. Enajonim «La ilaha illollohu» degan duoni o'tgan yili qishda menga ham o'rgatib qo'ygan-u, baribir o'sha duoni o'qiyotganimda ham ko'zimga ajinalar ko'rinayotganday bo'laveradi.

Men ham o'rnimdan turib bobojonimning qoqsuyak bo'lib qolgan oyoqlaridan mahkam quchib:

– Bobojonim, yo'q, o'lmaysiz, hecham o'lmaysiz, – deya dodlab yubordim, – siz o'lsangiz, enam ikkimiz ajinalardan qo'rqamiz, askarlar bizni paq-paq qilib otib tashlashadi.

– Yoting endi, yota qoling, – bobomni o'rniga yotqizishga urinardi enam, – xudo xohlasa, hammasi joyida bo'ladi. Ertaga chilyosin o'qitamiz, qo'y so'yib xudoyi qilamiz.

Bobojonim entika-entika o'rniga cho'zildi. Cho'zildi-da, menga xuddi birinchi bor ko'rayotganday, ko'rsa ham taniyolmayotganday uzoq tikilib qoldi. Enam sandaldan olov olib, isiriq tutata boshladi. Hali rasmana tutab ham ulgurmagan edi, ko'cha eshigimiz taqilladi. Kim bo'ldi ekan? Ehtimol Zahro xolamdir? Bobom betob bo'lgandan buyon xabar olgani faqat qorong'i tushganda keladi, ovqati kechga qolar emish... Kim bo'lsa ham kelgani yaxshi bo'ldi, deb o'yladim-da, kavush kiygani toqatim chidamay, yalangoyoq hovliga otildim. Enajonim doim bemahalda ko'cha eshikni ochishdan oldin kim ekanligini so'ra, begona bo'lsa, ochma, deb o'rgatardi. Hozir o'sha o'rgatgani esimdan chiqib qolibdi. Ikkala qanotini sharaqlatib ochib yubordim. Xayriyat xayriyat-ey, Ahmadqul bobom ekan. Ahmadqul bobo, deb oyoqlaridan mahkam quchoqlab yig'lab yubordim.

– Ie -ie, nima bo'ldi, boyvachcha o'g'lim, – qulog'imgacha engashib so'radi Ahmadqul bobom.

– Bobojonim, o'lib qolyapti, – deya battar yig'ladim, – o'laman, sizlar yolg'iz qolasizlar, dedi. Hozir aytdi shu so'zlarni.

Ahmadqul bobom qiyiqda bir narsa tugib kelgan ekan, ushla-chi, deya uzatdi-da, meni bir chekkaga surib o'zi ichkari hovlimizga jadal kirib ketdi. Enajonim bemahalda ko'cha eshik hech ochiq qolmasin, deb o'rgatardi. O'sha esimga tushib berkitib, oldin zanjirni osdim, keyin tanbasini ham tirab qo'ydim-da, qani, qiyiqda nima bor ekan, deya ochib ko'ra boshladim. Anor, uzum, voy qanday yaxshi-ya, oh-oh, husayni uzum kirsillab turibdi, deng. Uch-to'rt donasini darrov og'zimga solib kirsillatib yeb oldim. Shu bobom o'zi yaxshi-da, yo'q-yo'q, uzum olib chiqqani uchun emas, uzum o'zimizda ham bor, menga o'xshagan bolalarni suygani, erkalagani uchun yaxshi. Hovlilarida o'ntacha bola bor. Men kirsam, o'n bitta bo'lamiz. Hammamizning cho'ntagimizni to'ldirib yong'oq solib beradi. Bir marta enam ikkovimiz mehmonga chiqqanimizda, Hayitvoy bilan meni kurashtirib, kim zo'r chiqsa, o'shani yelkamga mindiraman, dedi. Ikkovimiz tengdaniga gupillab yiqilgan edik, ikkovimizniyam yelkasiga mindirib, yumshoq kigiz to'shalgan uyda ot bo'lib kishnab, oyog'ini osmonga otib, bizni rosa qiqirlatib kuldirgan. Goho ko'chada o'ynab turganimizda o'tib qolsa:

*Pakana bobo,  
Chakana bobo,  
Chakana bobo,  
Mayiz bobo,  
O'rik bobo,*

– deb masxara qilsak ham, hu senlarni, hozir quloqlaringni kesib olmasammi, deydi-yu, qulog'imizni ikki qo'llab berkitib qochganimizda orqamizdan quvlamaydi, kulib turaveradi. Uzoqqa borib olib yana:

*Anor bobo,  
Behi bobo,  
Qovoq bobo,*

### *Tovoq bobo,*

– deb irg‘ishlaymiz. Nega desangiz, shu bobomiz chindan ham pakana, bo‘yi qishlog‘imizdagi hamma bobolarnikidan past, yoniga pichoq osib yuradi-yu, o‘sha pichoqning qini tovoniga tegib turadi.

Meva tugilgan qiyiqni qaytadan bog‘lay olmay, shundayligicha ko‘tarib ichkari kirsam, Ahmadqul bobom o‘zimning bobomning o‘ng tomoniga o‘tirib, chap qo‘lini uning peshonasiga qo‘yib, enamga qarab gapirayotgan ekan:

– O‘rtog‘imning tobi qochib qolganini ertalab eshituvdim. Ana chiqaman, mana chiqaman, deyman, qayda. Endi jo‘nayotgan edim, kampir picha o‘tin yorib bering, deb qoldi... Ol, o‘g‘lim, uzumdan yeyaver, senga olib chiqdim, – Ahmadqul bobom, o‘zim mo‘ljallab qo‘limni cho‘zsammi-cho‘zmasammi deb turganimda, katta bir boshni menga uzatdi. Yana so‘zida davom etdi: – O‘tinni yorib bo‘lib, mollarga xashak ham solib qo‘ya qolay deb og‘ilxonaga kiruvdim, ana bu xushxabarni qarang, katta qashqa qo‘yimiz tug‘aman deb turibdi-ya!

– Eson-omon qutulib oldimi, axir?! – shoshilib so‘radi enajonim.

– Yaratganga shukr, – dedi Ahmadqul bobom ikkala qo‘li bilan soqolini silab, – yana tag‘in egizakligini aytmay sizmi!

– Voy xudoyim-ey, – xursand bo‘ldi enam.

– Ikkoviyam erkak deng!

– Xudo beraman desa shu-da.

Enam o‘rnidan turib, o‘choqqa o‘t qalay boshladi. Ahmadqul bobom bir narsalarni pichirlab, yakka o‘zi fотиha o‘qidi-da:

– Obbo o‘rtog‘-ey, burgaga teptirib olibsan-da! – deb so‘radi bobojonimdan.

– Imm-mm, – deb qo‘ydi bobom.

– Lekin, o‘rtoq, o‘laman deb mana bu o‘g‘limni chakki qo‘rqitibsan, hali-veri o‘lmaysan, seni o‘linga topshirib qarab turmaymiz, rahmatli otang Hojimat amakim sakson yoshida ham uloq chopardi, otning belini bukib yuborardi, to‘qson

yoshida boqqa chiqib kunda kavlardi. Seni qara-yu. Yetmishga kirar-kirmas o'laman, debsan-a. Sen o'lsang, Robiyabibining ahvoli nima bo'ladi, mana bu ko'zini mo'ltillatib turgan boyvachcha o'g'limni kimga qoldirib ketmoqchisan? Men-chi, sensiz, bilib qo'y, o'rtoq, bir kun ham yashay olmayman... Ha, o'sha seni... Boshingni ko'tar, mana bu uzumdan yegin, esingdami, ko'chatini o'zing beruvding.

Ahmadqul bobom uzumdan bir boshini olib, donalab bobojonimga yedira boshladi. Men sanab turdim, bir, ikki, uch... Enajonim dasturxonga non, o'zimizning mevalarimizdan qo'yayotganda adashib ketdim. Ahmadqul bobom soqolini silkitib kulib yubordi:

– Kelin, eringiz bolaligidayam erka edi, bekorga otini Erkavoy qo'yishmagan, yiqilib tushsa, men kelib turg'azib qo'ymaguncha arillab yota berardi. He-he-he... Obbo o'rtog'im-ey, ana ko'zingni ochding.

Bobomning orqasiga baland qilib katta-kichik yostiqlar qo'yishdi.

– Ha, o'rtoq, istimang baland ko'rinadi, – dedi Ahmadqul bobom.

– Bor, ancha bor, – entikib dedi bobom.

– Anordan ham yegin, diling ravshan bo'ladi.

– Mayli, bera qol.

– Obbo o'rtog'-ey, lekin ko'prikni boplabsan.

– Ko'rdingmi?

– Bugun Buzuqqo'rg'onga boruvdim, tegirmonga yuk tashlab keldim.

– Eshakdamiding?

– Ha.

– O'tdimi?

– Tushib yetaklab oldim... Savobga bizni sherik qilishni istamabsan-da? Ho', Ahmadqul, deb chaqirmaysanmi, oltita nabiram, to'rtta o'g'limni olib yoningga bormaymanmi?! Suvga yiqilibmiding?

– Ha, bir-ikki yiqiluvdik.

Enajonimning yuragi hasratga to'lib turgan ekan,

dasturxon tuzab bo'lgach, Ahmadqul bobomga choy uzata turib, dardini o'sha kishiga ayta boshladi: – O'rtog'ingizni urishib qo'ying. Xo'p, o'sha kuni-ku suvga yiqilib shalabbo bo'lib keldilar, avvalgi kuni bizni yana aldabdilar. Nabiram ikkimizni qishloqqa jo'natib yuborib, yana ikki tup terak kesib ko'priklari yoniga qo'yib, kengaytiribdilar. Mol-qo'y o'tolmas emish... Mol-qo'y o'tolmasa, shuncha yildan buyon o'lib qolgani yo'q-ku? Mana, endi ahvollarini qarang, o'laman-u, ketaman, emish.

– Qo'ying, Robiyabibi, yig'lamang, – yupatgan bo'ldi Ahmadqul bobom, – o'zi o'rtog'imning yili to'ng'izu, lekin baliqqa o'xshab suvni yaxshi ko'radi. Bolaligidayam shaloplastib suv kechgani-kechgan edi. Do'xtirga odam jo'natmabsiz-da.

– Koshki ko'na qolsalar, – yana ko'ziga yosh oldi enajonim, – o'zi bergan dard, o'zi oladi deb unamayptilar.

– Hoziroq borib boshlab kelaman.

– Voy qo'shni, bemahalda ovora bo'lasiz-ku.

– E, Robiyabibi, o'rtog'im bu ahvolda ingrab turadi-yu, men tinch yota olamanmi?

– Do'xtir ham darrov ko'na qolmas, – ikkilanib dedi enajonim.

– Ular kechasi xizmat qilishni xush ko'rishadi, savobi ko'p bo'larmish.

Ahmadqul bobom piyoladagi sovib qolgan choyni katta ho'plab, tanchaga qo'lini tirab o'rnidan turdi-da, meva tugib kelgan gul tikilgan chorsisini beliga bog'lab, chiqib keta boshladi.

– Qishloqqa bo'ri oralagan deyishadi, – xavotirlanib dedi enajonim.

Ahmadqul bobom ostonada to'xtab soqolini silkitib kuldi:

– E, Robiyabibi, pakana odamning go'shti bemaza bo'ladi, bo'ri bizdaqalarga tegmaydi.

Enam, bobojonim o'lib qolsa, biz nima qilamiz, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak. Men ham o'ylay boshladim. Avvaliga nima haqida o'ylashni bilmay turdim. Keyin do'xtirlar yaxshi-a, o'layotgan odamlarni qutqarishadi, katta

bo'lsam, men ham do'xtir bo'laman, qo'rg'onchamizda o'ttizgacha cholbobo bor, hech birini o'ldirgani qo'ymayman, hammasidan bobojonim yaxshi, o'lmasin, o'lmasin, o'lmasin... Odamlar nega o'larkin, o'lgandan o'lmagan yaxshi-ku, o'lgandan keyin go'rda tirilib qolsa, nafasi qaytib qolmasmin, deya ana shular haqida o'ylay boshladim... Keyin uxlab qolibman.

Bir mahal g'alati-g'alati ovozlar qulog'imga kirib uyg'onib ketdim. O'choqqa guldiramazon qilib olov yoqishibdi, yantoq qalashgan ekan, alangasi uyni yoritib yuborgan. Do'xtir amaki kepti. Oti Dehqon shapka, doim soyaboni katta shapka kiyib yuradi. Meni ko'rib qolmasin, deb darrov yuzimga ko'rpani tortib oldim. Nega desangiz, ko'chadan shoxdor jinaravasini minib o'tganda ko'chamizdagi bolalar to mozorboshigacha orqasidan yugurib, ko'chani changitib:

*Dehqon shapka,  
Tushunmaydi gapga,  
Kechasi o'ngga,  
Kunduzi chapga,  
Bo'ynida xalta,  
Qo'lida papka,*

– deb masxara qilib borardik. Anavi kuni qor yog'ayotganida jinaravasini Dilijonlarning ko'cha eshigi oldiga qo'yib, ichkari kirib ketgan ekan, bolalar damini chiqarib, g'ildiragini yurmaydigan qilib qo'yishdi. Chiqib hammamizni rosa quvladi, meniyam quvdi. Men dodlab qochdim... Hozir tanib qolsa-ya, bobojonimga aytib bersaya?.. Yo'q, baribir chidab turolmadim, ko'rpani ozgina ko'tarib mo'ralay boshladim. Bobojonimni o'tqazib, oq kuylagini tomog'ining tagigacha qaytarib qo'yibdi. Choynakning qopqog'iga o'xshash o'yinchog'i bor ekan, o'shani qorniga qo'yib ko'ryapti.

- O'pka toza, – dedi Dehqon shapka amaki.
- Xudoga shukr, – deb qo'ydi bobojonim.

- Bu yerda og‘riq yo‘qmi?
- Yo‘q shekilli.
- Bu yerda-chi?
- Sezmayapman.
- Demak, jigar-buyraklar toza. Obbo amakim-ey, shunday qilib, suvda ikki-uch bor cho‘milib oldim, deng.
- Ha, endi... yoshlik o‘tib ketgan ekan...
- Endi oyoqlarni ko‘ramiz, uzating.
- Voy-voy, – bobojonim sal bo‘lmasa o‘rnidan turib ketayozdi.
- Nima bo‘ldi?
- Og‘riyapti, do‘xtir bolam. Ko‘zim joyidan chiqib ketay deyapti.
- Bunisi-chi?
- Voy, astaroq, jon bolam, astaroq.
- Ana, aytmadimmi, – dedi Dehqon shapka amaki, Ahmadqul bobomga qarab, – ikkovi oyoqlarini, tomiru suyaklarini bab-barobar shamollatganlar. Isitma shundan. Hay-hay, shu yoshda muzday suvda uzoq turganlarini qarang.
- Xudo ham o‘zini ehtiyot qilganni ehtiyot qilaman, degan ekan, – enamga qarab dedi Ahmadqul bobom.
- Bobojonimning haroratini tushirish uchun emlash kerak ekan, boshqa iloj qolmabdi. Hammalari rosa yolvorishdi, bobojonim boshini chayqab, yo‘q, deb turaverdi. Birpas turdi, ikkipas turdi, axiyri uh tortib:
- Bo‘pti, bilganlaringni qilinglar, – deya yig‘lamsirab qornini yerga berib yotib oldi.
- Do‘xtir amaki bir qarichcha keladigan ignasini yalang‘ochlab, uchiga bir narsa surayotgandi, men qo‘rqib teskari o‘girilib oldim. Ignadan juda ham qo‘rqaman. Qishlog‘imizdagi hamma bolalar qo‘rqadi. Faqat Sanambuvi qo‘rqmaydi, xolos. Chechakka qarshi emlash uchun kelganlarida birinchi bo‘lib bilagini yalang‘ochlab berganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.
- Amaki, sizda bo‘rsiqning yog‘i bo‘ladi, deb eshitardim,
- so‘radi do‘xtir.

– Ha, ilgari mo‘l-ko‘l bo‘lardi, – xo‘rsinib dedi bobojonim.

– Hozir-chi?

– Ovchilikni tashlab yuborganman.

– E, attang, bo‘rsiqning yog‘i suyakni yaxshi terlatadi. Hozircha undan yaxshiroq shifo yo‘q.

Ahmadqul bobom qachon kulsa, albatta, soqolini silkitib kuladi. Bu gal ham ovoz chiqarmasdan turdi-da: «Bu ovsar chol o‘zi ovlagan hayvonning ko‘zidan o‘zi qo‘rqadigan bo‘lib qolgan emish», – deb qo‘ydi.

Enajonim bobomning qizil gul tikilgan qora chorsisiga omborxonadan to‘ldirib, har xil mevalardan tugib chiqdi. Ishonsangiz, bizda bunaqa mevalardan juda ko‘p. Uzum, anor, behi... Hammasini katta omborxonamizning shiftiga osib qo‘yganmiz. Enam qishloqqa ketganda Hayitvoy, Dilijon, Sanambuvilarni boshlab kirib, do‘ppimizni tepaga otib, uzumdan, anorlardan tushirib, mazza qilib yeb ham turamiz. Do‘xtir amaki tugunga ko‘zi tushishi bilan: «E, qo‘ysangizchi, uyat bo‘ladi», degan edi, enam: «Olasiz, olmasangiz qo‘ymayman, bir etak bolangiz bor-a», deb o‘sha tugunni Ahmadqul bobomning qo‘liga tutqazdi.

– O‘rtoq, endi onangni qornida yotganday tinchgina uxlagin, – dedi Ahmadqul bobom ostonaga yetganda, – xudo xohlasa, endi o‘lmaysan, aytdim-ku, seni o‘ldirgani qo‘ymaymiz deb. Do‘xtir ukamni o‘zim kuzatib qo‘ymasam bo‘lmaydi shekilli. Tuning qorong‘iligini qara-ya. Yopirim-ey... Qishloqqa bo‘ri oralagani rostga o‘xshaydi, Shokir toychoqning g‘unajinini bo‘g‘izlab ketibdi.

## BO‘RSIQ OVIGA OTLANDIK

**H**ar galgidek, bugun ham enajonim meni bomdod namoziga uyg‘otdi. Tursam, sandalga bozillatib olov solib, bobomga sut ham qaynatib bergan ekan.

– Uyg‘ondingmi, toylog‘im, – so‘radi bobom. Uyqusirab turgandim, shunday bo‘lsa ham yugurib borib bobojonimning bo‘ynidan achomlab oldim.



– Endi o‘lmaysiz-a? – deya so‘rab ham qo‘ydim.

Bobojonim xiyol kulimsirab, bosh chayqab qo‘ydi, yelkamni qayta-qayta silay boshladi:

– Bor endi, tahorat qilgin.

Tahorat qilishni o‘rganib olganman, enajonim o‘rgatgan. Oldin uch marta qo‘l yuviladi, keyin uch marta bet yuviladi... La ilaha illollohu, la ilaha illollohu deb aytib turiladi. Ana shuni aytasangiz, ins-jinslar bolalarga tegmas ekan. Keyin, men namoz o‘qishniyam bilaman.

Namozdan so‘ng enam:

– Qulunim, yur, chiroqni ushlab turgin, mollarga xashak solib chiqaylik, – dedi.

Molxonamiz juda katta, agar tuynugiga eski to‘nni buklab tiqsangiz, kunduziyam qop-qorong‘i bo‘ladi. Mollarimiz ham ko‘p: sigirimiz, g‘o‘najinimiz, novvosimiz, eh-he, qo‘ylarimiz qo‘chqorlarimiz ham bor. Dilijonning qo‘chqorini bir suzib dumalatib tashlagan. Bobojonim yanagi kuzda novvosni so‘yib senga katta to‘y qilib beraman, degan. Eh, to‘yim tezroq bo‘la qolsaydi. Yangi to‘nim, yangi do‘ppim, piston qadalgan etikchamni kiyib, ko‘z-ko‘zlab mazza qilib o‘ynardim-da.

– Sigirniyam sog‘ib ola qolaylik, – dedi enam.

– Mayli, sog‘ib ola qolaylik, – dedim men ham.

Enam sigir sog‘ayotganda buzoqchasini ushlab turishni yaxshi ko‘raman. Nega desangiz, u judayam yuvvosh, iliqqina tili bilan betlarimni yalab-yalab turadi. U yalayotganda men yumshoq junlaridan ohista-ohista silab qo‘yaman. Betimni issiqqina badaniga bosib, «buzoqcham, shirinim», deb erkalayman.

– Ichasanmi? – dedi enam, sog‘ib bo‘lgach.

– Ichaman, – dedim-da, bo‘ynimni cho‘zib, oyog‘imning uchida turib tovoqdagi ko‘piklab turgan iliqqina sutdan tishimning orasidan o‘tkazib simirib icha boshladim. Enamning aytishicha, bolalar yangi sog‘ilgan sutdan ko‘p-ko‘p ichib tursa, kuchli bo‘larkan. Kurash tushganda hamma bolalarni yiqitarkan, men huv birda, sutni ko‘p ichgan kunim

Hayitvoyni ikki marta «gupanglatib», o'n uchta yong'og'ini yutib olganman.

Chiqsak, Ahmadqul bobom kelib, endi kavushini yechayotgan ekan.

– Qalay, o'rtoq, tuzalib qoldingmi? – deb so'radi bobomdan.

– Xudoga shukr, – deb qo'ydi bobojonim.

– Isitmang tushdimi?

– Xiyla pasaydi shekilli.

– U-bu deymiz-u, shu do'xtirlarga ham ishonish kerak.

– Ha, albatta. Ular ham xudoning bandasi.

– Iloyo ovmin, – menga qarab fotiha o'qidi Ahmadqul bobom, – qadam yetdi, balo yetmasin, o'rtog'imning tuzalib qolgani rost bo'lsin, ollohu akbar!

– Oblohu akbar! – deb men ham sandaldan chiqargan issiqqina qo'lim bilan yuzimni silab oldim.

Ahadqul bobom tuni bilan uxlay olmabdi. Yetmish yillik qadrdomim alahlab yotsa-yu, men qanday qilib uxlayman, debdi. Xuddi changalning ustiga dumalaganday qiynalib chiqibdi. Bo'rsiq ovlagani borarmish, buning uchun bobojonim kichkina-kichkina qopqonlaridan hech bo'lmasa, ikkitasini berishi kerak ekan...

– Ho' mullo Ahmad, – dedi bobojonim ko'zini ochib, – bo'rsiq quv bo'ladi, uni qopqonga tushirish oson emas.

– Ilgari ilintirib kelardik-ku, – xafa bo'ldi Ahmadqul bobom.

– Qopqonni men qo'yardim-da, ilinsa, ov meniki deb turib olarding. Quyson so'ysak, menga qirsillatib yeysan, deb qulog'ini berarding. He-he-he! Yo'q dema, o'rtoq, qopqoningni bera qol, sen uchun qilyapman bu ishni. Bo'lmasa shu sovuqda... Ayozni qara, uzib olaman, deyapti.

Bobojonim ko'zlarini yumgan kuyi ancha mahal jim turdi. Javobini hammamiz betoqat kutardik. Men ichimda: «Ey xudo, bobojonim ko'na qolsin, iloyo ovmin, men ham ovga birga boray, birga boray», deb pichirlab turdim.

– Qiynalasan, o‘rtoq, – dedi bobom ko‘zini ochib.

– Qiynalsam, sen uchun qiynalaman, Erka. Agar hozir o‘rtog‘ingga nafi tegadi desa, do‘zaxdan olov olib kelishga ham tayyorman.

Bobojonimning so‘linqirab qolgan yuzlari yorishib ketganday bo‘ldi, ko‘zlarini katta ochib, kulimsirab ham qo‘ydi.

– Yaxshi o‘rtog‘im bor-da, onasi, – deya maqtandi, – o‘shanda suvga cho‘kayotganingda qutqarib yaxshi ish qilgan ekanman, o‘rtoq.

– O‘zimga kerak bo‘ladi, deb qutqargansan-da. He-he-he!

Kuldik, hammamiz kuldik, bobojonim ko‘proq kuldi. Men shartta o‘rnimdan turib:

– Ovga men ham boraman, – dedim.

– Nima? – uchovlari barobar so‘rashdi, – shu sovuqda-ya?

– Boraman, dedim, boraman.

– Bekorlarni aytibsana, – jerkib berdi enajonim.

– O‘zingiz bekorlarni aytibsiz, – deb yer tepindim.

– Haddingdan oshma.

– O‘zingiz oshmang.

Enam bilan bobomni biror gapimga ko‘ndira olmasam yerga yotib olib yig‘lashni o‘rganib olgan edim. Avval kigizga o‘tirib yig‘layman, ko‘nishmasa tuproqqa dumalab dodlayman. Yig‘layotganimda ko‘zimning qiri bilan ularni kuzatib turaman. Kiyim-boshim tuproq bo‘lib qolishdan qo‘rqib, darrov ko‘na qolishadi. Bu gal ham shunday qildim. Enam qo‘limdan tortib turg‘izib:

– Yig‘lama, qulunim, o‘zim seni Otinbibinikiga mushkulkushodga olib boraman, – deb yupatdi. – Yangi etigingni kiyib borasan.

– Kampirlarni yomon ko‘raman – hammasining og‘zida tishi yo‘q, – deb yana zax yerga o‘tirib, oyoqlarimni tapillata boshladim: – O‘sha kampirlarning diydiosini ham yomon ko‘raman, bildingizmi?

Ahmadqul bobom yaxshi-da, meni yerdan dast ko‘tarib ko‘zlarimdan o‘pib, boyvachcha o‘g‘limni xafa qilmanglar, boraqolsin, charchasa ko‘tarib olaman, dedi.

– Ha, mayli, – dedi bobojonim ham yumshab, – olib keta qol, eshakni minib ketinglar.

Eshakni o‘zim yetaklab chiqdim. Xurjunga ikkita kichkina qopqon soldik, kattalarini olmadik, ulari bo‘ri, tulki ushlaganda ishlatamiz, bobojonim shunday degan. Yana tag‘in bir xalta arpa, bir quchoq beda ham olib, hammasini xurjunning ko‘ziga joylab, tezgina chiqib ketdik... Eh, qanday soz! Maza qiladigan bo‘ldim-da. Qaytib kelgach, Dilijon, Qulijon, Hayitvoylarga rosa maqtanaman, ko‘zlarini kuydiraman.

Bir oz yurgach:

– Bobojon, gaplashib ketaylik, – dedim gapirgim kelib.

– Nima deb gaplashamiz? – so‘radi Ahmadqul bobom.

– Har narsalarini-da.

– Har narsa deganing nimasi?

– Endi... o‘zimning bobom o‘lmaydi-a?

– Xudo xohlasa, tuzalib ketadi, o‘lmaydi.

– Hecham o‘lmaydimi?

– Hecham o‘lmaydi.

– Mingga kiradimi?

– Mingga kiradi.

– Yo‘q, rostini ayting.

– Rost aytyapman, yaxshi odamlar hech qachon o‘lmaydi.

– Bobojonim yaxshimi?

– Yaxshi.

– Judayam yaxshimi?

– Judayam yaxshi. Bobong behad saxovatli odam.

– Saxovatli deganingiz nima?

– Bilmaysanmi?

– Bilmayman.

– Saxovatli – qo‘li ochiq, xayr-ehsonli degani. Mana, bog‘laring katta, uzumlaring ko‘p-a? Hammasini yeb tugatolmaysizlar, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri.

– Bobong uzumning yarmini savobi otishmada o‘lgan o‘g‘illarimga tegsin deb, beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga tarqatadi. Ana shuni saxovat deyishadi, endi tushundingmi?

– Yo‘q, tushunmadim.

– Sen nimaga tushunasan, o‘zi?

– Hamma narsaga tushunaman.

– ... Undan keyin bobong pahlavon odam, zo‘r paxsakash ham. Qo‘rg‘onchadagi hamma devorlarni yakka o‘zi urgan. Kaftini ko‘rgin, barkashday keladi. To‘rtta loykash ham unga loy yetkazib berolmasdi. Yomon mardikor yonidan, deb haq olmasdi, savobini o‘g‘illarimga bag‘ishlang, derdi... Keyin bobong ko‘chat ulashishni yaxshi ko‘radi, qishlog‘imizdagi jamiki bog‘larda uning ko‘chatidan bor, buyam saxovat bo‘ladi, o‘g‘lim. Endi tushungandirsan?

– Ozgina tushundim, xolos.

– Voy-bu, sen qanaqa bolasan, o‘zi?

– Yaxshi bolaman.

– Yaxshi bola bo‘lsang, endi jim ket.

– Jim ketgim kelmayapti. Ayting-chi, siz zo‘rmi, bobojonim zo‘rmi?

– Men zo‘rman.

– Voy, siz kichkinasiz-ku, bobojonimning bitta qo‘lcha kelasiz-ku!

– Meni kichkina polvon deyishadi, ha!

– Bobom bilan bir marta bo‘lsa ham kurash tushganmisiz?

– Tushganman.

– Kim yiqitgan?

– Bobongni aylantirib turib tomga otib yuborganman.

– Hecham-da.

– Ishonmaysanmi?

– Yo‘q.

– Bo‘pti, hali borganda kurash tushamiz, o‘shanda ko‘rasan, endi jim ket.

Bobom ikkovlari kurash tushsa qalay bo‘larkin, bordi-yu, bobom yiqilsa-ya, deb o‘yladim-u, keyin so‘rayotgan narsam esimdan chiqib, jim bo‘p qo‘ya qoldim.

Tog‘ tomonga qarab ketyapmiz. Hammayoq oppoq qor. Ho‘v baland-baland tog‘larda, adirlarda, biz borayotgan maydonlarda mo‘l-ko‘l oqlik. Hammayoq charaqlab ketgan, qarasangiz ko‘zingiz jimirlaydi. Eh, qanday yaxshi-ya, qanday soz bo‘ldi-ya!

Huv uzoqlarda, osmonu falakda qushlar gala-gala bo‘lib uchib yurishibdi. To‘dalar qo‘shiladi, yana ajraladi, yana qo‘shiladi, yana ajraladi. O‘yin qilishayotgandir-da? Qanday yaxshi-ya! Qani endi, men ham hozir qushcha bo‘lib qolsam, o‘sha balandlikka ko‘tarilib, qanotlarimni qoqib rosa o‘ynardim... O‘tib borayotganimiz o‘rikzorlarda har xil qushlar ko‘p. Ana, gurr etib chumchuqlar ko‘tarilib, o‘riklar shoxiga qo‘ndi, ustimizga duv etib qor to‘kildi. Nariroqda har bittasi tovuqday-tovuqday po‘mqarg‘alar sariq tumshuqlarini pastga qilib xayol surishyapti, bechoralar-ey, endi ovqatni qayerdan topsam ekan, deb o‘ylashayotgandir-da? Saqichdek qop-qora, betoqat qorashaqshaqlar shoxdan-shoxga sakrab quvlashmachoq o‘ynashayotganga o‘xshaydi, ular biram ko‘p, biram ko‘pki. Qo‘shnimiz Sultonali akam o‘tgan yili behiga tuzoq qo‘yib, qorashaqshaqni ilintirganda men bir do‘ppi yong‘oqqa almashtirib olgandim. Tovoqning tagiga bostirib qo‘yganimda, enajonim bilmay ko‘tarib, qushchamni uchirib yuborgan, ehtimol, o‘sha qushcham hozir shularning orasida bordir? Meni taniyaptimikan? Ularda es bo‘lmaydiku.

– Bobojon, keling, yana gaplashib ketaylik, – deyman zerikib.

– Hali gaplashdik-ku, – deydi Ahmadqul bobom.

– Yana gaplasha qolaylik, jon bobojon.

– Men senga gap topib bera olmayman-da, o‘g‘lim.

– Mayli, topolmasangiz ham gaplashaveramiz. Ayting-chi, siz nega pakana bo‘lib qolgansiz?

– Iya, men pakanamanmi?

– Bo‘lmasam-chi, kecha pakananing go‘shini bo‘ri yemaydi, dedingiz-ku.

– Pakana bo‘lsam, kel, bo‘yimizni o‘lchab ko‘ramiz.

– Men hali bolaman-ku.

– Bola bo‘lsang ham o‘lchayveramiz.

– Yo‘q, ayting, nega pakana bo‘lib qolgansiz?

– E, o‘g‘lim, boyvachcha bolam, mahkamroq ushla, tag‘in yiqilib tushmagin. Lekin biqinimdan ushlama, qitig‘im bor...

Xudo shunday yaratgan bo'lsa, bandasining qo'lidan nima ham kelardi, bolam... Bobong aytmagan ekanda, men chala tug'ilganman. Odam-chi, onasining qornida to'qqiz oy to'qqiz kunu to'qqiz soat yotadi, bilasan-a?

– Yo'q, bilmayman.

– Sen nimani bilasan, o'zi?

– Hamma narsani bilaman.

– Mening onam ho'kizdan qo'rqib, yetti oyda tug'ib qo'ygan ekan. Meni beshikda emas, bedanaga o'xshatib to'rqovoqda katta qilishgan ekan.

– Keyin o'sha ho'kizni nima qilishgan ekan?

– So'yishgan bo'lsa kerak-da.

– Keyinchi?

– Keyin mana shunaqa kichkina bo'lib qolganman-da.

– Bedana bo'lib sayrashni bilasizmi?

– Bilaman.

– Qani, sayrang-chi.

– Yo'q, o'g'lim, avval bo'rsiqni ushlab, so'yib, bobongning oyog'ini davolaylik, keyin sen, men, bobong uchovimiz bedazorga boramiz, ana o'sha yerda vavaqlab sayrab beraman.

– Yo'q, hozir sayraysiz.

– Sayramayman.

– Bo'lmasa qitiqlayman.

– Qo'lingni ol. Rostdan ham qitig'im bor, jon o'g'lim...

Mana, soy bo'yiga ham keldik. Uyog'iga piyoda o'tamiz shekilli. Eshagimiz muzdan o'tolmaydi, chog'i. Oldin sen tushgin, barakalla...

## BO'RSIQ QUV BO'LADI

**E**shakdan tushgach, ikkovimiz ham jim bo'lib soy tomonga tikildik. Ahmadqul bobom qaysi tomonga qarasa, men ham o'sha tomonga qarayverdim. Bobom suv yoyilibroq oqadigan, kechuvi osonroq joyni tanlayotgan bo'lsa kerak.

Men bo'lsam, voy-bo'y, shuncha suv qayerdan paydo bo'larkin, deb o'ylayotgandim.

– Shu yerdan o'taveramiz, – dedi Ahmadqul bobom.

– Mayli, shu yerdan o'taveraylik, – dedim men ham.

Eshagim o'zi ajoyib-da, bunaqa esli hayvonni ikki dunyoda ham topolmaysiz. Muzlarni tars-turs sindirib o'taveradi. Bilmasdan dumg'azasidagi junidan tortib qo'ymay deb o'ng qo'limni qo'ltig'imga tiqib, ikkala ko'zimni barobar yumib olganman.

– Mana buni eshak desa bo'ladi, – dedi Ahmadqul bobom narigi qirg'oqqa o'tgach, – eshak emas, Hazrat Alining tulpori bu.

– To'g'ri, tulpor, – dedim men ham.

Tepalikka chiqib, atrofga rosa tikildim. Bu yerdan huv uzoqdagi qishloqlar, hozirgina o'tganimiz o'rikzorlar ko'rinib turarkan. Ov qilishimiz kerak bo'lgan changalzor poyonsiz, borib-borib tog' yonidagi adirlarga qo'shilib ketadi. Changal, yantoq, shuvoq va yana men otini bilmaydigan boshqa giyohlar qor ostida boshini egib turibdi. Xuddi o'zimning bobojonimga o'xshab oq salla o'rab, namoz o'qiyotganday. Yuraverdik, yuraverdik.

– Iya, ana buni qara! – dedi Ahmadqul bobom to'xtab.

– Nimani qaray? – dedim shoshilib. Nega desangiz, o'zimning shu paytda juda-juda gaplashgim kelib turgan edi.

– Bo'ri o'tibdi, izini ko'rmayapsanmi?

– Voy, – dedim hayron bo'lib, – bu itning izi-ku, bobojon.

– Itning izi enajoningni chaqichiga o'xshab dumaloqroq bo'ladi. Bu – bo'riniki, bolam. Cho'ziqligidan bilmayapsanmi? Qayoqdan ham bilarding, bo'ri oviga chiqmagan bo'lsang... Qishloqdan toqqa qarab o'tibdi. Qorniyam rosa to'q ekan, qara, izlar chuqur botgan... O'h-hu, shu kecha o'tganga o'xshaydi, iz muzlamagan hali. Iya-iy, to'xta!

Ahmadqul bobom mendan oldin to'xtab yonginamizdagi giyohsiz yalanglikka, qorlari rosa ezilgan, puypalanib tuproqqa qorishib ketgan maydonchaga qoshlarini kergancha tikilib qoldi.



- Nima bo‘ldi, bobojon? – xavotirlanib so‘radim.
- Mana bu yerda ikkita bo‘ri rosa olishganga o‘xshaydi.
- Urishibdimi?
- Yo‘q, o‘ynashibdi shekilli. Ona-bola bo‘lsa kerak. Qara, birining izi katta, chuqurroq botgan, tanasi og‘irda. Boshqasiniki kichkina, qorga uncha botmagan. Voy-bo‘y...
- Bobojon, qo‘rqib ketyapman, – dedim chindan ham qo‘rqib.
- Qo‘rqma, o‘g‘lim, qo‘rqma.
- Qo‘rqmay desam ham qo‘rqib ketyapman.
- Yigit kishi ham qo‘rqadimi?
- Yo‘q, men yigit emasman. Keyin yigit bo‘laman. Keta qolaylik.
- Bo‘rsiq ovlagani kelganmiz-ku, o‘g‘lim.
- Bobojonim tuzalib qolsa, hammamiz birga tutamiz. Bobomning miltig‘i bor, og‘ilxonaga berkitib qo‘ygan. O‘shani olib kelarmiz.
- O‘h-ho‘, bobongning miltig‘i bor degin?
- Hech kimga aytmagin degan.
- Qo‘rqma, o‘g‘lim, kel, qo‘lingni ushlab olaman. Barakalla. Xudo xohlasa, bo‘ridan qo‘rqmaymiz, yonimdagi pichoqni ko‘ryapsanmi? Hazrat Alining qilichiday keladi-ya,
- Ahmadqul bobom pichog‘ini tovoniga tegib turgan qinidan sug‘urib, havoda bir o‘ynatib qo‘ydi. Pichoq juda uzun ekan.
- Har qanday bo‘rini chavaqlab tashlayman-a. Undan keyin, o‘g‘lim, xudoyi taolo odamni hamma jonzotdan ulug‘ yaratgan. Odamning farishtasi behad buyuk bo‘ladi. Eng och bo‘ri ham hadeganda yurak yutib unga yaqinlashib kelolmaydi... Hozir bo‘rilar to‘q, negakim, dala-tuz to‘la qo‘zimol... Yana ozgina yuraylik, huv narida Tentaksoydan ajralib chiqqan yoyilmalar bor, bobong bilan quyonu bo‘rsiqlarni o‘sha yerlarda ovlardik. Undan narida bo‘riyu tulkilarga qopqon qo‘yardik. Lekin bo‘ri ayyor bo‘ladi, bolam. Bir avlodi ilingan joyga boshqa avlodi qadam bosmaydi... Yo eshakka minib olasanmi?

– Yo‘q-yo‘q, eshakning ustida qo‘rqaman, – dedim.

– E, yana qo‘rqaman deydi-ya, – Ahmadqul bobom arqon ushlab ketayotgan qo‘lini jahl bilan silkitib qo‘ydi, – sen Erkacholning nabirasi bo‘lmabsan.

– Kim bo‘libman bo‘lmasa?

– Qo‘rqoq bo‘libsan.

– Hecham-da, men sal-pal qo‘rqayapman, xolos.

– Bobong sandaqalik mahalida jasur, dovyurak edi... Yigitlik chog‘ida esa bir o‘zi ko‘k bo‘rini yiqitgan. Aytib bermaganmi?

– Yo‘q, aytmagan.

– Mayli, keyin aytib beraman.

– Yo‘q, hozir aytib berasiz, bo‘lmasa yana qo‘rqaman.

– E, o‘g‘lim, bunga ancha zamonlar bo‘ldi... O‘shanda dashtga qovun ekib, kapa tikib ko‘chib chiqqan edik. Sutday oydin bir kecha edi. Bobong pashshaxonadan boshini chiqarib bunday qarasa, qovunning ichida kimdir engashib yurgan emish. Kim u desa, indamabdi. Asta oldiga borayotgan ekan, bo‘ri bir sakrab tashlanib qopti. Xayriyatki, bo‘rining pastki jag‘i bobongning qo‘liga kirib qopti. Bobong polvon odam edi-da, bukaveribdi, bukaveribdi, axiyri bo‘rining belini sindiribdi... Keyin huv Ahmadqul, deb meni chaqirib qoldi.

– Keyin nima bo‘ldi? – shoshilib so‘radim.

– Keyin terisini shilib oldik.

– Mana shu pichog‘ingiz bilanmi?

– Yo‘q, unda boshqa pichog‘im bor edi.

– Keyin-chi?

– Obbo o‘g‘lim-ey, bobong aytganday, juda sergap ekansan-da.

– O‘zingiz ham sergap ekansiz, – dedim achchig‘im chiqib, – nega yomon narsani menga aytdingiz, endi yana qo‘rqib ketyapman.

– Lekin to‘g‘ri, bolam, chakki aytdim... qo‘rqma. Hozir olov yoqib yuboramiz. Hamma yirtqichlar olovdan qo‘rqadi... Ana, qopqon qo‘yadigan joyga ham yaqinlashyapmiz. Huv anavi jarliklar yonida bo‘rsiqlar ko‘p bo‘ladi. Ilgari, eh-he,

bobong bilan bu atroflardan qanchadan-qancha bo'rsiqu quyonlar tutganmiz. Qishi bilan mehmonxonada quyon go'shti yeb chiqardik.

Ahmadqul bobom xurjunga boltacha ham solib kelgan ekan. O'sha bilan yulg'inu to'rong'illardan, supurgidek qalin o'sgan yantoqlardan kesib, guldiratib olov yoqib yubordi. Qo'llarimizni tobladik. Keyin issiq kaftimizni fотиha o'qiyotganday qilib yuzimizga surtdik. Ahmadqul bobom nima qilsa, men ham shunday qilaverdim. O'ngga qarasa, o'ngga qarayman, chapga qarasa, chapga qarayman. O'sha tomonlarda bo'rilar bormikan, deb o'ylayman.

– Endi, o'g'lim, sen shu yerda o'tirib turasan, – o'rnidan turib, jar tomonga tikilib dedi Ahmadqul bobom.

– Siz-chi? – shoshilib men ham o'rnimdan turib ketdim.

– Men jar yoniga o'tib mana bu qopqonchalarni qo'yib kelaman.

– Men ham boraman.

– Jon, o'g'lim, ko'lmak suvlarni qara, ustidagi muzga ishonma, botib qolasan, tagi chuqur.

– Unda meni ko'tarib olasiz.

– Nima?

– O'zingiz bobojonimga aytdingiz-ku, charchasa ko'tarib olaman deb.

Ahmadqul bobom indamadi, menam indamadim. Eshakni olov yonidagi yulg'in tupiga bog'lab, xurjundan bobojonimning suv kechadigan uzun rezinka etigini olib, mahsisining ustidan kiya boshladi. Qarab turdim. Oyog'i juda kalta ekan. Rezinka etikning qo'nji qoringacha borib qoldi. Oldin meni ko'tarib o'tkazdi, keyin xurjunni olib o'tdi.

– Nasriddinning nabirasi bo'laman, deb juda erka bo'lib ketibsan, – dedi axiyri.

– O'zingiz ham erka bo'lib ketibsiz, – dedim men ham.

– Boy bobongning uyida qarol bo'lganimni bilarkansanda, otangni ham o'zim ko'tarib katta qiluvdim.

Men indamadim. Yig'lagim kela boshladi. Qorlarniyam, tog'larniyam yomon ko'rib qoldim. Agar yo'lda bo'ri uchrab

qolishidan qo'rqmaganimda, jon-jon deb qochib ketgan bo'lardim. Ahmadqul bobom menga qarab-qarab qo'yyapti. Bir gal labini burib masxara qildi, men ham tilimni chiqarib qo'ydim... Mana bu yo'lakchadan quyonlar sakrab-sakrab o'tibdi, bir emas, bir nechasi... Sakraganini oyoqchasi qorga chuqurroq botganidan bilsa bo'larkan. Ho'v anavi to'p bo'lib o'sgan yantoqning ustida qor yo'q, quyoncha, qani, yesa bo'larmikan, deb mo'ylovli tumshuqchasini cho'zganda qorlar duv etib to'kilib ketibdi. Ahmadqul bobom ana shunaqa gaplar aytib jar bo'ylab yuraverdi, yuraverdi. Men ham o'zimni ataylab eshitmaganga solib, chakmonining etagidan mahkam ushlab orqasidan boraverdim.

– Rahmonjon! – dedi bir mahal to'xtab.

– Endi siz bilan hecham gaplashmayman, – dedim arazlaganimni bildirish uchun. To'g'ri-da, nega hadeb boyning nabirasisan, boyning nabirasisan deyishaveradi. Nabirasi bo'lsam, nega yangi etigimni kiydirgani qo'yishmaydi, chamandagul do'ppim bor, enam o'shaniyam kiydirgani bermaydi, eski qilib qo'yasan, eski qilib qo'yasan degani-degan.

– Gapirmasang ham mayli, o'g'lim, topdik, xudo xohlasa, axtargan xazinamizni topdik, – Ahmadqul bobom yelkasidagi xurjunni yerga qo'yib, kaftlarini bir-biriga ishqalay boshladi, – mana buni bo'rsiqning izi deydilar. Quyonga o'xshab sakrashni bilmaydi-da, sho'ring qurg'urlar. Ketayotganda sudralib o'zining izini o'zi tekislab ketadi. Ov axtarib chiqishgandir bechoralar. Bolalarini ham ergashtirib o'tibdi. Ana qaragin, yaqinroq yurgin.

Ahadqul bobom yuzasi Sanambibining childirmasiday keladigan qopqonchani olib, yo'lakdagi qorlarni uyoq-buyoqqa surib ochilgan yerga o'rnata boshladi. Oyoq qo'yganda qisib qoladigan temirchalarini ikki tomonga qayirib, o'rtasiga lo'kidonini joyladi. Keyin qopqonchadagi ingichka zanjirni yerga temir qoziqcha qoqib o'shanga bog'lab ham qo'ydi. Qopqonning o'rtasiga, atrofiga hovuchlab arpa sochdi. Quruq bedani kaftida ezg'ilab, maydalab o'shandan

ham ancha tashladi. Avvaliga jim turdim-da, keyin so‘ramay desam ham so‘ragim kelaverdi.

– Bobojon, – dedim axiyri chidamay, – bo‘rsiq bunga qanday qilib ilinadi?

– Bilmaysanmi? – qaddini rostlab beliga qo‘lini qo‘ydi bobom.

– Bilmayman.

– Erkachol o‘rgatmagan ekan-da.

– Hecham o‘rgatmagan.

– Bo‘rsiqlar goh bu yerdan o‘tayotganda, goh ovqat yeyman deb, tumshug‘ini cho‘zganda mana shu lo‘kidoniga tegib ketsa bas, mana bu temirchalar paq etib oyog‘ini qisib oladi.

– Voy, bechora-ey, oyog‘i og‘rimaydimi?

– Og‘riydi, o‘g‘lim.

– Qo‘ying, bobojon, mening rahmim kelyapti ularga. Uyida bolalari bo‘lsa yig‘laydi. Onajonimiz qachon kelar ekan, deb kutib o‘tirishadi... Ovlamay qo‘ya qolaylik.

– Unda Erkacholning oyog‘ini qanday davolaymiz?

– Davolamasak ham tuzalib qolar.

– Obbo o‘g‘lim-ey, rahmdil ekansan, barakalla... Hamisha shunday bo‘lgin... Lekin o‘g‘lim, Xudoi taolo jamiki jonzotni odam uchun yaratgan. Bo‘rsig‘u quyon, bo‘ri – hamma-hammasi sen uchun, men uchun, hammamiz uchun yaratilgan. E, bandam, bu dunyoni senga beryapman, undan foydalan, huzur-halovat ko‘r, lekin isrof qilma, haddingdan oshma, degan.

– Bobojon, siz xudoning gapini eshitganmisiz? – deb so‘radim shoshilib.

– Yo‘q, menga qalin kitoblardan o‘qib berishgan, Eshonbuva o‘qib bergan. Yur, endi qopqonning unisiniyam qo‘yaylik.

– Baribir bo‘rsiqlarga achinib ketyapman, – dedim yurgim kelmay, – hech bo‘lmasa mana shu temir qoziqchani yulib tashlaylik.

– E, bolam-ey, qoziqcha bo‘lmasa, bo‘rsiq qopqonni iniga sudrab ketadi-ku! Qani, yura qol, – shunday deb Ahmadqul

bobom xurjunni yana yelkasiga oldi. Jar yoqalab endi kunchiqar tomonga yura boshladik. Juda ko'p yurdik. Men oyog'im sirg'alib ikki marta yiqilib tushdim. Axiyri yana bir joyda to'xtab, qopqonchanning unisiniyam, bunisiniyam qo'yib, olov yoqqan joyimizga kelgan edik, eshagim yechilib ketib, o'zim ketaversammi yo ketmasammi, deb bizga qarab turgan ekan.

– Bobojon, – dedim o'pkam to'lib. – Yig'lagim kelyapti.

– Nega endi, azamat, ishimiz o'ngidan kelyapti-ku?!

– Bo'lmasa, qopqonchalarni qaytarib olib ketaylik, onasi ilinsa bolalari yig'laydi-da. Menam har kuni buvijonimni sog'inib yig'layman. Jon bobojon, qopqonlarni olib keta qolaylik.

– Kuyinma, azamat, ehtimol urg'ochisi emas, erkagi ilinar.

– Erkagi ilinsa ham baribir so'yamizmi?

– Ko'ramiz-da, o'g'lim.

– Yog'idan jinday olib, keyin qo'yib yuborsa ham bo'ladi-ku, to'g'rimi, bobojon?

– Haq gapni aytyapsan, o'g'lim.

– Shunday qilasiz-a?

– Shunday qilamiz.

– Aldasangiz, pichog'ingizni olib berkitib qo'yaman, hecham topolmaysiz.

Keyin damini olib kuch to'plab olgan eshagimga mindik-da, qishloqqa jo'nab ketdik. Uyga yetguncha, ey xudo, bo'rsiq iloyo ilinmasin, iloyo ilinmasin, deya pichirlab keldim.

## CHOL BOBOLAR SUHBATI

↑  
vdan qaytib kelsak, enajonim o'zi peshin namozini o'qib, yotgan joyida bo'lsa ham mayli, o'qisin, savobi ko'p bo'ladi, deya endi bobomning yuz-qo'llarini chilopchinga yuvdirayotgan ekan. Bobomga qarab: «Xayriyat: o'lmabdi, endi hecham o'lmaydi», deb o'yladim. Ahmadqul bobom hammasi joyida bo'ldi, o'rtoq, endi men boray, tegirmonga

yuk tashlab keldim, deb chiqib keta boshladi. Ostonaga yetganda orqasiga o'g'irilib, Erkavoy, bu nabirang balo ekan, uni endi o'zim o'g'il qilib olaman, dedi-da, ovoz chiqarmasdan soqolini silkitib kulib qo'ydi. Enajonim loviya solib qatiqli go'ja pishirgan ekan, men bunaqa oshni jon-dilimdan yaxshi ko'raman. Icha turib, bo'ridan qo'rqqanimni aytib bermoqchi bo'luvdim, bobom:

– Ovchi o'g'lim, ovqat yeyilayotganda ko'p gapirilmaydi, – deb tanbeh berdi.

– Xo'p bo'ladi, – dedim darrov.

Endi ichayotgan edim, enam:

– Qulunim, odobli bola qoshiqni o'ng qo'lida ushlaydi, – deb o'rgatdi. Bunga ham darrov xo'p dedim. Nega desangiz, tezroq ichib bo'lsam, bo'ri haqidagi gaplarimni ko'chaga chiqib o'rtoqlarimga ham aytib rosa havaslarini keltirmoqchi edim. Hovlidan o'h-o'h, o'h-ho', kim bor, degan yo'g'on-ingichka ovozlar kelib qoldi. Enam ikkovimiz darrov o'rnimizdan turgan edik, eh-he, cholbuvalar ekan, soqoli yalpoq Esonqul bobom oldinda, soqoli yo'q Qambarali bobo, beli bukik Yunus bobo, hassa ushlab yuradigan Matmusa bobolar kirib kelishyapti. Hammasining qo'lida tuguncha bor. Bir narsalar olib kelishgan bo'lsa kerak, deb sevinib ketdim. Enam tugunchalarni ola turib, e, nima keragi bor edi, ovora bo'lib, deyaverdi. Men bo'lsam, e, chakki aytdi-da, qaytarib olib ketishsa, ichidagini bilolmay qolaman, deb qo'rqdim. Keyin o'choq yoniga borib, yumshoq po'stak ustiga chordona qurib o'tirib oldim. Ko'chaga chiqqim kelmadi. Nega desangiz, men cholbobolar gaplashganda quloq solishni yaxshi ko'raman. O'zimni eshitmaganga solib yong'og'imni o'ynab o'tiraman-u, hammasini eshitib olaman. Eshitmay desam ham eshitgim kelaveradi. Soqoli yo'q Qambarali bobomning bog'dagi kapasiga peshin namozini yashirincha o'qish uchun yig'ilishgan ekan, bobojonimdan ko'ngil so'rashni o'sha yerda maslahat qilishibdi. Erkachol yakkayu yolg'iz turadi, bir xabar olmasak, qanaqa o'rtoq bo'ldik, qorli-qirovli kunlarda ul-bul

narsaga zoriqayotgandir, kampirning qo‘lidan nima ham kelardi, qani ketdik, deyishibdi.

Men, xayriyat, bobojonimning o‘rtog‘i ko‘p ekan, o‘rtog‘i ko‘p odam hech o‘lmaydi, deb o‘ylab, baribir ichida nimalar borligini bilgim kelib, haligi tugunchalarga qarab-qarab qo‘yaverdim.

– Xo‘sh, Erkavoy bolam, baxayr, qani gapir-chi, nima bo‘ldi o‘zi? – deb so‘radi soqoli yalpoq Esonqul bobom. Avvaliga iya, nega bobojonimni bolam, deyapti deb o‘yladim. Keyin, hah, yuzga kirganlar yetmishga kirganlarni bolam deydi, deb o‘ylab, shuni topganimdan juda-juda sevinib ketdim. Enam tugunchalarni yecha boshladi. Bittasida qatlama bor ekan, qatlama, qatlama, ostonadan hatlama, degim keldi-yu, indamadim. Keyingi tugunda jiyda bor ekan, non jiyda! Mazza qilaman endi. Yo‘q, yeyishni emas, yegandan keyin danagini tuplashni yaxshi ko‘raman, cho‘zmaga solib otsangiz ham uzoqqa boradi, ham qattiq tegmaydi, Sanambuvini rosa quvlayman endi.

– Bu qanaqa zamon bo‘ldi-ya, – deyapti gapga tushib ketgan bobolardan bittasi.

– Namozga ruxsat yo‘q!

– Xatmi Qur‘onga ruxsat yo‘q.

– Kitob o‘qishga ruxsat yo‘q.

– Machitga ruxsat yo‘q.

– Janozaga ruxsat yo‘q.

– O‘likni yuvib-tarashga ruxsat yo‘q.

– Qanaqa zolima zamona bo‘ldi-ya! – degan gaplarni aytishyapti boshqa bobolar ham.

– Xoneshon hazratlarini olib ketishibdi! – vahimali qilib dedi beli bukri Yunus bobom.

– Yo‘g‘-e, – dedi soqoli yo‘q Qambarali bobom, – avvalgi kuni ko‘ruvdim, do‘kondan kirsovun olayotgan ekanlar...

– Shu kecha olib ketishibdi!

– Bechora eshon, ko‘p bilimdon kishi edilar-da, – gapga aralashdi o‘zimning bobom ham, – jon saqlayman deb, sho‘ring qurg‘ur qariganda melisaxonaning cho‘chqasini



boqayotgan edilar... Qur'oni sharifni yod bilardilar, tafsifini ham ko'p chiroyli aytardilar...

– O'sha cho'chqalar boshlariga yetibdi.

– Yo'g'-e...

– Ha, shunday bo'libdi.

– Xo'sh-xo'sh?

– Ona cho'chqa tug'ib, qishli-qirovli kunlarda xashak kam, qorni och ekan, bolalarini yeb qo'yibdi.

– Cho'chqa o'z bolasini yeydimi?

– Ha, mol egasiga o'xshamasa harom o'ladi, degan gap bor-ku.

– Yo navzambillo.

– Qanaqa kunlarga qoldik, a?

– Nachalnik kelib eshon hazratlaridan cho'chqaning bolalari qani, deb so'rabdi, – yana gapira boshladi Yunus bobo, – eshon hazratlari onasi yeb qo'yibdi, debdilar. Yo'q, debdi nachalnik, sen soqoling o'smay o'lgur, zararkunandasan, bizning idoramizga ataylab kirib olgansan, cho'chqalarni qayerga ko'mding, ayt, hozir bo'lmasa mana shu soqolingni yulib olaman, debdi. Eshon hazratlari, cho'chqang boshingdan qolsin, deb etaklarini qoqib chiqib ketgan ekanlar... Shu kecha olib ketishibdi.

Hammalari jim bo'lib qolishdi. Enajonim sandal ustiga popukli dasturxonimizni yozib o'zimizning mevalardan to'ldirib tashladi. Esonqul bobom bir bosh chala mayizni qo'lga olib, ko'ziga yaqinroq keltirib, Erkavoy, rahmatli otang ham, iloyo go'ri to'la nur bo'lsin, chala mayiz qilishga ko'p usta edi. Sen ham chakki bo'lmabsan, barakalla, dedi. Matmusa bobom yonidan buklama pichoqchasini chiqarib, anor so'ya boshladi. Donasi qop-qora ekan. Og'zim suv ochib ketdi, yegim keldi-yu, qo'l uzatgani uyaldim. Qambarali bobom enam keltirib bergan choyni qaytarib-qaytarib, choynakning ustiga boshidagi telpagini kiygizib qo'ydi.

– O'zimdand chiqqan baloga qayga boray davoga, – deb gapira boshladi Matmusa bobom.

– Ha, insof eng avvalo o'zimizdan ketdi.

– Xudoni unutdikmi, hamma balo shundan.  
– Barchani bir-biriga poyloqchi, bir-biriga yov qilib qo'yishdi-ya.

– Qaytaga kofir bo'lsayam o'sha Oqposhsho yaxshi ekan, hammayoq musulmonobod edi.

– Hoy, Yunusvoy, astaroq, devorning ham qulog'i bor deydilar, – ana shunga o'xshash gaplar bo'lib turuvdi, darrov teskari o'girilib yana mazza qilib eshita boshladim. Yunus bobom: «Erkavoy, boyvachcha kuyovingdan qolgan nabirang shu bo'ladimi?» deb so'radi. Xudoga ming qatla shukr, dedi bobojonim, xayriyatki, shu bor ekan, harqalay, kunimga yarab turibdi, choy qaynatadi, oyog'imni uqalaydi, molga xashak soladi...

– Menga qara, o'g'lim, – dedi Yunus bobom, – ma, mana bu behini olgin-da, sersuvgina ekan, qarsillatib yeb ko'chada o'ynab kelgin.

Ha, bilib turibman, meni aldab-suldab ko'chaga chiqarib yuborishadi-da, keyin o'zlari qiziq-qiziq gaplardan maza qilib gaplashishadi. Hecham-da, shartta o'rnimdan turib:

– Bobojon, esli bolalar sovuqda ko'chaga chiqmaydi, – dedim.

– Bo'lmasa biznikiga chiqa qol, – dedi yana Yunus bobom, – o'rtoqlaring ayvonda yong'oq o'ynashyapti, o'shalarga qo'shila qol.

– Men yong'oq o'ynashni yomon ko'raman, – dedim hech chiqqim kelmay. – Enam mehmonlar kelganda sen gapga qo'shilmay choy qaynatib turgin, degan. Mana, qumg'onni qaynatdim-ku.

Chol bobolar bir-birlariga qarab olishdi. O'zimning bobom sal kulimsiraganday ham bo'ldi. Endi oyoq og'riq haqida gaplasha boshlashdi. Juda yomon dard ekan, oyoq bo'lsayu yurolmasa, undan yomoni yo'q ekan. Bobojonimda oyoq bor ekan, bosh yo'q ekan, boshi bo'lganda oyog'ini ehtiyot qilgan, sovuq suvga solmagan bo'larkan. Bobojonlar soqollarini silkitib, he-helashib kulishib olishdi. Men darrov o'girilib bobojonimga qaradim, xayriyat boshi joyida turgan ekan...

Oyoq og'riqning davosi o'rik o'tining bozillashiyu qora qo'chqorning yog'i emish. Qo'chqorning yog'iga palov damlab, to'yib yeb, oyoqqa ham surtib, qizib turgan sandalga uzatilsa, shunday terlar emishki, bir uxlab turilsa, og'riq yo'q bo'lib qo'armish. Luqmon bobo degan katta do'xtir shunday deganmish. Bu gaplarning hammasini beli bukri Yunusali bobom aytdi. Boshqa bobolar ma'qul deyishib, boshlarini qimirlatib-qimirlatib turishdi. Haligi tugunchalardan birida yangi so'yilgan qora qo'chqorning go'sht-yog'i bor emish... Oshni o'zimiz damlab, Erkavoy bilan bir chaqchaqlashaylik, deb kelishgan emish.

– Robiyabibi, – deb chaqirdi axiyri Yunus bobo.

Enam hovlidan turib:

– Men shu yerdaman, – deb ovoz berdi.

– O'rik o'tindan bormi?

– Voy qo'shni, bir haftadan buyon qattiq o'tin qoldi deysizmi, o'rtog'ingiz tinmay sandalga o't bos, deydilar.

– Hech bo'lmasa kundasidan ham yo'qmi? Erkavoy yozi bilan inqillab ko'chirgan edi-ku?

O'rikning kundasiyam, g'o'lasiyam serob, bog' tomonga bosib qo'yganmiz. Bu xabarni eshitib, Yunus bobom enajonimga, bizning hovlimizga chiqa qoling, o'rtog'ingiz yolg'iz, iyakni iyakka tirab olib miriqib hasratlashasizlar, oshni o'zimiz damlaymiz, hoy, biz erkaklarga ham, har zamonda ozodlik beringlar, dedi. Men qo'rqib ketdim, bor, sen ham chiqa qol deyishsa, nima qilaman? Qo'y yog'i oyoqdagi og'riqni qanday sug'urib olishini ko'rmoqchi edim. Qizig'a, og'riq o'zi qanaqa narsa, nimaga o'xshaydi, odamning oyog'iga qanday kirib oladi, chiqayotganda qayeridan chiqarkin, og'zidanmi... Shular haqida o'ylab turuvdim, o'zimning bobom:

– Rahmonjon, – deb chaqirdi, – bobolaringga oshpichoq bilan taxtakachni topib bergin.

Ish buyurganiga xursand bo'ldim. Endi chiqmayman, hecham chiqmayman. Mazza qilib gaplarini eshitib, keyin o'rtoqlarimga hammasini aytib beraman... Bir uyga kiraman,

bir hovliga chopaman, arra topib bersam, bolta qayerda deydi, og'ixonadan boltani sudrab chiqsam, teshanglar yo'qmi deydi. Uyga kirib kapgirni topib bersam, ho'v bolam, tuzluqlaring qayerda deb so'rashadi. Hecham yaxshi gaplardan gaplashishmayapti. O'tgan hafta bozorda qo'yning narxi arzon bo'пти, shuyam gap bo'пти-yu. Bo'rilardan, uchar otlarga mingan qo'rboshilardan gaplashishganda mazza qilardim. Men vahimali narsalarni yaxshi ko'raman. Oldin sal-pal qo'rqib turaman-da, keyin butunlay qo'rqmay qolaman...

G'olani minib tur emish. Arra tortishayotganda qimirlab ketayotgan emish. Hecham-da, qiziq-qiziq gaplardan gaplashishsa, jon-jon deb minib turardim. Enam bilan Hayitvoylarnikiga chiqib ketaversam, hozir yong'oq o'ynayotgan bo'lardim. Endi chiqa qolsam-chi? Yo'q, qorong'i tushib qoldi, ajinadan qo'rqaman... Ichkari kirdim. Qozonda bir narsalar bilq-bilq qaynayapti. Haligi, ko'lmak suvning ustiga yomg'ir yoqqanda shishib chiqadi-ku, o'shanaqa bo'lib qaynayapti. Bilaman, palov pishirishyapti, pishsa, oling-oling, qani-qani, qilib yeyishadi-da, keyin bobojonimning oyog'iga yog' surtishadi, keyin bobojonim tuzalib qoladi. Hech birlari menga gapirishmayapti. Judayam alam qildi. Yig'lavoray dedim.

– Nega betoqat bo'lib qolding, o'g'lim? – dedi axiyri bobojonim. – Yonimga kela qol.

– Bormayman, – dedim alamim oshib.

– Iya-iy, nima bo'ldi, o'g'lim?

– Yig'lagim kelyapti.

– Mehmonlarning oldida uyat bo'ladi-ya!

Indamay, kigizni ataylab changitib, uyning to'riga o'tib ketdim. Chuqur tokchadagi tunuka qutining ichida bobom bergan tangalar, choynakning qopqog'i, har xil mixlar, sadaf tugmalar, yaltiroq cho'yan soqqalarim bor edi. O'shalarni olib shaqirlata boshladim. Esonqul bobom bitta qo'li bilan qulog'ini berkitib:

– Hoy, bolam, nima qilyapsan? – deb so'radi.

- O‘ynayapman, – dedim.
- O‘yinchoqlaring shunaqa ko‘pmi?
- Ha, shunaqa ko‘p.
- Qani, bizga ham ko‘rsat-chi.

O‘zim yangi etigimnimi yoki shu o‘yinchoqlarimnimi bi ko‘rsatsam-chi, deb turuvdim, jon-jon deb rozi bo‘ldim.

– Voy-bo‘y, sen juda boy ekansan-ku, – deb maqtad Esonqul bobom.

– Og‘ilxonada yana bor, – dedim yana ham ko‘proq maqto‘v eshitgim kelib. Nega desangiz, men maqto‘v eshitishni judayam-judayam yaxshi ko‘raman, eshitayotganda yayral ketaman.

– Mening nabiralarimga ham bersang bo‘larkan.

– Rahimberdigami?

– Ha, o‘shanga.

– Xo‘p, ertaga beraman.

– Obbo, Erkacholning nabirasi-ey, ko‘p saxiy ham ekansan. Xudo xohlasa, sendan yaxshi yigit chiqadi, barakalla.

– Bobojon, men namozning duolarini ham bilaman, dedim o‘rnimdan turib.

– Yo‘g‘-e!

– Rost, enajonim o‘rgatgan, ishonmasangiz, o‘zimnin bobomdan so‘rang.

– Biladi, – dedi bobom tasdiqlab, – qani bobolaringga bir o‘qib ber-chi, azamatim.

Ikki barmog‘imni xuddi enajonim o‘rgatganday qilib qulog‘imning yumshoq joyiga qo‘yib o‘qidim.

– Voy o‘g‘lim-ey, voy azamat-ey, beri kel, peshonangdan bir o‘pay, – dedi Esonqul bobom. Keyin boshqa bobolarimning ham oldiga borib engashib turdim. Peshonamdan o‘pib, yelkamni silashdi. Rosa maqtashdi, anor uzum berishdi. Erkavoy, xudo xohlasa, shu bolang masjidga imom bo‘ladi, deyishdi. Oxirida o‘zimning bobom yonidan joy ko‘rsatib:

– Kel endi, damingni ol, ertalabdan buyon sakraysan, charchagandirsan, – dedi.

– Uyqum kelyapti, – dedim.

– Ozingina sabr qil, oshni yeylik.

– Bobojon, issiq oshni yeyayotganda qo‘lim kuyib qoladi.

Bobojonim indamadi-yu, peshonamni yumshoqqina silab qo‘ydi. Bobolar yana Xoneshon bobo haqida gapira boshlashdi. Qo‘qonga borganda o‘shanaqa katta eshonlarning hammasi unga salom berarkan, ilmi shunaqa ko‘p ekanki, uning oldida boshqa eshonbobolar gap ocholmay qulluq qilib turisharkan.

– Shunday avliyo odamni qamashsa-ya, – dedi bobolardan bittasi.

– Johillar zamoni bo‘ldi-da, o‘rtoq, – dedi boshqasi.

Men johil degani nima ekan deb o‘ylay boshladim. Rosa o‘yladim, hech topolmadim. Keyin so‘rab olaman dedimu endi bobojonim haqida o‘ylay boshladim...

Xudo xohlasa o‘lmaydi, o‘rtoqlari ko‘p odam hecham o‘lmaydi, ular o‘tin yorishadi, palov damlashadi, oyog‘iga yog‘ surtishadi, hecham o‘ldirgani qo‘yishmaydi. O‘rtoqlari ko‘p... men ham chol bo‘lganimda o‘lmayman, deb o‘ylayverdim-o‘ylayverdim, axiyri uxlab qolibman... Tushimda bobojonimni ko‘rdim. Ikkovimiz ham jannatga borib qolgan emishmiz. Qanotimiz bor emish, silkitib-silkitib uchib yurgan emishmiz, hammayoq tuman, hech narsani ko‘rib bo‘lmas emish. Bir mahal bobojonimning qanoti yo‘q bo‘lib qolib, shalop etib yerga tushib ketdi.

– Bobojon! – deya baqirib yubordim. Keyin ko‘zimni ochib, o‘rnimdan turib ketdim. Mehmon bobolar ketib, enajonim ham qaytib chiqibdi, uyqusiraganimcha bobom tomonga o‘girilib, bo‘ynidan mahkam quchoqlab, endi o‘lmaysiz-a, deb so‘radim.

– O‘lmayman, – dedi bobom yelkamdan silab, – xudo xohlasa, hammamiz ham o‘lmaymiz, birga yashaymiz.

## ENAJONIM ERTAK AYTADI

**N**onushtadan keyin bozillab turgan sandalga kirib uxlab qolgan ekanman, ko‘zimni ochsam, bobojonim baland qo‘yilgan yostiqlariga suyanib uxlab qopti. Xumpur-puluq-puluq, xumpur-puluq-puluq qilib xurrak otyapti. Bobojonim o‘zi juda xurrakchi, enam bobongning shu odati yaxshi, uyimizga o‘g‘ri kirmaydi, dedi. Ilgari bitta itimiz bo‘lgan ekan, men uni hecham ko‘rmaganman, o‘sha itimiz xurrakka hech chiday olmas ekan, bobom xurrak tortishi bilan uyam yugurib kelib eshikka tirmashib, irillay berarkan... Enajonim bo‘lsa deraza tomonga o‘girilib, qiyiqqa gul tikayotgan ekan. Bilaman, yanagi kuzda mening katta to‘yim bo‘ladi, o‘shanda yuzta gulli qiyiq kerak, hammaga bittadan ulashamiz.

Asta o‘rnimdan turib bildirmasdan borib, enajonimning bo‘ynidan mahkam quchoqlab oldim.

– Voy, kimsan? – deb so‘radi boshini ko‘tarmay.

– Qani toping-chi, – dedim ovozimni boshqacharoq qilib.

– Nevaram ko‘p, bitta-yarimtasi kelgandir-da.

– E, bu men-ku! – deya kulib yubordim. Enajonim doim shunaqa, orqasidan kelib achomlasam, men ekanligimni hecham topolmaydi.

Keyin deraza tomonga qarasam... voy-bo‘y, shunaqangi qor yog‘yaptiki, shunaqangi tez yog‘yaptiki... Million-milliontasi bir-birini quvalab tushyapti, voybo‘y, judayam chiroyli. Uyimiz balandlikka qurilgan, derazamiz ko‘cha tomonda bo‘lgani uchun mana bu enam ikkovimiz o‘tirgan joydan uzoq-uzoqlargacha, ho‘v Otaxon boboning maydonigacha, o‘rikzordan uyoqdagi qishloqlargacha, hamma-hammasining ustiga ham qor yog‘yapti... Voybo‘y, shuncha qor qayerdan paydo bo‘larkin, yog‘aversa, keyin osmonda tugab qolmasmikan?

– Ena, – deb chaqirdim.

– Nima deysan, qulunim?

– Qorning yog‘ishini qarang.

– Ko‘ryapman, azamat.

– Yo‘q, qarang, hammasini ko‘rganingiz yo‘q, – shunday deb enajonimning boshini deraza tomonga burdim.

– O‘g‘lim, buni laylakqor deyishadi, – dedi enajonim ham zavqlanib.

– Nega laylakqor deyishadi? – so‘rayman bilgim kelib.

– Laylakka o‘xshab oppoq qanotlarini silkitib-silkitib tushayotgani uchun-da.

– Enajon, shu qorlar qayoqdan paydo bo‘ladi?

– Buyam yaratgan egamning bir karomati-da, o‘g‘lim.

– Yaratgan egam deganingiz Xudomi?

– Ha, Xudo.

– Ayta qoling, qor qayerdan paydo bo‘ladi, jon enajon? Anavi kuni Abdurahimdan so‘rasam, Xudo elakka un solib elaydi, o‘sha yerda qor bo‘lib tushadi, deydi. Yolg‘on -a? Shuncha unni Xudo qayerdan oladi, osmonda tegirmon yo‘q-ku!

– Aytdim-ku! Xudoning karomati deb.

– Yo‘q-yo‘q, aytasiz, bo‘lmasa tiktirgani qo‘ymayman, – shunday deb tizzasiga qo‘yib tikayotgan chokini tortib oldim, – Xudoning karomatini aytib berasiz.

– Hamma narsani bilging keladi-ya, o‘g‘lim. Bo‘lmasa jim o‘tir, xalaqit berma. Qor haqidagi ertagimni aytib beraman.

– Hammasini aytasizmi?

– Hammasini aytaman.

– Uxlab qolsam-chi?

– Kechasi bo‘lsa uxlab qolarding, hozir kunduzi-ku, o‘g‘lim, faqat gap qo‘shmay tur, xo‘pmi?

– Xo‘p.

Enajonim har gal ertak boshlashidan oldin bir nafasgina ko‘zlarini yumgan ko‘yi jim bo‘lib qolardi, bu gal ham shunday qildi. Eslab olsa kerak-da.

– Qadim-qadim zamonda, – deb gap boshladi keyin, – shu o‘zimizning Farg‘ona tomonda ajoyib inson yashagan ekan. Xushfe‘l, xushxulq, yana bobojoningga o‘xshab yaxshi bog‘bon, saxiy, saxovatli, yana yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga ko‘p mehribon ham bo‘lgan ekan. Besh vaqt



namoz o'qirkan, ro'za tutarkan, musulmonchilikni o'rniga qo'yarkan, xudo taolo mo'мину musulmon bu insonga to'rt farzand ato qilibdi, to'rtoviyam o'g'il bo'libdi, degin. Har o'g'illar ekanki, tojedor poshsholarning ham havasi kelarkan.

– Enajon, katta bo'lsam menam o'sha yigitlardaqa bo'lamanmi? – deb so'radim.

– Xudo xohlasa, albatta, bo'lasan. Gap qo'shmay turda, o'g'lim, adashib ketaman. Cholning o'g'illari ham otalariga o'xshab saxiy, saxovatli, mehnatkash ekan. Har kuni o'rinlariga yotganda, e xudo, bizga shunday fazilat ato qilginki, butun olamdagi odamlarga yaxshilik qilaylik, bu yaxshilik hech ado bo'lmasin, deb iltijo qilisharkan. Xudo ularning iltijosini bajo qilibdi va har biriga alohida bir sehr ato qilibdi. Duo o'qishsa, katta o'g'il qorga, ikkinchi o'g'il yomg'irga, uchinchi o'g'il shamolga, to'rtinchi o'g'il quyoshga aylanib qolar, yana duo o'qishsa, o'z hollariga qaytishar ekan... Qish kelsayu qor bo'lmasa yomon bo'larkan. Odamlar xudodan qor so'rab, uyoq-buyoqqa yugurib qolisharkan. Katta o'g'il bilgan duosini o'qirkan, butun olamga goh shakarqor, goh laylakqor yog'a boshlarkan. Bolalar sevinishib:

*Qor yog'ar, qor yog'ar,  
Dalalarga don yog'ar.  
Qor yog'ar, qor yog'ar,  
Uyimizga non yog'ar, –*

deb ashula aytisharkan. Negakim, qor ko'p yog'sa, qirlarda bug'doy yaxshi unarkan, daryolarda suv ko'payarkan, qurt-qumursqalar qorning ostiga kirib, sovuqdan jon saqlar ekan... Iliq bahor kelib, qorlar erib bitarkan, yerlar quruqshab qolarkan, giyohlar qatqaloq yerni yorib chiqolmay qiynalarkan, daraxtlardagi kurtaklar ozgina nam bo'lsaydi, deya osmonga tikilarkan. Shunda ikkinchi o'g'il duo o'qirkan: shovillab iliqqina yomg'ir yog'a boshlarkan. Bolalar yugurishib ko'chaga chiqib, do'ppilarini osmonga otib:

*Yomg'ir yog'aloq,  
Echki qumaloq,  
Boyning qizini  
Qorni dumaloq,  
Yomg'ir yog'aloq,  
Unsa tuvaloq,  
Bargi shapaloq, –*

deb she'rlar to'qishib, ashulalar aytisharkan. Ana undan keyin olam yashnab-yosharib ketarkan. Kurtaklar oppoq-oppoq gul ocharkan, qatqaloq yerdan sariq, safsar chuchmomalar unib chiqarkan, qirlarda yam-yashil maysalar gurkirarkan, qip-qizil lolalar adirlarga gilam yoyarkan, hasharotlar ham inlaridan chiqib, yaratganga hamdu sano o'qisharkan, ashula aytisharkan... Goho yomg'ir behad ko'p yog'arkan, quyosh yuzini ko'rsatmay qo'yarkan, ko'chalar loy bo'larkan, dalaga qo'sh chiqolmas ekan, daraxtlardagi gullar g'o'raga aylana olmas ekan. Shunda odamlar, e xudo, Haydar shamolingni yubor, deya iltijo qilisharkan. Uxlab qolgan uchinchi o'g'il o'rnidan turib darhol duo o'qirkan, yengil-yengil shamol esa boshlarkan. Bolalar ko'chaga yugurib chiqishib, sakrashib-irg'ishlashib:

*Haydar shamol esyapti,  
Dalalarni kezyapti.  
Bo'z dalaga qo'sh chiqar,  
To'rtta emas, besh chiqar.  
Haydar shamol esyapti,  
Bulutlarni quvyapti,  
Endi ular dam olar,  
Ekin-tikin mo'l bo'lar, –*

deb ashula aytisharkan.

Bo'z yerlarga don-dunlarni ekish, ariqlarni tozalash, hovuzlarga suv quyish boshlanarkan. Marvartak tutlar asta-sekin shira yig'arkan. O'riklar sarg'ayarkan, gilolar rang olib,

e bola, meni yesang-chi, deb chaqirarkan... Goho quyosh qora bulutlar ortiga berkinib olib, haftalab o'zini ko'rsatmay ham qolarkan. Butun olamda harorat pasayib ketarkan, bug'doylar pishmay, makkalar o'smay, sholilar unib chiqmay tek turishaverarkan. Shunda odamlar e, xudo, quyoshingga ayt, jamolini ko'rsatsin, deya tunu kun iltijo qila boshlarkan. Iltijo xudojo'y kenja o'g'ilning qulog'iga ham eshitalarkan.

Bu azamat darhol o'rnidan turib, yuz-qo'lini yuvib, tahorat olib, bilgan duosini o'qirkan. Ertasigayoq quyosh charaqlab chiqib, yeru osmonga qaynoq-qaynoq nurlar to'kib, ekinlarni yashnatib yuborarkan. Ekish-tikinlari yashnaganini ko'rgan dehqonlar xursand, bog'bonlaru chorvachilar ham xursand – hammayoqda xursandchilik boshlanarkan. Tollar soyasiga, salqin hovuz bo'yiga yig'ilgan bolalar irg'ishlashib, qo'l ushlab ashula aytisharkan:

*Oftob chiqdi olamga,  
Yugurib bordim xolamga,  
Xola, xola, kulcha ber,  
Xolam deydi, o'tin ter.  
O'tin terdik bir quchoq,  
Kulcha yopdik bir o'choq.  
Dol bo'lganga o'n kulcha,  
Kech qolganga bir kulcha,  
Jizzasi bor o'zimga,  
Yaxshi aytgan so'zimga...*

Shunday qilib xudojo'y otaning to'rttovi farzandi ham el-yurt xizmatiga bel bog'lashni niyat qilishgan ekan, niyatlariga yetishibdi. Yaxshi niyat qilgan kishilar hamisha murodiga yetarkan. Odamlar o'g'lonlardan mamnun bo'lib, umrlaring uzoq bo'lsin, dunyo turguncha turinglar, deb duo qilarkan. Bu duolar ijobat bo'lib, xudoi taolo o'g'lonlarni hech o'lmaydigan, dunyo turguncha turadigan qilib, biriga Ayoq bobo deb, ikkinchisiga Bahor bobo deb, uchinchisiga Haydar bobo deb, to'rtinchisiga Quyosh bobo deb nom beribdi. Bu

bobolar hozir ham tirik ekan, dunyoni kezib yurisharkan, qor so'raganda qor, yomg'ir so'raganda yomg'ir yog'dirib berisharkan.

Enajonim ertakni tugatib, deraza tomonga tikilgancha jim bo'lib qoldi. Men ham o'sha tomonga tikilib, ancha mahal jim turdim, keyin:

–Ena, o'sha sehrli duolarni siz ham bilasizmi? – deb so'radim.

– Yo'q, bolam, bilmayman, – dedi enajonim xo'rsinib.

– E-e, bilganingizda menga o'rgatib qo'yardingiz.

– O'rgatsam nima qilarding?

– Qorlarni, yomg'irlarni chaqirardim, odamlarning duosini olardim...

– Toylog'im, azamatim, kel, bir achomlashaylik, – dedi enajonim quchog'ini keng ochib.

To'yib achomlashdik. Oyog'idagi qorni ostonaga tap-tup qoqib Ahmadqul bobom kirib kela boshladi. Avvaliga qor yog'diradigan Ayoq bobo shu bo'lsa-ya, deb o'yladim. Keyin Erkachol, qalaysan, o'rtoq deganini eshitib, yo'q bu Ahmadqul bobomning o'zginasi, deb ko'nglimdan o'tkazdim. Hol-ahvol so'rashib olgach:

– Mana, o'g'lim, – dedi Ahmadqul bobom mushuklarga ovqat beradiganga o'xshash kichkina kosachani tancha ustiga qo'yib, – aytganingni qildim. Bo'rsiqning erkagi ilingan ekan, yog'idan jinday olib o'zini qo'yib yubordim. Sakrab-sakrab iniga kirib ketdi. Robiyabibi sizning ham ishingiz oson bo'ldi, hidiga toqat qilolmaysiz deb, biryo'la o'zim eritib chiqa qoldim. Qani o'rtoq, erkalanib yotavermay, oyog'ingni chiqar, yog'ni o'zim surtib qo'yaman.

– Bobojon, rostdan ham bo'rsiqning erkagi ilingan ekanmi? – deb so'radim ishonqiramay.

– Ha, erkagi ilinibdi, menikiga o'xshagan mo'ylovi ham bor ekan.

– Keyin chindan ham qo'yib yubordingizmi?

– Ha, qo'yib yubordim, iniga kirguncha orqasidan qarab turdim.

Sevinib ketdim. Juda-juda sevindim. Endi unga erkak bo'rsiqning bolalari otamiz qachon kelarkin deb yig'lab o'tirishmaydi, inlarida hammalari birga bo'lishadi. Enajonimni qanday achomlagan bo'lsam, Ahmadqul bobomni ham shunday achomlab, yuzining soqoli yo'q joyidan o'pib oldim.

## «ODOBLI BOLA» O'YINI

**Q**or yog'averdi-yog'averdi, axiyri qo'rg'onchamizdagi jamiki uylaru bog'lardagi daraxtlar, biz o'ynaydigan maydonchalargacha – hamma-hammasi oppoq qor ostida qoldi. Enajonim deraza oldiga o'ltirib olib qang'illab ashula aytib, chok tikkani-tikkan. Bobojonim bo'lsa o'zining oyog'ini o'zi uqalab nuqul uh tortadi. O'yinchoqlarimni bir marta o'ynadim, keyin zerikib, hammasini tepib tashladim.

– Enajon, zerikib ketyapman, – dedim yig'lamsirab.

– Yonimga o'tir, ertak aytib beraman, – yupatmoqchi bo'ldi enam.

– Ertak eshitgim kelmayapti.

– Bor bo'lmasa, ko'chaga chiqib o'rtoqlaring bilan birpas o'ynab kel.

– O'rtoqlarimga chiqmayman, Murodxonning buvisi labini mana bunaqa qilib burib, ha, azamat, sandallaringning o'ti o'chib qolibdi-da, isingani chiqibsan-da, deydi.

– Bo'lmasa Hayitvoylarnikiga kir.

– Hecham-da, ularnikida bola ko'p, sandallarida joy yetishmaydi-da, keyin surib-surib meni chekkaga chiqarib qo'yishadi.

– Menga qara, onasi, – deb gap qo'shib qoldi bobojonim,

– Rahmonberdi o'g'limni zeriktirib qo'yamaylik, o'rtoqlarini chaqirib kelsin, bironta o'yin o'ylab toparmiz.

– Rost aytyapsizmi, bobojon? – dedim sakrab o'rnimdan turib.

– Rost aytyapman.

- O'zingiz ham o'ynaysizmi?
- O'ynayman.
- Enam-chi?
- Uyam o'ynaydi.
- «Odobli bola» o'ynaymizmi?
- Bo'пти.
- Yong'oqdan ko'p berasiz-a?
- Ko'p beraman.

Oh, qanday yaxshi bo'ldi-ya! Maza qilamiz endi. Bobojonim o'zi yaxshi-da, enam ham, men ham yaxshiman, hammamiz yaxshimiz. Odobli bola o'yini – zo'r o'yin. Kim odobli bo'lsa, o'sha yong'oqni ko'p yutadi. O'rik ham, mayiz ham yutadi. Ho'l qor yog'ib, shamol kelayotgan kuni Ahmadqul bobomnikida o'ynagan edik, men hammasidan zo'r chiqqanman, bir xalta yong'oq yutganman, cho'ntagim mayizga to'lib ketgan. Faqat yong'oqni ko'p yemaslik kerak. Enajonim, qo'y, bas qil endi desayam, ishingizni qiling, o'zimning yong'og'im, deb chaqib yeyaverdim, oxiri tomog'im og'rib qoldi. Ertalab turib ena desam, indamaydi. Keyin bilsam, ovozim chiqmay qolgan ekan. Endi yutsam, ko'p yemayman, ikkita-ikkidadan nonga qo'shib yeyman... Ey, qanday yaxshi bo'ldi-ya! Enajonimning tikib turgan chokini otib tashlab, bo'yniga osilib oldim. Birga chiqib aytamiz, bolalar menga ishonmaydi, enalari issiq sandalda jimgina yotsang-chi, deb urishib beradi, birga chiqasiz, deb hovliga sudray boshladim.

- Voy, enaginang o'rgilsin-ey, – deb qo'ydi oxiri enajonim.

Hammasini aytdik, ko'cha boshidagi G'ulom bobonikigacha bordik. Uyimiz bolaga to'lib ketay dedi. Bilasizku, chorhari uyimiz judayam katta. Enajonim hammasining tagiga mening to'yimga atab tikkan yakandozlaridan to'shab:

- Xush kelibsizlar, mehmonlar! – dedi.

Hayitvoy o'yin boshlanib qolsa, tag'in kech qolmayin deb qo'rqib etigini kiyishga chidamay, bobosining mahsisining ustidan kiyadigan katta kalishini kiyib chiqqan ekan, ichi

qorga to'lib qopti. Sanambuvi uch yoshli Rohila degan qo'g'irchoqqa o'xshagan singilchasi bor ediku, o'shaniyam ergashtirib chiqibdi. Dilijon otasining quloqli telpagini kiyib chiqqan ekan, beti ko'rinmay, hech kimga o'xshamay o'tiribdi.

Bobojonim, har biriga alohida-alohida tikilib, bu kimning bolasi, bu kimning nabirasi, deb so'rab chiqdi. Enajonim g'alvirni to'ldirib yong'oq, mirsanjali o'rigimizdan olib chiqib, bobomning oldiga qo'ydi-da:

– Hoy, otasi, boshlamaysizmi? – deb qistadi.

– Xo'sh, o'g'il-qizlarim, jajji mehmonchalarim, – dedi bobojonim, – odobli bola o'yinini bilasizlarmi o'zi?

– Bilamiz, hammamiz bilamiz, – dedik chuvillashib.

– Kimdan boshlaymiz bo'lmasa?

– Mendan, – sakrab o'rnidan turdi Abduhalim.

– Sen kimning nabirasi bo'lasan?

– Raimqori boboning.

– Bobong ko'rinmaydi, tinchlikmi?

– Qo'qonga mayiz sotgani ketgan, enam ko'targaniga sotib darrov qaytib keling, savdolashib vaqtini o'tkazmang, degandi, bobom ishingni qil, o'zim bilaman, deb ketgan.

– Lekin bobong mayizni yaxshi quritadi-da... Xo'sh, qani ayt-chi, o'g'lim, odobli bola qanaqa bo'ladi?

– Odobli bola... esli bo'ladi, – shoshilib qoldi Abduhalim.

– Yana?

– Yiqilib tushganda yig'lab o'tirmaydi, darrov o'rnidan turib ketaveradi.

– Yaxshi, yana qanaqa bo'ladi?

– Yana, ukasi yiqilganda o'rnidan turg'izib, yig'lama, ukajonim, yig'lama, deb yelkasini silab qo'yadi.

– Xo'sh, yana qanaqa bo'ladi?

– Akasini sizlab gapiradi, yana kattalar ish buyurganda «xo'p bo'ladi», deb qo'lini mana bunday qilib ko'kragiga qo'yib turadi.

– Barakalla, o'g'lim, yana qanaqa bo'ladi?

– Yana, ota-onasiga gap qaytarmaydi, mollarga ozor bermaydi, bir marta ona echkimizni minmoqchi bo‘lganimda buvim, «odobli bola unday qilmaydi», degan.

– Barakalla, xo‘p, yana qanday bo‘ladi?

– Qushlarni o‘ldirmaydi... Bir marta tutning kavagidan chumchuqning bolasini olayotganimda, enam, «odobsiz, nima qilyapsan, tush darrov» degan.

– Barakalla, o‘g‘lim, qanoat hosil qildim, sen ko‘p odobli ekansan.

Biz hammamiz o‘rnimizdan turib gurillatib qarsak chalib yubordik, Abduhalimning o‘zi hammamizdan ko‘proq chaldi. Enam unga to‘rtta yong‘oq, to‘rtta o‘rik uzatdi. O‘rtog‘im, juda ko‘p yutaman, deb o‘ylab uylaridan ataylab bo‘z xalta ko‘tarib kepti. Yong‘oq bilan o‘rikni o‘shanga solib, yonida o‘tirgan sherigiga lablarini chapillatib maqtanib ham qo‘ydi.

– Xo‘sh, endi navbat kimniki? – so‘radi bobojonim.

– Halidan buyon men tikka turibman-ku, – arazlaganday qilib dedi Dilijon.

– E-ha, e‘tibor bermabman. Yunusvoyning nabirasimiding?

– Voy, hozir so‘radingiz-ku?!

– Ha, aytganding-a... Qani boshla bo‘lmasa, o‘g‘lim.

– Ko‘p aytsam, ko‘p berasizmi?

– Ko‘p beraman.

– Odobli bola... odobli bola bobosi ishlayotganda oldiga «assalomu alaykum», deb boradi, – Dilijon qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, qanaqa salom berishini ham ko‘rsatdi.

– Yaxshi, – deb qo‘ydi bobojonim.

– Undan keyin, bobosi ishlayotganda oldiga borib, ketmonni menga bering, men chopishib yuboraman, deydi.

– Bu gaping ham yaxshi, davom etaver.

– Bobosi qo‘l yuvayotganda obdastani olib, keling, bobojon, men quyib yuboraman, deydi. Keyin kechqurun, bobojon, oyog‘ingizni uqalab qo‘yaymi, deydi... Keyin, bobosi hovuzdan suv olib kelayotganda, menga bering, charchab qolasiz, deydi.



– Barakalla, o‘g‘lim, ko‘p odobli ekansan, – deb maqtadi bobojonim, – odobni faqat bobongdan o‘rganibsanda, otanonang o‘rgatmabdi-da.

– Voy, ular qishloqqa ko‘chib ketishgan-ku, – shoshilib dedi Dilijon.

– Ha, aytganday, sen Yunusvoy bilan qolgansan, a? Barakalla, esimdan chiqay debdi.

– Endi yong‘oqni bering, – ikkov qo‘lini barobar uzatib dedi Dilijon. – Bersangiz, enam o‘rgatgan odobni ham aytib beraman, enam sen hammadan odoblisan, degan.

– Xo‘p, qani eshitaylik-chi, enang nimalarni o‘rgatgan ekan.

– Odobli bola yotayotganida o‘ng tomonini bosib yotadi... Keyin yana turayotganida ham o‘ng tomoni bilan turadi... Keyin yana uyga kirayotganida o‘ng oyog‘ini mana bunday qilib bosib kiradi... keyin yana uydan chiqayotganida ham o‘ng oyog‘ini bosib chiqadi.

Hammamiz tasir-tusiriga olib qarsak chalib yubordik. Dilijon ko‘p aytib yong‘oqni ko‘p olib qo‘ymasin, deb o‘g‘limda hali gap ko‘pga o‘xshaydi, degandi, yana qarsak chaldik. To‘g‘ri-da, hamma yong‘oqni u olar ekanu, o‘rikni yeb o‘tiraverar ekanu, biz qarab turarkanmiz-da? Hecham-da. Enajonim, bo‘lmasa mayli, endi mehmon qizlarimga ham navbat beringlar zerikib qolishmasin, degandi, Sanambuvi opasining tizzasida o‘tirgan Rohila o‘rnidan turib:

– Enam menga kamzul tikib yuborgan, – deb egnidagi kamzulchasini ko‘z-ko‘z qila boshladi.

– Voy, biram chiroyli ekanki, – maqtab qo‘ydi enam.

– Mana, tugmalari ham bor, – yana maqtandi Rohila.

– O‘h-ho‘, bunisi ham zo‘r ekan, yiltirab turibdi-ya, bobosi, qarang, qizimizning qo‘lida munchoqlari ham bor ekan.

Enajonim Rohilani tortib, tizzasiga o‘tqazdi-da, peshonasidan o‘pib, asal qizim, qaymoq qizim, deb erkaladi.

– Qani, oppog‘im, ayt-chi, odobli qiz qanaqa bo‘ladi? – deb so‘radi.

– Bilmayman, – dedi Rohila boshini sarak-sarak qilib.

– Voy, Mastonbuvi enang hech narsa o‘rgatmaganmi? Voy, sho‘rim qursin.

– O‘rgatgan.

– O‘rgatgan bo‘lsa, qani ayt-chi, qizim.

– Aytsam, Sanambuvi opam biqinimni chimdib oladi.

– Chimdimaydi, Sanamxon esli qiz, odobli qiz.

Rohila enamning tizzasidan turib, qo‘llarini yonbosh tushirib:

Sanam qizim oppoqqina,

Qo‘llari ham do‘mboqqina,

Bet-qo‘lini yuvmabdi,

Sochlari ham paxmoqqina, – deb chayqalib she‘r o‘qib yubordi.

O‘qidi-yu, hovliga qarab pildirab qochib chiqib keta boshladi. Sanambuvi opam urishadi, deb qo‘rqqan bo‘lsa kerak-da. Enajonim ushlab, qo‘liga ko‘tarib oldi. Kamzulining cho‘ntagiga mayiz, yong‘oq solayotgandi, biz bu Maston xolam to‘qigan she‘r, o‘tgan safar ham o‘qigan, odobli bola o‘yinini bilmas ekan, uyat, uyat, deb kigizni tapillatib tepib, uyni changitib qarsak chalib yubordik. Rohila qiz to‘xtab, orqasiga o‘girilib:

– Odobli qiz ovqat ichayotganida qoshiqni yalamaydi, keyin labini ham chapillatmaydi, bilaman, hammasini bilaman. Keyin mishig‘i oqqanda yengiga artmaydi, – dediyu, boshini enamning ko‘ksiga berkitib oldi. Uyalib ketdi shekilli. Uyalmasa ham bo‘lardi, to‘g‘rimi? Odobli bola mishig‘ini rostan ham yengiga artmaydi. Undan ko‘ra cho‘ntagidan ro‘molchasini olib o‘shanga artadi. Bobojonim Rohila qizni erkalab, oltita yong‘oq berdi. Biz havasimiz kelib, o‘h-ho‘, deb yubordik.

– Xo‘sh, mehmonlarim, endi kimga navbat beramiz? – so‘radi bobojonim.

– Navbat meniki, – o‘rnidan turib bobojonim tomon qarab yura boshladi Murodxon o‘rtog‘im.

– Qani boshlayver, joyingda turib aytaver, o‘g‘lim.

– Yo‘q, avval yong‘og‘imni berasiz.

– Tartibni buzma-da, o‘g‘lim.

– Aldaysiz, Ahmadqul bobom ham anavi kuni aldagan. Sen yaxshi bilmas ekansan, deb menga nuqul puch yong‘oqlarni bergan... Bermasangiz aytmayman.

Bobojonim unga ikkita yong‘oq uzatuvdi, u bo‘lsa odobli bola o‘yinini boshlash o‘rniga, o‘choq boshiga o‘tib teshaning orqasi bilan yong‘oqlarini chaqib, mag‘zini shoshmasdan yeya boshladi. Birpas kutdik, ikkipas kutdik, oxiri zerikib, qarsak chalib uyat, uyat, uyat, deb uyni boshimizga ko‘tardik. Murodxon shovqin bosilgach:

– O‘rigimniyam bersangiz keyin o‘ynayman, – dedi.

Bobojonim hovuchida o‘rik uzatuvdi, shoshmasdan cho‘ntagiga soldi-da, men buvimdan so‘rab chiqay, keyin o‘ynayman, deb shataloq otib chiqib ketdi.

– Uyat, uyat, uyat, uyat! – deb baqirdik orqasidan.

– Endi navbatni Sanamxon qizimga beraylik, – dedi enam.

Sanambuvi zo‘r, judayam zo‘r, hammadan ko‘p biladi, Ahmadqul bobomnikida o‘ynaganimizda aytaverdi, aytaverdi, yong‘oqlarni olaverdi, olaverdi, oxiri Ahmadqul bobom, e, barakalla, qizim-ey, yana birpas o‘ynasak, omborni qoqlab qo‘yasan shekilli, dedi. Keyin-chi, Sanambuvi gapirayotganida bir yerga, bir uyning shiptiga qaraydi, o‘shanda adashib ketmasa kerak-da. Yong‘oq turgan g‘alvirlarga hech qaramaydi.

– Odobli qiz o‘rnidan turganda eng avval joyini yig‘adi, – deb gap boshladi Sanambuvi, – undan keyin yuz-qo‘lini yuvadi, undan keyin hovli supuradi...

– Barakalla, qizim, ko‘p odobli ekansan.

– Keyin tovuqlarni katakdan chiqarib yuboradi, nonushtaga o‘tirishganda kattalardan oldin qo‘l uzatmaydi.

– Taom yeyishdan oldin «Bismillohu rahmonir rahim» deydi.

– Barakalla, qizim, ofarin!

– Qorni to‘yganda «Alhamdulillah, xudoga shukr» deydi.

– Yaxshi, davom etaver, qizim, ko‘p odobli ekansan.

– Nonushta tugaganda, dasturxonni qoqib, savobini umidvor arvohlarga bag‘ishladim, deydi... Chuchkurganda

kafti bilan og'zini berkitib, «la ilaha illolloh», deb turadi. Bo'lmasa og'ziga shayton kirib qoladi.

– Barakalla, qizim, barakalla.

– Undan keyin... yana aytaveraymi, bobojon? Yana aytaversam, odobli qiz kiyimlarini hamisha ozoda tutadi... aka-ukalarini sizlab chaqiradi.

– Barakalla, qizim, bilganlaringning hammasini ayt... Eng katta mukofotni senga beraman shekilli.

– Undan keyin mehmonlar kelganda, xush kelibsizlar, deydi. Ketishayotganida, voy, muncha shoshyapsizlar, yana kelinglar bo'lmasa, tez-tez kelib turinglar, deydi.

Odobli qiz o'yini shu yerga yetganda Matmusa bobomning kichkina qizi o'rnidan turib, voy, xolajon, Sanamxon mening odobimni aytib qo'yapti-ku, ularni menga buvim o'rgatgan, deb sal bo'lmasa yig'lab yuborayozdi.

– Hecham-da, – dedi Sanambuvi, – men o'zimning enamdan o'rganganman.

– Enang bizdan o'g'irlab olibdi, bo'lmasa o'g'ri ekan, uyat, – deb Dilbarxon Sanambuvi tomonga asta-sekin kela boshladi.

Ikkovlari bir-birlariga tikilishib, urishay-urishay deb qolishdi. E, urishmasa bo'lardi-da, o'yinimiz endi rasvo bo'ladi. Qarsak chalib yuboruvdik, unga ham parvo qilishmadi. Endi bir-birlariga judayam yaqinlashib qolishdi. Mening enam o'zi yaxshi-da, judayam aqlli, ikkovlarini ikki qo'ltig'iga olib, peshonalaridan cho'pillatib o'pib, yarashtirdi-qo'ydi. Onajonlarim, asal qizlarim, dedi keyin, osmon hammaniki bo'lgani kabi, quyosh hammaniki bo'lgani kabi odob so'zlari ham hammaniki bo'ladi. Sizlar, asal qizlarim, osmonga qaraganlaring bilan osmon ado bo'lib qolmaydi, to'g'rimi? Har birlaring o'z uylaringda turib odob so'zini aytganlaring bilan odob ham ado bo'lib qolmaydi... Odob ham, oftob ham hammaniki...

Biz betoqat bo'lib navbatimiz qachon keladi, deb kutayotgandik, chidayolmay qarsak chalib yubordik. Odob ko'p bo'lsa, yaxshi, lekin yong'oq oz-da, bizga yetmay qoladi, deb chug'urlashdik, keyin o'yinimiz yana boshlanib ketdi.

O'ynayverdik, o'ynayverdik. Men ikki marta chiqdim. ikkovidayam hammadan ko'p yutdim. Murodxon o'rtog'im men buvimdan odobni o'rganib chiqdim deb, uyam o'yinga qo'shilib oldi. Ey, o'sha kuni juda maza bo'ldi-da. Enajonim ham, bobojonim ham odobli ekan, odobli bobo bilan odobli ena qanaqa bo'ladi deb so'rovdik, ular ham javob qaytarishdi. baribir, bizchalik bo'lishmadi. Rosa kulishdik, qarsaklar chaldik, oxirida odobli qizlar uy supurishdi, biz odobli bola bo'lganimiz uchun uchtamiz uyog'iga, uchtamiz buyog'iga o'tib, bobojonimning oyog'ini uqaladik. Chiqib ketayotganda Hayitvoy o'rtog'im qulog'imga: «Bobongning oyog'i quruq suyak ekan, mening bobomning oyog'i yumshoqqina liqqa go'sht», deb maqtandi.

## TUNGI MEHMOM

**E**najonim hamisha biror ishdan mamnun bo'lsang ko'ngling to'lsa, Xudoga shukr degin, buni o'rtoqlaringga ham o'rgatib qo'ygin, shunda Xudo ishingga yana rivoj berib. bundan ham ko'proq xursand bo'lasan, deb o'rgatardi. Men doim Xudoga shukr, deb yuraman. Yiqilib tushib peshonam qonamaganda o'shanda ham Xudoga shukr, deganman, Dilijon bilan ham o'zarga chopishib, o'zib ketganimda yana Xudoga shukr, Xudoga shukr, deganman... Bobojonim tuzala boshladi. Hassaga tayanib, voy-voylab bo'lsayam hovliga chiqyapti, katta boltani baland-baland ko'tarib o'tin yoryapti, og'ilga kirib, mollarga xashak solyapti, Xudoga shukr, hammasi yaxshi bo'lyapti.

Kun botay-botay deganda, bobojonim, yur o'g'lim. magazinga borib kelaylik, fonar yog'i olamiz, charchasam ko'tarib olarsan, deb menga emas, enamga qarab ko'zini qisib qo'ydi. Jon-jon deb rozi bo'ldim. Nega desangiz, qor yoqqandan buyon qishloqqa bir martayam borganimiz yo'q. Men yangi etigimni kiyib, qorlarni g'arch-g'urch bosib yurishni yaxshi ko'raman. Yo'lda yursangiz, uncha qiziqmas,

chekkaroqqa chiqib bosilmagan qorlar ustidan yursangiz, g'arch-g'urch, g'arch-g'urch degan ovoz chiqaradi.

Yo'lda ketayotganda:

– Bobojon, nega meniyam olib ketyapsiz, rostdanam sizni ko'tarib olamanmi? – so'radim.

Bobom kuldi:

– Yo'q, o'g'lim, meni ko'tarolmaysan.

– Nega bo'lmasa unday dedingiz?

– Qiziq-qiziq gaplardan gaplashib ketaylik dedim-da.

– O'zingiz qiziq gaplardan bilmaysizmi?

– Endi, o'g'lim, sen ko'proq bilasan-da.

To'g'ri, menga qaraganda bobojonim qiziq-qiziq gaplardan kamroq biladi. Bir marta, bolam, og'zingga qarab gapir, degandi, bobojon, og'zingga qanday qilib qarayman, qaragam gapirolmayman-ku, desam, bobojonim:

– Sen, o'g'lim, qiziq gap aytding-ku, – deb rosa kulgan. Yana bir marta dalaga suv ochgani ketayotganimizda hoy, ko'zingga qarab yur, tikonni bosib olmagin tag'in degandi, etagidan tortib, bobojon, ko'zingga qanaqa qilib qarayman, qarayman desam mana yumilib qolyapti-ku, deb javob berganimdayam rosa kulgan.

Magazinimiz oldida meni taniydigan bolalar bo'lsa, yangi etigimni ko'rsatib rosa maqtanaman, degandim, esizgina, nuqul katta bolalar chiqibdi. Ularga ko'z-ko'zlagim kelmadi. Bu yerda qishloqning idorasi, uning yonida ichiga bug'doy bilan sholi to'kib qo'yilgan sirli machit, undan narida magazin, undan narida nonvoyxona, undan narida choyxona, choyxonaning oldida yozda katta bolalar cho'miladigan hovuz ham bor. Hammasi joyida turgan ekan. Ularni tomosha qilib bo'lganimdan keyin yugurib bobomning oldiga kirdim. Bobojonim fonar yog'i, kallaqand olib, endi pul uzatayotgan ekan, qani, qancha berarkan, deb tikilib turdim.

– E, amaki, kattarog'idan uzatavering, shuncha pulni nima qilasis? – dedi magazinchi amaki.

Bobom pulning ortganini karmoniga solib:

– Nima qilardim, mana shu o‘g‘limga to‘y qilib bermoqchiman, – dedi.

Magazinchi amaki menga bitta popukli qand uzatib:

– To‘yingga meniyam aytasan-a? – deb so‘radi.

– Yana bitta bersangiz keyin aytaman, – degan edim, ikkovlari rosa kulishdi. Boshiga o‘g‘ilchasining to‘nini yopinib chiqqan bitta opa bor ekan, teskari qarab uyam kuldi. Mana shunaqa, men qiziq-qiziq gaplarni ko‘p bilaman. Endi chiqib ketayotgandik, boshiga qizil shapka kiygan ikkita melisa amaki kirib keldi. Men qo‘rqib ketdim. Quuloq bo‘lib o‘lgan otamni ana shular qo‘lini orqasiga bog‘lab, olib ketishgan bo‘lishsa-ya, deb o‘ylab, ana shunga qo‘rqdim. Ikkovidayam to‘pponcha yo‘q, faqat chakmonida yaltiroq tugmachalari ko‘p ekan. Shunaqangi tugmachalardan menda ham bor, qutichamga solib qo‘yganman.

– Xabarim yo‘q... – dedi bobom melisa amakiga qarab. Demak, ular bir narsa so‘rashibdi-da, men eshitmabman, nimani so‘rashdi ekan? O‘sha tugmachalarimni so‘rashgan bo‘lsa-ya, men ularni o‘g‘irlab olganim yo‘q-ku, katta cho‘yan soqqaga almashtirib olganman! Bobomning orqasiga o‘tib, chakmoniga betimni berkitib oldim, yana qo‘rqa boshladim.

– Mobodo biror xabar eshitsangiz... – dedi melisa amaki.

– Albatta, albatta, – javob qaytardi bobom.

– Idoramizni ko‘rgansiz-a?

– Xudo uni hech kimga ko‘rgilik qilmasin-u, lekin ko‘rganman, bolam, ko‘rganman. Albatta xabar beraman.

Jadal yurib chiqib ketdik. Bobojonim oyog‘i og‘rib, cho‘loqlanayotgan bo‘lsayam hassasini qo‘ltig‘iga olib, shunaqa tez yurdiki, orqasidan zo‘rg‘a yugurdim. Yigitali akaning eshigiga yetganda to‘xtab:

– Zahro xolangnikiga ham birrov kirib ketamizmi? – deb so‘radi.

– Unikiga kirmaymiz, – dedim.

– Unday dema, o‘g‘lim.

– Qachon borsam, ha, bobongni mayizidan obkemabsanda, hammasini o‘zing yeb yuraverasanmi, deydi... Kirsak, qantimizni yarmini olib qo‘yadi.

– Ha, mayli, o‘ziyam, qorong‘i tushib qoldi, turtinib yurmaylik.

– To‘g‘ri, bobojon, turtinib yurmaylik, – dedim men ham.

Endi sekin-sekin yura boshladik. Qishloqdan chiqib qo‘rg‘onchamiz ko‘ringuncha jim bordik. So‘ramay desam ham so‘ragim kelaverdi:

– Bobojon, melisa amaki sizdan nimani so‘radi?

– Qamoqxonadan birov qochibdi.

– Voy, kim qochibdi?

– Xoneshon hazratlari.

– E, yozda bog‘imizga mehmon bo‘lib keladigan eshon buvami?

– Ha, o‘sha kishi.

– Meni tizzasiga o‘tqazib, duo o‘rgatadigan eshonbuvami?

– Ha, o‘sha deyapman-ku.

– Voy ushlab olishsa-chi?

– Yana qamashadi-da, o‘g‘lim.

– Keyin nima bo‘ladi, bobojon?

– Qo‘y, bolam, so‘rayverma, yuraginga gap sig‘mayapti.

– Menikiga sig‘yapti-ku, bobojon.

– Seniki keng-da, o‘g‘lim.

– Sizniki judayam tormi?

– Ha, keyin keksayganda odamning yuragi tor bo‘lib qoladi.

– Bobojon, tor bo‘lmasdan oldin qancha gap sig‘adi?

– Qo‘y, o‘g‘lim, birpas jim ketaylik.

– Yo‘q, aytasiz, aytmasangiz, qorga o‘tirib olaman.

– Eh-he, odamning yuragiga tor bo‘lguncha mana shu yerda qancha qor bo‘lsa, shuncha, dalalarda qancha daraxt bo‘lsa, shuncha, tog‘larda qancha tosh bo‘lsa, shuncha so‘z sig‘ar ekan. O‘zining so‘zi, enajonining so‘zi, bobojonining so‘zi, o‘rtoqlarining so‘zi, hamma-hammasi sig‘ib ketaverarkan...

Kelsak, enajonim kechki ovqatni pishirib, sigimiyam sog‘ib olib, sandalga bozillatib olov solib Qo‘ygan ekan. Faqat, moshkichiri pishirgani yomon bo‘pti. Men uning o‘zini emas,



sabzisini yomon ko‘raman, og‘zimga solsam chaynagim kelmay turaveraman.

– Ha, Otajon, tinchlikmi? – so‘radi enam, – qovog‘ingiz ayron xaltaday osilib ketibdi?

– Uh, charchadim shekilli, – inqillab dedi bobojonim.

– Aftingiz boshqa narsani aytib turibdi-ku?

– Senam nevarangga o‘xshab hamma narsani bilging kelaveradi-ya... Ovqatingni suz... Xoneshon hazratlari qamoqxonadan qochib ketibdilar.

– Voy xudoyim, kimdan eshitdingiz?

– Ikkita melisa bola qishloqni ag‘dar-to‘ntar qilib yuribdi.

– Xudoyo o‘zi panohiga olsin, – enam fotihaga qo‘l ochdi, – avliyolar madadkor bo‘lsin, yurtimizning imoni edilar, imonli bandalarning baxtiga hamma balolardan qutulib olsinlar. Nima qilardik, otasi, osmon yiroq, yer qattiq... Faqat qovog‘ingizni ochibroq o‘tiring.

– Nima, ashula aytib beraymi, bo‘lmasa, – jerkib berdi bobojonim.

– Yoshligingizda aytolmagan ashulani endi aytarmidingiz, – dedi enam ham.

Kechki ovqatni jingina o‘tirib yedik. Bir-birimizga hecham gap qo‘shmadik. Keyin men kigizga o‘tirib xaltadagi yong‘oqlarimni qaytadan sanab ko‘ra boshladim. Ular bo‘lsa omborxonadan savatda mayiz olib chiqib, chorini tozalay boshlashdi. Qo‘qonga olib borib sotamiz, pulini to‘plab, mening to‘yimga ishlatamiz.

– Ena, uyqum kelyapti, – dedim esnab.

– Sandalga yotib yota tur, keyin yonimga olaman, – dedi enam.

– Ertak aytib bermaysizmi?

– Ertakni ertaga aytamiz, toylog‘im.

Tezgina uxlab qoldim. Qancha uxladim, bilmayman, yana uyg‘onib ketdim. O‘choqda guldiramazon bo‘lib o‘t yonyapti, uy yop-yorug‘, enam bilan bobom yo‘q, savatdagi mayiz o‘rtada turibdi. Qo‘yimiz tug‘ay-tug‘ay deb turuvdi, o‘shayoqqa chiqib ketishgandir-da, deb o‘ylab u yonboshimga

o'girilib oldim. Enam bilan bobom uyga kirib ikkita ko'rpa, ikkita yostiqliq olib yana chiqib ketishdi. Ie, qo'y tug'ayotganda tagiga ko'rpa solisharkan-da, deb o'yladim. Yana chiqishib, patnisda non, mayiz, qozondagi moshkichiridan ham olishdi. Ie, deb o'yladim yana, qo'y tug'ayotganida moshkichiri ham yer ekan-da. Keyin ikkovlari qaytib chiqishib, sandalga o'tirishdi.

–Ishqilib Rahmonberdi sezib qolmasin-da, onasi, – deb shivirladi bobom.

– Sezmaydi, dong qotib uxlab yotibdi, – enam ham shivirladi.

– Nima bo'lgandayam bola-da, bitta-yarimtasiga aytib qo'yadimi deb qo'rqaman.

– Qo'rqmang, otasi, omborxonani qulflab qo'yamiz.

– Bechora eshon hazratlari, – shivirlay boshladi bobojonim, – ko'p qiynalibdilar-da. Melisa yigitlardan biri savob bo'lar deb o'zi bosh bo'lib qochiribdi. Yaxshi odam ko'p-da, onasi... Qorong'i tushguncha suvi yo'q ariqda, ko'prikning ostida yotibdilar-a...

– Voy sho'rim, muzlab qolgandirlar?

– Muzlash ham gapmi, tillari gapga kelmayapti... Biznikiga yaxshi kelibsiz, xilvat joy, bola-chaqa yo'q, kirdi-chiqdi kam, dedim. Tirik ekanman, xudo xohlasa sizni ehtiyot qilaman, dedim. Sho'ring qurg'ur, yum-yum yig'laydi, degin... Onasi, tur, ozgina sut qaynatgin, asal qo'shib ichiraylik.

– Otasi, mayli, hazratimni ehtiyot qilaylik, savob bo'ladi, bu dunyodan savobdan boshqa yana nima ham olib ketardik...

Ana shunaqa gaplar bo'laverdi. Ha, bildim, hammasini bildim, eshon buvam qochib biznikiga kelibdilar. Men bo'lsam qo'yimiz tug'yapti deb o'ylabman-a? Mendan yashirishmoqchi, ko'chaga chiqib o'rtoqlariga aytib beradi, deb o'ylashayotgandir-da, hecham aytmasdim... Bilganimni enam bilan bobomga ham sezdirmayman. E, bu bola baribir aytib beradi, deb bechora Eshonbobomni ko'chaga chiqarib yuborishadi, sovuqda qayoqqa boradilar, to'g'rimi, keyin melisa amakilar yana qamab qo'yishadi-ku? Yo'q,

aytmayman, aytmayman. Ha, ha, menam enam bilan bobomni aldayman. Hech aytmayman... uyqu kelyapti, yo‘q, uxlayman, uxlayman.

## ESHON BOBOM MENI DUO QILDILAR

**E**rtalab nonushtadan keyin bobojonim, zarur ishi bor ekan, darrov kelaman, deb hassasiga tayanib, chiqib ketdi. Yur o‘g‘lim, birga boramiz, demadi, baribir aytganda ham bormasdim. Men Eshon bobo qayerda yotganlarini bilmoqchiman, bilamanu hech kimga aytmayman.

– Ena, omborxonaga kirib behi olib chiqsam maylimi, juda yegim kelyapti, – dedim.

– Kallayi saharlab-a? – hayron bo‘ldi enam.

– Ha, kallayi saharlab yegim kelyapti.

Enam yengilgina kuldi. Men ham ko‘ngliga boshqa gap kelmasin, deb o‘ziga o‘xshatib yengilgina kuldim. Mayli ola qol, degandi, yugurib chiqsam eshikni qulflashmagan ekan. Kechasi qulflab qo‘yamiz, Rahmonberdi kirolmaydi, deyishgandi-ku?

Ostona oldida to‘xtab, ichkariga qaray boshladim. Hech kim ko‘rinmadi. Tuyasandig‘imizda mayiz bor, yozda quritganmiz, Qo‘qonga olib borib sotmoqchimiz. Temir sandiqda o‘rik bor, savatlarda behi, anorlar turibdi, faqat Eshon bobo yo‘q, xolos. Meni aldashibdi-da yoki tushimda ko‘rdimmikan? Yoki men turguncha ketib qoldilarmikan?.. Bordi-yu, molxonadami, somonxonadami bo‘lsalar-chi?

– Ena, o‘ynagim kelyapti, – dedim qaytib chiqib:

– Haliroq borasan.

– Yo‘q, hozir borgim kelyapti.

– Quloqchiningni kiyib ol bo‘lmasa, – deb qichqirdi enam orqamdan. Quloqchinni kiyib nima qilaman, to‘g‘rimi?

Men tashqari hovliga o‘tib, undan molxonaga, undan somonxonaga kirmoqchiman. U yerda odamning qulog‘i sovqotmaydi, iliqqina. Molxonaga kirishim bilan eshikning

yonida yotadigan qo‘ylarimiz gur etib o‘rnidan turishdi, bechoralar-ey, bizga xashak soladi deb o‘ylashgandir-da. Hecham-da, shoshib turibman-ku, tug‘ay-tug‘ay deb turgan ona qo‘yimiz o‘ng oyog‘ini tap etib yerga urdi, men ham tap etkizib yerni tepib qo‘ydim. Buzoqcham menga qarab erkalanib mo‘-o‘ degandi, men ham mo‘-o‘, dedim. Kavshanib yotgan sigirim o‘rnidan shoshmasdan turib yalpoq og‘zini osmonga qilib, mo-o deb masxara qilgan edi, men ham mo-o deb uniyam masxara qildim. To‘g‘ri-da, qachon qarasam, meni masxara qilgani-qilgan. Molxona asta-sekin yorishib, endi hamma joyni ko‘radigan bo‘lib qoldim. Novvosimiz yotibdi, eshagimiz yotibdi, faqat Eshon bobo yo‘q, xolos. Oxurlar ham bo‘m-bo‘sh. Go‘ng uyib qo‘yilgan joyni aylanib o‘tayotgandim, sopi kalta kurakni bilmasdan bosib olibman. O‘sha kalta sopi kelib peshonamga taraqlab tegdi. Biram, og‘ridiki, enamning gapiga kirib quloqchinimni kiyib olsam bo‘larkan, bunchalik og‘rimasdi. Alam qildi, judayam alam qildi. Peshonam og‘riyotgani uchun emas, bobom bilan enam meni aldashgani uchun alam qildi. Yana tag‘in Rahmonjon bilmasin, Rahmonjon bilmasin, deb masxara qilishadi-ya... Somonxona tomonga qaragan edim, ie. ana buni qarang, zo‘r bo‘ldi-ku, somonxonamiz hech qulflanmas edi, faqat o‘tgan yili bobom ikki xum musallas solib armanilarga sotamiz deb qulflab qo‘ygandi, xolos. Kechayam ochiq edi, quchoqlab beda olib chiqqanman... Ha, bo‘ldi. Eshon buvamni shu yerga berkitishgan... Ichiga qanday kirdim endi? Burchakda teshik bor, Hayitvoy bilan yashinto‘paloq o‘ynaganimizda men o‘sha yerdan o‘tib, berkinib olardim. Hecham topolmasdi. Borib qarasam, eski to‘nni buklab tiqib qo‘yishibdi. Asta, ovoz chiqarmasdan o‘tib oldim. Oldin ko‘zim yaxshi ko‘rguncha jim yotdim, nafasimni chiqarmadim, keyin narigi burchakda, jo‘xori poya bilan to‘silgan joyda bobojonimnikiga o‘xshagan katta kalish turganini ko‘rib qoldim. Somonning ustidan surgalib, emaklab borayotgandim, to‘satdan kalish yo‘q bo‘lib qoldi. Ajina bo‘lsa-ya, deb o‘yladimu enajonim har kuni duo o‘qiydi, biznikida ajina bo‘lmaydi, deb o‘ylab qornimni

muzday somonga bosib jim yotaverdim. Poyaning uyog'i yorishib, hamma narsa ko'rina boshladi. Ha, oldin tippa barobar qilib somon to'shashibdi, keyin kigiz yozishibdi, keyin ko'rpacha solishibdi, keyin Eshon boboni yotqizib, ustini o'rab ham qo'yishibdi. Eshon bobom teskari tomonga qarab pish-pish uxlab yotibdilar, qarab turaverdim, turaverdim... Axiyri zerikib, poyaning orasidan qo'limni uzatdim-da, ko'rpani tortib:

– Bobojon, bobojon, – deya shivirlay boshladim.

– Ha?! – Eshon bobom uygoq ekanlar, o'rinlaridan turib ketayozdilar.

Oq ko'ylaklari ustidan bobomnikiga o'xshagan nimcha ham kiyib olibdilar. Poyaning orasidan boshimni o'tkazib:

– Bu menman, – dedim.

– O'takamni yorayozding-ku, bolam. Kimsan o'zi?

– Rahmonjonman, oldingizga o'tsam maylimi?

– Eshik qulf edi shekilli, qayoqdan paydo bo'lding?

– Teshikdan paydo bo'ldim, qo'rqmang, hech kimga aytmayman.

– Sal pastroq gapir, bolam.

– Voy, o'zingiz qattiq gapiryapsiz-ku, – deya shivirladim.

– Mening bu yerda ekanligimni kim aytdi senga?

– Kechasi enam bilan bobojonim gaplashayotganda o'zimni uxlaganga solib hammasini eshitib oldim. Qo'rqmang, bobojon, hech kimga aytmayman. O'yinchoq bersayam, pul bersayam hech kimga aytmayman. Aytsam sizni yana qamab qo'yishadi, to'g'rimi?

– To'g'ri-ku, bolam, lekin...

– Sizni ko'rib qolganimni bobomga ham aytmang, xo'pmi? Aytsangiz, e, bu bola o'rtoqlariga aytib beradi, deb sizni darrov chiqarib yuborishadi.

– O'h, bolam-ov, bolam-ov, qani o'tir-chi.

Halitdan buyon somonning ustida o'tiruvdim, endi surilib kigizga o'tib oldim. Eshon bobomning boshida sochi yo'q, sip-silliq ekan. Keyin soqollariyam juda siyrak, yana tag'in yarmi oq, yarmi qora deng. Yiltiroq boshlarida oq do'ppilari

bor ekan, o'shani kiyib, egnilariga bobomnikiga o'xshash chakmonni tashlab, boshlarini chayqadilar:

– O', bolam-ey, bolam-ey.

– Bobojon, mendan sirayam qo'rqmang, – dedim gaplashgim kelib. – Yozda kelganingizda, bog'imizdagi supada o'tirganingizda enajonim o'rgatgan duolarni o'qib berganimda meni tizzangizga olib, peshonamdan o'pib, ko'p esli bola ekansan deb nok bergansiz.

– E, bo'ldi-bo'ldi, bolam. Esladim, barakalla.

– Endi qo'rqmaysizmi?

– Yo'q, endi qo'rqmayman.

– Qo'rqmang, biznikida ajinalar yo'q. Enajonim duolar o'qib ularni haydab yuborgan.

– Robiyabibi enang ko'p fozila ayol-da.

– Bobojon, fozila degani nima degani?

– Ko'p narsani biladi, degani. Bor endi, bo'tam, uylaringga chiqa qol.

– Chiqqim kelmayapti-da, bobojon.

– O', bolam-ey, bolam-ey.

– Bobojon, siz cho'chqaning bolasini o'ldirib qo'ydingizmi?

– Astag'firullo, darrov kimdan eshita qolding?

– Aytmayman. Rostdanam cho'chqa o'z bolasini o'zi yeb qo'ydimi?

– Tavba.

– Ha, aldayapsiz, nachalnikka: e, cho'chqang boshingdan qolsin, debsiz-ku?

– E, tavba.

– Bobojon, cho'chqaniyam shoxi bo'ladimi?

– Ke, qo'y, bo'talog'im, men charchab turibman, – dedilar Eshon bobom, yostiqaqqa yonboshlab, – boshqa paytda gaplasharmiz, xo'pmi?

– Men charchaganim yo'q, bobojon, sizning ilmingiz daryomi?

– Kim aytdi bu gaplarni, bo'tam?

– Yo'q, ayta qoling, daryo ichingizda turadimi?

– Hay, endi bo'tam, ko'p kitoblarni o'qiganmiz-da.

– «Chor kitob»niyammi?

– Ha.

– Abo Muslimniyammi?

– Ha.

– Voy, bularni bizga otinbuvi xolam o‘qib berganku. bobojon, charchadingizmi, oyog‘ingizni uqalab qo‘yaymi?

Eshon bobom indamadilar, ko‘zlarini yumit yonboshlaganicha jim yotaverdilar. Menam tikilib turaverdim. Hecham ketgim kelmadi.

Bechora Eshon bobomga qiyin-da, to‘g‘rimi? Ko‘chaga chiqsalar, qizil shapka kiygan melisalar qamab qo‘yishadi. Cho‘chqaning bolasi qani, deb yana urishadi. Otajon tog‘amni otganday, peshonasidan paq-paq qilib otib tashlasa-ya? Voy bobojonim-ey, biram rahmim kelyaptiki. Nima qilsam ekan. Eh, katta yigit bo‘lganimda... bordiyu bobomning miltig‘ini olib chiqib bersam-chi... melisalar seni otaman desa, yo‘q otolmaysan, mana, mendayam miltiq bor, paqillatib o‘zingni otib tashlayman, derdilar! Ah-ha, shunday qilaman, qilaman dedimmi, qilaman...

Asta, ovoz chiqarmasdan qornim bilan orqamga surilib teshikdan o‘tdim. O‘zimning bobom miltiqni lattaga o‘rab oxurga qo‘yib, ustiga xashak tashlaganini ko‘rgandim. xayriyat, joyida ekan, olib, yana orqamga qaytdim. Eshon bobom teskari o‘girilib, yana pish-pish qilayotgan ekanlar. ustilaridagi chakmondan sekin tortib:

– Mana obkeldim, – deya pichirladim.

– Miltiq.

– A?! – Eshon bobom o‘rinlaridan turib ketayozdilar.

– Qo‘rqmang, – deb yupatdim, – o‘zimning bobom bilgani yo‘q.

– Nima qilaman bu matohni men?

– Otasiz, melisa amakilar, shapkali askarlar kelganda otasiz. O‘shanda sizni sirayam ushlasholmaydi.

– O, bolam-ey, – shunday deb Eshon bobom meni tizzalariga olib, boshimga betlarini bosib, yana tag‘in anchagina bolam-ey, bolam-ey deb turdilar.

– Qo‘lim bilan soqolingizni tarab qo‘yaymi? – deb so‘radim.

– Yo‘q, yo‘q, bolam, jim tur.

– Bo‘lmasa, oyog‘ingizni uqalayman, – dedim tizzalaridan tushib.

Qarasam, Eshon bobom yig‘layotgan ekanlar. Ko‘zyoshlari burunlarining yonidan o‘tib, lablariga yetay-yetay deb qopti. Yig‘lamaganlarida bo‘lardi, endi maniyam yig‘lagim kelyapti.

– Bobojon, bo‘lmasa chiqib ketaymi? – deb so‘radim.

– Yo‘q-yo‘q, bo‘tam, endi chiqmay qo‘ya qol... Bo‘lar ish bo‘ldi.

– Nega yig‘layapsiz unda?

– Seni yaxshi ko‘rganimdan.

– Men yaxshimanmi?

– Judayam yaxshi ekansan.

– Yana menga o‘rgating bo‘lmasa?

– Nimani o‘rgatay, bo‘tam?

– Yozda kelganingizda, supada o‘tirganimizda yanagi safar senga kitob o‘qishni o‘rgataman, devdingiz-ku.

– Ha, darvoqe, shunaqa devdim-a. Lekin bolam, o‘qishni o‘rganishning o‘zi bo‘lmaydi-da.

– Mayli, o‘zi bo‘lmasayam, o‘rgatavering.

– E, bolam-ey, buning uchun kitob kerak, qog‘oz-qalam kerak.

– Mayli, bobojon, qog‘oz-qalam bo‘lmasayam o‘rganaveraman. O‘rgatmasangiz, o‘rnimdan turib dodlayman, mana turyapman. Turaveraymi?

Men hazillashuvdim, Eshon bobom chinakamiga qo‘rqib qo‘limdan ushlab, o‘zlari tomonga tortib:

– Havasing zo‘r ekan-da, bo‘tam? – deb so‘radilar.

– Juda zo‘r, bobojon, – dedim shoshilib.

– Alif degin-chi bo‘lmasa.

– Alif, – dedim shoshilib.

– Be, – degin.

– Be.



– Te, – degin.

– Te.

– Se, – degin.

– Se.

– Bular – harflar, bo‘tam. Oldin shularni yod olaylik. Qani hozir aytganimizni bir takrorla-chi.

Men darrov takrorlab berdim. O‘h-ho‘, zehning o‘tkir ekan, dedilar. Yana to‘rtta harf aytuvdilar, ularniyam o‘rganib oldim. Balo ekansan-ku, o‘g‘lim, dedilar. Yana o‘rgatdilar, qornim ochib qolguncha o‘rganaverdim. Axiyri qornim bilan surilib teshikdan chiqib uyga kirsam, enajonim shirguruch pishirib, men yaxshi ko‘radigan saryog‘lardan solib qo‘ygan ekan. Yeyayotganimda, muncha qolib ketding, deb so‘radi, rosa o‘ynadik, dedim. Xayriyat, esing kirib qopti, etigingni ho‘l qilmabsan, degandi, enajon, men etigimni yechib qo‘yib o‘ynadim, dedim. Shu qorda-ya, degandi, yo‘q, sandalda o‘tirdik, dedim. Enajonim etigimni ho‘l qilmaganim uchun yana o‘ynab kelishimga osongina ruxsat berdi. Teshikdan o‘tib bunday qaragam, Eshon bobom ham shirguruch yeb o‘tiribdilar. E-ha, enajonim, sen ovqatlanib tur, men mollaringga xashak solib chiqay deb, meni aldagan ekan. Voy, men ham yolg‘on gapirdim-ku, ikkovimizam yolg‘onchi ekanmiz.

– Chiqdingmi, bo‘tam, – deb so‘radilar Eshon bobom, – ke, ovqatni birga yeymiz.

Qornim to‘qligini aytdim. Keyin kelganimni enamga aytib bermadingizmi deb so‘radim. Eshon bobom go‘rda aytamanmi, dedilar. Men ham sizni ko‘rganimni aytmadim, hecham aytmayman, dedim. Barakalla, dedilar.

– Bobojon, siz jannatimisiz? – deb so‘radim oxirida.

– Xudo xohlasa, – dedilar Eshon bobom.

– O‘zimning bobom-chi?

– Uyam.

– Enam-chi?

– Uyam.

– Men-chi?

– Inshoollo, sen ham jannati ekansan.

– O‘lganimizda hammamiz birga bo‘lamizmi? O‘sha yerda ham menga o‘qishni o‘rgatasizmi?

Eshon bobom javob qaytarmay kulib boshimni silab qo‘ydilar. Keyin yana o‘qishni o‘rgata boshladilar. O‘rgatgilari yo‘q ediyu men qistab turib oldim. O‘rgatmasangiz, miltig‘imizni olib qo‘yaman, dedim... To‘rtta harf o‘rgatadilar, endi yana boshidan boshla, deydilar. Yana o‘rgatadilar, yana takrorla, deydilar. Oxirida:

– Xudo taolo senga o‘tkir zehn ato qilgan ekan, bo‘tam, – deb peshonamdan cho‘pillatib o‘pib qo‘ydilar.

– Voy, enajonim aytadi-ku, bu gapni, – dedim men ham.

– Zamona ko‘targanda, seni uyimga olib ketib mulla qilardim, o‘g‘lim.

– Mayli, bobojon, zamon ko‘tarmasayam mulla bo‘laveraman.

– Qani, harflarni yana bir takrorla-chi?

– Alif, be, te, se, jim, xo, he, dol, zol, re, ze, shin, sin, sod, zod, itqi, izg‘i, ayn, g‘ayn, pe, qof, kof, lom, mim, nun, vov...

– Shularni aytdim-da oxirida to‘xtab kuchuk bolaga o‘xshab: vov, vov, vov, deyayotgandim, Eshon bobom, hay-hay, harflar muqaddas, ularni masxara qilib bo‘lmaydi, dedilar.

Hech chiqib ketgim yo‘q edi-yu, kech kirib qoldi-da, enam axtarib meni bu yerda ekanligimni bilib qolsa, keyin kiritmaydi, deb qo‘rqdim. Eshon bobom meni yana tizzalariga olib muzday betlarini boshimga qo‘yib ancha jim turdilar-da:

– O, bolam-ey, bolam-ey, – deb qo‘ydilar.

Chiqsam, o‘zimning bobom ichkari hovlida o‘tin yorayotgan ekan, enam, qirt-qirt qilib sabzi to‘g‘rayapti.

– Qayerda qolib ketding? – deb so‘radi.

– O‘ynadim, – dedim.

– Kimmikida o‘ynading, bobong rosa axtaribdi-ku?

– Aytmayman, qo‘limni kesib tuz sepsangiz ham aytmayman, – dedim qo‘rqib, – aytsam melisa amakilar ushlab ketib yana qamab qo‘yishadi.

Keyin yugurib borib sandalga kirdim-da, boshimga ko‘rpani tortib:

– Hecham aytmayman, – deb baqirdim-da, yig‘lab yubordim.

Ertalab tezgina turib, enajonimning ko‘zini chalg‘itib Eshon bobomning oldilariga kiranman dedimu hech turgim kelmadi. Nega ko‘p uxlab qoldim ekan, deb o‘ylanib yotaverdim. Quyosh chiqibdi, tog‘ tomondagi derazamizdan uyimizga nur oqib kiriyapti. Biram mayin, biram yumshoq, kaftimni tutib hovuchimga yig‘aman desam, hech ushlab bo‘lmayapti. Nega yo‘q bo‘lib qolarkin, axir, men ularni ko‘rib turibman-ku. Qiziq, qayoqqa yo‘q bo‘lib qolyapti ekan?.. Hay, mayli, endi bu haqda hecham o‘ylamayman. Yaxshisi, tushimni eslayman. Judayam mazza tush ko‘rdim-da, har kungisidan ham zo‘r bo‘ldi. Yo o‘ngimda ko‘rdimmikan... yo‘q uchdim-ku, men faqat tushimda uchaman-ku... Eshon buvam uchishni bilmas ekanlar, men o‘rgatib qo‘ydim, keyin birgalashib uchdik, keyin cho‘chqaning bolalari, qizil shapkali amakilar bizni rosa quvlashdi. Ular ham uchayapti, biz ham uchyapmiz. Bo‘rsiqlarning bolalari ham to‘xta-to‘xta deb uchayotganday bo‘ldi. Keyin jannatga tushib qoldik. O‘h-ho‘o‘, juda zo‘r ekan-ku, enajonim aytganday, har xil gullar shunaqa ko‘pki... Oq kallaqandlar savatlardagi qandlarmi yoki opproq bo‘lib ochilgan atirgullarmi, deb o‘ylanib qoldim. Bir qarasam qand bo‘ladi, bir qarasam gul bo‘ladi... Keyin Eshon bobom kichkina bo‘lib qoldilar. Ie, siz nega bunaqa bo‘p qoldingiz desam, cho‘yan soqqangni bersang, senga bulbulcha bo‘lib sayraydigan hushtagimni beraman, deydilar. Keyin hammayoqni bulbulcha bo‘lib sayraydigan hushtaklar bosib ketdi... Bobojon, siz nega pakana bo‘lib qoldingiz, desam, voy, men chala tug‘ilganman-ku, dedilar. Boshlarida oq salla, egnilarida malla chopon, bo‘ylari kichkina-ku, soqollari tizzalariga yetay-yetay deb turibdi. Kulib yubordim, kula-kula uyg‘onib ham ketibman. Ko‘zimni ochsam, enajonim ham, bobojonim ham yo‘q. Keyin, hali aytganimday, quyoshning nurini hovuchimga yig‘ib yotaverdim. Rostdan ham o‘sha nurlar qayoqqa yo‘q bo‘lib qolarkin, bordi-yu, hovuchimni

yozib deraza yoniga borib o'sha yerda oynaga qisib turib, ushlasam-chi, deb sekin-asta borib ikki kaftimni oynaga bosib turgan edim, enam kirib:

– Nima qilyapsan? – deb so'radi.

– Nurlarni ushlayapman, – dedim.

– Qanaqa nurlar?

– Quyoshning nuridaqa nur-da, mana, oynadan o'tib kelyapti, hovuchimga anchasini ushlab turibman...

Kaftimni oynadan olgan edim, yana hovuchimda hech narsa yo'q. Alam qildi, judayam alam qildi. Enajonim anavi kuni olib kelganimiz oq qanddan olib holvaytar pishirgan ekan, o'shani yeyayotgandayam alamim hech tarqamadi.

– Ena, o'ynagani chiqaman, – dedim o'rnimdan turib.

– Bugun hech yoqqa chiqmaysan, – dedi enam.

– Chiqaman dedimmi, chiqaman, – deb turib oldim. Yo'q desa, qoq yerga yotib dumalayman, deb turuvdim, o'tib berkinib oldim. Undan keyin molxonaga o'tib qarasam, iye, somonxonani bugun qulflashmapti, ie-ie, ichkarida Eshon bobom ham yo'q, kecha yotgan joylari bo'm-bo'sh, ko'rpalariniyam yig'ib olishibdi. Ha, bildim, Rahmonberdi sezib qolibdi, endi o'rtoqlariga aytib beradi, deb omborxonaga berkitishgandir-da... Voy, bu yerda ham yo'q-ku?! Yugurib orqamga qaytdim:

– Ena, Eshon bobom qanilar?

– Qanaqa Eshon buva? – hayron bo'lganday so'radi enajonim.

– Somonxonada yotgan Eshon buvam.

– Somonxonada hech kim yotgani yo'q, valdirama.

– Aldayapsiz, kecha oldilariga kirganman. Qornim bilan somonga yotib kechgacha gaplashganman.

– Bema'ni gaplarni gapirma, toylog'im.

– Bema'nimi? Alif, be, te, se, jim, ho, xe, dol, zol... Bularni kim o'rgatdi bo'lmasa?

Enajonim, meni bag'riga bosib, boshlarimdan siladi, yuzimdan o'pdi. Har yili bir marta arvohtar keladi, o'sha arvoht goho xudojo'y xonadonlarda biror Eshon buvaning

qiyofasida ko'rinadi. Sen, azamatim, arvoh ko'ribsan, unda harf o'rganganing yaxshi, savob bo'ladi, uni unutmagan takrorlab turgin, lekin zinhor arvoh ko'rganingni biron kishi ayta ko'rma. Aytsang, darrov uyimiz kuyib ketadi, dedi. Oldi ishonmadim, kechgurun bobojonim ham shu gapni aytgan keyin ishondim!

– Ha-ha, o'g'lim, bu gapni hech kimga ayta ko'rma, – dedi bobojonim ham qo'rqib, – aytgan zahoting uyimiz kuyib ketadi.

– Mollarimiz-chi? – deb so'radim shoshilib.

– Hamma-hammasi kuyadi, ko'chada qolamiz, – dedi bobom yig'lamsirayotganday bo'lib.

Men ham kechgacha yig'lamsirab yurdim.

## BUVIM TONG OTGUNCHA YIG' LAB CHIQDI

**Q**or yoqqandan buyon bunaqa mazza qilib o'ynamagan edik. Yo'q, rost aytyapman, sandallarda isinib, ayvonlardagi gurganglashib, uy egasining hoy bas qilinglar, shumtakalar deganiga jinday-jinday xafa bo'lib o'ynardik. Bugun-chi, voy shunaqa mazza qilyapmizki, boribir, sizga aytolmayman Ahmadqul bobomning bog'i orqasidagi baland tepalikka Sultonali akam paqirda suv olib chiqib quygan ekan, qor aralash muzlab, shunaqa silliq bo'ptiki, salgina qadanga bossangiz, pastga qarab shuvillab tushib ketasiz. Ketayotganda shunaqa huzur qilasizki, buniyam aytolmayman. Bir xilimiz o'tirib olamiz, bir xilimiz engashib ketamiz, kichkina bolalar bo'lsa, ular hali qo'rqoq-da. Poyezd-poyezd bo'lib bir-birining etagini ushlab olishadi. Eh, mazza bo'lyapti! Yiqilib ham tushamiz, dumalab ham ketamiz. qiqirlashib kulamiz, qichqiramiz.

– Rahmonberdi! – deb chaqirdi Sultonali akam, – qulog'ing karmi?

– Kar emasman, – qulog'imni ushlab ko'rib dedim.

– Buving keldi, deya pman.

– A, buvim?! – dedimu bir nafas tik turib qoldim. Voy, rost, rost ekan! Hu ana, devor tomonda kaftini peshonasiga soyabon qilib turibdi. Ustidagi baxmal to‘nidan tanidim, boshidagi jun ro‘moliyam o‘ziniki! Buvijon, buvijonim, deya qichqirib yubordim. Ikkovimiz ham bir-birimizga qarab yugura boshladik. Tepalikdan tushguncha ikki marta yiqildim. Muncha yo‘lim ko‘paymaydi-ya, muncha... Mana, yaqinlashdik, oz qoldi.

– Buvijon! – deya qichqirdim.

– Jonim, asalim, – buvim yig‘lab yubordi. Achomlashib ketdik. O‘pishyapmiz, yig‘lashyapmiz, meni ko‘tarib olgan, men bo‘ynidan mahkam quchoqlab olyapman. Qani endi ming yil, million yil shunday tursak, turaversak, turaversak, men buvimning hidini sog‘ingan edim, sochini qatiqlab yuvganda shunaqa hid kelardi, to‘yib-to‘yib hidlayapman.

– Buvijonim! – deyman yana yuzlarini qo‘lim bilan silab.

– Voy, qo‘llaring sovqotib qopti, qo‘ltig‘imga tiqaqol, asalim, – deydi buvim.

– Yo‘q-yo‘q, yana silay, ko‘p silay, qo‘llarim ham sizni sog‘ingan.

– Mayli, o‘g‘lim, silay qol. Faqat yig‘lama.

– Yo‘q, to‘xtang, yana jinday yig‘lay.

– Asalim, do‘mbog‘im...

Buvim ham yig‘lashga tushdi, yelkasini silkitib-silkitib yig‘ladi. Meni yerga qo‘yib, engashib, endi kiyimlarimdan ham o‘pa boshladi.

– Meni ko‘rgani keldingizmi? – deb so‘rayman.

– Ko‘rgani keldim, o‘g‘lim.

– Sog‘indingizmi?

– Sog‘indim, qattiq sog‘indim, asalginam.

– Menam sog‘indim, mana shu ko‘zlarim bilan sog‘indim.

Kechasiyam sog‘inaman, o‘ynayotganimdayam sog‘inaman, har kuni ko‘rgim keladi. Keyin enamga bildirmay yig‘lab-yig‘lab olaman. Endi ketmaysizmi?

– Ketmayman, shirinim, ketmayman.

Tepalik tomonga qaradim. Hayitvoy buvim borligini bir ko'rib qo'ysin, dedim. Qachon urishsa, buvisi tug'magan. bobosi tuqqan, deb labini burib masxara qiladi. Yo'q, bizga qaramadi. Qaramasang, qarama, senga ko'rsatadigan buvim yo'q, hali o'zim to'yganim yo'q-ku?!

Qo'l ushlab uyimizga jo'nadik, buvimning qo'li issiqqina, biram yumshoq, baxmal to'ni, jun ro'moli, yaltiroq mahsilariyam yaxshi, hammasi chiroyli.

– Endi ketmaysiz-a? – yana so'rayman.

– O'zingni olib ketsam-chi, asalim?

– Yo'q-yo'q, uyoqqa hecham bormayman, sizam bormaysiz endi. O'gay akalarimni yomon ko'raman.

– Unday dema, o'g'lim, akalaring yomon bolalar emas. esli, odobli.

– Hecham-da, qachon borsam, bu sening buvingmas, bizni buvimiz, otamiz sotib olgan, deydi. O'yinchoqlarimniyam o'g'irlab qo'yishadi, o'yingayam qo'shishmaydi. Endi ketmaysiz, ularam o'zini buvisini topib olsin, ularning otasi bor, mening otam yo'q-ku.

– Qo'y, yig'lama, o'g'lim.

– Yig'layveraman.

– Ko'tarib olaymi?

– Kerakmas.

– Men seni katta yigit bo'lib qoldi desam...

– Ketmayman desangiz keyin katta yigit bo'laman.

– Xo'p, ana, asalim, ketmayman.

– Uxlaganimda ham ketmaysizmi?

– Ketmayman, shirinim, – shunday deb buvim meni yana ko'tarib, yosh oqib turgan ko'zlarimdan, sovqotgan yuzlarimdan, haligi, men ochqab turganimda ovqatni shoshilib yeyman-ku, o'shanaqa qilib o'pa boshladi.

Uyga kelsak, enam bilan bobojonim jizzali nonlarni yopib, qaymoqlardan qo'yib, omborxonaning shiftiga osgan uzumlarimizdan olib chiqib bizni kutib o'tirishgan ekan. Ozigina yedimu, keyin hecham yegim kelmay, nuqul buvimga tikilib o'tirdim. Menga atab tikib kelgan yangi ko'ylak bilan beqasam to'nini kiygim kelaverdi. Enam, ha, mayli, kiyib ko'ra

qolsin, degan edi, kiyib bo'lib bunday qarasam, endi buvim enamning tizzasiga boshini qo'yib piq-piq yig'layotgan ekan.

– Unday dema, qizim, – deyapti enam, – o'sha yetimlar ham begona emas, jiyanlaring bo'ladi, xolangning tilab-tilab olgan aziz farzandlari...

– Jiyanlariga qarasin, deb meni otam tengi odamga beribsiz-da, – yana yig'layapti buvim.

– Yetimning boshini silasang, oxirating obod bo'ladi, qizim.

– Oxirati obod bo'lsin deb, meni qurbon qilibsizlar-da?

Endi bobom gapira boshladi. Buvimni o'ziga qaratib, yelkalaridan silab, shirin qizim, ko'nikib ketasan, xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo'ladi, hamma o'zini o'ylaybersa, unda yetimlarning holidan kim xabar oladi, o'zing o'ylagin, to'rtta bolasi bor, yoshi ham bir joyga borib qolgan kishiga kim ham xotinlikka ko'na qoladi, bunaqa paytda qarindoshlar o'zidan kechmasa bo'ladi, yig'lama deyapman, bularni yuvib-tarab katta qilsang, Xudo xohlasa, huzuriniyam ko'rasan, muhimi, xolang go'rida tinch yotadi, odam bolasi bu dunyoga aslida savob uchun keladi, ha, savob olaman deb odamlar machit soladi, ko'prik quradi, e qizginam-ey, yig'ini bas qil endi, dunyoda yetti xil savob bor, deydilar, eng kattasi yetimning boshini silaganda bo'larkan... Ana shunga o'xshash gaplarni bobom gapiraverdi-gapiraverdi, men shu paytda bobojonimni judayam yomon ko'rib qoldim. Yugurib borib tomog'idan quchoqlab, og'zini qo'lim bilan berkitib:

– Gapirmang, – deya qichqirdim, – endi buvimni hech kimga bermayman. Machitniyam, ko'prikniyam o'zingiz quravering.

Buvim meni tizzasiga olib, kafti bilan ko'z yoshlarini artib:

– Voy, asalim-ey, to'ning o'zingga biram yarashibdi-ki, – dedi. Chindan ham yarashgan-yarashmaganligini bilmoqchi bo'lib turuvdim. Shuning uchun darrov o'rnimdan turib, nariroqqa borib, rost aytyapsizmi, deb so'radim.

– Bo'y-bastingga mos kelganini qara, xuddi quyib qo'yganday.

– O'zingiz tikdingizmi?



- O‘zim tikdim, asalim.
- Endi ko‘yagam, to‘nam o‘z-o‘zimgami?
- O‘z-o‘zingga, do‘mbog‘im.
- Ko‘ylakni kechasiyam kiyib yotsam maylimi?
- Mayli, shirinim, kechasiyam kiyib yota qol.

Endi yana buvim bilan to‘yib-to‘yib gaplashaman desam, hadeb qo‘shnilarimiz chiqaveradi, voy, o‘rtoq, esonmisiz, deb yelkasiga qo‘lini mana bunday tashlab, hech biri menga e‘tibor bermaydi. Beqasam to‘nimni ko‘risharmikan deb, sal nariroqqa borib tursam ham qarashmaydi. Muhtaram xolam qovoq somsa olib chiqqan ekan, nuqul o‘shani maqtashadi. Bibiqiz ammam ko‘k dasturxonga sutli patir o‘rab chiqqan ekan, voy, qo‘shni, biram pazandasizki, og‘izda erib ketadi-ya, bizga ham o‘rgatsangiz-chi, deyishadi. Qiziq-qiziq gaplardan hech gaplashishmayapti. Buvimni menga berishmas ekan-da, men uni sog‘inganman. O‘rnimdan turib:

– Chiqib ketinglar endi, – deb kigizni gupillatib tepdim, – buvimni sog‘inganman, bildingizmi?

Muhtaram xolam:

– Sen juda odobli bola eding-ku, – dedi labini burib.  
 – O‘zingiz odobli bolasiz, – deb menam labimni burib qo‘ydim.

– Buvingni faqat sen sog‘inibsanda?

– Ha, sog‘inganman.

– Sorabibi senga ona bo‘lsa, bizga o‘rtoq, qiz o‘rtog‘imiz bo‘ladi-ya, biz ham uni sog‘inganmiz. Sen kechasi gaplashaverasan.

– Kechasi o‘gay otam obketib qoladi, bildingizmi?

Enam kelib, yur, qulunim, bobong poya qirqyapti, qarashib yuborgin, dedi. Men ko‘nmay, buvim ketib qoladi, degandim, buvimning o‘zi, yo‘q asalim, ketmayman, deb ishontirdi. Poyani ushlab turganimdayam bobom, hoy ko‘zingga qara, qo‘lingni qirqib olaman, desayam ko‘cha eshik tomondan nazarimni uzmay turdim. To‘y bo‘lgan kuniyam qo‘rqma, onang ketmaydi, deb aldashib, keyin paranji yopintirib obqochib ketishgan. Men o‘shanda yerga yotib rosa

yig'laganman... Qo'shnilarimizdan keyin endi Zahro xolam keldi. Undan keyin Ahmadqul boboning cho'loq kelini chiqdi. Gaplari cho'zilib ketuvdi, poygakka tushib olib, cho'loqlab yurib o'sha opani rosa masxara qildim. To'g'rida, nega endi buvimni menga berishmaydi?

Hammalari ketgach, enam vaqt allamahal bo'lib qoldi, yota qolaylik, gapning chalasini ertaga gaplashamiz, deb buvim ikkovimizga uyning to'riga to'yimga atalgan serpaxta ko'rpalardan to'shab, yumshoqqina joy qilib berdi. Ko'rpaga kirishim bilan buvimni mahkam achomlab oldim. Oh, qanday yaxshi-ya, qanday mazza-ya, qani endi, ming yil shunday qilib yotsam, hecham tong otmasa, bomdod namozigayam turmasak, keyin ikkovimiz qo'shilib bitta bo'lib qolsak, hech kim ajratmasa...

– Katta yigit bo'p qopsan, asalim, – dedi buvim orqamni silab, – quchog'imga sig'mayapsan-a.

– Men, buvi, namozlarniyam bilaman, – deb shivirladim yana ham xursand qilmoqchi bo'lib, – ajinalarni qochiradigan duolarni ham o'rganib olganman. Keyin o'yinchoqlarim ham ko'p, ko'rsataymi?

– Yo'q, ertalab ko'rarmiz.

– Yettita cho'yan soqqam bor, yong'oqqa almashtirib olganman, xo'p deng, ko'rsata qolay, qorong'i bo'lsayam ko'rinaveradi.

– Asalim, hammasini ertalab ko'ramiz.

– Ketmasangiz, o'yinchoqlarimni hammasini sizga berardim.

– Voy, shirinim-ey, rahmatli otangga o'xshab sen ham biram mehribonsanki, tillaring ham biram shirinki...

– Rahmatli otam mehribonmidi?

– Judayam.

– Nega bo'lmasa o'lib qolgan?

– Ajali yetgan-da, o'g'lim.

– Ajali yetganda odam o'ladimi?

– Ha, o'ladi.

– Buvi, otamni quloq qilishganmi? O'ynaganimizda bolalar nuqul quloqning bolasi, quloqning bolasi, deb masxara

qilishadi. Rostdan ham otamning qulog'i juda katta bo'lganmi?

– Yo'q, o'g'lim, qulog'i katta bo'lgani uchunmas, boyligimiz ko'p bo'lgani uchun quloq qilishgan.

– Keyin qulog'idan cho'zishganmi?

– Kim biladi, o'g'lim.

– Buvijon, otam haqida gapirib bering. Bobomdan so'rasam, katta bo'lganingda bilasan, o' zolimlar, o' zolim zamona, deb osmonga qarab mana bunday uh tortaveradi. Jon buvijon, ayta qoling, axir, men katta bo'p qoldim-ku. O'rnimdan turib bo'yimni ko'rsataymi?

– Qo'y, o'g'lim, yuragimni ezma.

– Nega yuragingiz eziladi?

– Achinaman-da, o'g'lim.

– Ayta qoling, aytmasangiz, sochingizdan tortaman.

– O'g'ilginam-ey, dilbandim-ey, otang xuddi senga o'xshagan qosh-ko'zi qop-qora, bug'doyrang, o'rta bo'y, ko'zlari chaqnab turadigan qiziqchi, quvnoq bir yigit edi, yigitlarning sardori edi... Qo'y o'g'lim, yuraginga tuz sepma, yig'lagim kelyapti.

– Mayli, buvi, yig'lasangiz ham aytavering.

– Sabr qil, azamatim, jinday yuragimni bo'shatib olay, yaramni tirnab yubording, o'zi to'yib turuvdim.

Ancha mahal ikkovimiz shivirlashni bas qilib, jim qoldik. Men kaftim bilan buvimning ko'z yoshlarini artib-artib turdim, iliqqina ekan, buvim bo'lsa meni bag'riga mahkam bosib, yelkalarimni silab-silab, haligi, odam qattiq chopganda hansiraydi-ku, o'shanaqa qilib yig'layverdi, yupatay desam, yupatadigan so'z hech esimga kelmayapti. Enamni chaqiray dedimu bas qilinglar endi, bas qilinglar, uxlamlar endi, desa, unda otam haqidagi gapni bilolmay qolaman deb qo'rqaman.

– Ha, asalim, otang bebaho odam edi, – dedi oxirida buvim yig'idan to'xtab, – otangning otasi katta boy bo'lgan, machitlar solib, yo'lga yer ajratib, saxiy boy degan nom chiqargan ekan, eshityapsanmi?

– Eshityapman, – dedim shoshilib, – tez-tez ayting, bo‘lmasa esingizdan chiqib qoladi.

– Tog‘da qo‘ylari, yilqilari, dashtda bug‘doyzorlari bor ekan, o‘zi zo‘r chavandoz ham bo‘lgan ekan.

– Buvi, chavandoz ot minadiganmi?

– Ha, gap qo‘shmay turgin-da, shirinim, otdan yiqilib o‘lganidan keyin jami boyligi sening otangga qolgan ekan. Keyin bizning to‘yimiz bo‘ldi. Men o‘n oltida, otang o‘n sakkiz yoshda edi.

– O‘shanda sizning bo‘yingiz qancha edi?

– Sabrnisa opang bor-ku, o‘shancha edi.

– To‘ylaringda o‘rtaga olov ham yoqishganmi?

– Ha, albatta, olov yoqilardi-da, asalim.

– Childirma chalib, ashula ham aytishganmi?

– Obbo shirinim-ey, to‘yda, albatta, childirma chalinadi-da.

– Keyin-chi?

– Keyin kolxoz zamoni bo‘ldi, yer-suvlarimizni, uy-joylarimizni, ko‘rpa-to‘shaklarimizni, qozon-tovoqlarimizni – hammasini olib, o‘zimizni uzoq mamlakatga quloq qilishuvdi, otang rahmatli, e, uyoqlarga bormaymiz, deb meni olib qochib ketdi.

– Orqalaringdan quvishmadimi?

– Quvishdi.

– Sizlar ot minib olganmidilaring?

– Yo‘q, piyoda edik, azamatim.

– Keyin-chi? Tez-tez ayting.

– O‘shanda sen qornimda eding.

– Qorningizda bo‘lsam ham baribir hammasini ko‘rib turarmidim?

– Yo‘q, shirinim, hech narsani ko‘rmasding. Tog‘-toshlarda qochib yurdik, axiyri melisalar otangni ushlab, qamab qo‘yishdi. Qamoqxonada ko‘p kaltaklashgan ekan, jigari ezilib, qon tupurib, olamdan o‘tdi.

– Ko‘p urishganmikan?

– Ha, ko‘p urishgan ekan.

– Nega urishadi, nega? – sakrab o‘rnimdan turib ketdim.

– Zamon shunaqa edi-da, o‘g‘lim.

– Otamni nega urishadi, deya pman, nega o‘ldirishadi? – baqirib, ko‘rpa-yostiqlarni tepa boshladim. Bobom bilan enam uyg‘oq ekan, ikkovlariyam tepamizga yugurib kelishdi. Bobom bag‘riga olmoqchi bo‘luvdi, qo‘lini tishlab oldim.

– Nega otamni o‘ldirishadi? – battarroq baqirdim.

– Obbo qizim-ey, bolaga bu gaplarni aytib bo‘larkanmi? – deb buvimni urishgan bo‘ldi bobom.

– Axir nima qilay, o‘zi qistadi-da, – ovozini sal chiqarib, dedi buvim.

– Bolaning ko‘ngli nimalarni istamaydi, e qizim-ey... Kel, o‘g‘lim, men bilan yota qol, soqolim qichiyapti, bir qashlab qo‘ygin.

– Qashlamayman, – deb ko‘rpani yana tepib, bobomning oyoqlaridan mahkam quchoqlab oldim, – ayting, nega urishadi? Joni og‘riganda yig‘lagandir, nega bormadingiz?

– Qo‘y, o‘g‘lim, qo‘y.

– Qo‘ymayman, nega siz bormadingiz?

– Borganman, o‘g‘lim.

– Yolg‘on, sizni o‘ldirishmapti-ku... Otam tirik bo‘lganida birga yotardim, bildingizmi? Endi soqolingizniyam taramayman, enam sigir soqqanda buzoqchaniyam ushlayman, bildingizmi? Otamni topib berasiz, hammaning otasi bor-ku, topib berasiz dedim, topib berasiz...

Ko‘rpaga yotib rosa yig‘ladim, bolishni mushtlayverdim, mushtlayverdim. Axiyri o‘zim jim bo‘ldim. Charchab qoldim-da, bo‘lmasa yana yig‘lardim. Buvim yonimda yotgan ekan, yuzini silamoqchi bo‘lib paypaslagan edim, voy endi u yig‘layotgan ekan, qiziq, nega kattalar ovozini chiqarmay yig‘lar ekan, bunaqada ularning yig‘laganini hech kim bilmaydi-ku? Men bo‘lsam, hecham yashirincha yig‘lay olmayman, yo enamga, yo bobomga ko‘rsatib yig‘layman. Hovlida bo‘lishsa, eshitishsin deb qattiqroq yig‘layman, bog‘da yurishgan bo‘lsa, derazani ochib qo‘yib yig‘layman.

– Buv, – deya sekin shivirladim.

- Uyg'oqman, o'g'lim, – deb meni bag'riga tortdi u.
- Siz nega yig'layapsiz?
- Yig'laganim yo'q, asalim.
- Yig'layapsiz, mana, barmog'imni yalab ko'rsam sho'rtakkina ekan... Sizam otamni sog'inyapsizmi?
- Ha, o'g'lim, sog'inaman-da.
- Buvi, o'lganlar tiriladimi?
- Qaydam.
- Otinbibi xolam bitta kitob o'qib bergandi... daryoga cho'kib o'lganlarning qarindoshlari Xudodan so'rab duo o'qishganda, ular tirilib, yana uylariga kelgan ekan... O'sha duoni siz bilasizmi?
- Bilmayman, o'g'lim.
- Kim biladi bo'lmasa?
- Qaydam...
- Buvi, anavi kuni Xoneshon bobom o'lmagan bo'lsayam arvoqlarini ko'rdim, xuddi o'zlariga o'xshaydi, kitob o'qishni o'rgatmoqchi bo'ldilar.
- Ha, eshitdim, o'g'lim, enang aytib berdi.
- Voy, aytdimi, endi uyimiz kuyib ketsa nima bo'ladi?
- Begonalarga aytsa kuyadi-da, men begona emasman-ku, do'mbog'im.
- Enam og'zing bo'sh, ichingda gap yotmaydi, hammasini birovlariga aytaverasan, degandi. Eshon bobomning arvoqlarini yana ko'rganimda og'zingda dam soldirib olmoqchi edim, hech kimga gap aytmasdim. Kirsam, yo'q bo'p qoptilar.
- Xudo xohlasa, yana ko'rishib qolarsizlar, o'g'lim.
- Uxlagim kelyapti, – dedim esnab, – uxlab qolsam, ketib qolmaysizmi?
- Asalim-ey, – dedi buvim meni bag'riga mahkam bosib. Keyin bolishimiz ikkita bo'lsayam, o'zimiz bitta bo'p qoldik, bittaligimizcha ertalabgacha qimirlamay uxladik...

## QABRISTONDA FOTIHA O'QIDIK

**B**uvim ham bizni sog'inib, ham otamning qabriga borib, Shayxboboga xayr-sadaqa berib, arvohlarni yo'qlayman deb kelgan ekan. Kelmasa hech bo'lmas ekan. O'sha o'lgan otam tushiga kirib, Sorabibi, gullar orasidan tanlab, olganim Sora gulim, meni unutdingmi, yo'qlamay qo'yding-ku, shu umidda bir yostiqqa bosh qo'yganmidik, deyaveribdi. Enam, ona qizim, kelib yaxshi qilibsana, To'xtavoyning arvohini sen yo'qlamasang kim ham yo'qlardi, arvoh osh-non so'ramaydi, bir hovuch fotiha kifoya, fotiha o'qimasak, arvoh och qolgan chumchuqday chirqillab qoladi-ya, dedi. Keyin buvimni bag'riga olib, o'zimning esli qizim bor-da, xudoga shukr, esim yo'g'ida tug'ib olgan ekanman, deb maqtab ham qo'ydi. Bobom boshini sandalga bosib o'tirgandi:

– O' zolimlar, – dediyu yana jim bo'ldi.

Men ko'rpaning tagidan qo'limni uzatib sandalning taxtasini taka-taka-tak, taka-taka-tak qilib chalayotgandim, chalayotgan bo'lsam ham, Eshon bobom o'lmagan bo'lsayam arvohlari bor ekan, o'zlariga juda o'xsharkan, odam o'lganda arvohi o'ziga o'xsharmikan yoki o'ziga o'xshamasmikan, mening otamning arvohi ham bormikan, men uni hech ko'rmaganman-ku, arvohini qanday taniyman endi, deb o'ylayotgandim, enamning gapiga quloq solaman deb o'ylayotgan narsamdan adashib ketdim. Keyin, otamni ham arvohi bormi, deb enamning o'zidan so'radim.

– Bor, albatta, – deb qo'ydi enam.

– U kimga o'xshaydi?

– O'zimga o'xshaydi-da, qulunim.

– Biznikiga hech kelganmi?

– Kelgan, xudo xohlasa yana kelib turadi, o'g'lim.

– Men otamni tanimayman-ku, kelganini qanday bilaman endi?

– Namozliklarning hammasini o'rganib olsang, – deb tushuntirdi enajonim, – ana undan keyin darrov tanib olasan.

Men yana ko'p narsalarni so'ramoqchi edim. E, bo'lmadi-da. Uxlayotganimda tog'oraga xamir qorib ustiga bobomning po'stinini yopib qo'yishgan ekan. Enam o'sha xamirni supaga ag'darib, ustiga yana unlardan sepib, zuvala tugib, non yasay boshladi. Buvim ayvonga chiqib, hoy, o'tinlarning qayerda deb so'radi. Ko'rsatib beruvdim, tandirga olov yoqa boshladi. Qani, enamchalik bilarmikan deb, anchagina qarab turdim. Men o't qalashganda tandirning ichi oldin qop-qora, keyin qip-qizil, keyin oppoq bo'lishini tomosha qilib turishni yaxshi ko'raman. Shuningchun bir enamning oldiga yugurib kirib, qani menga nechta kulcha yasayapti ekan deyman, buvimning oldiga chiqib e, tandirning ichi endi qizaribdi-ku, deb o'ylab, buvijon, o'tinni ustma-ust qo'ymang, tagidagisi yonsa ustidagisi tutab tandirni yana qoraytirib qo'yadi, ishonmasangiz enamdan so'rang, deyman. Oxiri nonni yopib endi qatlama pishira boshladik. Shayxboboga qatlama ham olib borsak savobi ko'p bo'lib, arvohlar chirqillamasin dedik-da. Oh, qatlamani men biram yaxshi ko'ramanki, qaymoq solib pishirilsa, sal-pal so'lqillab tursa, lum-lo'm qilib yeyishni yaxshi ko'raman. Yo'q, zig'ir yog'iga pishirilganinimas, u qop-qora bo'ladi, men saryoqqa yo'g'rilib, sap-sariq qilib pishirilgan qatlamalarni yaxshi ko'raman. O'shanda xursand bo'lib:

– *Qatlama, qatlama,  
Ostonadan hatlama,  
Qatlama, qatlama,  
Xom bo'lsa indama,  
Qatlama, qatlama,  
Ko'p bersa yo'q dema,*

– deb ashula aytishni yaxshi ko'raman. Ahmadqul bobom o'rgatib qo'ygan. Shuni aytsang, enang har kuni qatlama pishirib beraveradi, menga ham bitta-yarimtasini qo'ltig'ingga berkitib olib chiqib turgin, degan...

Keyin dasturxonga yettita patir, qatlama, yettita nonbehi, yettita anor tugib mozorbooshiga jo'nadik. Yo'q, otishmada



o'lgan tog'amlar ko'milgan Laylak mozorga emas, rahmatli otam uxlab yotgan mozorga deyapman. Ketguncha men yangi etigim bilan qorlarni g'archillatib orqada bordim. Anuv kuni aytuvdim-ku, men qorlarning g'archillagan ovozi yaxshi ko'raman. Mozor bobo yonidagi xonaqohga kelsak, voy, xonaqohni bilmaysizmi, enam ham, bobom ham biladi-ku, hamma biladi-ku, uni shayx o'tirgan xonaqoh deyishadi-ku! Asta kirsak Shayxboboning oldida sandalda emas, yo'q, sal pastroqda, bo'yra ustida bitta opa, uchta qiz bola o'tirishgan ekan. Qizlardan bittasi menga nega keldilaring, degandek g'alatiroq qilib qarovdi, men ham o'zlaring nega keldilaring degandek unga ham g'alatiroq qarab qo'ydim. Shayxbobo duo o'qishdan to'xtamay, qo'li bilan o'tiringlar, deb ishora qiluvdi, biz ham tezgina bo'yraga o'tirib, duoning tugashini kutib turdik. Men bilmagan duolarni o'qiyapti ekan. Enamga qarab ko'zimni qisib turaverdim. Oxiri fotiha o'qishgach, menam o'qiganimdan keyin enam bilan buvim o'sha opa bilan esonmisiz, omonmisiz, deb ko'rishib olishdi.

– Past mahalladan, Melivoyning zaifasi bo'ladi, – dedi Shayxbobo.

– Tanib turibman, – dedi enam ham, – otingiz Chinnibibi edimi, aylanay?

– Ha, – dedi o'sha opa yig'lamsirab.

– Melivoy ajoyib nonvoy edi, eringizniyam bilardim, – dedi enam, – katta to'ylarning nonini o'sha xudojo'yga yoptirardik, qarang-a, shunday azamat yigit ko'mir eltib nobud bo'lsa-ya.

– Yaratgan o'ziga aziz qilaman desa... na chora, – dedi Shayxbobo, – rahmatli jannati odam edi, qaysiki to'yda non yopsa, oldidan jizzaligidan ikkitasini menga yuborardi.

Opa Shayxboboga qog'oz pul uzatuvdi, bittasini olib ikkitasini o'ziga qaytardi. Qizlaringga kavush olib ber dedi. Keyin tugun olib kelgan ekan, o'shandanam faqat bitta non olib, chuqur tokchada boshqa tugunlar ham ko'p ekan, hammasini opaning tuguniga shunday katta qilib tugdiki, voybu, uni qanday qilib ko'tarisharkan, deb o'yladim. Menga bitta nonu bir ko'za suv kifoya, dedi Shayxbobo, seni esa oltita

bolang bor, hammasi qaldirg' ochning bolasiday og'zini ochib o'tiribdi, yeyman-ichaman deydi. Tugunni ola ketasan, savob bo'ladi, olmasang, Shayxboboni ranjitan, degandi, opa olmayman, hecham olmayman, deb yig'lab yubordi. Qarasam, buvimning ham ko'zida yosh miltillab turgan ekan.

- Olmasang Melivoy go'rida tinch yotmaydi, - dedi Shayxbobo, - tushlarimga kirib chiqyapti, yetimchalaridan xabar olib turing, deyapti. Ma, ozgina pul ham beray, qizlaringga ro'mol olib bergin, qara, popukdekkina qizchalar ekan...

Shayxbobo tugunni o'zi ko'tarib opani kuzatgani hovliga chiqib ketdi. Qarasam, buvim ko'z yoshini popukli ro'molchasiga artib-artib olyapti.

- Bu qizim rahmatli To'xtavoyning zaifasi bo'ladi, a? - so'radi Shayxbobo uyga qaytib kirib.

- Ha, - deb qo'ydi enajonim.

- Mana bu chiroyli yigitcha undan qolgan zuryod bo'lsa kerak, tovba, xuddi quyib qo'ygandek-a. Yaratgan egamning dargohi keng-da... Yo'qlab kelib ko'p ulug' ish qilibsiz, qizim... Turmush qurib ketganingizni bilaman, ustaning ham chirqillab qolgan bolalari ko'p edi. Savob yo'liga qadam qo'ygansiz, qizim. Payg'ambarimiz Muhammad alayhi vassallom bir yetimning ko'nglini ovlasang, yetti bor hajning savobini olasan, deganlar. Va lekin, arvohlarni ham yo'qlab turmoq darkor. Hay, tahorat ketmasdan bir tilovat qilaylik bo'lmasa.

Shayxbobo sandalda o'tirganicha ko'zini yumib, boshini sal-pal qimirlatib men hecham eshitmagan duoni o'qiy boshladi. Ovozi judayam yoqimli, judayam mayin, Ahmadqul bobomning cho'loq kelini bolasiga alla aytdi-ku, ana o'shanga o'xsharkan.

- Ena, shu duoni siz bilasizmi? - deb shivirladim.

- Jim, - dedi enam barmog'ini labiga qo'yib.

- Ayting, sekinroq o'qisin, manam o'rganib olay.

- Jim deyapman.

Jim bo'lib yana Shayxboboni kuzata boshladim. Beti o'zimning bobomnikiga qaraganda katta, soqoli ham qalin,

peshonasi keng, burni Esonqul bobomnikiga o'xshab puchuqqina ekan. Boshidagi sallasi oq emas, qizil chitdan, do'ppisiyam kir, o'choqboshimizda qozon ushlaydigan eski do'ppimiz bor-ku, o'shanga o'xshaydi... Asta-sekin mening ko'zim yunila boshladi. Ochay desam ham yumilib ketaverdi. Keyin, ie, nazarimda eshikdan o'zimning otam kirib kelayotganday bo'ldi. Qosh-ko'zi kechasi buvim aytganday qopqora, o'rta bo'y, bug'doyrang, ko'zlari ham chaqnab turibdi. Ostona oldida to'xtab hammamizga birma-bir qarayatganday. Otam, dedimu ko'zim ochilib o'rnimdan turib ketdim.

– Jim, – dedi enam.

Shayxbobo ko'zini ochib menga bir nazar soldi-yu, yana yumib oldi. Endi sal boshqacharoq ohangda o'qiy boshladi. Ko'zlarimni chirt yumib, ancha jim turdim. Faqat qorong'i ko'rinadi-yu, endi hech narsa ko'rinmaydi. Yana qattiqroq yumdim, yana ochdim, yo'q, endi otam hecham ko'rinmadi, yig'lagim kela boshladi. Surilib, enamning tizzasiga o'tib oldim. Duolar tugagach, Shayxbobo o'lganlarning joyi jannatdan bo'lsin, tiriklarning imoni basalomat bo'lsin, yebichishimizning, xayr-xudoyilarimizning savobi umidvor arvohlarga, yer egasiga, mulk egasiga tegsin, deganda o'xshash so'zlarni aytib, fotiha o'qigandi, men uncha qiziqmasdan o'tirdim. Yo'q, fotiha o'qidimu baribir, Esonqul bobom bundan yaxshiroq o'qirdi, deb o'ylayverdim. Keyin Shayxbobodan o'lganlar hech tirilganmi, bir marta bo'lsayam tirilganini ko'rganmisiz, deb so'ragim kelaverdi. So'ray deymanu so'ray olmayman. Oxiri:

– Ena, men hozirgina otamni ko'rdim, – dedim o'rnimdan turib.

– Aylanay qulunimdan, – dedi enam ham o'rnidan turayotib.

– Ko'zimni yumib tursam, xuddi shu uyga kirib kelayotganday bo'ldi.

– Tez-tez kelib turgin, To'xtavoyning o'g'li, – dedi Shayxbobo, – otangni sog'insang, uni xudo xohlasa, faqat shu yerda ko'rasan.

– Boshqa joyda-chi? – shoshilib so‘radim.

– Xudo ko‘rsatsa... bu yerda aniqroq ko‘rasan. Rahmatli otang ham otasining qabrini ziyorat qilishni kanda qilmasdi. Bir kelganda kattagina pul tashlab ketdi, xonaqohning yog‘ochini qurt yebdi, yangilab oling, dedi. Ko‘p saxiy yigit edi-da, eh, attang, ammo yaratganning irodasiga qarshi borolmaymiz. O‘zi yaratdi, o‘zi oladi... Umri qisqa ekan, nachora.

– Bobojon, siz otamni necha marta ko‘rgansiz? – so‘radim chidab turolmay.

– Otang ko‘z oldimda katta bo‘lgan, o‘g‘lim... Qochdi-quvdi paytida ham mening xonaqohimda jon saqlardi. Qani endi qabr boshiga boraylik bo‘lmasa.

Supurgi, yog‘och, kurak olishdi. Qorni tozalab qo‘yish kerak ekan, bo‘lmasa erib, go‘rni cho‘ktirib qo‘yarkan, go‘r cho‘kkani yomon bo‘larkan... Voy-bo‘y, qabriston shunaqa katta bo‘lib ko‘rinyaptiki, qabrlar endi do‘ppayib ko‘rinmaydi, hammasi bitta bo‘p ketibdi.

– Ana Robiyabibi, – dedi bizni boshlab borib Shayxbobo, – marhumlar tinchgina uxlashyapti, hamma g‘alvayu to‘polon mana shu yolg‘on dunyoda, chin dunyo esa oromli, halovatli dunyo. Na deb keldim bu dunyoga, men bu yerlik emasman, deb yig‘lagan ekan mashoyixlar... Qorni supuring-chi, ha, barakalla, tanidim, To‘xtavoyning boshiga otasinikiga o‘xshatib oq tosh qo‘yuvdim, qo‘ychivoy qo‘ydan yanglishmagandek, biz ham qabrdan yanglishmaymiz.

Otam shu yerda yotadimi, kechalari qo‘rqmaydimi, bordiyu tirilib qolsa tuproqlarni qanday ko‘tarib chiqadi?.. Yuragim qisilib yig‘lagim kela boshladi... Bechora otam-ey, biz keng uyda yashaymiz, u bo‘lsa torgina go‘rda yotarkan, ichiyam qorong‘idir. Qop-qorong‘idir.

– Yig‘lama, – dedi enam shivirlab.

– Mayli, yig‘lasin, – dedi Shayxbobo.

Buvim qabr ustidagi qorlarni tozalab supurib, kurak bilan nariga itarib, o‘sha kurakning ustiga o‘tirdi-da:

– Voy xudoy-i-i-im! – deb boshini chayqab ulu tortib yig‘lab yubordi. Keyin tizzasiga shapatilab ura boshladi.

– Qo‘y, qizim, qo‘y, – deb yupatdi enam.

– Mayli, yig‘lasin, – dedi yana Shayxbobo, – yuragi bo‘shaydi, musulmon bolasi har zamon-har zamonda qabristonga kelib yig‘lab-yig‘lab olishi kerak. Yuragi bo‘shab dili yorishadi, tiriklarga oqibatli bo‘ladi.

Enam, Shayxbobosi, Rahmonberdi o‘g‘lim esli, odobli bola, namozliklarni, fotiha suralarini biladi. Ruxsat bersangiz, otasiga bag‘ishlab bir tilovat qilib bersin degandi. Shayxbobo, qani-qani, dedi. Uyimizda bo‘lsam-ku, uyalib yo‘q derdim-a, bu yerda o‘qisam, zora ovozimni otam eshitsa, tirilay-tirilay deb turgan bo‘lsa tezroq tirila qolsa deb o‘ylab darrov ko‘na qoldim.

– Ovozimni siznikiga o‘xshatib o‘qiymi? – so‘radim enajonimdan.

– Yo‘q, Ahmadqul bobongnikiga o‘xshatib o‘qigin.

– Voy, u bobom qori-ku?

– Sen qori bo‘lib o‘qiysan, toylog‘im. Boshlay qol, sovqotib qolyapmiz.

– Bismillohu rahmonir rahim, – deb ovozimni Ahmadqul bobomnikiga o‘xshatib chiqardim, – alhamdu lillohi rabbil olamin ar rahmonir rahim, moliki yovmidin, iyoka na‘budu va iyoka nasta‘in, ixdinasi sirotal mustaqima sirotal lazina an amta alayhim g‘aril mag‘zubi alayhiy va lazzolin omin... bismillohir rahmonir rahim, qulhu oblohu ahad, oblohu somad, lam yalid valam yuvlad, valam yakunlahu kufuhan ahad... Buni bir marta o‘qisayam bo‘ladi, enajonim shunday degan. Subiho nika rabbika rabbil izzati ammo yasifun va salomin alar mursalima valhamdullilohu rabbil olamina, oblohu akbar... o‘qigan duomning savobini o‘tgan hamma bobolarimga, hamma enalarimga, otishmada o‘lgan tog‘alarimga, rahmatli otamga bag‘ishladim. Iloyo otamning go‘ri yop-yorug‘ bo‘lsin, tezroq tirilib, uyimizga kelsin, iloyo buvim endi hecham ketib qolmasin, iloyo hammamiz birga yashaylik, oblohu akbar...

O‘qiyotganimda ko‘zimning qiri bilan qor ustida chordona qurib o‘tirgan Shayxboboga qarab-qarab qo‘yuvdim, uyam

menga qarab-qarab qo'yayotgan edi, tugatishim bilan, shoshilib yonimga keldi-da, ikki qo'ltig'imdanda olib boshidan ham balandroq ko'tarib, Robiyabibi, To'xtavoy o'lmabdi, u tirik ekan, mana u, deb sal pasaytirib, buvim meni kecha qanday sog'inib o'pgan bo'lsa, ana shunday qilib hamma yog'imdanda o'paverdi. Og'zi judayam katta ekan. Betimning yarmi og'ziga kirib ketaverdi. Yana tag'in barakalla, barakalla, otangni sog'insang, har kuni o'qiyvergin, o'qiyvergin, o'shanda otang hecham o'lmaydi, degan gaplarni ham aytdi.

Keyin uchovimiz uyga qaytib ketdik, kelayotganda hecham yig'lamadik.

## ENAJONIM AYTGAN ERTAK

**B**uvim meni aldab ketib qolmasin deb undan hech ajralmayman, uyga kirsa, uyga kiraman, eshikka chiqsa eshikka chiqaman, hoy, etagimni qo'yib yubor, ketmayman, desayam ishonmayman. Enam buving o'zining uyiga borib Ashir buvidan qolgan yetimlarga qarasa, savobining ko'pi senga tegadi, jannati bo'lasan, devdi, men jannatga bormayman, undan buvimning o'zi yaxshiykan, deb turib olaman... Baribir, o'ynagani chiqqim kelaverdi. Yo'q, o'ynashga emas, yo'q, buvim seni ko'rib dilim yayrab tursin deb, yangi etigim, yangi to'nim, yangi do'ppimni kiygizib, voy asalim-ey, kuyov bola bo'p qolding-a degan edi, ana shu kiyimlarimni o'rtoqlarimga hech bo'lmasa bir marta ko'rsatgim kelaverdi.

– Ketib qolmaysiz, a? – deb so'rayman buvimdan.

– Ketmayman, dedimu, asalim, – deydi buvim, – ishonmasang o'ynagani chiqmay qo'ya qol.

Chiqmay qo'ya qol deganiga endi astoydil chiqqim kelib qoldi. Ozgina o'ynaymanu darrov qaytib kelaman deb, tepalik yoniga qarab yugurdim. O'h-ho', qo'rg'onchamizdagi jamiki bolalar chiqibdi, sayil bo'пти, sayildanam zo'r bo'пти! Katta

bolalar uylaridan yashirib go'sht olib chiqib, o'rtaga olov yoqib kavob pishirishyapti, xushbo'y hidi hammayoqni qoplab ketibdi. Biram yegim keldi-ey, Sultonali akam novdaga ilib pishirgan go'shtni ko'z-ko'zlab ham qo'yyapti, yana yegim kelib ketti! Tamshanib-tamshanib nariga borsam, voy-bo'y, qizchalar ham chiqishibdi-ya. Baribir, tepadan pastga qarab sirpanisha olmaydi-ku, undan ko'ra bozillagan sandalida mazza qilib o'tirishsa bo'ladi-ku, to'g'rimi?.. Voy-bo'y, hammayoq qiy-chuv bo'lib ketgan, qiyqirishyapti, kulishyapti, dumalashyapti, hech biri mening yangi kiyimlarimga qaramaydi ham. Qaramasa qaramas, sirpansam bo'ldi-da, sirpangani chiqqanman-da, to'g'rimi?

Endi uch marta sirpangan edim Jamol akam, Rahmonberdi, buving katta ko'chada orqasiga qarab-qarab yig'lab-yig'lab ketyapti, tag'in seni axtarib yurgan bo'lmasin, deb qoldi. A, dedimu anavi kundagiga o'xshab bir nafas qotib turdim, keyin uyga qarab yugurdim. Buvim yo'q! Qo'shninikiga chiqqandir, deyishyapti, yolg'on, yolg'on! Mozor tomonga qarab yugurdim, buvim hamisha o'sha tomondan kelardi. Dodlab yuguraverdim, yuguraverdim. Yo'q, buvijonim yo'q. Orqamdan, hoy esli o'g'lim, deb enam yuguryapti, uch oyoqlab bobom halloslab kelyapti. Baribir buvijonimni o'gay otamgayam, o'gay akalarimgayam bermayman endi. Kerak bo'lsa o'zlari buvi sotib olishsin, buvijonim, mening buvim-ku, u o'zi tuqqan, bobom tuqqan emas meni, uylariga ham bormayman, borganimda menga buvimni berishmaydi, menam bermayman endi. Buvijonim, asalim, ketmang, hecham ketmang, sochlaringizni hidlab yotaman, duolar o'qib beraman. Jon buvi, buvijonim, ketsangiz yana yetim bo'p qolaman, yetimcha yetti kulcha deb masxara qilishadi. Mayli, bobom joy bermasa qochib ketamiz, uzoq-uzoqlarga qochib ketamiz, faqat achomlashib uxlasak bo'ldi, yuzlaringizni silab qo'yaman, yuvinganingizda qo'lingizga suv quyib turaman, buvijonim, hech bo'lmasa tepalikka qo'l ushlab chiqaylik, sizni bolalarga ko'rsatay, mening ham buvim bor, hammaning buvisidan yaxshi, chiroyli

deb ko'rsatay, qayting, qayta qoling. Hidingizga to'ymadim, asalim deb erkalashingizga to'ymadim, yelkamni silaganingizda huzur qiluvdim, o'sha huzuringizga to'yganim yo'q hali, jon buvim, qayting, men duolar o'qiyman, otam tirilguncha o'qiyman. Otinbibi aytdi-ku, ko'p duo o'qilsa, o'lganlar tiriladi, deb. Ko'rasiz, otam tirilib keladi, keyin hammamiz qo'l ushlab sayillarga boramiz, tepalikka chiqib kaboblar pishiramiz. Katta bolalar kabob pishirishyapti-ku. Endi menam katta bo'p qoldim-ku, jon buvi, buvijonim, hammaning buvisi o'yinchoqlar beradi, menga hech kim bermaydi, meniki hammanikidan oz, bobom tanga pul beradi-da, keyin ertasiga bor, o'g'lim, nos olib kelgin, senga kattasidan beraman, deb yana aldab olib qo'yadi, enam mushkulkushod o'qigani borganida meni ichkariga olib kirmaydi, tashqarida, derazaning tagida o'tirib eshitaman. Buvijonim ketmang, ketmang!

Dodlab yuguraverdim, yuguraverdim. Oxiri Vahm ko'chaga yetganda charchab yiqilib tushdim. Mana shu qorlar bo'lmaganda, oyog'im hadeb sirpanavermaganda buvijonimga yetib olgan bo'lardim, endi qorlarni mushtlab yig'lay boshladim. Bitta opa chiqib ko'tarib olmoqchi bo'luvdi, qo'llarini tishlab oldim, eriniyam itarib tashladim, yuziga changallab rosa qor otdim. Nega buvimni to'xtatib turishmadi, to'xtatishganda hozir achomlab olardim, nega meni tashlab qochdingiz deb so'rardim, nega, nega to'xtatishmadi? Endi buvimgayam o'g'il bo'lmayman, enam bilan ham birga yotmayman, sigir soqqanida buzoqchasiniyam ushlab turmayman, bobomning soqoliniyam taramayman, hammasiyam yomon ekan, nega meni aldashadi, nega?.. Qochib ketaman, ajinasi yo'q, bo'rilar yo'q dashtlarga qochib ketaman. Kel, o'g'lim, yarashaylik deyishsa ham kelmayman, hech kelmayman.

Hoy bolamlab enam yetib keldi, uch oyoqlab bobom yetib keldi, qo'shnilar chiqishibdi, hammasining qo'lini, oyoqlarini tishlab olaverdim, oxiri ovozim chiqmay qoldi, yig'lay desam kuchim yetmayapti, bitta amaki ko'tarib uyimiz tomonga



yuruvdi, o‘shaning yelkasiga boshimni qo‘yib hiqillab-hiqillab ketaverdim, uyga kelganimdayam hiqillashim hech bosilmadi, hiqillamay desam ham ichimdan hiqillash kelaverdi. Enam sutli osh pishirgan ekan, yolvorsayam ichmadim. Endi sirayam ovqat yemayman. Yotishganda yonlariga chaqirishgandi, bormadim. Uyning burchagiga borib o‘tirib oldim, chiroqni o‘chirishgandi, qop-qorong‘i bo‘p qoluvdi, endi qo‘rqqa boshladim. Uyning mo‘risidan ajina tushib meni achomlab olayotganday bo‘laverdi... Mayli, enam bilan hozir yarashaman, ertalab yana arazlayman, deb o‘yladim-da, asta bildirmasdan borib yoniga kirayotgandim:

– Kela qol, toylog‘im, kela qol, – dedi bag‘riga olib, yelkalarimdan ham silab, – o‘zimning pahlavonim, azamatim, sovqotib ketibsana. Ertak aytib beraymi?

Ertak eshitgim keldiyu, shunday bo‘lsayam:

– Kerakmas, – dedim. Shunday dedim-u, e aytmasam bo‘lardi, dedim yana o‘zimga, o‘zim.

– Uyqung kelyaptimi?

– Endi hecham uxlamayman.

– Qorning ham ochgandir, qatlama bor, yeysanmi?

– Men endi hecham ovqat yemayman, o‘lgunimcha yemayman, baribir ertaga qochib ketaman, ajinasi yo‘q joylarga qochib ketaman.

– Qo‘y toylog‘im, yarashaylik, bilaman, xafa qilib qo‘ygan kunlarim ertak aytsam yarashib olardik... quloq sol, mana boshlayapman...

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda shu o‘zimizning Farg‘ona tomonda Shohmalik ismli bir podsho bo‘lgan ekan. Uncha adolatli ham, uncha adolatsiz ham, uncha zolim ham, uncha rahmdil ham emas, bir kun zulm qilsa, bir kun shafqat qilarkan. Shohmalikning bir otboqari bo‘lib, uning oilasida bir qiz dunyoga kelibdi, unga Gulira‘no deb ism beribdilar. O‘zi ham ra‘nogulday chiroyli ekan. Kun botibdi, oy chiqibdi, oy botibdi, kun chiqibdi. Kunlar, yillar o‘tib Gulira‘no voyaga yetibdi. Xudoi taolo unga shunday bir husn ato qilgan ekanki, o‘n olti yoshga yetganda husni

jamolining, aqlu farosatining ovozasi olamga yetibdi. Shohmalik qizga oshiq bo'lib, sovchi qo'yib, unashar qilib, nihoyat qirq kechayu qirq kunduz to'y berib uylanibdi. Gulira'noga podshoning Donishzamon ismli vaziri ham zimdan oshiq bo'lib yurgan ekan, tilini tishlab qolibdi. Tilini tishlabdiyu, lekin alami ichda ekan, Shohmalikdan ham, Gulira'nodan ham o'ch olishning payida yurarkan... Bir kun Shohmalik uyqudan tursa kavushining ichida, shahanshohim, hushyor bo'ling, saroyda fitna tayyorlanmoqda, fitnaga suyakli xotiningiz bosh-qosh, degan yozuv turganmish. Shohmalik vaziri Donishzamonni chaqirib maslahat solgan ekan, vaziri, shahanshohim, bu balodan tezroq qutulish kerak, shunday jazo belgilangki, boshqa fitnachilarga saboq bo'lsin, debdi.

Shohmalik vafosizlik qilgan suyakli xotinini sahroga olib borib otning dumiga bog'lab sudratishni, go'shtlarini nimta-nimta qilib tashlashni buyuribdi. Gulira'no faryod chekib, shohim, ichi qora vaziringiz menga zimdan oshiq edi, o'shaning o'chini olayapti desa ham shoh uning gapiga quloq solmabdi. Ammo jazolash uchun borgan navkar rahmdil ham shafqatli ekan. Shunday go'zal va oqila qizning bevaqt nobud bo'lishini istamay sahroga chiqqach, malikam, joningiz o'zingizga sadaqa, Xudo yor bo'lsin, omon qolsangiz tirikligingizni hech kim bilmasin, aks holda mening o'zimni otning dumiga bog'lab o'ldirishadi. Donishzamon ko'p xavfli odam, undan ehtiyot bo'lishingiz kerak, deпти.

Alqissa, Gulira'no kimsasiz sahroyu biyobonda yakkayu yolg'iz qolibdi. Yakkaning yori xudo deb yordamni yaratganning o'zidan so'rab tavallo qilibdi. Kunchiqar tomonga qarab yuraveribdi, yuraveribdi. Donishzamonning ayg'oqchilariga duch kelib qolmayin deb tunda yo'l bosib, kunduzi berkinib yotar ekan. Yura-yura cho'ponlarning tashlandiq, xaroba uyiga duch kelib, oy-kuni yetib turgan ekan, o'sha yerda ko'zi yoribdi. Xudo taolo unga qo'chqorday o'g'il ato etibdi, yelkasida uchta xoli bor ekan. Onaizor unga Xoldorbek deb ism beribdi. Bir kun yotibdi,

ikki kun yotibdi, ona asta-sekin holdan keta boshlabdi, buning ustiga shu atroflardan goho-goho Gulira'ning maydalangan go'shti suyaklarini axtarib topish uchun zolim vazirning navkarlari ham ot choptirib o'ta boshlabdi. Zolim, ichiqora vazir baribir meni o'ldiradi, hech bo'lmasa bolam omon qolar deb Gulira'no Xoldorbegini yo'rgakka o'rab, qimmatbaho taqinchoqlarini yoniga qo'yib, birparcha qog'ozga o'g'limga Xoldorbek deb ism berganman, degan yozuvni yozib, bolam, endi seni Xudoga topshirdim, deya ko'z yoshi to'kib, ey zolim vazir, kel, o'ldira qol deya sahroga chiqib ketibdi.

Alqissa shu atrofda bir qishloq bo'lib, boshqalar qatori bir kampir ham yasharkan. Bittayu bitta sog'in echkisi bo'lib, elning podasiga qo'shib sahroga haydab turarkan. Bir kuni echkisining emchagida sut yo'q bo'lib qolibdi. Voy o'lmasam, echkiemar emdimikan, deb o'ylabdi kampir. Ertasiga ham, indiniga ham shu hol takrorlanaveribdi. Kampir echkisining orqasidan poylab yaylovga boribdi. Qarab tursa, bir chordevorxonaga ma'rab kirib ketayotgan emish. Orqasidan borsa, e tavba, echki engashib yo'rgakda yotgan chaqaloqni emizayotgan emish. Chaqaloq shohi-kimxoblarga o'ralgan emishu yonida talaygina oltin taqinchoqlar ham turganmish. Hay, bir falokat yuz bergandir, deb kampir chaqaloqni uyiga keltirib, yuvib-tarab, qaytadan yo'rgaklab atala pishirib bersa ichmasmish, sigirni sutini bersa ichmasmish. To'rt yoshga yetguncha qishloqda qancha echki bo'lsa hammasining sutini shu chaqaloq ichibdi. Yetti yoshga yetganda kampir uni yoniga o'tqazib, bolam, senga bor haqiqatni aytishim kerak, deb bo'lgan voqeani so'ylab, mana bu uzuk onangdan yodgorlik, onang senga Xoldorbek deb ism berib ketgan ekan, lekin men seni sahrodan topib olganim uchun Sahrobek deb atab yuribman, debdi.

Kun botibdi, oy chiqibdi, oy botibdi, kun chiqibdi, shu yo'sinda kunlar bir-birini quvlab o'taveribdi. Sahrobek kuchga to'lgandan to'lib boraveribdi. O'n yoshida kalladek toshni soqqa qilib o'ynarkan, o'n bir yoshida otning dumidan tortsa, oldingi oyog'ini ko'tarib yuborarkan, o'n ikki yoshida

tog'dan tegirmon tosh ko'chirishsa yelkasida ko'tarib kelarkan. Bir kun shaharga borib bozor aylanishibdi, bir rastada qilich, qalqon, o'q-yoylar savdosi bo'layotgan ekan. Sahrobek qilichni qo'liga olib, bir serpigan ekan, chirt uzilib ketibdi, yoini tortib ko'rmoqchi bo'lgan ekan, uyam tars uzilib ketibdi. Savdogar pulini to'la degan ekan, kalava sotib kun ko'radigan bir mushtipar kampirda shuncha pul bo'larmidi deb, kampir yig'lashga tushibdi. Janjal chiqibdi, to's-to'polon ko'tarilibdi. Oq ot minib bozor aylanib yurgan shahar hokimi janjalning ustidan chiqib qolibdi. Voqeadan xabardor bo'lgach, uzilgan qilichu yoyni pulini to'lab, kampir bilan o'g'lini saroyga olib ketib, farzandi yo'q ekan, Sahrobekning kuch-qudratiga qoyil qolib, uni o'ziga o'g'il qilibdi. Qirq kun to'y-tomoshga beribdi. Sahrobek qilich chopishni, yoy tortishni, palaxmon otishni o'rganib, hokimining navkarlariga sarkarda ham bo'libdi.

Alqissa, kunlar soqqaday dumalab o'taveribdi, qazo kuni yetib hokim olamdan o'tgach, Sahrobek voris emasmi, shaharning hokimi bo'lib qolibdi. Bu shahar Shohmalik podsholigiga tobe ekan, oliq-soliqlar haddan tashqari ko'p ekan, uy solig'i, qo'y solig'i, toy solig'i deb elning tinkasini qo'ritisharkan, Sahrobek o'zining kuch-qudratiga, navkarlarining mahoratiga ishonganidan uch yilgacha shoh xazinasiga o'lpon to'lamabdi. Boju xirojni tezroq to'la deb chopar ustiga chopar kelarmish. Sahrobek ojiz va mute odamlar soliq to'laydi, ey shoh, zo'r bo'lsang, kel, soliqni o'zing yig'ib ol, deb noma jo'natibdi. Tobe shaharning yosh hokimi qilgan bu beadablik shohni darg'azab qilibdi. Qo'shin tortib shahar ustiga yurish boshlabdi. Sahrobek shahar atrofiga xandaq qazib, bildirmaydigan qilib poxol bosib qo'ygan ekan. Shohmalik askarlari urho-ur deb kelaturib, xandaqlar ichiga tushib ketgan ekan, poyloqda turgan odamlar o't qo'yib yuborishibdi. Sarbozlarning bir qismi o'tda kuyib kabob bo'libdi. Qolganlari kattaroq qo'shin bilan yana qaytib kelarmiz deb orqaga ketayotgan ekan, sahrodagi qumlar ichida berkinib yotgan navkarlar ularni qurshab,

qilichdan o'tkaza boshlashibdi. Vazir Donishzamon ham Shohmalik bilan birga kelgan ekan, qarasa, shohning kuni bitayotganday, qurshovdan chiqishning hech iloji yo'qday, bordiyu shohni o'ldirib, boshini olib chiqsam, e pahlavon hokim, men hamisha siz tarafda edim, bu zolimdan qutulishning ilojini topolmay yurgan edim, o'ldirdim, mana uning boshi desam, zero jonimni qutqarib olsam deb o'ylabdi. Sahroda o'tov tikishgan ekan, qorong'i tushishini betoqat kuta boshlabdi. Shom payti ekan, Shohmalik namoz o'qigani joynamozga o'tirganda battol vazir orqasidan pusib kelib, yelkasiga xanjar uribdi. Ikkinchi bor urishga chog'lanayotganda o'tovga shiddat bilan Sahrobek kirib kelib, to'xta, mard yigit yotgan kishiga xanjar urmaydi, pusib xanjar urish nomardning ishi deb, bir hamla bilan vazirning qo'lidagi qonli xanjarni urib tushiribdi. Og'ir paytda o'z shohiga xiyonat qilgan vazir begonaga hech qachon vafo qilmaydi, deya uni shu zahotiyoyq o'limga buyuribdi.

Shohmalik uch bora tush ko'rgan ekan. Har gal tushida oq salla o'ragan, malla chopon kiygan bir avliyo paydo bo'larkan-da, ilon qo'yingda, o'g'ling qutqaradi derkanu yana ko'zdan g'oyib bo'larkan. Shoh ko'rgan tushiga hech ta'bir topolmay qiynalib yurarkan. Negaki, farzand ko'rmagan ekan. Hozir o'tov ichida bandilikda yotib, qarshisida turgan mag'rur sarkardaga tikilib, shular haqida o'ylabdi. O'ylay-o'ylay oxiri, e g'olib yigit, men asiringga bor haqiqatni ayt, mabodo onaizoringning oti Gulira'no emasmidi, deb so'rabdi. Sahrobek shohga yaqin borib, barmog'idagi uzukni ko'rsatibdi, uzukning ko'ziga Gulira'noga Shohmalikdan degan yozuv bitilgan ekan. Shohmalik dod debdi-yu, yerga yiqilib tushibdi, boshini ko'tarib, o'g'lim, o'g'lim, deya yana o'zidan keta boshlabdi.

Alqissa, endi gapni bechora ona Gulira'nodan eshiting...

Shunday qilib onaizor go'dagini chordevorxonada qoldirib, ko'ksini yirtib yig'lab, zolim vazirning ta'qibidan qochib, bir kun yuribdi, ikki kun yuribdi, oxiri holdan toyib yiqilibdi. Nariroqda qabriston bor ekan, o'lsam o'sha yerda o'lay, murdam tashqarida qolmasin, deya sudrala-sudrala mozoristonga kiribdi-yu, yangi

bir qabr bor ekan, o‘shani quchoqlab, voy bolam, Xoldorbegim, deyishga ham holi kelmay hushidan ketibdi. Yaqin o‘rtada bir cho‘pon yasharkan. Xotini ilon chaqib o‘lgan ekan. Har kuni ertalab ikki o‘g‘lini ergashtirib, qabristonga fotiha o‘qigani kelisharkan. Ertalab yana kelishsa, onalari tirilib, qabrning ustiga chiqib, behush yotgan emish. Onajon, deya qichqirib yuborishibdi o‘g‘illari. Suyukligim, vafodorim, deb dodlabdi otalari. Keyin behush yotgan Gulira‘noni ko‘tar-ko‘tar qilib kulbalariga olib ketib, onalarining ismi Gulbodom ekan, shu nom bilan atay boshlashibdi. Gulira‘no ismi o‘zgarganiga xursand bo‘libdi, endi xudo xohlasa, zolim vazirning ta‘qibidan qutulaman, deb o‘ylabdi.

Xaloskor cho‘ponga yor, o‘g‘illariga mehribon ona bo‘libdi. Ammo jigarbandi Xo‘ldorbegini hech unuta olmas ekan, surishtira-surishtira oxiri kampirning uyidan uni topibdi, ammo men sening onang bo‘laman, sen shohning o‘g‘li san deyolmabdi, zolim vazirning ayg‘oqchilari bilib qolishsa albatta o‘ldirib yuboradi, deb qo‘rqarkan. Sog‘inganda gadoy kiyimini kiyib, goh kampirning eski eshigiga, goh hokimning hashamatli darvozasiga yaqin borib, tilamchilik qilib:

*Oq sut berib boqolmadim,  
Diydoriga to‘yolmadim,  
Erkam deya suyolmadim,  
Sahroda qolgan bolam,*

– deya zorlanarkan.

Ko‘rsa yaxshi, ko‘rolmasa yana yig‘lab-yig‘lab qaytarkan.  
Qaytayotganda:

*Zavol ko‘rma, unib-o‘sgin,  
Zolimlarning yo‘lin to‘sgin,  
Zulmkorning qo‘lin kesgin,  
Sahroda qolgan bolam,*

– deb yana yig‘larkan.

Umri yig'lab, zorlanib, intizorlikda o'tayotgan ekan, sog'inib borsayu, ko'rolmasa, ko'rganda o'g'lim deya aytolmasa, onalar uchun bundan og'ir azob bo'lmas ekan.

Og'ir yaralangan Shohmalik o'limi oldidan jamiki vaziru vuzarolarni, hokimu hakamlarni chaqirib, Sahrobek mening qonuniy o'g'lim bo'ladi, taxtimning vorisi u, podsholik saltanatini unga topshirdim, deya farmoni oliy e'lon qilib, butun yurtga jar chaqirtiribdi. Onaizor shohning hashamatli darvozasi yoniga kelib:

*Oq sut berib boqolmadim,  
Diydoriga to'yolmadim,  
Erkam deya suyolmadim,  
Sahroda qolgan bolam,*

– deya yig'layveribdi. Mulozimlar tovoqda tilla olib chiqishgan ekan, tillo menga kerakmas, podsho bo'lgan Xoldorbek o'g'limni bir bora ko'rsam bas, debdi.

*Yelkasida uch xoli bor,  
Kunday jamoli bor,  
Taqdirida kamoli bor,  
Sahroda qolgan bolam,*

– deya yana yig'labdi. Mulozimlar kirib Sahrobekka ta'zim qilib, bo'lgan voqeani aytishgan ekan, yelkamda uch xolim borligi, asli ismim Xoldorbek ekanligini o'zimdani boshqa hech kim bilmas edi-ku, deb o'ylab, gadoy ayolni huzurimga keltiring, deya farmon beribdi. Olib kirishgach, e, onaizor, siz kim bo'lasiz? Mening ismim sizga qanday ayon bo'lgan, deb so'rabdi. Gulira'no yig'lashdan to'xtab, bolam, bolaginam, mening kimligim barmog'ingdagi uzukka yozilgan, debdi. Yigit uzuk ko'zidagi Gulira'noga Shohmalikdan degan yozuvga ko'zi tushishi bilan onam, onajonim, deya qichqirib yuboribdi.

Shunday qilib ertak ham oxiriga yetay deb qopti. Cho'ldagi xaloskor cho'ponni hurmatu e'zoz bilan olib kelib, jamiki cho'ponlarga yuzboshi qilib tayinlabdi. Uning ikki azamat

o'g'lini navkarlikka olishibdi, mushtipar onani yana Gulira'no deb, Sahrobekni Xoldorbekshoh deb atay boshlashibdi va hammalari yaxshi yashab murodi maqsadlariga yetishibdi.

## AHMADQUL BOBONING OQ O'RIGI

**O'**sha kuni o'gay otam olib qochib ketgan buvijonimni tush ko'rdim. Voy, biram maza qildimki, rost aytayapman, juda-juda ham maza qildim. Rosa achomlashdik, betlarimizdan o'pishdik. Keyin achomlashib turib osmonga uchib ketdik. Uchayotganimda qanotim o'rniga oyoqlarimni silkitgan edim, bilmasdan ustimdagi ko'rpani tepib yuboribman, uyg'onib ketibman. Alam qildi, judayam alam qildi. Axir men sog'inib-sog'inib zo'rg'a topganim buvijonim bilan qo'l ushlab uchayotgan edim – yig'lab yubordim.

– Nega yig'laysan? – deb so'radi yonimda yotgan bobom.

– Enam qani? – deb so'radim.

– Suvga ketdi, hozir keladi, – dedi bobom.

– Men buvijonimni yo'qotib qo'ydim, – deb yana yig'ladim.

– Yig'lama, yo'qotganing yo'q.

– Yo'qotdim, tushimda yo'qotib qo'ydim, bildingizmi?

Bobom meni yupata boshladi. Oyog'i tuzalib qolsa eshakka mindirib buvijonimning oldiga o'zi olib borarkan. Yoniga tortib boshlarimdan siladi, ko'z yoshlarimni kafti bilan artib, xudo xohlarsa, albatta olib boraman, xurjunning ko'zini uzumlarga, anorlarga, noklarga to'ldirib boramiz, dedi.

– Noklardan o'gay ukalarimga bermaymiz, – dedim hiqillab.

– Bo'пти, bermaymiz, – dedi bobom yana boshimni silab.

Eshikni sharaqlatib ochib, enam kirib keldi. Rost, suvga borgan ekan, ikki qo'lida ikkita suv to'la chelak borligidan bildim.

– Uyg'ondinglarmi? – dedi enam.

– Juda yo'q bo'p ketding! – deb so'radi bobom.

– Yo'l muz, sekin yurdim.

– Yiqilib yurmadingmikan, deb tashvishlanib yotibmiz...



– E, otasi, Ahmadqul oʻrtogʻingizning hovlisi toʻla odam, – deb enam ostonaga oʻtirdi, – katta oʻgʻli Obbosxonni boʻri talabdi. Katta itiyam oʻlibdi, boʻriyam oʻlibdi... Oʻrningizdan turolmaysiz-da, boʻlmasa, kirsangiz boʻlardi... Men oʻchoqqa oʻt yoqay...

– Itiyam oʻlibdimi? – deb shoshilib soʻradim.

– Ha, olisha-olisha oʻlibdi.

– Oʻsha Toʻrtkoʻz iti-ya?!

– Ha, oʻsha katta iti, Arslondek edi-ya...

Bobojonim inqillab yotgan joyida boshini deraza tomonga burib oldi. Men inqillamadimu, jim yotaverdim. Oʻsha katta Toʻrtkoʻz itlari haqida oʻyladim. Oʻsha itlari tufayli qishlogʻimizga boʻrilar kelolmasdi, qoʻrqardi. Oʻziyam ogʻilxonamizdagi novvoscha kelardi. Tomga chiqib bir uvlasa dalalarni zirqiratib yuborardi. Hech kimni tishlamaganu, shunday boʻlsa ham hamma undan qoʻrqardi, men ham, Murodxon, Hayitvoy oʻrtogʻim ham hamma-hammamiz qoʻrqardik. Hozir ana shular haqida oʻyladim. Keyin men yana oʻtgan yili yozda boʻlgan voqeani oʻylab, Toʻrtkoʻzni oʻlgani yaxshi boʻldimi, yomon boʻldimi, deb oʻyladim...

Oʻshanda juda qiziq boʻluvdi-da, juda qiziq boʻluvdi. Sizga aytganmanmi, aytganim yoʻqmi? Voy, buni hamma biladiku!.. Voy, juda qiziq boʻlganda... Ahmadqul bobomning togʻ tomondagi katta bogʻida oʻrikzorlari orasida hammasidan novcha, tanasi Hayitvoy ikkovimizning ham quchogʻimizga sigʻmaydigan oq oʻrigi bor edi. Oʻshani pishganini hammadan oldin Ortiqali akam bilan Sultonali akamlar bilgan ekan. Har kuni borib ustiga chiqib, toʻyguncha yeb kelayotgan edik, Ahmadqul bobom koʻrib qolib to qishloqqacha quvib keldi. Sindirilgan shoxlarni qoʻliga ushlab:

– Mana shu tamom boʻlguncha savalayman! – deb doʻq ham qildi. Ahmad bobom pakana-da, oyogʻi kalta, baribir bizga yetolmaydi. Biz boʻlsa hoʻ nariga borib, qoʻlimizdagi oʻrikni koʻrsatib:

– Koʻzingiz kuysin, alam qilsin! – deb masxara qilamiz. Hayitvoy oʻrtogʻim:

– Pakana bobo, chakana bobo! – deb sakraydi.

Murodxon o‘rtog‘im:

– O‘rik bobo, yong‘oq bobo, danak bobo! – deb battar jahlini chiqarib qochadi... Ikki kungacha bormadik. Keyin Ortiqali akam, rost, o‘sha aytdi, Ahmadqul bobo ertalabdan buyon bog‘da ko‘rinmaydi. Qo‘qonga ketganga o‘xshaydi, yuringlar, yana mazza qilamiz, dedi. O‘ntacha bola yana yugurdik. Eng katta bolalar, ular qo‘rqmaydi-da, o‘rikning baland shoxlariga chiqishdi, o‘sha yerda pishgani ko‘p bo‘ladi-da. Biz bo‘lsak pastki shoxlariga chiqib, sal xomrog‘idan yeya boshladik. Eh, juda mazza bo‘ldi-da, o‘rikni yeb danagini bir-birimizga otishamiz, qiqirlashib kulamiz, silkinib hayinchak uchamiz... Bir mahal bunday qarajak Ahmadqul bobom mana shu bugun bo‘ri bilan urishib o‘lgan katta To‘rtko‘z itini biz tomonga qarab yetaklab kelyapti. It irillaydi, bo‘ynidagi zanjirni uzaman deydi. Biz hammamiz nima qilishimizni bilmay tek qotib qoldik. Iloyo bobo bizni ko‘rmasin-da, deb o‘yladik. Ko‘rmadi shekilli, itni bog‘lab bo‘lguncha ham tepaga qaramadi, nega tag‘in keldilaring, deb urishmadi ham. Itni bog‘ladi-yu, hech narsa demay orqasiga qaytib ketaverdi...

Chatoq bo‘ldi, juda-juda chatoq bo‘ldi. Birortamiz tushmoqchi bo‘lib sal qimirlasak it irillab tepaga sakraydi. Qimirlama, bo‘lmasa tiriklayin yeyman deydi.

– Bobo buni ko‘rmadi.

– Ko‘rdi ataylab bog‘ladi.

– Endi qanday tushamiz.

– Ortiqali sen tushib ko‘r-chi.

– Yo‘q, o‘zing tushaqol.

– Sigirimni dalaga bog‘lab kelgandim, ochidan o‘lgandir.

– Kecha o‘rik ko‘p yevdim, qornim og‘riyapti.

– Bir pas sabr qil, ukajon.

– Bo‘lmayapti, mana ishtonimni yechayapman...

– Uf, rasvo qilding!

Bizni Sultonali akam boshlab keldi.

– Kelinglar, danak bilan uramiz uni.

– Men o‘rik bilan uraman!

Mana shunaqa gaplarni aytaverdik. Kech kirdi, qorong'i tusha boshladi, yig'ladik, dodladik. Bir mahal Ahmadqul bobomning o'zi ko'rinib qoldi. Katta to'nini olib kelayotgan ekan, tagiga to'shab, yonboshlab yotib oldi. Biz tomonga yana qaramadi. Demak, bizni ko'rmagan, yana ko'rmayapti, deb o'ylab:

– Bobojon, – deb hammamiz birga baqirib yubordik.

– A, ovoz chiqqandek bo'ldimi? – dedi bobo u yon-bu yoniga qarab.

– Biz o'rikni ustidamiz.

– Bobojon, kechiring.

– Endi o'g'irlik qilmaymiz.

– O'zingizdan so'rab olamiz.

– Endi o'rikni shoxini sindirmaymiz.

– Jon bobo! – deb rosa yolvordik, yolvoraberdik, yolvoraberdik. Oxiri bobo tepaga qarab:

– Eha, o'rikning shoxini sindirgan senlarmiding? Endi tovba qildilaringmi? – deb so'radi.

– Ha, tovba qildik, – deb yig'ladik.

– Qattiqroq aytinglar, butun qishloq eshitsin.

Qo'rg'onchamizdagi, qishloqdagi barcha odamlar eshitsin deb bor ovozimiz bilan charchab qolguncha baqirdik. Nihoyat, boboning rahmi keldi, o'rnidan shoshmasdan turib, itini yechayotgan edi, yana to'xtadi:

– Meni pakana bobo deb masxara qilgansizlar, – shunday deb, eski to'nini ustiga o'tirib oldi. Biz zorlanib yana yolvorishga tushdik. Sizning haqingizda yaxshi ashulalar aytamiz, hecham pakana demaymiz, deb qasamlar ichdik.

– Qani ashulalaringni bir eshitay bo'lmasa, – dedi bobo o'tirgan joyida.

*Novcha bobo,*

*Polvon bobo,*

*Asal bobo,*

*Shakar bobo,*

*O'rik bobo,*

*Yong'oq bobo!*

– deb bor ovozimiz bilan ashula aytgan edik, bobo boshini silkillatib, yo‘q yana ham qattiqroq aytish kerak, qishloqdagilar eshitmayapti, dedi yana. Yana aytdik. Oxirida bobo shoshmasdan o‘rnidan turib, eski to‘nini yelkasiga tashlab irillay berib charchagan itini yetaklab bog‘ining eshigidan chiqib ketgandan keyin ham yana qaytib kelib qolmasin deya qo‘rqib o‘rikning shoxida o‘tirdik.

Qaytib kelsak, Ahmadqul bobom allaqachon hammaga aytib maqtanib, bolalaringni ishtonini yuvib beringlar, degan ekan. Biz rosa uyaldik, uyalganimizdan anchagacha ko‘chaga chiqolmay yurdik..

Hozir men yotgan joyimda ana shularni o‘ylab, To‘rtko‘z o‘lgan bo‘lsa, yaxshi bo‘ptimi, yomon bo‘ptimi, o‘lgan bo‘lsa, qanday o‘ldi ekan, deya xayol surayotgan edim. O‘rtog‘im Hayitvoy akasining eski etigini oyog‘iga, dadasining kir qalpoqchasini boshiga kiygancha hovliqib kirib, tezroq yur, bo‘rining o‘lganini birgalashib ko‘ramiz deb qistadi.

Enajonim qaymoq solib qatlama pishirayotgan edi, o‘shandan bittadan olib, Ahmadqul bobomnikiga qarab yugurdik.

## BO‘RI BILAN OLISHGAN ARSLON

**H**ayitvoy ikkimiz yugurib borib qarasak, yo‘q, baribir kech qolibmiz, Ahmadqul bobomning katta hovlisiga allaqachon bolalar, bobolar, opalar yig‘ilishib bo‘pti, qori kuralmagan hovlining o‘rtasiga yotqizib qo‘yilgan bo‘ri bilan To‘rtko‘zning o‘ligini tomosha qilishyapti. Oldiga borishga avval qo‘rqdim, «Lo iloho illollohu» deb kalima o‘girib olgan edim, endi sal qo‘rqmay qoldim, engashib bo‘rining junidan tortib ko‘rgan edim, sip-silliq ekan.

- O‘ziyam bo‘rining eng kattasi ekan-da!
- Qishlog‘imizni oralab yurgan bo‘ri shu bo‘lsa kerak.
- Yo‘q, qo‘shni, u ko‘k bo‘ri edi, o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

– To‘g‘ri, bu begonaga o‘xshaydi.

Shunaqa gaplarni gaplashib bo‘lgach, tomosha qilayotganlar endi bo‘rining shiqirlab yuradigan tuyog‘i, oshig‘i kimga tegarkin, kimga tegsa o‘sha baxtli bo‘ladi, ishini hamisha xudo o‘nglab turadi, deb gaplasha boshlashdi, men hech narsa demadim, nega desangiz, ilgari bo‘rini hech ko‘rmagan edim.

Ahmadqul bobom odamlar to‘plangan katta mehmonxonadan yugurib chiqib:

– Hamzaxon, – deb qattiq chaqirdi, – yoningga bir kishini olginda, borib Erkacholni zambilga solib olib kelinglar, u mening yetmish yillik qadrdonim bo‘ladi-ya, og‘ir kunimda yonimda tursin... Nega angrayapsan, tez bo‘l, senlarga ko‘prik quraman deb shu ahvolga tushib, oyoqsiz yotibdi bechora. Yo‘q deganiga ko‘nma, jo‘na tezroq, – deb, yana ichkariga kirib ketdi.

Bobojonimni olib kelishdi, zambilda emas, qo‘ltiqdan suyab olib chiqishdi. Enajonim ham chiqdi; bir lagan qatlama ham olib chiqibdi, oppoq dasturxonga o‘ralgan bo‘lsa ham men uning hididan bildim. Men hidni yaxshi bilaman, o‘rtoqlarim qo‘ltig‘iga bir narsani berkitishsa, hidlab nomini aytib beraveraman. Bobom bahonasida menam o‘rtaga olov qalangan katta mehmonxonaga kirib oldim. Bo‘ri bilan To‘rtko‘z qanday o‘lganini bilгим keldi-da. Men o‘zim hamma narsani bilгим kelaveradi. Kirsam, voy-bo‘y, mehmonxonaga achchiq tutun to‘lib ketibdi. To‘rida ostiga serpaxta ko‘rpalar solib, boshiga yumshoq yostiqlar qo‘yib bo‘ri bilan olishgan Abbosxon amakimga joy qilib berishibdi. Yonginasida Dehqon shapka amaki ham o‘tiribdi. Kichkina pichoqchasi bor ekan, o‘sha bilan anor so‘yapti. Voy, biram yegim keldi-ey! Bolalarning oldiga chiqarib yubormasinlar deb, ataylab qumg‘onlar ostiga o‘t qalab o‘tirdim. Bir marta qorni katta mis choynakka choy ham damlab berdim.

Abbosxon amakim kirganlarga so‘ylab beryapti:

– Ha, endi yaratganga ming qatla shukur, omon qoldik. Shu azamat To‘rtko‘z itimiz tufayli omon qoldik, iloyo joyini jannatdan buyurgan bo‘lsin!

– It jannatga tushmaydi! – dedi bitta amaki.

– Bir musulmonni qutqarib, o‘zi shahid bo‘lsa-chi? – deb so‘radi Ahmadqul bobom. – Shoshmay turlaring, hali men bu arslonimga janoza ham o‘qitaman. Bobosi bobomni, otasi otamni, mana bunisi suyuqli o‘g‘lim Abbosxonimni qutqardi, bu jannati bo‘lmay kim bo‘lsin yana!

– Bahsni to‘xtatinglar! – deb buyurdi bobojonim. Bilasiz-ku, bobojonimning oyog‘i og‘rib turgan bo‘lsa ham obro‘yi baland, hamma uni hurmat qiladi. Esonqul bobom ham o‘zi to‘qsonga kirgan bo‘lsa-da, Erkavoy ko‘p aqli yigit-da, deb hurmat qiladi. Abbosxon amakim Isfaraga ikki kajava savatda uzum olib boribdi. To‘rtko‘z orqasidan yurib poylab boribdi. Bozor yaxshi bo‘pti, qaytayotganlarida To‘rtko‘z yana o‘n qadamcha orqada yurib poylab kelayotgan ekan, qo‘rg‘onimizga uch chaqirim qolganda Qo‘shtegirmonning shundoqqina yonginasida orqadan to‘satdan irillagan ovozlari eshitilib qopti. Eshak minib kelayotgan Abbosxon amakim bunday qarasa, voy xudoyim, dahshat emish, ho‘kizdek keladigan bo‘ri To‘rtko‘z bilan xuddi kurashga tushayotgandek tikkama-tikka olishayotgan emish. Bechora amakim qo‘rqib ketibdi, eshak ham dir-dir qaltirarmish! Amakim o‘ziga kelib, yordamga boray deb, qinidan pichog‘ini sug‘urib, endi eshakdan tushayotgan ekan, bo‘ri o‘qdek uchib kelib unga tashlanibdi. Xayriyat, Xudoga shukur, amakimning pichoq ushlagan qo‘li to‘sib qopdi, bilagini tishlabdi, xolos, tomog‘ini tishlaganda ish chatoq bo‘larkan. Bo‘ri bilan amakim tikkama-tikka bo‘lib ketishibdi. Shu paytda, iloyo joyi jannatda bo‘lsin, To‘rtko‘z yugurib kelib bo‘rining yelkasidan tishlab pastga bosibdi, yana ikkovlari olishib ketibdi, bir unisi bosib tusharmish, bir bunisi bosib tusharmish...

Agar siz eshitsangiz dod deb yuborardingiz, men dod demasdan tishimni tishimga bosib eshitaverdim. Amakim men damlab bergan choydan bir piyola quyib ichdi, ko‘zini yumib ancha jim yotdi. Keyin yana gapira boshladi...

Uyog'i yana ham dahshatli bo'libdi. Amakim turay desa qoni ko'p oqqani uchunmi, boshi aylanibdi, atrofdagi tog'laru olishayotgan bo'ri bilan it ham chir-chir aylanib ketibdi, nahotki shundoq o'lib ketaversam, e Xudo, o'zing panohingga ol, menga kuch ber, deb, kalima o'girib nola qilibdi. Xudo uning nolasini eshitib, bosh aylanishi to'xtabdi, bilagiga quvvat beribdi, chap qo'liga pichog'ini olib endi o'rnidan turayotgan ekan, bo'ri yana tashlanibdi, yana amakining tomog'ini mo'ljalga olib tashlangan ekan, yo'q, niyatiga yetolmabdi. To'rtko'z beliga minib olgan ekan, yerga bosib tushibdi, shu bosganicha tagidan chiqarmabdi. Amakim yana xudoga nola qilibdi. Xudo unga kuch, g'ayrat beribdi, chap qo'liga pichog'ini olib, olishayotganlar oldiga borsa, xayriyat, bo'ri ostidayu, it ustida emish. To'rtko'zning o'tkir tishlari bo'rining bo'g'zida emish, bo'ri oyoqlarini ojiz-ojiz silkitib, menga rahm qil, qo'yib yubor, degandek xir-xir qilarmish, anchadan keyin bo'rining oyoqlari shalvirab tushib, boshi bir tomonga qiyshayib qolibdi. Allaqachon o'lib bo'lgan ekan. Amakim endi xaloskorim bo'lgan To'rtko'zni ajratib olay desa, boshini ko'tarmabdi, bo'ri bilan olishuv chog'ida chatanog'idan tortib qornigacha yorib tashlagan ekan, ichak-chovoqlari bo'rining ustiga to'kilib yotgan emish. Osmonga qarab ojizgina ulibdiyu jon taslim qilibdi...

Ahmadqul bobom mening yonimda chordona qurib o'tirgan edi. Amakim hikoyasini tugatishi bilan o'zining tizzasiga o'z shapalog'i bilan urib o'rnidan turdi-da:

– Mening ana shunaqa arslonim bor edi! – dedi yig'lamsirab.

– E, kap-katta odam yig'lamsiramay gapir! – urishib berdi Qambarali bobom.

– O'zing-chi, o'zing eshaging o'lganda uch kun yig'lovdingku! – deb Ahmadqul bobom yana bo'sh kelmadi.

– Men eshagim o'lganiga emas, – shoshmasdan tushuntirdi Qambarali bobom, – eshagim homilador edi, qornida olti oylik bolasi bor edi, o'sha bolasiga yig'laganman.

– Baribir arslonimga aza ochaman, xudoyi oshi beraman,  
– deb Ahmadqul bobom yer tepindi, kigizdan chang ko‘tarildi,  
– fotihaga kelmaganlar bilan u dunyoyi-bu dunyo  
gaplashmayman...

Xayriyat tashqariga chiqib ketmaganim, bu yerda bahslashuv juda kuchayib ketdi. O‘rtoqlaringa aytib beraman deb hammasini eshitib o‘tirdim. It har qancha vafodor bo‘lsa ham, baribir uni musulmonlarning qabriga ko‘mib bo‘lmas ekan. Agar Xudo unga jannatdan joy buyursa, qayerga ko‘milsa ham o‘sha yerdan chiqarib olaberar ekan. Agar Ahmadqul bobom xohlasa mayli, aza ocha bersin ekan, lekin tilovat qilib, fotiha o‘qish mumkin emas ekan, agar itimni yuvib-tarab ko‘maman desa, mayli, poklovchini aytdirib kelib, oq yuvib-oq tarab, oppoq kafanga o‘rab ko‘mabersin ekan. Bu gaplarning hammasini mening bobojonim aytdi. U hammadan aqli-da, shuning uchun jim o‘tirishdi.

– Baribir, besh yuz kishiga xudoyi osh beraman!

Shunday qilib Ahmadqul bobom tashqariga chiqib ketdi. Do‘xtir amaki Abbosxon amakimning bo‘ri tishlagan qo‘lidagi yarani ochib, men hidini yomon ko‘radigan dorilardan surib, qayta bog‘lay boshladi. Eshitganlarimni o‘rtoqlaringa aytib maqtanaman deb, hovliga chiqqan edim, qassob amaki bo‘rining terisini shilib ayvonga osib qo‘ygan ekan, o‘rtoqlarim o‘shanga tikilib, gapimga quloq solishmadi. Quloq solishmasa solishmasin, keyin yolvorishsa ham aytmayman. Og‘ilxona tomonda bir ko‘zi ko‘r qassob amaki qo‘y so‘yayotgan ekan, o‘sha yoqqa o‘tdim-u, ko‘nglim aynab darrov orqamga qaytdim.

– Poklovchi keldi! – deb o‘rtoqlarim chuvillab qolishdi. Men uni darrov tanidim. Uyi machitning yonida, hamma o‘liklarni o‘sha yuvadi, avval yuvadi, keyin xushbo‘y dorilar sepadi, keyin gullar, rayhonlarning bargidan ko‘ksiga qo‘yib, iloyo joying jannatda bo‘lsin, deb, oppoq kafanga o‘raydi. O‘zim ko‘rganim yo‘q, enajonim shunday degan.

To‘rtko‘zni zambilga solib molxonaga olib kirib, ostiga poxol to‘shayotgan ekan, men uning ko‘zlarini ko‘rib qoldim. Xuddi menga qarab turgandek bo‘ldi, xuddi, «ey bolalar, hech



qaysingizni tishlamadim, orqangizdan quvmadim, qishlog'ingizni bo'rildan qo'riqladim, xolos. Agar qattiq vovullab sizlarni qo'rqitgan bo'lsam, meni kechiringlar. Men narigi dunyoga, ota-onamning oldiga ketyapman, Ahmadqul bobomni xafa qilmanglar, u juda mehribon, saxiy odam, mening o'rnimga uni sizlar qo'riqlanglar, pakana deb masxara qilmanglar...», – deyayotgandek bo'ldi. Negadir unga rahmim keldi, yig'lab yubordim, yig'im anchagacha hech to'xtamadi.

Ahmadqul bobomning: «Hamzaxon o'g'lim, ombordagi yong'oqdan bir qop olib chiq, bolalarga cho'ntaklari to'lguncha ulash, kattalardan shu bolalar yaxshi ekan, qabriga arslonimni kuzatib borishmoqchi, qara, bellariga belbog' bog'lab, qo'llariga hassa ushlabdi», – degan gaplaridan keyin yig'lashdan sal-pal to'xtadim.

Keyin Ahmadqul bobomning katta bog'iga qarab jo'nadik, To'rtko'zni o'sha yoqqa ko'mmoqchi bo'lishgan ekan. Eng oldinda zambildagi oq kafanga o'ralgan To'rtko'zni ko'tarib borishdi, ketidan Ahmadqul bobomning o'zi, bo'ri bilan olishgan Abbosxon amakim, ularning ketidan qo'rg'onchamizdagi hamma bolalar ergashdik.

Ahmadqul bobom:

– Bobong bobomni ko'rgandi, otang otamni ko'rgandi, qadrdonim poyloqchim, ilyo joying jannatda bo'lsin, – deb yig'lab yubordi. Yo'q, Hayitvoy bilan Murodxon o'rtog'imga o'xshab yolg'ondakam emas, rostakamiga yig'lab borardi, ko'z yoshlarini artib-artib ham olardi. Bolalar ham bir xili rostakamiga, bir xili nomigagina yig'lagan bo'lib, har xil gaplarni aytib borardi:

– Joying jannatda bo'lsin, arslonim.

– Dadamni qutqarib, o'zi o'lgan arslonim.

– Senga nechta yong'oq tegdi?

– Yigirma uchta, senga-chi? Voy arslonim.

– Men sanaganim yo'q... Joying jannatda bo'lsin.

– O'lgani yaxshi bo'ldi, endi oq o'rikni mazza qilib yeymiz.

– Astaroq, Ahmadqul bobom eshitib qolsa xafa bo'ladi.

– Xafa bo'lmaydi, joying jannatda bo'lsin, arslonim.

- Qattiqroq yig'lasang yana yongoq berisharkan...
- Jigarim, bizni tashlab qayga ketding, jigarim!
- Men bilan o'ynashib, dumalashib katta bo'lding, To'rtko'zim...

To'rtko'zni ko'mib qaytib kelsak, allaqachon katta qozonlarni osib, ostiga guldiratib olovlar yoqib palov pishirishayotgan ekan. Sovqotib qolgan qo'limizni isitish uchun o'choqqa yaqin borgan edik, oshpaz amaki:

- Jinni cholning gapiga kirib shu sovuqda itni ko'mgani bordinglarmi? - deb so'radi.

- Ha, bordik, - dedik.

- O'ziyam ahmoq edi, sizlarniyam ahmoq qilibdi, nari tur hammang, xalaqit berasanlar.

Shunday deb oshpaz amaki hammamizni oldiga solib quvlab yubordi, nariga borgach, Hayitvoy o'rtog'im:

- O'zingiz jinnisiz, bog'ingizda bir tup ham yong'og'ingiz yo'q. Jinnisiz, jinnisiz, - deganicha ko'chaga chiqib ketdi...

Orqasidan men ham chiqib ketdim.

## ESHON BOBOMNI QAMOQQA OLDILAR

**E**ndi kunlar sal-pal isib, oftob ham charaqlab chiqib, qorlar erib, ko'chalar bilch-bilch loy bo'lib qoldi. Men bilch-bilch loyni juda yomon ko'raman. Enam etingni loy qilib qo'yasan, deb ko'chaga o'ynatgani chiqarmaydi. Sandalda o'tiraversam zerikib ketaman, o'yinchoqlarimni o'ynagim kelmay qoladi. Bugun ertalabdanoq oftob yana yaraqlab chiqdi. Osmondan tushayotgan nurga kaftimni tutib ko'rgan edim, iliqqina ekan. O'yinchoqlarimning ichida shishaning sinig'i bor edi, o'shani olib chiqib yuzasiga nur tushirib o'ynayman deb turuvdim, bobojonim kel, o'g'lim, mollarni oftobchuvoqqa olib chiqaylik, molxonani bir shamollataylik deb qoldi. To'yimga atab boqayotgan shoxi uzun novvosimizni endigina olib chiqib ayvonga bog'layotgan edik, ko'cha eshigimiz taqillab qoldi. Yugurib chiqsam ikkita to'n

kiygan bitta amaki turgan ekan. Boshidagi quloqchini ham g'alati, bitta qulog'i pastga, bitta qulog'i tepaga qarab turibdi.

- Otang uydami? – deb so'radi.
- Voy, otam o'lgan-ku, – dedim.
- Kimning bolasisan?
- Bobomning bolasiman, – dedim shoshilib.
- Chaqir darrov, – dedi amaki mendan ham battar shoshilib.

Bobom chiqqan edi, Bo'rhovuzning oldiga darrov yetib boring, dedi. Ijroqo'm bobo, nachaynik bobo, melisa amakilar kelgan emish, zarur, judayam zarur gap bor emish, bormasa ish chatoq bo'larmish... Bobom jo'nagan edi, orqasidan enamning, hoy qayt, hammayog'ing loy bo'ladi deyishiga qaramay, men ham yugurdim. Uyda o'tirib bo'pman endi, zerikib ketdim-ku, uyoqda zarur, judayam zarur gaplar bo'lsa, men eshitmay qolar ekanman-da, hecham-da!

Bo'rhovuz qo'rg'onchamizning o'rtasida. Suv yaxshi to'xtasin deb tagini bo'rlab qo'yishgan, shuning uchun bo'rhovuz deyishadi. Atrofida har xil uylar ko'p, sataroshxona, cholbuvalar yashirib namoz o'qiydigan joy, sal narida tobutxona ham bor. Ho' birda Hayitvoy, Dilijon, Rahimberdi – hammamiz tobutxonaga bildirmasdan kirib navbati bilan tobutda yotib ko'rayotgan edik, cholbobolar rosa urishib berishgan... Kelsak, voy-bo'y, Bo'rhovuz yonidagi maydonchada shunaqa odam ko'p to'planibdiki, cholbobolar, amakilar, katta bolalar, Hayitvoy, Dilijon, Abdurahim – hamma-hammasi shu yerda ekan. Melisa amakilar ot minib turishibdi, bitta emas, uchta ekan. Uchovini ham oti zo'r, ho' ertaklarda bo'ladigan, haligi, devlar minadigan otlar bo'ladi-ku, o'shanaqa otlar. Yana bir joyda tik turmay, oldingi oyog'i bilan bilchillab turgan qor aralash loyni tarashlab-tarashlab ham qo'yishyapti.

Eh, meni ham shunaqa bitta otim bo'lganda edi, katta bo'lganimda minib rosa mazza qilardim-da. Kech kelganimiz menga juda alam qildi. Ikkita to'n kiygan quloqchinli amaki nega bizni ertaroq aytmadiykin, qiziq-qiziq gaplar bo'lgandir,

esizgina, hammasini eshitib olardim. Voy, ijroqo‘m boboning kelgani ham rost ekan. Men uni darrov tanidim. Ityoqa palto kiyib olganidanmas, bunaqa palto hozir qishlog‘imizda juda ko‘p. Yo‘q-yo‘q, qop-qora mo‘ylovi buralib-buralib qulog‘ining orqasiga o‘tib ketganidan tanidim.

– Sizlar qachon keldilaring? – deb so‘radim Hayitvoydan.

– Allaqachon kelganmiz, – maqtandi o‘rtog‘im.

– Sayil bo‘larmikan?

– Yo‘q, Eshon bobo qochib ketibdi, o‘shani ushlagani kelishibdi, kim aytsa mukofot olarkan.

– Voy, – dedim qo‘rqib, – Eshon bobo biznikiga borgani yo‘q-ku.

– Biznikiga ham borgani yo‘q, – deb shivirladi Hayitvoy o‘rtog‘im.

Melisa amakilar, ijroqo‘mbobo xuddi menga tikilib qarashayotgandek bo‘laverdi. Qaltiray boshladim, yo‘q, sovqotgandanmas, qo‘rqqanimdan qaltiray boshladim. Shoshilib bobojonimning orqasiga o‘tib, chakmoniga betimni o‘rab, mo‘ralab turdim. Men Eshon bobomning arvochini ko‘ruvdim. Shuni sezib qolishgan bo‘lsa-ya, deb qo‘rqa boshladim.

– Gap shu! – dedi oq ot ustida turgan melisa amaki qo‘lidagi qamchisini o‘ynatib, – zararkunanda Eshon davlatning zotdor cho‘chqalarini o‘ldirib, hukumatga zarar yetkazgan. Cho‘chqa o‘z bolasini yeb qo‘ydi deb bahona qilgan, yolg‘on! Zararni to‘lash o‘rniga melisaxonani teshib qochib ketgan. Hukumatning qo‘li uzun, qayerda bo‘lsa ham albatta ushlaydi... Ma‘lumotimizga ko‘ra, Eshon bir necha kundan buyon Qo‘rg‘onchadagi o‘ziga o‘xshagan jinoyatchilarning uyida berkinib adolatli hukumatimizga qarshi teskari tashviqot olib bormoqda. Uning qayerdaligini aytasiz, aytmasangiz hammangiz qamalasiz.

Ijroqo‘mbobo bitta amakining oldiga kelib:

– Ayt! – dedi.

– Bilmayman, – dedi amaki orqasiga tisarilib.

– Bilasan!

– Tepamda Xudo bor, bilmayman.

– Hozir aytasan, bo'lmasa savalayman.

– Savalasangiz, savalayvering, zamon zo'rniki hozir.

Ijroqo'mbobo amakining yelkasiga qamchi bilan yengilgina urib, endi Ahmadqul bobomning katta o'g'li yonida to'xtadi:

– Xo'sh, sen ham bilmassan?

– Xudo xohlasa bilmayman, – javob qaytardi Abbosxon amakim.

– Uyingda yotib yurgan ekan-ku?

– Xudo xohlasa yotgani yo'q.

– Xudoni o'rtağa solma!

– Xudodan boshqa himoyachimiz yo'q, ijroqo'm.

– Mana senga bo'lmasa, mana, it emgan!

Ijroqo'mbobo Abbosxon amakini endi ikki qamchi urdi, xayriyat, qattiq urmadi, bo'lmasa, rosa og'rigan bo'lardi-da.

Agar meni urganda, agar men ham Abbosxon amakidek katta yigit bo'lganimda qo'lidan qamchisini tortib olib o'ziniyam rosa savalagan bo'lardim. Yo'q, rost aytyapman, meni hech kim urolmaydi, ursa qo'lini ham, betini ham tishlab olaveraman.

Oq ot minib turgan melisa amaki endi yana gapira boshladi. Agar kimda-kim qochoq Eshon boboning qayerdaligini aytsa bir yillik soliqdan ozod qilinar ekan, Stalin boboning katta surati sovg'aga berilar ekan. Odamlar boshini solintirib jim turaverdi, bobom ikkimiz ham jim turaverdik. Voy, yana ikkita melisa amaki bor ekan, ot choptirib ular ham kelib qolishdi.

– Axtarib ko'rdik, – deyishdi.

– Sandiqlarini ham ochdilaringmi? – deb so'radi oq otli amaki.

– Ha, ochib ko'rdik.

– Tomidagi bedasini-chi?

– Ularni ham titkilab tashladik.

– Landovurlar, kim o'zarga ot choptirishni bilasan xolos, – deb urishdi oq otli amaki, – borlaring, boshqa hovlilarni ham qaranglar... ko'chalarga qorovul qo'rganmisan?

– Qo'rganmiz, qishloq o'rab olingan, qush ham uchib chiqolmaydi.

Kelgan melisa amakilar endi, bizning uyimiz tomonga qarab ot choptirib ketishdi. Biznikiga ham kirishsa-ya, voy, kirganlari bilan bari bir Eshon bobom biznikida yo‘q-ku. Yo‘q bo‘lgandan keyin topisholmaydi, to‘g‘rimi?.. Bechora Eshon bobom-ey, endi u kishiga rahmim kela boshladi. O‘sha kuni biznikiga kelganida arvoh emas ekanlar-da, o‘zlari ekan-da, enajonim bировga aytib qo‘ymasin deb shunday degan ekan-da... bechora Eshon bobom-ey, ushlab olishsa urishadi endi...

Asta bobomning etagidan tortib:

– Keta qolaylik, – deb shivirladim.

– Bor, o‘zing keta qol, o‘g‘lim, – deb shivirladi bobom ham.

– Yo‘q, qo‘rqaman.

– Qo‘rqma, o‘g‘lim.

– Hammangni qamayman deyapti-ku, yuring keta qolaylik, sizni ham qamab qo‘yishadi, keyin enam ikkovimiz yig‘laymiz.

– Sabr qil, o‘g‘lim. Baribir ketgazgani qo‘yishmaydi, sabr qil...

O‘rtoqlarimizning oldiga o‘tay, gaplashib turib tomosha qilamiz deb o‘yladimu, keyin darrov, yo‘q, o‘tmayman, o‘tsam Eshon bobomni somonxonamizda ko‘rganimni aytib qo‘yaman, aytmasam ham o‘zlari ko‘zimdan bilib olishadi deb darrov fikrimdan qaytib, oq ot mingan amaki menga qarayaptimikan, yo‘qmikan, deb mo‘ralab uni kuzata boshladim. Yo‘q, qaramayapti ekan. Ijroqo‘mbobo bilan maslahat qilishyapti. Shu paytda odamlarni uyoq-buyoqqa itarib Rajab komsomol bilan Yusuf komsomol kirib kela boshladi. O‘ho‘, ular juda zo‘r, hamma qo‘rqadi. Raisbobo ham, ijroqo‘mbobo ham, jamiki amakilar ham qo‘rqishadi. Ko‘chada duch kelib qolsa, o‘shalar o‘tib ketguncha devorga qisilib turishadi. Bo‘lmasa kattalarga chaqib berishar ekan-da. Chaquv tushsa o‘sha amakilarni darrov qamab qo‘yishar ekan.

– Noto‘g‘ri axborot beribsiz-da, o‘rtoq, – dedi oq ot mingan amaki.

– Axborot to‘g‘ri, – dedi Yusuf komsomol, – men bu qochoq, teskari targ‘ibotchining iziga tushganimga o‘n kun

bo'ldi. Bugun u bog'da paydo bo'lsa, ertaga bu bog'da paydo bo'ladi. Oxiri yashirincha namoz o'qiydigan joylarni aniqladim. Qambarali cholning, ana, o'ziyam ko'zini chaqchaytirib turibdi, menga unaqa qaramang, sizdan qo'rqadigan joyim yo'q, men hukumatning odami bo'laman... ana shu cholning bog'ida ko'rimsizgina uy bor. O'sha yerda namoz o'qishadi. Ha-ha, qochoq shu yerga albatta keladi dedim-da, kechasi bilan uxlamay poyladim... He, chol, menga unaqa qarama, sen bilan tegishli joyda gaplashib qo'yaman... Keyin chollar yig'ila boshladi. Oxirida qochoq Eshon shoshilib kelib, qulog'ini ushlab Ollohu akbar, Ollohu akbar deb azon ayta boshladi, past ovoz bilan aytdi... Keyin qishloqqa borib, jin aravamga minib sizga ma'lumot yetkazdim. Gap shu, ushlaysiz. Ushlamasangiz bilib qo'ying, sizning ustingizdan ham tegishli joyga ma'lumot beramiz...

Hamma jim edi, bobom ikkimiz ham jim turaverdik. Odamlar endi boshlarini battarroq egib olishdi, biz ham battarroq egib oldik. Hayitvoy o'rtog'im yonimga kelib:

- Qulog'ingga bitta gap aytaman, - deya shivirladi.
- Qulog'imni og'ziga yaqinroq tutgan edim:
- Eshon bobomni men ko'rganman, - deya shivirladi.
- Qachon?
- Kecha.
- Qayerda ko'ruvding?
- Tovuxxonada yotgan ekan.
- Qanday qilib ko'rding, men ko'rganim yo'q-ku?
- Otam qorong'uda ovqat olib kelgandi, orqasidan sekin poylab kelib ko'rib oldim.
- Shu gaplarni ijroqo'mboboga aytasanmi?
- Yo'q, aytsam meni ham qamab qo'yishadi.
- Menga nega aytding bo'lmasa?
- Sen ham menga bitta gap aytgin-da, senda qiziq gap ko'p-ku.
- Hozir hech ham qiziq gapim yo'q, - deb shivirladim. - Qiziq gap aytsam, uyimiz kuyib ketadi, mollarimiz ham kuyadi... Eshon bobomning arvochini ham ko'rganim yo'q, bildingmi...

O'rtog'im bilan pichirlashib so'zlashayotganimizda oq ot mingan amaki boshqalar bilan nima to'g'risida gaplashayotganini eshitolmay qoldim, juda alam qildi. Endi bobojonimning oldiga o'tib hamma gaplarni astoydil eshita boshladim. Eshitganlarimni uyga borsam enamga ham aytib beraman, deb o'yladim. Ey, enam ham kelsa bo'larkan, orqada to'n yopingan enalar turibdi-ku, enam ham to'nini yopinib turaveradi-da.

Oq ot mingan amaki Yusuf komsomoldan namozga borgan chollarni tanib olganmidig, qani menga ko'rsat-chi, devdi, komsomol amaki oldinga chiqib davrani aylanib bu, mana bu, mana bunisi ham deb qo'lidagi qamchisi bilan chol bobolarni ko'rsataverdi. Keyin Matmusa bobo, Qambarali bobo, Eshonqul bobo, Ahmadqul bobo, o'zimning bobomni ham qo'shib o'rtaga olib chiqishdi. Qo'rqib ketdim, juda ham qo'rqib ketdim. Bobojonimni qamab qo'yishsa-ya, unda enam ikkovimiz nima qilamiz, kechasi uxlaganda qo'rqamiz-ku, deb o'yladim. Keyin enajonim o'rgatgan duolarni pichirlab o'qiy boshladim. Ey xudo, bobojonlarimizni qamashmasin, deb pichirlab turdim. Yig'lagim kela boshladi. Yig'lasam Eshon bobom biznikiga borganini bilib qolishadi, deb yig'lamaslikka harakat qildim.

Oq otli amaki otdan tushib, jilovini sherigiga ushlatib, yangigina moylangan, qo'nji uzun xirom etigi bor ekan, o'sha loy bo'lib qoladi deb otidan tushmagan ekan-da, qo'lidagi dastagiga kumush qadalgan chiroyli, judayam chiroyli qamchisi bilan o'sha etigining qo'njiga sekin-sekin urib, o'rtada g'uj bo'lib turgan bobolarga yaqinlashib:

- Xo'sh, otaxonlar, - dedi.

Bobolar indashmadi.

- Jam bo'lib namoz o'qish taqiqlangan-ku, bilmasmidilaring?

Bobolar bilishmas ekan, javob qaytarishmadi.

- Qochoq Eshonni qayerga berkitdilaring?

Bobolar yana jim turaverishdi.

- Gapirasizlarmi, yo'qmi?

Yo'q, yana gapirishmadi, boshlarini egib turaverishdi.



– Nima balo, soqovmisan hammang! – amaki shunaqa qattiq baqirib yer tepindiki, atrofga loy sachrab ketdi. Keyin savol beraverdi, beraverdi. Bobojonlar ham jim turaverishdi, turaverishdi. Odamlar ham jim, men ham jim turaverdik. Oxiri amaki, hoy ijroqo‘m, bu soqovlar bilan o‘zing gaplash. Eshonni topasan, topmasang o‘zingni qamayman deb tezgina borib otiga minib oldi. Oyog‘idan zax o‘tgandir-da, yer loy-ku, to‘g‘rimi? Mana, mening ham oyog‘im sovqotyapti-ku.

Ijroqo‘m hassasiga ko‘kragini tirab, engashib turgan Esonqul bobomning yoniga kelib, otaxon, bugun namozga boribmidingiz deb yumshoqqina qilib, erkalatib, sal-pal kulib ham turib so‘radi.

– Bordim nima-yu, – deb Esonqul bobo bir oz o‘ylanib qoldi, – bormadim nima, senga baribir emasmi, bolam?

– Aying, bordingizmi, yo‘qmi?

– Bordim desam mukofot berasanmi?

– Beraman, otaxon, albatta beraman.

– O‘sha mukofotni o‘zing olib uyingda tinchgina o‘tirsang bo‘lmaydimi, bolam?

– Namoz o‘qiyotganlaringda Eshon bugun imomlikka o‘tdimi, yo‘qmi deb so‘rayapman, otaxon, gapga tushunsangiz-chi.

Esonqul bobom qaddini rostlab, boshini baland ko‘tarib shoxdor hassasini qo‘liga ushlab:

– Hoy, Marifxo‘ja, – dedi baland ovoz bilan, – bobong rahmatli Xo‘jayi Pista masjidining so‘fisi edi. Ertayu kech tomog‘ini qirib, qulog‘ini cho‘zib azon aytmagan ekan-da... Xon Eshon hazratlari mana shu kichkina yurtimizning imomi ham imoni edilar. Xudoga shukr o‘sha kishining sharofati bilan odamga o‘xshab yuribmiz, bo‘lmasa qip-qizil hayvon bo‘lib qolardik, eshak bo‘lardik, eshakni ko‘paytirishdan sening maqsading nima o‘zi... Nari tur, ketaman, oyog‘imdan zax o‘tib ketdi.

– Qaytaring! – buyruq berdi oq otli amaki, – Eshon topilmaguncha hech kimga ruxsat yo‘q.

Ijroqo‘mbobo endi Qambarali boboni so‘roq qila boshladi. Yo‘q, so‘roq qilishdan oldin, ey esi yo‘q chol, o‘z uyida

yashirincha masjid ochgan odamga juda katta soliq solinishini bilmas ekansan-da, degan gaplarni aytib oldi. Keyin, Eshonni qayerga berkitding, deb sensirab gapira boshladi.

– Berkitganim yo‘q, – dedi Qambarali bobom.

– Berkitmagan bo‘lsang, qayerda u?

– Bilmayman.

– Bilasan!.. Senga shunday katta soliq solamanki, to‘laguncha bukri beling chiqib ketadi. Ayt, Eshon qayerda?

– Bilmayman dedim-ku.

– Mana senga bo‘lmasa, mana!.. – Ijroqo‘m Qambarali boboning boshiga, yelkalariga qamchi bilan savalay ketdi. Odamlar o‘-o‘-o‘-o‘-o‘ deb yuborishdi, haligi shamol kelganda boshhoqli bug‘doylar uyoq-buyoqqa tebranadi-ku, o‘shanaqa bo‘lib chayqalib ketishdi. Orqada turgan opalar yig‘lagandek bo‘lishdi, men ham yig‘lab yubordim, ovozimni chiqarmasdan yig‘ladim. Bitta amaki, men uni taniyman, Dadaxon o‘rtog‘imning otasi, u, shoshilib kelib ijroqo‘mning qo‘lidagi qamchini tortib olib, oq otli amakiga qarab, hurmatli boshliq, eshon hazratlari 20 ta cho‘chqani o‘ldirgan bo‘lsa mayli, biz tovon to‘laylik, 20 ta qo‘y beraylik, devdi, otliq amaki bu yigit ham jinoyatchiga sherik ekan, ushlanglar, deb buyruq berdi... Ijroqo‘m Ahmadqul bobomning oldiga kelib qalin qoshlirini kerib:

– Xo‘sh, – dedi.

– Nega xo‘sh deysan, men ho‘kiz emasman-ku! – dedi Ahmadqul bobom.

– Ho‘kizdan ham battarsan.

– Ikkovimiz bir qo‘sh bo‘larkanmiz-da. Ha-ha... Bahorga chiqib yer haydarkanmiz-da, ha-ha.

– Tilingni tiy, pakana!

– Pakana dema meni, men sendan novchaman, kel bo‘yimizni o‘lchashib ko‘ramiz.

– Eshon qayerda?

– Xudoning uyida.

– Sen berkitgansan uni!

– Yo‘q, hazratimni yaratganning o‘zi berkitgan.

– Hazillashsam qutulaman deb o‘ylayapsanmi?

– Marifxo‘ja, o‘zing hazilkashsan-ku, – dedi baland ovoz bilan Ahmadqul bobom, – so‘fi bobong tahorat qilmoqchi bo‘lganda tahorat suviga o‘zing qalampir solib qo‘yding-ku, bobor.g bechora kechgacha orqasini changgallab yugurib yurardi-ku.

– Bas! – ijroqo‘m shunday qattiq yer tepindiki, atrofga shunaqangi ko‘p loy sachradiki, o‘sha loylardan bir qismi Hayitvoy ikkovimizning peshonamizga ham kelib tushdi. Ahmadqul bobom orqasiga tisarila boshlovdi, ijroqo‘m uni qisib kela boshladi.

– Gapir, Eshon qayerda? – so‘radi yana.

– Bilmayman.

– Bilmaysanmi, mana senga! – ijroqo‘m qo‘lidagi qamchisi bilan bir tushirmoqchi bo‘luvdi, Ahmadqul bobom zip etib Matmusa bobomning orqasiga o‘tdi-da, o‘ng qo‘ltig‘idan boshini chiqarib ur, ura qol, ha qo‘rqasanmi, Matmusaning o‘g‘li tumanda boshliq-da, ursang enangni ko‘rsatib qo‘yadi, devdi, ijroqo‘mbobo enasini sog‘inmagan ekan, urmadi. Qamchini boshi barobar ko‘targancha orqasiga tisarilib, endi mening bobomning oldida to‘xtadi:

– O‘zlari ham shu yerda ekanlar-da?

– Ha, shu yerdamiz, – dedi bobojonim.

– Zolimlar zamonida yurtga ellikboshi bo‘lgandingiz-a?

– Ha, Marifxo‘ja, otang bilan bobong saylagandi.

– O‘g‘illaringiz odil hukumatga qarshi multiq ko‘tarib chiqqan edi.

– Yurt himoyasiga chiqqan edi, ularni sen ottirgansan.

– Kuyovingiz quloq bo‘lgan edi shekilli?

– Ha, Marifxo‘ja, uni sen quloq qildirgansan.

– Sen chol, hukumatning ashaddiy dushmani bo‘lasan. Eshonni ham sen berkitgansan. Soqolingni yulib olaman hozir.

– Ijroqo‘m soqolidan ushlab o‘ziga tortmoqchi bo‘luvdi, bobojonim uning ko‘kragidan itarib yubordi. Yiqilmadiyu, qo‘lidagi qamchisi bilan bobojonimni savalay ketdi, boshiga, yelkalariga ura boshladi.

Dodlab yubordim. Urma, urma, mening bobom bo'ladi, deya baqirdim. Baqirganimcha borib oyog'ini quchoqlab, sonidan shunday qattiq tishladimki, shunday qattiq tishladimki, joni og'ridi shekilli, tepib yubordi. Loyga orqam bilan shaloplab tushdim. Turib endi bu oyog'iga yopishib, uniyam shunaqa qattiq tishladimki, qo'lidagi qamchisi yerga tushib ketdi. Ikki qo'llab biqinimdan mahkam siqib tepaga ko'targan edi, yuziga barobar bo'lib qolgan ekanman, ikkovi qulog'idan mahkam changallab oldim, endi burnidan ham tishlayman deb turuvdim, bobojonim meni uning qo'lidan tortib olib:

– Urma, zolim, – deb baqirdi, – ursang meni ur, bolani nega urasan, zolim! O'g'illarimni otib o'ldirganing kammidi... Hoy, odamlar, nega qarab turasanlar, cholni uryapti, bolani uryapti bu zolim, nega nasha yeb qo'ygan moldek angrayib turasanlar.

Bobojonim meni yerga qo'yib, ko'kragini keng olib ijroqo'mboboga yaqinlashib yura boshladi. – Qo'ling qichigan bo'lsa mana meni ur, to'yguningcha ur, qonxo'r!

Oq otli amaki sal oldinga yurib kelib ijroqo'mga, bas qiling, odamni sharmanda qildingiz-ku, devdi, ijroqo'm bular bilan yo miltiq, yo qilich bilan gaplashish kerak, dedi. Shu payt dala tomondan bitta melisa amaki ot choptirib kelib qoldi, qochoqni ushladi, olib kelishyapti, dedi.

– Gapir tezroq, gapir! – buyurdi oq otli amaki.

Hamma uylarni, hamma molxonalarni, hamma bog'larni tintishibdi-da, keyin soy bo'yiga qarab yurishibdi. G'ulom boboning devori tagida, qorning ustida odamning izini ko'rib qolishibdi, iz yangigina ekan, devordan oshib o'tishsa, o'sha iz suvi yo'q hovuzga qarab boribdi, bunday tikilib qarashsa, hovuzning ichi to'la sholining poxoli emish, poxol ham yangigina solingan emish. Tagini titkilashsa Eshon bobo o'tirganmish.

– Ana, o'zini ham olib kelishyapti, – dedi shu gaplarni aytayotgan amaki.

Dala tomondan Eshon bobomni haydab kelishayotgan ekan, ikkita otliq, ikkita piyoda amakining oldida bitta-bitta

qadam tashlab kelyaptilar. Egnilarida bobojonimnikiga o'xshagan qora chakmon, boshlarida kichkinagina sallacha, oyoqlarida mahsi-kavush, kavush rosa loy bo'lib ketibdi. O'rtada to'xtab hammaga bir-bir qarab chiqdilar-da:

– Boshlaringga ko'p tashvish soldim-da, hamqishloqlarim. afsus, – dedilar.

Odamlar har xil gaplarni aytishdi. Orqada to'n yopinib turgan opalar yig'lagandek bo'ldi, bolalar ham yig'lagandek bo'ldi, bolalar ham yig'lashdi. Men ham yig'ladim. Yugurib borib oyoqlaridan achomlab olay devdim, bobojonim qo'yib yubormadi. Bitta amaki oq otlining oldiga borib, cholni qiynamang, mayli, o'rniga meni qamang, devdi, oq otlı, buni ham ushlanglar, deb buyurdi. Eshon bobomga qo'shib o'sha amakini ham haydab ketishdi.

## ESHON BOBOMNING O'N QOP KITABI

**Q**'sha kuni Eshonboboga necha cho'chqa boqtirganlarini bilib olish uchun enajonim buyurgan hamma ishlarni bajaraverdim, bajaraverdim, hecham yo'q demadim. Qo'ylarimizning oxuriga g'azon soldim, o'choqning kulini oldim, bobojonimning oyoqlarini uqalab qo'ydim, oxiri:

– Ayting endi, – dedim.

– Yaxshisi bobong aytsa bo'lardi, – dedi enam.

– Yo'q, siz aytasiz, bobom aytayotganda nos chekib olay deb, hammasini aytmaydi.

– O'g'ilginam-ey, senda hamma narsani bilishga havas baland, xudo xohlasa, sen katta olim bo'lasan, o'shanda hozir aytganlarimni kitob qilib yozasan, xo'pmi?

– Men xat yozishni bilmayman-ku?

– Ungacha o'rganib olasan-da.

– Xo'p, ayting tezroq...

– Ha o'g'lim, Eshon bobong bamisoli avliyoday bir kishi...

– Enajon, avliyo degani kim degani?

– Avliyo degani odamlarga mehr-shafqatli, yaxshilik

qiluvchi, Oллоhni esga solib, namozlik o'rgatuvchi degani... Oldin Qo'qonda o'qidilar, keyin avliyolar makoni bo'lgan Buxoroi sharif degan ulug' shaharda o'qidilar, qaytib kelib Qo'qonda maktabdorlik qildilar.

- Maktabdami?

- Yo'q, madrasada. Xotinlari vafot qilgandan keyin shaharda turgilari kelmay, yana o'zimizning qishlog'imizga qaytib keldilar... Dasht tomonda otalaridan qolgan katta bog' bor edi, o'shaning yarmini sotib machit qurdilar, maktab ochdilar. Rahmatli otang To'xtavoy bilan otishmada o'lgan tog'alaringni, butun qishloqdagi bolalarni o'qitdilar.

- Enajon, o'sha maktabda nega meni ham olib bormadilar?

- Arslonim, unda sen tug'ilmagan eding-da.

- O'zingiz aytuvdingiz-ku, odam tug'ilmasdan oldin uning arvohi uchib yuradi, deb, ushlab darrov olib bormabsiz-da?

- Voy shirinim-ey, buncha gapdon bo'lmasang?.. Keyin o'rislar keldi, urushlar bo'ldi, kolxoz zamon bo'ldi, qizil shapka kiyganlar har xil savollar berib Eshon hazratlarini qiynab yubordilar, qochib ketdilar. Mirzacho'l degan pana joyga qochib ketdilar. Keyin Esonqul bobong, Qambarali bobong, o'zingning bobojoning hammalari borib, yolvorib-yolvorib qaytarib olib keldilar... Keyin, ko'rgansan, hazratimning bog'laridan katta anhor o'tadi, ko'rgansan-a? Barakalla, azamatim. O'sha anhordan kitoblar oqib kelaveribdi, kelaveribdi.

- Voy, enajon, kitob nega oqib keladi?

- Istalin bobo Xudoning nomi yozilgan kitoblarni o'tga yoqinglar, yerga ko'minglar, suvga oqizinglar, kimdakim farmonimni bajarmasa o'n yilga qamayman, qamoqxonada chiritaman, debdi. Eshon hazratlari suvda oqib kelgan kitoblarni yig'ib, tomga olib chiqib quritarkanlar, qoplar to'lganda qorong'i kechada, hamma uxlaganda qabristonga eltib ko'mar ekanlar.

- Mening otam ko'milgan qabristongami?

- Bilmayman, azamatim, ishqilib qabristonga ko'mgan ekanlar-da...

– Ko‘mayotganda Qur‘on ham o‘qibdilarmi?

– Albatta o‘qiydilar-da... Keyin ustilaridan chaquv tushibdi, voy o‘g‘lim, qishloqni qizil shapkalilar biram bosdiki, biram bosdiki, Ollohning, aziz-avliyolarning nomlari yozilgan kitoblarni axtarib hamma uylarni tintuv qildilar, molxonalarni, omborxonalarni ag‘dar-to‘ntar qilib tashladilar.

– Odamlar indamadimi?

– Gapisirishdi, yig‘lashdi.

– Keyinchi?

– Sabr qil, toylog‘im, aytaman, hammasini aytaman...

Keyin Eshon hazratlarini mahkam ushlabdilar. Anhordan kitob ushlaganmisiz, deb so‘rabdilar.

– Ushlaganman, – debdilar hazratim.

– Keyin nima qilgansiz?

– Tomga chiqarib quritganman, – debdilar hazratim.

– Keyin nima qilgansiz?

– Qoplarga joylaganman.

– Keyinchi?

– Uyog‘ini aytmayman.

– Aytasiz!

– Xudo bitta, so‘zim bitta, – debdilar hazratim.

Qizil shapkalilar hazratimning qo‘lini orqasiga bog‘lab, qabristonga sudrabdilar, qayerga ko‘mganingni aytasan debdilar. Keyin hamma odamlarni masjidni oldiga to‘pladilar.

– Siz ham o‘sha yerga bordingizmi?

– Yo‘q, azamatim, men bormadim, bobojoning borgan edi, bobosi, yaxshisi uyog‘ini o‘zingiz ayting, axir hammasini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rgansiz-ku.

Bobojonim inqillashdan to‘xtab jimgina yotgan edi, yana voy oyog‘im, deb uh tortib oldi. Onasi, o‘zing so‘zlayber, xuddi ko‘rgandek qilib aytayapsan, haligi gaping ma‘qul, Rahmonjon katta bo‘lsa o‘rtoqlariga so‘zlab bersin, dedi-da, boshini ko‘tarib nos chekib oldi. Har gal nos chekkanda:

*Kimki chekar nosni,  
Uchratar Xizir Ilyosni.  
Aslo yoningga yo'latma,  
Nos chekmagan iflosni, –*

degan ashulasini bir aytib olardi. Bu gal aytmadi, onasi sen o'zing gapga chechansan, otinbibilardan hiam zo'rsan, deb qo'ydi.

Enajonim meni uzoq kuttirmay yana hikoyasini boshladi:

– Ha, azamatim, boshimizdan ne-ne og'ir kunlar o'tmadi...

Odamlarni masjidni oldiga yig'ib, o'rtağa gulxan yoqibdilar, xonadonlardan yig'ilgan aziz avliyolar qo'li bilan bitilgan bir kitobni hazratimga berib:

– Olovga tashlang!.. – debdilar.

– Tashlamayman, ey kofir, – debdilar hazratim.

– Yoqasan! – degan buyruq bo'libdi.

– Xudo bitta, so'zim bitta, – degan javob qaytibdi.

Xo'b zo'r labdilar, Hazratim ko'nmabdilar, avliyolar kitobini qizil shapkalilarning o'zlari yoqa boshlabdilar. Hazratim qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lganda ho' nariga sudrab borib qo'llarini orqasiga qayirib, mahkam ushlab turibdilar. Hazratimning ko'zlaridan duv-duv yosh to'kilibdi, vujudlari terakning bargidek dirillab qaltirabdi. Oxiri chidolmabdilar, yulqinib chiqib, o'zlarini olovga tashlabdilar, yonayotgan bir kitobni olib ko'ksilariga bosib o'chiribdilar, shapkalilariga qarab «kofirlar, it emchagini emganlar, xudoyo qo'llaring go'rda chirisin» deb qarg'ab, qo'llaridagi chala yonib turgan kitob bilan boshliqning naq boshiga uribdilar. Boshliqni urib bo'lmas ekan, ular hukumatning odami hisoblanisharkan, ularni urgan odam, albatta, o'n yilga qamalar ekan. Hazratimning qo'llarini orqasiga bog'lab olib ketibdilar, eshigi temirdan yasalgan qorong'i uyga qamab qo'yibdilar. Yotaveribdilar, yotaveribdilar. Namoz o'qibdilar, Oллоhning nomini tillaridan qo'ymabdilar. Shapkalilar orasida ham insoflilari bor ekan. O'sha insofli odam eng katta boshliq



ekan. Hazratim qamoq muddatini melisa idorasida qorovullik qilib o'taysan, deb farmon beribdi. Xudo ko'ngliga solgan ekanda, shuning uchun Hazratimni qamalishdan saqlab qolipdi. O'shandan buyon Eshon hazratlari qorovullik qilib, kozarmodagi cho'chqalarga ham qarab turarkanlar...

– Endi uxla azamatim, men ham uxlayman.

Ana bobong ham uxlab qoldi, shekilli, xurrak otayapti...

## QISHLOQCHAMIZ UCH KUN YIG'LADI

**R**ostdan ham mozor boshigacha ergashib bordik, xolos, u yog'iga o'tmadik. Past mahallaning bolalari juda yomon, nega bizning ko'chaga keldilaring, nega eshigimizdan mo'ralab qaradilaring deb quvlashadi, itlari ham qo'shilib quvlaydi. Mozor boshigacha katta bolalar ham, men ham sal-pal yig'lab, sal-pal hiqillab bordik. Otliq amakilar oldida asta-sekin ketayotgan Eshon bobom bizga bir martagina qarab qo'ydilar, xolos. Hali aytuvdim-ku, kulimsirab turuvdilar deb, endi hech ham kulimsiramay, yig'lamsirab qaradilar. Qorong'u uyga qamab qo'yishsa qo'rqaman deytogandirlar-da. Yurishdan to'xtab qarab turuvdik, Eshon bobom ham to'xtab, orqalariga o'girilib, endi bizga sal kulimsirab qaradilar, hammadan ko'p menga qaragandek bo'ldilar. Men ham hammadan ko'p tikilib turdim.

– Taqsir, qani yursinlar, xayrlashuv tugadi, – dedi haydab borayotgan otliq amaki.

Shundan keyin hammalari jo'nab ketishdi. Biz ham orqamizga qaytdik, kelayotganimizda har xil gaplardan gaplashdik. Qulijon o'rtog'im bor-ku, o'sha melisa amakilarning yelkasidagi yulduzini sanabdi: novchasida bitta, pakanasida uchta yulduz bor ekanu, qolgan ikkita melisa amaki yelkasiga opalar lozimiga jiyak qadaydi-ku, haligi yiltirab turadigan, o'shanaqa lattadan qadab olgan ekan. Shunga o'xshash yaltiroq latta Qulijon o'rtog'imda ham bor ekan, ertaga yelkasiga tiktirib olar ekan. Abduhalim o'rtog'im ijroqo'm bobosini qamchi bilan urayotganida yig'labdiyu

yugurib borib oyog'idan tishlash hech esiga kelmabdi. Oldin sening bobongni urganda, oldin sen uni tishlab olganingda sendan o'rganib olardim-da, keyin men ham boplab tishlar edim, dedi.

– Mana, meni ham tishlarim o'tkir, ko'rgin, – deb o'rtog'im og'zini ochib oppoq tishlarini ko'rsatdi, – endi bobomni ursa men ham tishlayman, mana bunday qilib tishlayman.

Abdurahim o'rtog'im menga o'girilib:

– Endi seni ham qamashadi, – dedi vahimali qilib.

– Hecham-da, – dedim sal-pal qo'rqib.

– Ijroqo'mboboni tishlading-ku.

– Bobomni urmasa tishlamasdim.

– Bobongni qattiq urgani yo'q.

– Men ham qattiq tishlamadim-ku.

– Qattiq tishlagan ekansan, – dedi Abdurahim battar qo'rqitib, – ijroqo'm nonvoyxonaga kirib, shimini tushirib tishlagan joyingga dori surtib oldi, baribir, seni ham qamashadi endi.

Endi battar qo'rqa boshladim. O'rtoqlarim bilan ham gaplashgim kelmay qoldi. Jim ketaverdim... Qamab qo'yishsa-ya, qamoqxona qorong'u bo'lsa qo'rqaman-ku... Bobojonimni, enamni ham qo'shib qamashsa mayliydi, birga o'tiraverardik, hech ham qo'rqmasdik. Voy, unda uyimizda kim qoladi, mollarimizga kim qaraydi...

Endi yig'lagim keldi. Uyimizga kelguncha o'rtoqlarimga ko'rsatmay jindak yig'lab oldim... Qamalasan, qamalasan, qamalasan emish, qamab bo'pti, qamasa hammasini tishlab olaman, qo'llarini, oyoqlarini tishlayman...

Kelsam bobom allaqachon qaytib, sandalda o'ralib yotibdi ekan, ustiga chakmon ham yopilgan. Enam teskari o'girilib o'choqqa olov qalayotgan ekan, bildirmasdan asta sandalga kirib boshimga ko'rpa tortib olaman devdim, sezib turgan ekan:

– Keldingmi, qulunim? – deb so'radi.

Enammi, bobojonimmi meni urishishlarini oldindan sezsam ataylab yig'lamsirab gapiraman. O'shanda hech ham urishishmaydi.

- Keldim, – dedim yig'lamsirab.
- Voy o'lmasam, hammayog'ing loy-ku, – dedi enam o'rnidan turib.
- Bo'lsa o'lar.
- Piqillamay gapir.
- Piqillagim kelyapti o'zi.
- Voy sho'rim, yangigina to'nni ham rasvo qilibsana-ku.
- Rasvo qilaveraman.
- Loyga dumaladingmi?
- Ha, dumaladim.
- Yechin, bo'lari bo'пти endi.
- Yechinmayman.
- Shundayligicha ko'rpaga kirmoqchimisan, shumtaka.
- Kiraveraman, o'zingiz shumtakasiz.
- To'xtab tur, sen men bilan aytishadigan bo'lib qopsan, ta'ziringni bir berib qo'yay.

Enam engashib endi otashkurakni qo'lga olaman devdi, yo'q qo'rqmadim, olgani bilan baribir urmaydi, buvisinikiga ketib qoladi deb qo'rqadi. Shunday bo'lsa ham bobom uyg'oq ekan, hoy onasi, urishma, deb o'shqirib berdi. O'zi ular juda g'alati-da. Bir kuni enam bobomdan qo'rqsa, ertasiga bobom enamdan qo'rqib, xo'p-xo'p ayb bizda, tovba qildik, deb turadi. Hozir enam bobomdan qo'rqayotgan ekan. Shuning uchun otashkurakni olmay o'zi kelib meni yechintira boshladi. Oldin beqasam to'nimni yechib oldi. Keyin o'choqning oldiga po'stakka o'tkazib qunjigacha loy bo'lib ketgan etigimni yecha boshladi. Men etikni yomon ko'raman, undan potinka yaxshi, ipini bunday-bunday qilib yechsangiz oyoqdan kuni nam tortib hech yechilmay turaveradi. Enam bir poyidan tortgan edi, ostimdagi po'stak bilan qo'shilib sudralib poygakkacha borib qoldim. O'shanda ham yechilmadi. Bunisini tortuvdi, endi o'choq tomonga sudralib keldim. Eh, shu etikni bugun kiymasam bo'lar ekan, ikkovimiz ham rosa qiynaldik. Enam ustasidan rosa xafa bo'ldi, uyi donga to'lsin, solgani idish topolmasin degan gaplarni aytdi. Keyin muzlab ketgan oyog'imdan o'pib:

- Ta'ziringni yebsan-ku, bolam, - deb qo'ydi.

O'rimdan turib enajonimning bo'ynidan achomlab o'zi sal-pal yig'lagim kelib turuvdi, rosmana yig'lab yubordim. Enam, qo'y bolam, yig'lama, devdi, ovozimni chiqarib battar yig'ladim.

- Nega yig'laysan axir, nega? - ko'ksiga bosib yelkalarimdan silay boshladi enajonim.

- Endi meni ham qamasharkan, - deb zo'rg'a gapirdim.

- Seni nega qamasharkan, qulunim?

- Oyoqlarini tishladim-ku, qulog'ini qonatdim.

- Qaysi o'rtog'ing bilan urishding, ayt?

- O'rtog'immas, ijroqo'mboboni tishladim deyapman.

- Ijroqo'mboboni, voy sho'rim, nimalar deyapsan?

- O'zi bobomni urdi-ku, qamchi bilan urdi, nega uradi bo'lmasa?

- Voy, Otajon, gapirsangiz-chi. Bolangiz nima deyapti, eshityapsizmi?

Bobojonim Bo'rhovuz bo'yidan qaytib kelib kampirim o'zi eshitgan bo'lsa bo'ldi, yuragini g'ashlab nima qildim, deb enajonimga hech narsa aytmay, qamchi zarbidan shishgan yuzini ko'rsatmay sandalga kirib yotvolgan ekan. Enam ertalabdan buyon molxonadan chiqqanim yo'q, kimdan ham eshitarдим, siz bo'lsangiz meni odam qatoriga qo'shmaysiz, men sizning cho'ringizman, dedi. Bobomning yuzidagi shishini ko'rib yig'lashga tushdi. Eshon hazratlari musichadek beozor kishi edilar, parishtadek begunoh edilar, xudoyo cho'chqa boqmay cho'chqadek bo'kirib o'lgurlar, deb qamoqqa olib ketgan amakilarni rosa qarg'adi. Mening sho'rlik cholginamda nima ayb, begunoh go'dagimda nima ayb, qamchi ko'targan qo'llaring go'rlarda chirigurlar, degan gapni ham aytdi. Keyin uying burchagida o'tirib olib, otishmada o'lgan tog'alarimni nomini aytib, sizlar tirik bo'lganlaringda qari otalaringni zolimlarga kaltaklatib qo'yarmidilaring, zo'ravonlarning ta'zirini berib qo'yardinglarku, bevaqt ketgan azamatlarim, shahid bo'lgan arslonlarim, deb yig'layverdi, yig'layverdi. Birpas bobom yig'ladi, birpas enam yig'ladi. Bir-

birlarini hecham yupatisha olmadi, yupatib turib yana yig'lab yuborishadi. Bobom ovozi chiqarmasdan, ko'z yoshlarini artib-artib yig'lasa, enam xuddi tog'orada xamir qorayotgandek, kigizni mushtlab-mushtlab, g'ijimlab yig'laydi.

Oxiri bir-birlariga suyanib jim bo'lib qolishdi. Enajonim bobomning yelkasiga boshini qo'ygan edi, bobom meni erkalganda yumshoq-yumshoq silaydi-ku, o'shanaqa qilib yuzlarini, boshlarini silab, qo'y onasi, ularga ham tikilib turgan balo bordir, xudo xohlasa hammasi jazosini oladi, deb yupata boshladi.

– Tur endi, – dedi oxiri, – dorilaringni olib kel, oyoq qurg'ur qattiq og'riyapti.

Enam boshini ko'tarib sirg'alib tushib ketgan ro'molini qaytadan o'rab:

– Yana shamollatib olgan bo'lmang? – deb so'radi.

– Zax yerda yarim kun ushlab turishdiyu shamollamay bo'ladimi.

Molxonamizdagi tovoqchada bo'rsiqning yog'i qo'shilgan qop-qora, yopishqoq dorivor edi-ku, anavu kuni adashgan sigirga ham surturdik-ku, o'sha dorini olib chiqib bobomning qamchidan zaxa bo'lgan joylariga, yo'q-yo'q, hidini yomon ko'raman, ko'nglim ayniydi, deyishimga qaramay, mening ham tovonimga, tizzamning ko'ziga surtib qo'yishdi.

Bobomdan ko'ngil so'ragani qo'shnilarimiz chiqa boshlashdi. Amakilar, opalar, bolalar ham chiqishdi. Hamma chiqaverdi, tanchamizning atrofi to'lib ketdi. Buvimning qiz o'rtog'i Muhtaram xolam, patirni chiroyli yopadigan Bibiqiz ammalar bor deb aytuvdim-ku, o'shalar ham chiqishgan. Bugal qatlama ham, yog'li patir ham olib chiqmabdi, shunday o'zlari chiqaverishibdi. Boshqa ammalar ham hech narsa olib chiqmay, faqat ijroqo'm amakini qarg'agani chiqishibdi. O'sha amaki juda ham yomon ekan. Bugun bo'lmasa, ertaga albatta Xudoning g'azabiga uchrarkan. Qo'rboshilar zamonida ham qo'rg'onchamizdagi amakilarni rosa qiyratgan ekan. O'shanda ijroqo'm emas, komandir ekan. Boshida

chuchvara nusxa shapkasi, egnida ityoqa chakmoni, yonida qilichi, yana bitta yonida to'pponchasi ham bo'lgan ekan. Askarlariyam o'ziga o'xshagan ekan. Qo'rg'onchamizga ot choptirib kelisharkan-da, mamashka-mamashka, papashka-papashka qo'rboshi ko'rding, deb so'rarkan. Bilmayman deyishsa, bilasan, deyishar ekan. Yana bilmayman deyishsa o'n qamchi urilsin deyishar ekan. Bitta boboni ko'p urishganda boshi yorilib, qon ko'p oqib, kechasi o'lib ham qolgan ekan. Enalar bilan bobolar hech narsa aytishmasa menga o'xshagan bolalarni, Sanambuvida o'xshagan qizlarni Bo'rhovuzning yoniga to'plab baranchik-baranchik, kizimka-kizimka, qo'rboshi qani deb so'rarkan. Bolalar bilmaymiz deyishsa hammasini yalangoyoq qilib suvga tushirisharkan-da:

– Qo'rboshi qani? – deb yana so'rasharkan.

Bolalar yig'larkan, qizlar yig'larkan: «Otajon, oyog'im sovqotdi, buvijonim, qo'rqib ketyapman, anavi amakilarni haydab yuboring», deb yig'lasharkan. Keyin bu yig'iga cholbuvilar ham, enalar ham qo'shilarkan, qo'rg'onchamizdagi hamma odamlar yig'lar ekan. Ot ustida qilichini o'ynatib turgan Marifxo'ja amaki, yig'lama, yig'ing bilan meni qo'rqitolmaysan, desa, bitta ena, hoy Marifxo'ja, seni qo'rqitish uchun yig'layotganim yo'q, sendek zolimni qaysi ona tug'di ekan, o'sha onaga achinib yig'layapman degan ekan... Keyin hammaning dodlaganiga bog'larda miltig'ini qo'ltiqlab berkinib yotgan qo'rboshi amakilar chiday olmay, ey nomardlar, bolada nima ayb, ey nomardlar, kampirlarda nima ayb, deyishib, devorlarning orqasidan, ariqlarning ichidan panalab kelib qizil shapkalilarni rosa paqillatib otishar ekan. Urushlar bo'lar ekan, qo'rg'onchamiz vahima ichida qolar ekan.

– Erkavoy bobo, gapirsangizchi, – dedi Mo'tabar xolam o'zi gapirib charchagandan keyin.

– Nimani gapiray, qizim? – so'radi bobojonim.

– Axir o'sha zamonlarda ellikboshi bo'lgan ekansiz-ku?

– Ha, ellikboshi edim.

– Siz o'sha shafqatsizliklarni, qochti-quvdilarni, qirg'inlarni ko'rgansiz-ku?

– Ko‘rganman, qizim, ko‘rganman. Xudoyo o‘sha kunlarni endi sizlar ko‘rmanglar.

– O‘sha ko‘rganlaringizdan siz ham gapiring, hadeb bizni gapirtiraverasizmi.

– Ona qizim-ey, qaytaga sizlar yaxshi eslayapsizlar. Qarib qolibman shekilli, xotiram xira, ko‘p voqealarni yodimga keltirolmayapman.

– Mana shu ijroqo‘m o‘shanda komandirmidi? – yana so‘radi o‘tirgan amakilardan bittasi.

– Ha, jazo otryadi degan bir balo bo‘lar edi. Bu betofiq o‘shanga komandir edi, yuztacha soldati ham bo‘lardi, gazarmada turishardi... Iloyo qo‘rg‘oncha ahli boshiga tushgan balolarni sizlar ko‘rmanglar. Bu haromi yurtni ko‘p qiynagan, ne-ne yigitlarni qurbon qilmadi u. Qo‘rg‘onchamiz ikki o‘t ichida yonardi, tog‘ tarafdin o‘zimizning yigitlar tushsa, Qo‘qondan qilich yalang‘ochlab, zambaragini o‘qlab qizil shapkalilar kelardi. Hamma otishmalar mana shu bog‘larda bo‘lardi. Uylar kuyardi, mollarimiz molxonada yonib kabob bo‘lardi... Iloyo o‘sha kunlarni sizlar ko‘rmanglar... Lekin Yaratganning dargohi keng, zolimni jazolamasdan qo‘ymaydi...

Bobomdan ko‘ngil so‘ragani chiqqanlar orasida soy bo‘yidagi G‘ulombobomning o‘g‘li Qosimali akam ham bor edi. G‘ulom bobom, bor, Erkacholdan xabar olib chiq, ko‘ngil so‘ra, o‘g‘illari shahid bo‘lib ketgan, hech kimi yo‘q, kampiri bilan mung‘ayibgina o‘tirgandir, degan ekan. Shu amakining bitta manqa xotini ham bor-da. Yo‘q, o‘zi juda yaxshi, qo‘rg‘onchamizdagi hamma bolalarga ko‘ylak tikib beradi, zingir mashinasi ham bor. Shu opa ham eri bilan chiqqan ekan. Men undan qo‘rqib, tag‘in bobomga chaqib bermasin, deya ko‘zini poylab o‘tirdim. Ilgari ovozimizni burnimizdan chiqarib, amma, eshiging tamma, deb qochardik. Ro‘zada boychesak aytgani borib hammamiz ovozimizni burnimizdan chiqarib, manqalanib, boychechak aytib keldik eshigingizga, Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga, deb kulishib-kulishib aytayotgan edik, eshikning orqasida poylab turgan ekan,

kaltak olib hammangni otangga aytib bermasammi, molxonaga qamatib qo'ymasammi, deb quvlab qoldi. Baribir bizga yetolmadi... O'shandan buyon shu opadan qo'rqib qochib yurardim. Hozir yana qo'rqayotgandim, xayriyat, opa menga hech qaramayapti...

Qosimali amakim, Erkaboy bobo bir to'planishib qoldik, bunaqasi hadeb bo'lavermaydi, Hoshimboqqolning bog'ida bo'lgan voqeani gapirib bering, axir siz o'sha qirg'inning tepasida bo'lgansiz-ku, devdi, boshqalar ham aytaqoling, deyishdi. Men ham, jon bobojon, aytib bering, deb yolvordim. Bobom boshini chayqab:

-Yo'q, mehmonlarim, yuragim chidamaydi, - deb boshini anchagacha chayqab turdi. - Qosimali, yaxshisi o'zing so'zlay qol. Mayli, eshitmaganlar eshitsin, shahidlarni eslash savob bo'ladi. Hamma gapni G'ulomboy otangdan eshitgansan. Katta akang ham uch kungacha go'r kavlab shahidlarni ko'mgan edi. Aytaqol, o'g'lim, mana bular eshitsin.

Endi hamma Qosimali akamni qistay boshladi. Men ham qistadim. O'sha bog'da qo'rboshi amakilar qanday shahid bo'lganini judayam bilgim kelayotgandi-da. O'zi men qo'rqinchli voqealarni, uchar otlarga mingan qo'rboshilar haqida qiziq-qiziq hikoyalarni, undan keyin devlar, ajdarholar to'g'risidagi ertaklarni yaxshi ko'raman. Bobojonim bo'lsa shunaqalar haqida hech gapirmay, katta bo'lsang, bilib olasan deb qo'ya qoladi... Axir men katta bo'lib qolganman-ku? Hozir katta bo'lmasam, qachon katta bo'laman. Kelgan amakilar, Rahmonjon azamati yigit ekansan, bobongni himoya qilbsan, barakalla deyishdi-ku.

Qosimali amakim hammasini bilar ekan. Bobomdan ham ko'p bilar ekan. O'sha qo'rboshi amakilar uyda kuyib shahid bo'lgan kuni qattiq shamol kelib, hammayoqni taraqlatib muzlatib, tuf desa tupik ham yerga tushguncha muzlab qoladigan bir payt ekan. Qishlog'imizni ham, yerlarimizni ham, suvlarimizni ham, osmonda uchib yurgan qushlarimizni ham, bosmachi bo'lib men hech joyni bosib olganim yo'q, sening o'zing bosmachisan deb o'sha shapkalilarga qarshi urishib tog'-toshlarda sarson yurgan qo'rboshi amakilar



kechasi Hoshimbaqqolning bog'iga qo'ngan ekan. Otlarini bog'laydigan ayvon, o'zlarini sovuqdan pana qiladigan kichkina qo'rg'oncha ham bor ekan. Bir kecha tunaymizu ovqat g'amlab yana toqqa chiqib ketamiz deyishgan ekan.

– To'g'ri aytyapmanmi? – deb so'radi Qosimali amaki.

– To'g'ri aytyapsan, – dedi bobojonim, – chindan ham sovuq qattiq edi. Hovuzdagi muz otni ko'tarardi.

Keyin qo'rboshilarning boshlig'i Islom polvon degan amaki bobomga xabar yuboribdi. Bobom ellikboshi ekan-da. Darrov bitta qo'y so'ydirib, non yoptirib, palov damlashsin deb guruch, sabzi-piyozlar olib ularning yoniga yetib boribdi.

Qo'rboshi amakilar otlarini xashakka qo'yib, egarjabduqlarini yamab, daryoni kechib o'tayotganlarida etiklariga suv kirib, paytavalari ho'l bo'lib qolgan ekan. O'rtaga olov yoqib o'shalarni quritishibdi. Sergo'sht sho'rvani mazza qilib ichishibdi. Keyin bobom olib borgan katta qozonda palov ham pishira boshlashibdi. Oralarida bitta sotqin bor ekan. Juda ayyor ekan, tulkidan ham ayyor ekan. O'zi usta mergan ekanu osmondagi qushni urib tushirar ekanu, baribir sotqin ekan. Sheriklarimni qanday ushlab bersam, qanday qilib mukofotning eng kattasini olsam ekan, deb xayollar surib, rejalar tuzib, orzular qilar ekan. Egarining ostiga katta odamlarning mushticha keladigan nashani bekitib yurar ekan. Hamma o'zi bilan ovora bo'lib qolganda, oshpazning ko'zini chalg'itib o'sha nashani qozonga tashlab yuborib, yana hech narsa ko'rmagandek bo'lib gulxanning yoniga borib paytavasini quritishga mashg'ul bo'libdi. Qiziq-qiziq gaplarni aytib sheriklarini kuldirib o'tiraveribdi. Palov pishgandan keyin davra qurishib o'rtaga laganlarni qo'yib, oling-oling deyishib, qo'y boqqanning umri uzoq bo'lsin degan gaplarni aytishib mazza qilib yeyishibdi. Keyin uyqusiray boshlashibdi. Boshlari aylanib ketaveribdi, ko'zlari ham yumilaveribdi.

Uch kundan buyon jang ichidamiz, ot ustidamiz, uxlaganimiz yo'q, ha mayli, uxlasak, uxlaylik deyishib,

to'nlarni taglariga solib, egarlarga boshlarini qo'yib uyquga ketishibdi. Qorovulga chiqqan yigit oshni hammadan ko'p yegan ekan, hammadan qattiqroq uxlabdi. O'zini uxlaganga solib yotgan sotqin sakrab turib uchqur bir otni minib jazo otryadining boshlig'iga – Marifxo'ja komandirning huzuriga qarab qushdek uchib boribdi. O'rtoq komandir aka, topshirig'ingizni a'lo bajardim, endi mukofotning kattasini berasiz debdi. Marifxo'ja amaki askarlarini boshlab, qilichlarini yalang'ochlab, miltiqlarini o'qlab yetib kelibdi. Qarashsa rostdan ham qo'rboshi amakilar taxtadek qotib uxlab yotgan ekan.

– Bas qil, o'g'lim, – dedi bobom, o'rnidan turib, – men endi buyog'iga chidolmayman, yaramni tirnab yubording. G'ulomboyni o'g'li.

Bobom oyog'i og'rib turgan bo'lsa ham cho'loqlanib hovliga chiqib ketdi. Og'ilxonaga kirdi shekilli, qaytmadi. Mening ham endi eshitgim kelmay qoldi. Uxlab yotgan amakilarni qilich bilan chopib tashlashsa-ya deb qo'rqa boshladim. O'tirganlar bo'lsa ayting, keyin nima bo'пти deyishaverdi... keyin... juda yomon bo'пти. Hammasini otib tashlab, bitta Islompolvon amakini otga o'ngarib olib ketishibdi. Qo'rg'onchamizdagi ancha odamlarniyam qo'rboshiga nega joy berding deb qamab qo'yishibdi. Men endi butunlay qo'rqib ketdim. Ijroqo'mbobo bizni ham nasha berib ushlab olsa-ya deb qo'rqdim. Mehmonlar chiqib ketgandan keyin ham qo'rqaverdim. Bobomdan ko'ngil so'ragani Zahro xolam bilan Boqqol pochchamlar kelishuvdi, ularning ham gaplariga quloq solgim kelmadi. Xolam, erkalab, xayriyat, otamning himoyachisi bor ekan, ijroqo'mning tizzasidan tishlab olmaganida otamni yana urardi, kel azamatim, peshonangdan bir o'pay degandi, ishingizni qiling, deb jerkib berdim. Keyin Ahmadqul bobom chiqdi. Bu Marifxo'ja deganlari dahshat xo'ja bo'ladi, bundan ehtiyot bo'laylik, dedi.

## ENAJONIM ERTAK AYTADI

-Ha, o'g'lim, tinchlan, xudo xohlasa, yomonning jazosini o'zi beraveradi, hammasi o'ziga ayon. Kimni jazolaydi, kimni mukofotlaydi, o'zi biladi. Marifxo'jaga o'xshaganlar ham jazosiz qolmas. Kimki birovga choh qazydi, nohaq bo'lsa o'zi tushadi. Kimki birovga yomonlikni ravo ko'ribdi, o'sha yomonlik balosiga o'zi duchor bo'ladi... Yaxshisi, ertagimni tingla. Tinglab-tinglab uxlab qolgin, toylog'im, azamatim.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda, shu o'zimizning Farg'ona tomonda, dovu daraxtlarga ko'milgan, yam-yashil qishloqda ikki kishi yashagan ekan. Birini Novcha, birini Pakana deyishar ekan. Ikkovi ham xudoning bandasi ekan. Yashabdilar, yashabdilar, oxiri bir kuni pakanasi, e o'rtoq, shu do'ppidekkina qishloqda yashab o'tib ketaveramizmi, axir biz ham dunyoni bir aylanaylik, sayohat qilaylik, ish bo'ri emas, toqqa qochib ketmaydi, qaytib kelib yana ishlayveramiz, debdi. Novcha ham zerikib yurgan ekan, jon-jon deb rozi bo'libdi. Rosa tayyorgarlik ko'rishibdi, xurjunlarning ko'zini oziq-ovqatga to'ldirishib, hayyo-huy deb safarga jo'nab ketishibdi. Eldan elga, yurtdan yurtga o'tishibdi, ko'p ajoyibotlarni ko'rishibdi. Oxiri xurjunlarining ikki ko'zini sovg'a-salomga to'ldirib o'z yurtlariga qaytmoqchi bo'lishibdi. Ammo bir sinovga duch kelib qolishibdi. Hamma narsa Ollohning o'zidan, ehtimolki, bu sinovni Ollohning o'zi yuborgandir... Yo'llari sahroyi-biyobonga tushib qolibdi. Bo'ron ko'tarilib, chang-to'zon ichida adashibdilar. Bir kun o'ngga yurishsa – bir kun chapga yurisharmish...

Bu ahvolda hali ko'p yuradiganga o'xshaymiz, deb o'ylabdi Pakana, yaxshisi suvim bilan oziq-ovqatimni ehtiyot qilay. Shunday deb o'ylabdi, bor narsasini xurjunning ichiga berkitibdi, Novchanning suvidan ichib, nonidan yeb yana ikki kun yo'l bosishibdi, oxiri Novchanning noni bilan suvi tugabdi, och-nahor qolishibdi, shunday bo'lsa ham noumid bo'lmay, bir kun o'ngga, bir kun chapga qarab yo'l bosaverishibdi.

Uxlash uchun yotishganda Pakana sherigiga sezdirmay xurjunidagi suvidan ichib, nonidan yeb quvvatlanib olarkan. Novcha oxiri holdan toyib yiqilibdiyu, o'zidan ketibdi, behush yotib qolibdi. Pakana, sherigim baribir o'ladi, o'lishini kutib o'tirib vaqtni boy berib qo'ymay, nonim bilan suvim borligida biyobondan chiqib olay, deb o'ylabdi, o'ylabdi. Behush yotgan hamqishlog'ining hamyonini, xurjunidagi sovg'alarni olib, o'zinikiga qo'shib, kechir o'rtoq, ikki kishi o'lganidan bir kishining o'lgani ma'qul, deb shu ishni qildim, iloyo joying jannatda bo'lsin deb fotiha o'qib, xurjunini yelkasiga osib, hayyo-huy deb yo'lga tushibdi. Alqissa bu sahrodan goho-goho karvonlar ham o'tib turarkan, o'sha kunlari yana bir karvon o'tibdi. Baland tuya ustida borayotgan karvonboshi nariroqda cho'zilib yotgan kishini ko'rib qolibdi, tuyadan tushib oldiga borsa, bir bandayu mo'min yuziga doka yopilgan holda behush yotgan emish, yuragiga quloq solsa, xayriyat, tirik ekan. Suv beribdilar, ovqat beribdilar, oyoqqa turg'azibdilar. Va yana yo'lga tushibdilar. Qum barxanlari orasida bir kun yo'l bosibdilar. To'satdan yo'l chetidagi yulg'in daraxtlari ostida sochilib yotgan suyaklarga, yirtilgan xurjun, parcha-parcha uzilgan kiyim boshlarga ko'zlari tushib qolibdi. Oldiga borishibdi. Novcha yigit hamqishlog'ini bo'rilar yeb ketganini darrov fahmlabdi, ko'ksini yirtib yig'labdi, suyaklarini to'plab janoza o'qib qumga ko'mibdilar. Novcha yigit karvonboshi yordamida dovu daraxtlarga ko'milgan yam-yashil qishlog'iga eson-omon boribdi. O'rtog'ining sovg'a-salom to'la xurjunini bola-chaqalariga topshiribdi. O'zi ham uzoq umr ko'ribdi, olamdan o'tgach, jannati bo'libdi. O'z do'stiga xiyonat qilgani uchun Pakananing arvohi do'zax olovlarida hamon yonayotgan emish.

– Uxlab qoldingmi, azamat o'g'lim. Ana ertagim ham tugadi... Endi yaxshi tushlar ko'rib uxlaymiz... Aytdim-ku, hammasi Xudodan, yaxshilik mukofotsiz, yomonlik jazosiz qolmaydi, arslonim... Enajonim boshimni silab, peshonamdan o'pib qo'ydi, men uni achomlab oldim. Achomlashganimizcha uxlab qoldik...

## O'LGAN CHO'CHQA O'RNIGA SEMIZ QO'Y SO'RASHYAPTI

**H**aqiqatan ham qo'rg'onchamizdagi odamlar Eshon bobom bilan ikkita amakini qamoqxonaga olib ketganlariga, undan keyin bobolarni qamchi bilan urganlariga achinib roppa-rosa uch kun motam tutishdi. Amakilar maslahatlashdi, bobolar maslahatlashdi, enalar maslahatlashdi, faqat bizga hech narsa aytishmadi. Ijroqo'mboboni tishlab olganim uchun meni ham qamashadini-yo'qmi – shuni juda bilgim kelayotuvdi-da, amakilarning gapiga yashirinib quloq solsam ham baribir, bilolmadim. Men qamoqdan juda qo'rqaman, o'sha yer qop-qorong'u bo'lsa qanday yotaman, to'g'rimi? O'rtoqlarim bo'lsa o'la-o'la, endi qamashadi, qamashadi, tishingni sug'urib olishadi, deb qochib ketishadi. Kechasi yo bobom, yo enajonim ikkovlarining o'rtasiga kirib bobomning soqolidan, enamning sochidan ushlab uxlayman – shunday qilsam sal-pal qo'rqmagandek bo'laman-da... Qo'rboshilar zamonida otishma bo'lgan kunning ertasiga cho'chchayma shapkalilar kelib amakilarni so'roq qilib, mollarimizni haydab ketisharkan. Bu gal hech kim kelmadi, mo'ylovi uzun ijroqo'mbobom ham kelmadi. Endi odamlar pichirlab emas, sal qattiqroq gaplasha boshlashdi, biz ham qattiqroq gaplasha boshladik. Ertalab enam, Rahmonjon, azamat o'g'lim, qo'shnilar dashtga mol haydayapti, Sultonali akangga seni ham qo'shay, xaltangga non bilan mayiz solib beraman, axir sen ham katta yigit bo'lib qolding-ku, devdi, yo'q, enajon, men hali katta bo'lganim yo'q, dashtga borsam melisa amakilar meni ham qamab qo'yishadi, deb ko'nmadim.

– Uy qizi bo'lib shu yerda o'tiraverasanmi?! – dedi enam xafa bo'lib.

– Ha, uy qizi bo'lib o'tiraveraman, – dedim men ham xafa bo'lib.

– Bo'lmasa chiqib birpas o'ynab kelgin.

– O'ynagim ham kelmayapti, – dedim, – siz qayoqqa borsangiz men ham o'sha yerga borgim kelyapti.

– Mening zarur ishim bor, o'g'lim.

– Mening ham zarur ishim bor, – deb ostonada yo‘lini to‘sib turib oldim.

Enam meni aldayapti, aldaganini bilib turibman. Kechasi o‘zimni uxlaganga solib, sal-pal xurрак ham otib, bobom ikkovilarining maslahat qilayotganlarini bitta qo‘ymay eshitib olganman. Enam Otinbibinikiga borib mushkulkushod o‘qitarkan, o‘qitganini hech kim bilmasligi kerak ekan, bilsa teskari tashviqot yuritdi deb qamab qo‘yarkan. O‘qitmasa Eshon bobomni, yana ikkita amakini qamoqxonadan hech ham chiqarishmas ekan. Eshon bobom chiqmasalar qo‘rg‘onchamizdagi hamma odamlar imonsiz bo‘lib, nonni teskari tishlaydigan, suvga tupuradigan, shamolni so‘kadigan, bismillosiz ovqat yeydigan bo‘lib qolarkan. Bobojonim pichirlab, to‘g‘ri qilasan, onasi, yurt vazmin bo‘lib qoldi, boshi falokatdan chiqmayapti, mushkulkushod o‘qitsang, o‘qita qol, zero avliyolar qo‘llab, ishlarimiz yurishib ketsa, lekin hech kimga sezdira ko‘rma... degan gaplarni ham aytdi. Ana shularning hammasini eshitib olganman.

– Jon o‘g‘lim, o‘tkazib yuborgin, – yolvordi enam.

– Meni ham olib borsangiz o‘tkazaman, – dedim qo‘limni yozib.

– Yosh bolalar boradigan joy emas, azamatim.

– Hozir katta yigit bo‘lib qolding dedingiz-ku.

– Gapni ko‘paytirma.

– Ko‘paytiraveraman.

Enam meni hech ham urmaydiyu gapiga ko‘ndirolmasa yig‘lamsirab, meni hech kimim yo‘q, meni hamma qiynayveradi, endi boshimni olib chiqib ketaman, Zahrobu qizimnikiga ketaman, o‘shaning bolalarini o‘g‘il qilaman, erkalatib yuraman, deb qo‘rqitadi. Enamning ketib qolishidan rostdan ham qo‘rqamiz. Unda bizga ovqatni kim pishirib beradi, sigirimizni kim sog‘adi, to‘g‘rimi?.. Hozir ham shunday qiluvdi, ostonadan pastga tushib:

– Mayli, bora qoling bo‘lmasa, – dedim.

– Asalim-ey, – dedi peshonamdan o‘pib.

– Baribir borayotgan joyingizni bilaman, – deb maqtandim.

Keyin yozda otinbibi xolamnikiga mushkulkushod o‘qitgani borganimizda enamning yonida o‘tirib hamma so‘zlarini yodlab oluvdim, o‘shani o‘qiy boshladim.

*Loilaha illo anta, –*  
*Loilaha illo anta*  
*Mushkulkushod naxshi band*  
*Sali alo saodat*  
*Har kim aytsa bir soat*  
*Duo bo'lgay ijobat, –*

ana shularni o'qib bo'lganimdan keyin hayron bo'lib qarab turgan enajonimga qo'rqmang, hech kimga aytmayman, cho'yan soqqa bersa ham, yaltiroq tugma bersa ham aytmayman, Eshon bobomni hech kimga aytmadim-ku, dedim. Enam gapimga ishonib chiqib ketdi. Uyda o'tirgim kelmay o'zim ham o'ynagani jo'nadim. Tag'in Hayitvoy o'rtog'inikiga kirarkan deb o'ylamang, yo'q, endi ularnikiga hech ham kirmayman. Qachon ko'rishsak, o'la endi ijroqo'mni tishlaganing uchun seni ham qamashadi deb qo'rqitadi. Kirsam-ku mazza qilardim-a, hozir ayvonlarida rosa o'ynashayotgandir. Chikildak, zuvilloq, uzoqqa sakrash, balandga sakrash, yong'oq tepish... biz hammasini bilamiz, yongoq o'ynashning yetti xili bor. Mana, qo'l bilan otib tekkizasiz – bir, ikkitadan otib tekkizasiz – ikki, oyoqning uchi bilan tepib tekkizasiz – uch, doiraning ichiga g'uppa tikib mo'ljalga olasiz – to'rt... Ey, juda ham xili ko'p. Men oldin ko'p yutqazardim-da, keyin ko'zimni bittasini qisib turib mo'ljalga olishni o'rganib oldim, endi hammasini yutaman. Hozir uyimizda ikki xalta yong'og'im bor. Undan keyin chikildak o'yinimiz ham qiziq, yo'q, to'xtang, uni ham aytay, rostdan ham juda qiziq. Mana, oldin bir quloch keladigan kaltak kesasiz, keyin bir qarich keladiganidan kesasiz, keyin kaltasini yerga qo'yib uzunining uchi bilan yerdan ko'tarib osmonga otasiz-da, pasayib kelayotganida bir urasiz, uchib ketib uzoqqa borib tushadi, endi bidingizmi! Keyin sherigingiz kaltakcha borib tushgan joygacha nafas olmay zuvillab boradi. Nafasi yetmasa qaytadan yuguradi, yana yuguradi, eh juda mazza bo'ladi.

Hayitvoy o'rtog'imnikiga kirmadim. Murodxonlarnikiga qarab yurdim. Shu o'rtog'im juda yaxshi-da. Meni sizlab gapiradi, men ham sizlayman. Keyin-chi, otalarini dada deb

chaqirishadi. Borib eshiklari qiya turgan ekan, asta mo'ralab qaragam o'rtog'im ko'rinmaydiyu dadasi hovlida katta bolta bilan o'tin yorayotgan ekan. Aytuvdim-ku, dadasi meni yomon ko'radi deb. O'shanda ayb rostdan ham mendan o'tuvdi. Uylarida o'ynab o'tiruvdik, o'rtog'im molxonada qo'rg'oshin bor, o'shandan eritib oshiqning ichiga quysak og'ir bo'ladi, hammaning oshig'ini yutib olamiz, dedi. Kirsak, molxonalarining shiptiga o'ntacha bedana osib qo'yishgan ekan, hammasi bizni qo'yib yuboringlar, onalarimizning oldiga boraylik, degandek yig'lamsirab, to'rni cho'qib pitirlashayotgan ekan. Enam qushga ozor bergan, uni qafasga solgan odam do'zaxi bo'ladi, olovda kuyadi derdi, ertak ham aytib beruvdi. Qushlarni yaxshi ko'rgani, ozor bermagani uchun o'sha odam jannatga tushgan ekan. Murodxonga shuni aytib, jon o'rtoq, bedanalarni qo'yib yuboraylik, onalarining oldiga borishsin, bizni duo qilishadi, keyin ikkovimiz ham jannati bo'lamiz, o'sha yerda qo'rg'oshin quyilgan oshiqlar ham ko'p bo'larkan, birga o'ynab yuramiz degandim, darrov rozi bo'lib, uylaridan katta qaychi olib chiqdi. Keyin o'rtog'im engashib turdi, men yelkasiga chiqib to'rni qiyt-qiyt qilib kesib, bechora bedanani olib hovuchimda ham ushlab ko'rdim, iliqqina ekan, yuragi ham gup-gup qilib urib turibdi. Qo'yib yuborgan edim, shunaqa xursand bo'ldiki, shunaqa xursand bo'ldiki, pir etib borib ostonaga qo'ndi-da, o'sha yerda turib rahmat sizlarga, hozir borib onamga aytaman, sizlar endi jannati bo'lasizlar deyayotgandek, sap-sariq ko'zlarini mo'ltillatib bizga ancha tikilib turdi-da, keyin pir etib hovliga chiqib ketdi.

– Ana ko'rdingmi, bizni duo qildi, – dedim sevinib.

– Ko'rdim, – dedi o'rtog'im, – qaychini menga ber endi, men ham bittasini chiqaray, axir jannatga birga boramiz-ku.

Endi men engashib turdim. Murodxon yelkamga chiqdi. Voy, juda og'ir ekan, o'zi mendan bir yosh katta-da, katta bo'lsa ham o'rtoq bo'laverganmizyu Bitta bedanani chiqaruvdi, ko'zi ko'r ekanmi, eshikni hech topolmaydi. Bechora-ey, biram rahmim keldiki. Sigirning tagidan ushlab hovliga o'zimiz chiqarib yubordik. Keyin galma-galdan



yelkamizga chiqib bedanalarni qo'yib yuboraverdik. Endi oltinchisini chiqarayotuvdik, o'shanda o'rtog'imning yelkasida men turuvdim, ostonada Otaxon amakim ko'rinib qoldi. Ichkari ancha qorong'u-da, bizga tikilib turdi, biz ham tikilib turdik.

– Nima qilyapsizlar? – deb so'radi.

Men javob qaytaray desam esimga hech gap kelmadi. Jim turaverdim.

O'rtog'im: – Dada, biz jannati bo'lamiz, – dedi maqtangandek bo'lib.

Otaxon amakim bizga yaqinlashib keldi-da, nima qilayotganimizni endi ko'rdi shekilli:

– Hu, o'sha jannati bo'lgan! – deb o'shqirdi. O'rtog'imning yelkasidan tushib, qo'limdagi qaychini tashlash esimga kelmay, ushlaganimcha ko'chaga qarab otildim. Ko'cha eshigimizgacha quvlab keldi, juda qattiq quvdi. Oyog'imga enamning kavushini kiyib borgan edim, o'shani yechib qochgandim, menga yetolmadi. Kira solib ko'cha eshigimizni tanbalab, yonidagi supaga chiqib oldim.

– Och! – deb eshikni mushti bilan urdi Otaxon amakim.

– Ochmayman, – dedim.

– Nima qilib qo'yding, esi yo'q.

– Oltitasini chiqardik, xolos, endi siz ham jannati bo'lasiz.

– Och deyapman, bobong bilan gaplashib qo'yay, sayroqi bedanalar edi! Har bittasi bittadan qo'yga arzirdi, och!

– Och-may-man, – dedim, – jannati qushlarni to'rga solganlar do'zaxi bo'ladi, bildingizmi, ishonmasangiz enamdan so'rang. Endi siz ham do'zaxda kuyasiz, hozir enajonimni chaqiraman.

Keyin enam chiqdi, bobojonim chiqdi, rosa janjallashishdi. Men bog'ning etagiga borib berkinib oldimda, o'sha yerda o'tiraverdim. Bobom, yanagi yili senga ellikta bedana ilintirib beraman, qishda sandalda o'tirib to'r to'qib beraman, deb arang ko'ndirdi! Men, bobom urishmasin, deb ataylab kechgacha yig'lamsirab yurdim... O'shandan buyon mana shu amakidan juda qo'rqaman. Hozir o'tin yorayotgan ekan,

eshikning tirqishidan tilimni chiqarib bir masxara qildim-da, orqamga qaytib ko'chaning o'rtasida to'xtab qoldim, qayoqqa yurishni bilmay turaverdim. Ko'cha eshigimiz tomonga qarab turuvdim, uyimizga Esonqul bobom, Ahmadqul bobom yana bitta bobo kirib ketayotgan ekan, o'shayoqqa qarab yugurdim. Bilaman, hozir qiziq-qiziq gaplar bo'ladi, mazza qilib eshitaman endi. Uyga kirishim bilan bobojonim:

– Keldingmi, o'g'lim, qumg'onni bir qaynatib bergin, – dedi erkalatgandek qilib.

Boshqa vaqt bo'lganda, bobojon, qo'limni kuydirib olaman deb ko'nmasdim-ku, hozir juda xursand bo'ldim. Qumg'on qaynatishni bilaman, enam o'rgatib qo'ygan. Oldin olov yondirib olinadi, keyin eng ustiga ho'l o'tindan qo'ysa ham bo'ladi. Tagidagisi yonib ustidagisini o'zi quritib oladi, bildingizmi?... Endi Matmusa bobom bilan G'ulom bobomlar ham kelishdi, hammalari kelishaverdi.

– Qani, mullo Matmusa, xushxabarni so'zla-chi – dedi Esonqul bobom.

– Shu aytganlaringni qildim, – dedi Matmusa bobom.

– Yo'q, sen bir boshdan so'zlaginki, eshitib dilimiz taskin topsin, bir haftadan buyon ignaning ustida o'tiribmiz-da.

Matmusa bobom tong saharlab eshagiga minib tuman markaziga, boshliq bo'lib ishlaydigan o'g'linikiga jo'nabdi. Nonushtani nabiralirim bilan birga qilarman deb qaymoq ham olgan ekan. Eshagi juda ahmoq ekan-da, shu eshakni ilgariroq sotib yubormaganiga hozir attang qilayotgan ekan, yo'li hech ko'paymabdi. Eshak har odimda nos chekib tumshug'ini osmonga qilarmish, xala qilsa orqa oyog'ini osmonga otarmish... kechikib boribdi. Borsa, boshliq o'g'li allaqqachon ishga chiqib ketgan ekan.

– Uh, – dedi bobom cho'zib, – hoy Matmusa, gapni bo'ladiganini gapirsang-chi.

– Shoshma, Erkavoy, – dedi Matmusa bobom, – shoshma o'rtoq, bo'ladiganini ham aytaman.

– Taom lazizatli bo'lganda uni shoshmasdan chaynash kerak-da, – deb gap qo'shdi Ahmadqul bobom ham.

O'zimning bobom yana uh tortib oldi. Matmusa boboning kelini ko'p odobli ham mehribon ekan, xursand bo'lganidan o'zini qo'ygani joy topolmabdi. Otajon, xayriyat bizni ham yo'qlar ekansiz, oyda-yilda bir kelay demaysiz-a, nabiralaringizni sog'inmaysizmi, debdi. Matmusa bobom, hoy kelin, hukumat ering ikkovingga qo'sh ot qo'shilgan izvosh berib qo'yibdi. O'shanga o'tirib, o'zlaring borsalaring poshsholikdan tushib qolasizlarmi, degan ekan, kelin qayta-qayta uzr so'rab darrov eriga sim qoqib, otamiz shunaqa-shunaqa ishlar bilan kelganlar, debdi. Nodirbek amaki darrov o'zining qo'sh ot qo'shilgan izvoshini jo'natibdi. Idorasi ham zo'r ekan, devorlari bo'rlangan, oqlangan, kursilarida odamning surati ko'rinarmish.

Nodirbek amaki o'rnidan turib:

– Assalomu alaykum, ota! – degan ekan, Matmusa bobom:

– Ey, salomingni qo'y, bolam, – debdi. Qani ota, o'tiraylik, degan ekan, ey o'tirmayman, debdi. Hammasidan xabarim bor, ota, degan ekan, Matmusa boboning jahli chiqib, xabaring bo'lsa nega borib yurtidan dil so'ramading, deb urishibdi.

– Xo'sh, gapning bo'ladiganini aytsam, – yana so'zlashda davom etdi Matmusa bobom, – Nodirbekka qiyin ekan, ota, yolg'izman deydi bechora o'g'lim. Axir, deyman, Eshon hazratlari qulog'ingga azon aytuvdi, ehtimolki shu sabab elning hurmatida yurgandirsan. Bilaman, ota, bilaman, deydi deydi yana. Butun boshliq bo'ri bor bu yerda, ularga qarshi borish osonmas, qaytaga o'sha dalada ketmon chopib yurgan paytlarim yaxshi ekan, deydi bechora o'g'lim... Ha-ha Nodirbekka ham qiyin ekan, lekin ilojsiz ish yo'q, dedi.

Endi chol bobolar tortishib qolishdi. Bittasi hukumat idoraga bo'ri boylab qo'ygan desa, bittasi bo'yra solib qo'ygan, o'shani ustida o'tirib majlis qilishadi deydi, yana bitta bobo bo'lsa, yo'q, bilmas ekansizlar, byuro deydi, buyruq beradigan joy deydi. Men qaysi biri to'g'ri ekan deb qumg'onga o't qalab, teskari o'girilib o'tiraverdim.

Nodirbek amakim yana bitta zo'r boshliqqa sim qoqibdi. Yo'q, o'rtoq, gapga ko'ning, yurt g'alayon ko'tarsa, tinchitish oson bo'lmaydi, o'rtoq Istalinga arz qilishmoqchi, yaxshisi o'lgan cho'chqalarning haqini to'lashsin, e, o'sha xotin olib xotin qo'yadigan Marifxo'ja ijroqo'm bilan o'zim gaplashaman, degan gaplarni aytibdi. Keyin Matmusa bobom o'sha boshliqning oldiga boribdi. U yerdagi boshliq qo'lini ko'ksiga emas, peshonasiga qo'yib salomlasharkan.

– Eshon jinoyatchi, – debdi ovozini baland qilib.

– Jinoyatchi emas, – debdi Matmusa bobom qattiq gapirma, – ajali yetsa odam o'ladiyu cho'chqa nega o'lmas ekan?

– Jinoyatchi bo'lmasa qamoqxonadan nega qochdi? – yana so'rabdi boshliq.

– E, zerikib ketgandirlar-da, – debdi Matmusa bobom.

Keyin rosa savdolashibdi. Boshliq 10 ta qo'y berasan, hammasi semiz bo'lsin, gazarmadagi askarlarga so'yib beramiz, debdi. Matmusa bobom ko'rinishingizdan musulmon odamning bolasiga o'xshaysiz, cho'chqaning kalamushdek-kalamushdek bolasiga semiz qo'y so'ragani uyalmaysizmi, debdi. Boshliq, yo shartimizga ko'nasiz, yo Eshon hazratlarining suyagi qamoqxonada chirib ketadi, debdi. Matmusa bobom anavi ikkita begunoh yigitlarimizning taqdiri nima bo'ladi, degan ekan, boshliq ularning jinoyati og'ir, hukumatga qarshi chiqqan, teskari tashviqot yuritgan, jinoyatchi Eshon hazratlarini berkitgan... Lekin kelishsak bo'ladi, debdi-da, keyin ovozini pastlab, bu og'ir ishni zimmamga olsam, meni ham quruq qo'ymaysizlar, debdi. Matmusa bobom ham ovozini pastlab:

– O'zingizga to'rtta qo'y bersak bo'ladimi? – deb so'rabdi.

– Beshta bersalaring kambag'al bo'p qolasizlarmi? – deb boshliq o'rnidan turib sekin-sekin kulibdi-da, oxirida yana ham past ovoz bilan: menga pulini bera qolinglar, degan gapni aytibdi. Eshon bobom bilan begunoh qamalgan amakilar qo'ylar yetib borgan zahoti ozod bo'lisharkan.

Esonqul bobom ko'zlarini chirt yumib, jimgina o'tiruvdi. Men uxlab qoldimikan desam, yo'q, uyg'oq ekan, ko'zini xiyol ochib, sal-pal kulimsirab:

– Keyin yana muttahaamlik qilishmasmikan? – deb so‘radi. Matmusa bobom bilmadim, deganday yelkasini qisib qo‘yuvdi, Ahmadqul bobom shoshilib:

– Poshsho muttahaam bo‘lgandan keyin... – dediyu uyog‘i esidan chiqib qoldi shekilli, jim bo‘la qoldi. O‘zim bo‘lsam, xayriyat, Eshon bobom ozodlikka chiqar ekanlar, chiqsalar menga o‘qishni o‘rgatadilar, duolar o‘rganaman, keyin katta bo‘lsam masjidga imom bo‘laman, Hayitvoy, Dilijon o‘rtoqlarimga rosa maqtanaman... Zo‘r bo‘pti, zo‘r bo‘pti, xayriyat, xayriyat deb o‘ylayotgandim, Esonqul bobom, hoy bola, echkiga o‘xshab hadeb sakrayvermagin, dedi. Xayolga berilib turgan joyimda tepinib o‘yinga tushayotgan ekanman, uyalib ketdim. Choy damlayotganimda ham yana xayolga berilaveribman. Ahmadqul bobom:

– Rahmonberdi, bobonga o‘xshab ko‘knori ichib olganmisan, – deb urishdi, – qumg‘ondagi suvni choynakka emas, yerga quyyapsan-ku.

Voy, rostdan ham qaynagan suvning yarmini yerga to‘kib qo‘yibman, zo‘rg‘a qaynatuvdim-a, endi battar uyalib ketdim. Qochib chiqib ketardimu qiziq-qiziq gaplarni eshitmay qolaman-da. Eshitsam, hammasini enajonimga aytib xursand qilardim. Undan keyin men bolalarning gapidan ko‘ra mana shu chol bobolarning gapini yaxshi ko‘raman. O‘rtoqlarim bilan o‘ynab turganimda bobolar to‘planishsa, darrov o‘shayoqqa qarab chopib ketaveraman. Nega men shunaqa ekanman? Nega shunaqaligimni enam ham bilmas ekan. O‘zi sen aqllisan-da, yana ham aqlli bo‘lging keladi-da, deydiyu boshqasini aytmaydi.

Endi 10ta qo‘yni qanday yig‘sa ekan, deb maslahat qila boshlashdi. G‘ulom bobom, Eshon hazratlari ko‘p tabarruk zot, u kishini qutqarsak, dinimizni, imonimizni qutqargan bo‘lamiz. Zolimdan qochib himoya so‘rab to‘ppa-to‘g‘ri bizning qo‘rg‘onchaga keldilar. Biz u hazratni himoya qilolmay qo‘lga tushirib qo‘ydik. Endi qutqarish ham bizning zimmamizda. Xudo xohlab mana qutqaryapmiz ham. Xudoga ming qatla shukr, hali yurtimiz imonsiz bo‘lganicha yo‘q, xayr-ehson ko‘tarilgani yo‘q. Mayli, kafansiz ko‘milaylik, ammo

hazratimizni o'zimiz qutqaramiz. Xudo xohlasa, chin dunyoga borganda yuzimiz yorug' bo'ladi, degan gaplarni aytdi.

O'zimning bobom yiqqanimizcha yig'aylik, yetmasa mayli to'rt yashar buqam bor, semirib tuyacha bo'p ketgan, o'shani sotsam, 6 ta qo'y beradi, dedi.

Ahmadqul bobom:

– Menda qo'y yo'q hisobi, 2 ta echki beraman, – devdi, Esonqul bobom hoy pakana, echkiday ma'ramay tek o'tir, deb uniyam urishib berdi.

Qumg'on yana qaynagan edi, endi to'kmasdan juda ehtiyot bo'lib katta oq choynagimizga damladim-da, bobomning oldiga keltirib qo'yib qulog'iga:

– Mening yong'oqlarimni sota qolaylik, o'shangayam qo'y olsa bo'ladi, – deb shivirladim.

– Jim o'tir, – deb qo'ydi bobojonim.

– Jon bobojon, o'sha yong'oqlarni sota qolaylik.

– Jim deyapman.

– Cho'yan soqqalarimniyam sotsa bo'ladi, hamma bolalar menga sot, menga sot deb yurishibdi.

– Bor, ko'chaga chiqib birpas o'ynab kelgin, gapga qo'shilavermagin, – deb bobom ovozi baland qilib meni urishib berdi. Alam qildi, judayam alam qildi. Eshon bobom kelganlarida menam qo'y olib berganman, derdim, barakalla mulla o'g'lim, derdilar. Endi bobomga hecham choy qaynatib bermayman, qaynatsam yarmini yerga to'kib tashlayman, ajab bo'lsin, soqoliniyam taramayman. O'ynab kel, o'ynab kel emish. O'ynagani chiqib bo'pman. Nariroqqa borib kigizga o'tirib oldim. Endi qo'yni qanday yig'sak ekan deb maslahat qilishayotgandi, o'sha gaplariga ham quloq solgim kelmay qoldi. Maslahatlari tugagandan keyin Esonqul bobom, hoy Ahmadqul, tilovat qilgin, Matmusaning o'g'lini bir duo qilaylik, degandi, darrov xo'p deb ko'na qoldi. Shu bobomning ovozi o'zi juda zo'r-da, enajonim ham uning tilovatini yaxshi ko'radi. Juma oqshomlarida ko'pincha uylariga borib, o'qitib kelamiz. Ahmadqul bobomning o'zi Xudo mendan bo'yni olib, o'rniga ovoz bergan deydi. Haqiqatan ham ovozi xuddi xumning ichidan chiqayotganday

jaranglab, odamning uyqusini keltiradi. Necha martalab uxlab ham qolganman. Hozir ham yoqimli, erkalovchi ovozigga quloq solib uxlay-uxlay deb turuvdim, tilovati endi yarim bo'luvdi, Ahmadqul bobomning o'zi kulib o'rnidan turib ketdi, turgandan keyin ham xaxolab kulaverdi.

– Jinni bo'ldingmi, – urishib berdi Esonqul bobom.

– Jinni bo'ldim, jinni bo'ldim, – deb Ahmadqul bobom battar kuldi.

– Nima bo'ldi o'zi?

– So'ramang, amaki, so'ramang.

– Esi yo'g'e, gapirsang-chi.

– Tavba, hech bunaqasi bo'lmagan edi, – dedi Ahmadqul bobom kulishdan sal-pal to'xtab, – qayoqdanam shu Marifxo'janing nomini tilga oldilaring, bu bolaligida so'fi bobosining tahorat suviga qalampir solib qo'yardi. So'fi bechora orqasini changallab ko'chada yugurib yurardi, hozir shu esimga tushib ketsa bo'ladimi...

Bobolar ham he-helab kulishib olishdi. Endi Esonqul bobomning o'zi tilovat qildi. Bir o'qiydi; bir to'xtab damini rostlab oladi. Men iloyo qo'ylar ko'p yig'ilsin, iloyo eshon bobom qutulib chiqsinlar, iloyo meni tizzalariga o'tqazib, erkalatsinlar, o'qishni o'rgatsinlar, iloyo hamma bobolar ham, o'zimning bobom ham hech o'lmasin, deb pichirlab o'tirdim. Tilovatdan so'ng bobojonim:

– Tur, o'g'lim, qo'yni haydashib yuborgin, – dedi.

– Bormayman, – dedim arazlaganimni bildirish uchun.

– Qo'y endi, yarasha qolaylik.

– Endi siz bilan hecham yarashmayman, – shunday dedimu, baribir qo'y haydab borayotgan bobolar orqasidan ergashib boraverdim. Esonqul bobomnikidan, Ahmadqul bobomnikidan, Qambarali bobonikidan, qo'ylarni dumbasidan itarib, ma'ratib olib chiqishayotganda ham orqalaridan ergashib boraverdim. Ertalab to'rtta bobo to'rtta eshakka minib, bitta amakini yordamga olib, hamma qo'yni haydab ketishayotgandayam mozor boshigacha orqalaridan ergashib boraverdim.

## ENAM AYTGAN ERTAK

**H**a erkatoyim, bedanalar yo Olloh deb sayraydi. Ular jannat qushlari-da, shuning uchun ham Ollohning nomini unutmaydilar. Jim yotsang, bir chiroyli ertagim bor, aytib beraman, faqat, toylog'im, qo'lingni mammamdan ol, qitig'im kelyapti, asalginam, shiringinam o'zimning...

– Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda qorli tog'lar ortida, yam-yashil vodiylar bag'rida, sersuv o'tloqlar dalasida gala-gala erkin qushlar yasharkan, o'z tillarida yoqimli qo'shiq kuylab, Ollohga hamdu sano aytisharkan. Shular orasida ikki bedana ham bor ekan, biri erkagu birisi urg'ochi ekan...

– Ena, ular eru xotin ekanmi? – deb so'radim.

– Ha, eru xotin ekan, – deydi enam.

– To'ylari ham bo'lgan ekanmi?

– Jim yot, bo'lmasa ertak aytmayman.

– Yo'q, ayting, to'y qilishadimi?

– Avval, Azamatim, ertagimni aytib bo'lay, keyin to'ylarini ham aytib beraman.

O'sha ikki bedana sen aytgandek eru xotin ekan, tong saharda uyg'onisharkan, erkagi urg'ochisiga atab yoqimli ovoz bilan ashula aytarkan, tomog'ing ostidagi munchoq xollaring chiroyli, qanoting tagidagi kumush parlaring chiroyli, deb kuylarkan, urg'ochisi unga chiroyli yo'rg'alashlar qilarkan, oltin qanotlarini yozib o'yinlar ko'rsatarkan; urg'ochisi tuxum qo'yib bosib yotganda erkagi tumshug'ida unga don, suv keltirib berarkan, boshqa qushlar cho'qimasin, deb yonginasida o'tirib poyloqchilik qilarkan. Nihoyat, jo'jalar tuxumlarni yorib chiqibdi, voy, biram nozik, biram chiroyli ekanlarki, ota-onalari sevinib bedazorni boshlariga ko'tarib sayrab yuborishibdi. Yo Olloh, yo Olloh degan yoqimli ovoz butun yaylovlarni qoplab ketibdi, yo'rg'alab yurishni, don topishni, qisqa-qisqa uchishni o'rgatishibdi. Va bir kuni onalari aka-ukani yoniga o'tqazib nasihat qilibdi: "O'g'illarim, endi biz otalaring bilan boshqa yaylovga uchib



ketamiz, sizlar katta bo'lib qoldilaring, mustaqil yashaysizlar. Vaqti kelib o'zlaringga xotin tanlab olasizlar, otalaring bilan menga o'xshab bola ko'rasizlar... Faqat iltimosim shuki, pashsha bilan chuvalchangni yemanglar, mast qilib qo'yadi, mast bo'lib qolsalaring Ollohni unutib qo'yasizlar, egatlar orasiga ataylab sochib qo'yilgan donlarni ham yemanglar, yoniga tuzoq qo'yilgan bo'ladi, qo'lga tushib qolasizlar... Xayr, bolalarim, men endi tezroq uchib otalaringni oldiga yetib olay...

Shunday qilib ona bedana osmonga parvoz qilibdi... Yolg'iz qolgan aka-uka taqdirga tan berib yashay boshlabdilar, pashsha yemabdilar, chuvalchang tutmabdilar, kurmaklardan, yovvoyi qo'noqlarning donidan yeb voyaga yetibdilar. Xudoyi taolo ularga shunday kuchli, yoqimli ovoz beribdiki, sayraganlarida baxmal vodiydagi barcha sayroqi qushlar jim qolarkan, yamyashil ko'katlaru daraxtlarning oltin barglari ham nafas olishdan to'xtarkan. Yo Olloh, yo Olloh deb sayraganlarida yoqimli ovozning ilohiy sehridan butun olam jannatiy holatga kirarkan. Anhorning narigi yuzidagi bedazorda onalaridan ajralgan ikki urg'ochi bedanalar ham asta-sekin voyaga yetib, o'zlariga oro berib, biz ham o'zimizga juft topsak edi, deya orzu qilib yurgan ekanlar. Aka-uka bedalarning mast qiluvchi ovozlari eshitib, beixtiyor churuk aytib yuboribdilar, shunday yoqimli, shunday shirali va erkalovchi churuk aytibdilar. erkak bedanalarining qalblarini darhol rom qilib olibdi, endi har kuni bir-biriga vovaqlashib, churuk chalib ishq-muhabbat izhor qilisharkan. Nihoyat, qo'shiladigan kun ham kelibdi. Aka-ukalar tong saharda turib qanotlariga oro beribdi, patlarini tumshuqlari bilan silab yana olamni yoqimli ovozga to'ldirib sayrashib, bedazor oralab ketgan silliqqina yo'lakchadan yo'rg'alab borishibdi. Voy, xudoyim, kutilmaganda ikkovlarining ham nozik oyoqchalari qil tuzoqqa ilinib qolibdi. Ikkovlari ham pitirlashib faryod chekishibdi. Novcha bir odam yugurib kelib, e jonivor, seni bir oydan buyon poylayman-a, xudoga shukur, qo'lga tushding-a, dermish. Sherigi bo'lsa, bunaqa bir nafasda o'ntagacha pitpildiq aytadigan bedana

hali dunyoga kelgan emas, sotsang next bir otning puliga yetasan, dermish... Jon talvasasida pitirlab turgan bedanalarni bo'z xaltaga qamabdilar, uch kun qorong'ida saklab so'ng to'rqovoqqa solibdilar. Bedanalarning kattasi tumshug'i bilan to'rni cho'qib, oyoqlari bilan qovoq tubidagi donlarni tepib:

– Qutqaring, qutqaring! – deb sayrabdi.

Kichik bedana bo'ynini cho'zib, qomatini rostlab:

– Ozodlik, ozodlik! – deb nola qilibdi.

Uy egasi ovozlarning ham kuchli, ham yoqimlilikidan zavqlanib «Ana bularni bedana desa bo'ladi», deb qarsak chalibdi.

Katta bedana tumshug'ini pastga qilib, zavqlanayotgan uy egasiga qarab:

– Tur yo'qol, tur yo'qol! – deb sayrabdi yana.

Kichik bedana:

– Tezroq ket, tezroq ket! – deb qo'shimcha qilibdi.

Bandi bedanalarning ovozlari kuchli ekan, yaylovda qolgan tanish urg'ochi bedanalarga ham yetibdi, ular ham opa-singil ekan. Ikkovlari goh yo'rg'alashib, goh kalta-kalta uchishib bandilar sayrayotgan hovlining yonginasidagi o'tloqqa kelib:

– Biz keldik, biz keldik, – deb ipakdek mayin ovozda churuk chalishibdi. Erkak bedanalar ularni darrov tanib: «Xayriyat, xayriyat!» – deb quvnoq ohangda sayrashibdi. Endi ular har kuni bir-birlariga qarab erkaklari «qochamiz, qochamiz» deb sayrasa, urg'ochilari «kutamiz, yaylovlarga ketamiz» deb churuk chalishar ekan, katta bedana o'tkir tumshuqlari bilan to'rni uzish harakatida bo'lsa, kichik bedana kuchli oyoqlari bilan qovoqni teshmoqchi bo'lib, tinmay tepkilarkan. Bo'lmabdi, hech bo'lmabdi, to'r uzilmabdi, qovoq teshilmabdi. Bedanalar, uy egasining qovog'i soliqroq ekan:

– Badqovoq, badqovoq! – deb, o'g'illarining qorni katta ekan:

– Oshqovoq, oshqovoq! – deb onalarining chap ko'zidan yosh oqarkan:

– Shilpiq, shilpiq! – deb masxara qilib sayrashda davom etaveribdi. Oxiri bo'lmabdi, ozodlikka chiqishdan, juftlari

bilan qo'shilishdan umidlari uzilib, behol bo'lib yotib qolishibdi. Katta bedana tush ko'ribdi. Onasi uchib kelganmish. O'g'illarining ahvolini ko'rib afsuslanganmish. Boshingga mushkul ish tushganda «Yo Oллоh» deb sayragin devdim-ku, deb urishganmish. Uyg'onib ketib «Yo Oллоh, yo Oллоh», deya bor ovozi bilan sayrab yuboribdi, ukasi jo'r bo'libdi. Dasht-biyobonlardagi, cho'l-yaylovlardagi boshqa bedanalar ham qo'shilganmish. Yeru ko'kni «Yo Oллоh» degan sehrli sadolar qoplab ketganmish. O'sha uyda endigina o'n to'rt yoshga kirgan jannat hurlaridek bir ma'suma qiz bor ekan, aqlu odobi joyida, ko'p rahmdilu shafqatli ham ekan. Xudo uning ko'ngliga solibdi. U ham uyquda ekan. Bedanalarning sehrli ovozidan uyg'onib ketibdi, uyg'onishi bilan qovoqlarning to'rini o'tkir qaychilar bilan qirqib tashlabdi, ozod bo'lgan bedanalar «Yo olloh, yo Oллоh» deya sayrashib, narigi paykalda ularni intizorlik bilan kutayotgan bo'lajak juftlari yoniga borib, silashib-siypalashib tug'ilib o'sgan o'tloqlariga qarab parvoz qilishibdi. Turmush qurishibdi. To'ylari kuni erkaklari urg'ochilariga bir qopdan qunoq hadya qilibdi. Keyin bola-chaqali bo'lishibdi. Keyin to umrlarining oxirigacha «Yo Oллоh, yo Oллоh» deya ozodlik qo'shig'ini kuylab, eshitganlarning dilini xushnud etishibdi... Shunday qilib ertak ham tamom bo'libdi. Uyg'oqmisan, azamat o'g'lim, nega indamaysan?

– Uyg'oqman, anavi qizni dadasi urishibdimi? – deb so'radim.

– Yo'q, urishmabdi, uni Oллоh o'z himoyasiga olibdi.

– Keyin nima bo'пти? – deb so'radim yana.

– Keyin o'sha qiz juda baxtli hayot kechiribdi, uzoq yashabdi, yuz yildan ortiq umr ko'ribdi. Olamdan o'tgach Oллоh, qushlarga mehribon bo'lgani uchun, barcha gunohidan o'tib, jannatdan joy beribdi. Bo'ldimi, boshqa savoling yo'qmi?

– Bor, – dedimu, uyog'ini aytolmay uxlab qoldim...

## AHMADQUL BOBOM SHUM XABAR KELTIRDI

◌ sha kuni to'rtta eshak minib ketgan bobolarimiz juda kech qaytishdi. Enam ikkovimiz rosa tashvishlandik, ularniyam Eshon bobomning yoniga qo'shib qamab qo'yg'an bo'lishsa-ya, deb qo'rqdik. Xayriyat qamashmagan ekan. Peshonasiga qo'lini qo'yib salomlashadigan boshliq e amakilar, olib kelgan qo'ylaring uchun rahmat, gazarmadagi askarlarga so'yib beramiz, lekin Eshon hazratlariga men javob berolmayman, mendan katta yana ancha boshliqlar bor, o'shalarning ruxsatini olamiz, debdi. Lekin tashvishlanmanglar, ozodlikka chiqaramiz, gap bitta, debdi. O'sha bitta gapni yana eshitaylik deb bobolar kechgacha qolishgan ekan.

– Ishqilib qo'yib yuborisharmikan? – tashvishlanib so'radi enam.

– Qo'yib yuborishadi, Xudo xohlasa, hazrat chiqadilar, – dedi bobojonim, – boshliq yomon odamga o'xshamaydi. Qizil shapkalilarning orasida xudojo'yi, insoflilari ko'p, onasi. Bu dunyoni aslida shu insofli odamlar ushlab turibdi, bo'lmasa naq qiyomat qoyim bo'lardi-ya.

– Hazratimning oldilariga kirib ko'ngil so'ramabsizlar-da.

– Kirdik, onasi, kirdik. Kayflari yaxshi, o'zlari tetik, joynamoz berishibdi, tahoratga suv ham berib turishgan ekan, ovqatlarni makruh deb yemayotgan ekanlar, bir melisa bola uydan keltirib berayotgan ekan. Aytdim-ku, bu dunyoda insoflilar ko'p.

– Xayriyat, – dedi enam mamnun bo'lib.

– Xayriyat, – dedim men ham mamnun bo'lib.

Keyin men uxlab qoldim. Ertalab tursam, bobojonim ham, enam ham boqqa chiqib ketishgan ekan. Nega meni namozga uygotishmadi ekan deb o'ylab yotdim. Keyin uyg'otishuvdiyu uyqum ochilmay, yana yotib oluvdim. Shu esimga tushib, enajonimdan xafa bo'lmay qo'ya qoldim. O'zi shu bobomgayam juda qiyin, to'g'rimi? Toklarni kesishimiz kerak, daraxtlarni butashimiz kerak, og'ilxonadagi go'ngni boqqa

tashishimiz kerak, ariqlarni tozalashimiz kerak, keyin bobojonim borib Zahro xolamning tokini kesib berishi kerak, keyin terakzorimizning orqasidagi har xil ko'chatlarni ko'chirib, egalariga eltib berishimiz kerak...

Ana shularning hammasini yakka bobomning o'zi qilishi kerak ekan, bechora bobojonim-ey, unga judayam qiyin.

– Hadeb uh tortavermang, – deydi ba'zan enam, – kechadan ish qoptimi?

– Shunday deysanu, onasi, qarib qolyapman-da.

– Qarishni xayolingizga ham keltirmang, – urishib beradi enajonim.

– Baribir yolg'izlik bilinar ekan-da, onasi.

– Yolg'iz emassiz, xudoga shukr, mana Rahmonjon yigit bo'p qoldi.

– To'g'ri, bobojon, – deyman shoshilib o'rnimdan turib, – rostdan ham men katta bo'p qolganman. Mana, bo'yimni ko'ring.

Ana shunaqa gaplardan har kuni gaplashishardi-da. Katta yigit bo'p qoldim desam ham meni uyg'otishmabdi, alam qildi. Enam sut pishirib qo'ygan ekan, bir kosa quyib non to'g'rab ichib oldim-da, botinkamni kiyib, endi yangi etigimni kiymayman, uni qishda, qor yoqqanda kiyaman, boqqa chiqsam, voy, enam yo'q, bobomning o'zi ishlayotgan ekan. Bizning bog'imiz judayam katta, har xil uzumlar, ertapishar o'riklar, nordon, shirin anorlar, yerga yotib hosil beradigan sariq anjirlar, eh-he, juda ham mevamiz ko'p. Hammasini bobojonimning o'zi ekan. Atrofdagi devorlarini ham yakka o'zi urgan. Bobomning kafti katta-da, bir ketmon loy eltadi. Faqat men anjirni yomon ko'raman, ichida qurti bor-da, o'shanisini yomon ko'raman. Qora gilosni jon-dilimdan yaxshi ko'raman. Enam, danagi bilan yutmagin, yomon bo'ladi, deydi. Danagini ajratgani erinamanda, yeb yuboraveraman. O'shandayam hech narsa qilmaydi.

– Keldingmi, o'g'lim, – dedi bobojonim.

– Keldim, – dedi.

– Nonushta qilib oldingmi?

- Qildim, nega meni uyg'otmadingiz?
- Uyquga bir to'yib olgin dedim-da.
- Anuv kuni o'zingiz, o'g'lim, endi boqqa chiqib birga ishlaymiz, gaplashib-gaplashib ishlaymiz, devdingiz.
- Ha, aytuvdim, endi gaplashib ishlaymiz.
- Gapiring bo'lmasa.

Bobom o'zi gapirishni bilmaydi-da, hozir ham gap topolmay tokqaychi bilan qiyt-qiyt etkazib novdalarni kesaverdi. Voy, novdalarni kesib tashlasa, uzum qayerda pishadi, to'g'rimi? Shu haqda so'ragandim, sen tokpillalarni teraver, yo'g'onini bir boshqa, ingichkasini bir boshqa qilib ter, men tushuntirib beraman, dedi.

- Termasam-chi? - deb so'radim.
- Unda men ham aytmayman. Bilolmay qiynalib yurasan.
- Aytmasangiz men ham o'ynagani ketib qolaman. Siz ham zerikib o'tirasiz.

- Obbo o'g'lim-ey, quloq sol bo'lmasa, soch o'sganda, tirnoq o'sganda ortiqchasi qirqib tashlanadi, shundaymi? Tok ham shunaqa, o'g'lim. Mana qaragin, mana bu novdalar oqaribroq, nimjongina bo'p turibdi. Yozda oftob yaxshi tegmagani sabab pishmay qolgan. Mana bu sap-sariq, baquvvat novdalar yetilib pishgan. Ham oftobga, ham onasining shirasiga to'ygan. Xom novdalarni kesib tashlamasak, zangdan oqib kelayotgan shiralarni ichib qo'yadiyu, lekin baribir uzum bermay turaveradi.

- Arazlaydimi? - deb so'radim.
- Ha, arazlaydi, endi tushunarlimi?
- Yo'q, tushunarli emas.
- Xulosa shuki, o'g'lim, xom novda barg beradiyu uzum bermaydi. Uzum beradigan mana bu novdalarning ovqatini yeb qo'yaveradi.
- Bobojon, uzum o'zi qayoqdan paydo bo'ladi? Yoki uni kechasi parishtalar osib ketadimi?

- Yo'q, parishtalar osib ketmaydi, mana bu zanglardan oqib keladigan shiralardan paydo bo'ladi. O'rik haqida so'raganingda aytib beruvdim-ku... Katta gapirganda quloq solish kerak.

– Bobojon, xangning ichiga shirani kim quyib qo‘yadi bo‘lmasa, shuni aytsangiz, diqqat bilan quloq solaman.

– Obbo o‘g‘lim-ey, hammasini bilging keladi-ya, zangning ostida mayda-mayda tomirchalar bor. Shiralar o‘shalarda to‘planadi-da, keyin zanglar orqali novdalarga oqib chiqadi. Keyin o‘sha yerda quyosh nuri bilan qo‘shilib, uzumga aylanadi. Shuning uchun, o‘g‘lim, tokning ostini ag‘darib, chopib, tomirlarga havo bersang, ozuqa bersang, uzum ham shirin bo‘ladi... Bir ertak aytuvdim-ku, esingdan chiqibdi-da...

– Aytganingiz yo‘q, bobojon.

– Aytuvdim shekilli.

– Mening esimda yo‘q-ku, demak aytmabsiz-da, bobojon.

– O‘g‘lim, kunduzi ertak aytilsa yomon bo‘ladi. Qorong‘u tushganda aytarman.

– Bobojon, ko‘zingizni yumib turib aytaqoling, mana menam yumib turaman. O‘shanda qorong‘u bo‘ladi.

– Ko‘zimni yumsam, tok kesolmayman-da.

– Ertak aytmasangiz qochib ketaman, tokpillangizniyam termayman. Mana, qochib ketyapman. Mana...

Shunday deb sal nariroq boruvdim, yo‘q, qochmoqchi emas edim, sal qo‘rqitmoqchi edim, bobojonim bo‘lsa rostdan ham qo‘rqib qaytaqol, o‘g‘lim, sen ketsang, zerikib qolaman, mayli, bitta o‘zimni yumib turib aytaman. Sen ham bitta ko‘zingni yumib eshitasan, dedi. Keyin men bitta ko‘zimni yumib turdim, bobom ham bitta ko‘zini yumib ertak ayta boshladi.

– Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, ilgarigi zamonda shu bizning qishloqda bitta bog‘bon bobo yashagan ekan. Qarib-chirib qolganda, o‘lay-o‘lay deya-yotganda yolg‘iz o‘g‘lini yoniga chaqirib, bolam, endi men bu yolg‘on dunyodan chin dunyoga ketyapman. Bir xumchada tillom bor edi, shu toklardan birining tagiga ko‘mganman, qaysiligi esimda yo‘q, mendan keyin o‘shani kavlab olgin, deb vasiyat qilibdi. Yigit otasini yuvib-tarab ism-rasmlarini ham qilib ko‘mganidan keyin tilloni olish uchun toklarning tagini ag‘darib chopi boshlabdi. O‘sha yili xumchadagi tilloni topolmabdi-yu, ammo toklari shunaqa uzumni ko‘p qilibdiki, sotaverib-sotaverib, sandig‘i

pulga to'lib ketibdi. E, xumcha juda pastga ko'milgan bo'lsa kerak, endi yanagi yilga bundan ham chuqurroq ag'darib chopaman, debdi yigit. Yana ham chuqurroq ag'darib chopgan ekan, xumcha yana topilmabdiyu, uzum shunaqa mo'l bo'ptiki, bahorgacha sotib ado qilolmabdi, yana sandiqlari pulga to'libdi. Bir keksa bobodan otasining sirli vasiyati haqida so'ragan ekan, e, o'g'lim, otang rahmatli tokning tagiga tillo ko'mmagan, tillo ko'mganman desam, o'g'lim ag'darib-chopadi, uzum mo'l bo'ladi, sotib pulini ko'paytirib xumchasini tilloga to'ldiradi, deb o'ylagan. Mana, sandig'ing to'la pul bo'ldi-ku, debdi. To'g'ri aytasiz, bobo debdi yigit, ikki yildan buyon juda boyib ketdim. O'sha yigit otasi shu vasiyatni qilgani uchun mamnun bo'lib, iloyo otaginamning joyi jannatda bo'lsin, deb har kuni duo qilarkan.

Bobojonim ertakni aytib bo'lib:

- Qalay, yaxshimikan? - deb so'radi.

Men ikkovi ko'zimni yumib oluvdim-da, shuning uchun yaxshimi, yomonmi, bilolmayotuvdim.

- Bobojon, yana ham ag'darib chopganda tillo chiqarmidi? - deb so'radim.

- Yo'q, tokning tagida tillo bo'lmagan ekan. Hecham bo'lmagan ekan. Ag'darib chopganda juda pastdagi nafasi qisilib yotgan tomirchalarga havo yaxshi borarkan, ozuqaga ham, suvga ham yaxshi to'yarkan-da, tilloning o'rniga shira jo'natarikan.

Bobojonim ana shularni aytgandan keyin, bor endi azamat o'g'lim, enang choy qaynatib qo'ygandir, meva-chevalardan ham qo'shib olib kelgin, bir choylashib olaylik, keyin yana bittadan ko'zimni yumib ertak aytishaveramiz, dedi. O'zi men bitta ertak eshitganimdan keyin yana tag'in eshitgim kelaveradi, uyqum kelguncha eshitaversam deyman.

Qumg'onga choy olib keldim, o'rik, mayiz, chaqilgan yong'oq olib keldim. Ko'knori xalta esimdan chiqib qolgan ekan, yana borib keldim. Bobom men tergan tokpillalarning ustiga o'tirib, tushlik qilayotganda tokqaychi bilan birpas ishlovdim, shu qaychi juda rasvo ekan, o'ng qo'limni qisib



oldim, qon chiqib ketay dedi. Bobom, yig'lama, o'g'lim, senda ayb yo'q, shu qaychini yasagan ustada, bozorga borganimizda oldiga kirib, uni bir urishib qo'yaman, devdi, shundan keyin og'riq sal bosilganday bo'ldi. Ko'karib turgan joyini ikki marta o'pgan edi, endi og'riq butunlay yo'q bo'lib qoldi.

– Ketaman, – dedim o'rnimdan turib.

– Qayoqqa borasan, o'g'lim, – so'radi bobom, – sen ketsang, men zerikib qolaman-ku.

– Baribir yaxshi ertak bilmas ekansiz, sizdan enam yaxshi, ertakni ko'p biladi.

Hovliga borsam, enajonim kir yuvayotgan ekan, meni ko'rib juda xursand bo'ldi. Azamat o'g'lim, yordamchi o'g'lim, deb erkalab og'ilxonadan tappi olib chiqib kir qozonning tagiga qalagin, axir sen olov yoqishni yaxshi bilasan-ku, dedi. Hecham-da, men tarasha o'tinni yaxshi ko'raman. Tappi yonmay tutab turaveradi, tutuni ko'zimni achitadi-da, keyin uni tepgim kelaveradi. Enamga kasal bo'p ketyapman, dedim-da, endi yana bobomning oldiga qarab yugurib bordim. Bobojonim tushlikni qilib, ko'knoridan ko'p ichib, chordona qurgancha boshini tizzasiga osiltirib, farishtalar bilan suhbatlashib o'tirgan ekan.

Rostdanam ko'knori ichgandan keyin hamma bobolar ham ko'zini yumib, boshini osiltirib, farishtalar bilan suhbat qurishadi. Ahmadqul bobom ham, Qambarali bobom ham shunaqa qiladi. O'shanda-chi, qattiq gapirmaslik, narsalarni taqillatmaslik kerak. Farishtalar qushlarga o'xshab hurkib qochib ketar ekan. Farishtalar boshini egib turgan bobolarning qulog'iga musulmon banda, sen hozir kayfda o'tiribsan, huzur qilyapsan, o'zgalarga ham huzurni ravo ko'rgin, qattiq gapirmagin, yetimlarning boshini silagin, bechoralarga yordam bergin. Yaxshilik qilgan odam jannatidir, sen jannatidan, jannatidan... deb shivirlarkan.

Bobojonimning farishtalarini hurkitib yubormaslik uchun asta-sekin, oyog'imning uchida borib, yoniga o'tirdim. Qulog'ining atrofiga sinchiklab qaray boshladim. Farishtalar ko'rinmayapti. Enam tahoratsiz kishiga farishta

ko'rinmaydi, degandi. Hozir mening tahoratim yo'q-da, o'shanga ko'rinmayotgandir.

Bobojonim bitta ko'zini ozgina ochib:

- Keldingmi, o'g'lim, - dedi.

- Keldim, - dedim sekingina.

- Shunday, o'g'lim, bu dunyoga hammamiz mehmonmiz, - asta-sekin gapira boshladi bobom, - lekin mehmon ekanman deb dasturxonni qoqlab ketsak odobdan emas. Kimlarningdir dasturxoniga biz ham oz-ozdan noz-ne'mat tashlab ketishimiz kerak... Mendan keyin sen ham bog'bon bo'lg'in, o'g'lim. Mana shu toklarni, o'riklarni, bodomu yong'oqlarni, anjiru anorlarni senga qoldirib ketaman. Egasi o'zing bo'lasan, meni qancha sevsang, ularni ham shuncha sevgin. Bog' yaratgan, uni parvarish qilgan kam bo'lmaydi. U dunyosi ham, bu dunyosi ham obod bo'ladi. Eshitganmisan?

- Yo'q, bobojon, men hech narsa eshitganim yo'q.

- Kampirning hech narsasi yo'q ekanu hovlisida bir tupgina teragi bo'lgan ekan. Tagini choparkan, o'g'it solarkan, chelaklab suv quyarkan-da, to'g'ri o's, teragim, to'g'rilikda hikmat ko'p, deb silab-siypalarkan. Yillar o'tib, terak osmon barobar bo'libdi. Poshsho qasr solayotgan ekan, to'g'ri o'sgan terak kerak bo'libdi. Butun mamlakatni axtaribdi, topilmabdi. Kampirnikida shunday terak o'sayotganini eshitib, egasini rozi qilib olinglar, so'rasa bir xum tillo beringlar, debdi... Bir tup terakni parvarish qilgani, to'g'ri o'stirgani uchun kampir boy-badavlat bo'lib ketgan ekan. Ha, o'g'lim, daraxt ekib, parvarish qilgan kishining bu dunyosi obod bo'ladi, degan gapning mazmuni shundan ekan. Endi, azamatim, gapning buyog'iga ham quloq sol... Bir boy mardikorlarga bozordan meva-cheva olib kelib bersa, yeb bo'lishib, bog'bonga rahmat, umri uzoq bo'lsin, deb duo qilishibdi. Boy qarib narigi dunyo haqida o'ylaydigan, savob axtaradigan bir holatda ekan. Katta bog'ni sotib olib, mevasini tekinga ulashibdi. Yeganlar fotihaga qo'l ochib, ekkanga rahmat, tikkanga rahmat, deb duo qilisharmish. Savobtalab boy xafa bo'libdi. O'zim ekmaguncha savobi tegmas ekan-da, deb o'ylabdi-da, quruq

yer sotib olib, o'zi dov-daraxt ekibdi. O'zi parvarish qilibdi. Hosilga kirgach, mevasini ulashsa, yeganlar ekkanga rahmat, parvarish qilganga rahmat deb duo qilisharmish. Duo ijobat bo'lib, shu boy ham chin dunyoga borganda jannatga tushgan ekan... Ha, o'g'lim, ekib, parvarish qilganning savobi boshqacha bo'ladi. Avliyolar bog'bonning ikki dunyosi oboddir, deb bejiz aytishmagan.

– Voy, bobojon, yig'layapsizmi? – dedim shoshilib. Ko'zimni yumib o'tirgandim-da, shuning uchun ko'rmay qolgan ekanman.

– Ha, yig'layapman, o'g'lim.

– Yig'lamang, unda menam yig'layman.

– Tog'alaringni eslab ketdim. Ho' anavi novcha o'sgan yong'oqning niholchasini ekayotganimda rahmatli katta tog'ang ushlab turuvdi, nazarimda endi daraxtga aylanib, ikkovimizga tikilib turganday. Otajon, mana men o'lganim yo'q, bo'yim ham hammanikidan baland, mevamni yeganlar meni duo qilishyapti, deytoganday.

– Bobojon, yig'lamang, jon bobojon, – deb yolvordim, – mana men o'lganim yo'q-ku, yoningizda turibman-ku, bog'bon bo'laman dedim-ku.

O'rnimdan turib bobojonimni achomlab, betlaridan, soqollaridan o'pa boshladim. Enam ko'p yig'laydiyu, uni yupatishim oson bo'ladi, bo'yniga osilib, ozgina yolvorsam, yupanadi-qoladi. Bobojonimning bo'lsa yig'laganini kam ko'rganman. Shuning uchun qanday yupatishniyam bilmayman. Nima qilsam ekan, mana soqoliniyam tarayapman, sochi yo'q boshiniyam silayapman, bo'ynilaridan ham o'payapman.

– Bobojon, men ham qiziq-qiziq narsalar aytib beraymi? – deb so'radim oxiri betini hovuchimga olib, o'zini o'zimga qaratib.

– Ayt, o'g'lim, ayt, – dedi bobom xo'rsinib.

– O'tgan yili daraxtlar gullaganda bog'ni aylantirib aytuvdingiz-ku, hammasi esimda turibdi.

– Qani ayt-chi, o'g'lim.

– Mana bodom hamma daraxtdan oldin gul chiqarib, keyin barg chiqaradi. Esimdamikan?

– Ha, esingda ekan, o‘g‘lim.

– Bodomdan keyin gilos gullaydi. Uyam oldin gullab, keyin barg chiqaradi. Guli bilan bargi barobar chiqsa, mevasi mayda bo‘p qoladi. Oq o‘rik erta gullaydi. Kechpishar o‘rik bir vaqtda ham barg chiqaradi, ham gul chiqaradi. Bilarkanmanmi?

– Barakalla, o‘g‘lim, barakalla.

– Behi bilan anor oldin barg chiqarib, gulga navbatni keyin beradi. Ular kech pishadi-da. Shuning uchun hech shoshmaydi. Qaysi meva erta pishsa, o‘shaning guli bargidan oldin ochiladi. Barg chiqquncha g‘o‘ramizni tugib olaylik, bo‘lmasa bizga ovqat yetmay qoladi, deyisharkan... Yong‘oqning guli bir qarich bo‘lib osilib chiqadi. Anjir gullamasdan ham meva qilaverarkan, o‘zingiz shunday degansiz.

– Azamat o‘g‘lim-ey, hammasi yodingda ekan, barakalla.

– Bobojon, endi yig‘lamaysizmi?

– Bo‘ldi, o‘g‘lim, endi hech yig‘lamayman, o‘rinbosarim bor ekan. Xudo xohlasa, zo‘r bog‘bon bo‘lasan, endi ikkovimiz ham savobning tagida qolamiz.

– Bobojon, Eshon bobom, sen Xudo xohlasa, machitga imom bo‘lasan, devdilar-ku, endi qaysi birini qilaman?

– Ikkoviniyam qilaverasan, o‘g‘lim. Kunduzi bog‘dayu kechqurun machitda bo‘lasan. Ikkoviyam savob, rahmat ustiga rahmat yog‘iladi... Kel bir achomlashaylik. Mehrim tovlanib ketdi, Xudoga shukr, ming qatla shukr, o‘rinbosarim, bog‘larimning kichkina bog‘boni...

Bobojonim bilan endigina achomlashayotgandik, hali bir-birimizga uncha to‘yganimiz ham yo‘q edi, nariroqda o‘h-ho‘, o‘h-ho‘ degan yo‘tal ovozi eshitilib qoldi. Qarasak, voy, voy, Ahmadqul bobom ekan, yaqinimizga kelgunicha sezmabmiz.

– Ikkoving ham karmisan? – dedi Ahmadqul bobom yaqinimizga yetay deganda.

– Kar emasmiz, – dedim bobomning quchog'idan chiqib.  
– Hovlida turib shuncha chaqiraman, chaqiraman...  
– Bo'ying past-da, – dedi bobom sal kulimsirab, – ovozing ham past chiqadi.

– Kelining ustiga chiqib chaqiruvdim, Erka.

– Bo'lmasa ovozing kelining ichiga ketibdi, Ahmadqul.

Hammamiz o'tirdik, fotiha o'qidik, choy quyib uzatdim. Ish chatoq bo'pti. Juda-juda chatoq bo'pti. Kolxozimizning hosiloti Qo'ziyev amaki Bo'rihovuzning oldiga odamlarni to'plab, yo'q, odam ko'p bormabdi, ozgina boribdi, xolos, qo'rg'onchadagi bog'larga bu yil ishlov berilmasin, kolxozga umumlashadi, kolxozning past tomonidagi yerlari zaxlab, sho'rlab ketgan, paxta unmayapti, hukumatga mevadan ko'ra paxta zarurroq bo'p turibdi, bog'lar buzilib, o'rniga paxta ekiladi, debdi...

Bobomning avval qo'llari, keyin bo'yni qaltirab, anchagacha gapirolmay turdi, keyin o'ziga kelib:

– Hazilingni qo'y, Ahmad! – dedi.

– Hazillashayotganim yo'q, – dedi Ahmadqul bobom.

– Gapingni qaytarib ol, bo'lmasa hozir mana shu tesha bilan chopib tashlayman.

– Zo'r bo'lsang, borib raisni chop, Erka, nega menga do'q urasan?

Chol bobolar o'rinlaridan turushuvdi, qo'rqib men ham turib oldim. Iloyo urishib qolishmasin deb xudoga yolvorib turdim.

– Bu gap kimdan chiqibdi? – sekin so'radi o'zimning bobom.

– Hukumatdan, – dedi Ahmadqul bobom orqasiga tisarilib.

– Qaysi hukumatdan?

– Eng kattasidan. Kecha ido ada yopiq majlis bo'lgan ekan, qaror qilishibdi.

– Shu bog'larni buzishga-ya?

– Ha, shu bog'larni buzishga; senikiniyam, menikiniyam, hammanikini.

– Yo'q-yo'q, – bobojonim baqirib yubordi, – hozir borib hammasini chopib tashlayman. O'g'illarimni otib o'ldirdi, kuyovimni urib o'ldirdi, yerimni oldi; belimni

bukdi, endi bog'imni buzadimi, yo'q, yo'q... Hammasini chopib tashlayman.

Bobojonim turgan joyida tepinib, yerdagi tesha, arra, tok qaychilarni har tomonga ota berdi. Enajonim yugurib keldi. O'tqazib, bobomga sovuq choy ichirdi, ko'kragini ochib yelpidi.

Men nima qilishimni bilmay jim turaverdim.

## ESHON BOBOM YANA QOCHIB KELDILAR

**E**ndi hammasini bir boshdan aytaman, xo'pmi. Bo'lmasa adashib ketaman. Enajonim gap boshlashdan oldin «Bismilloh» deb olgin deb o'rgatardi, shunday qilsa shayton og'izga kirib olmas ekan. Shayton juda yomon, og'ziga kirib olsa bolalarni gapidan adashtirib yuborarkan. Eshon bobomni qamoqdan ozod qilish uchun o'lib qolgan cho'chqa bolalari o'rniga, aytuvdim-ku, bobojonlar ko'p qo'y haydab ketishdi deb, o'sha qo'ylarni tuman markaziga yetkazib borguncha rosa qiynalishdi: qochib ketaverishibdi, haydab kelishsa yana qochib ketisharmish. Oxiri Ahmadqul bobom, o'zi shu bobomning esi juda ko'p-da, eshagidan tushib bitta qo'yning bo'yniga belbog'ini bog'lab, yetaklab olibdi. Keyin boshqa qo'ylar, bo'pti, cho'chqaning o'rniga bizni so'yishsa, so'yishaqolsin deyishib, o'sha qo'yning ortidan ma'rashib, boshlarini egib, ketishaveribdi. Eh, borganlaridan keyin Eshon bobomni qamagan katta boshliq shunaqa xursand bo'ptiki, shunaqa sevinibdiki, kaftlarini bir-biriga mana bunday qilib ishqab, o' boboylar, zap ish qilibsizlarda; ofarin, ofarin, kazarmadagi askarlarga go'sht yo'q edi, mazza qilishadi endi, debdi. Rost, xuddi shunday debdi. Ishonmasangiz, Murodxondan, Hayitvoy o'rtog'imdan so'rang. Biz bu gaplarni Ahmadqul bobomnikida, derazaning orqasida poylab turib eshitdik. Keyin o'sha g'archi bor chiroyli etik kiyib olgan boshliq, iya, nega qo'yni to'qqizta

olib keldilaring, yana bitta qo'shsalaring o'nta bo'lardi, juft bo'lardi, juft narsani xosiyati ko'p debdi.

Eshonqul bobom:

– E bolam, tashvish tortma, qo'yning o'rniga mana bu Ahmadqulning qo'l-oyog'ini bog'lab berib ketamiz, – debdi.

Eng katta boshliq xaxolab kulib yuboribdi. Keyin chol bobolar, endi bolam, Eshon hazratlarini ozod qilgin, birgalashib, eshakka mindirib olib ketaylik, deyishibdi. Eng katta boshliq og'zini ochmasdan, qornini silkitib kulibdiyu narigi xonaga o'tinglar, ozgina suhbatlashasizlar, keyin bir gap bo'lar, deb qovog'ini mana bunday qilib xo'mrayganga o'xshab solintirib olibdi.

Bobojonlar endi peshonasi yaltiroq, kichkina boshliqning xonasiga o'tishibdi. Kichkina boshliq:

– Xush ko'rdik, otaxonlar! – debdi.

Bobojonlar:

– Xudoyo umring uzoq bo'lsin, – deyishibdi.

Peshonasi yaltiroq boshliq:

– Demak Xoneshon Shodmonxon o'g'li sizlarga hamqishloq bo'larkan-da? – deb so'rabdi.

– Inshoolo, shunday, – deyishibdi bobojonlar.

– Melisaxonadan qochgan kechasi Xoneshon to'ppa-to'g'ri sizlarning qishloqlaringizga bordimi?

– Sovuq kechada qayoqqa ham borardilar.

– Qochoq Eshonni eng avval Erka mingboshi berkitdimi?

– Erkavoy mingboshi bo'lgan emas, ellikboshi bo'lgan.

– E, balo bo'lganda ham, berkitganmi axir?

– Nima, sovuq tunda Eshon hazratlari ko'chada muzlab qolsinlarmi, bo'lmasa, – deb Ahmadqul bobom oyog'i bilan yerni bir tepib qo'yibdi.

– Baqirmang, – debdi peshonasi yaltiroq boshliq.

– Baqiraveraman, – debdi yana Ahmadqul bobom. – Qo'yning eng kattasini o'zim berdim-ku, nega baqirmas ekanman.

Peshonasi yaltiroq amaki anchagacha indamabdi. Qog'ozga moxorka o'rab chekibdi. Tutunini devor tomonga

puf lab-puf lab qo'yibdiyu hech narsa haqida so'ramabdi. Keyin yana savol-javobni boshlab yuboribdi:

- Xo'sh, Eshon hazratlari Erka Hojimat o'g'limikidan chiqib keyin kimnikiga berkindi?

- Keyin menikida turdilar, - debdi Ahmadqul bobom qo'rqmasdan.

- O'z uyingizdami?

- Yo'q, otamdan qolgan uyda.

- Keyin-chi?

- Molxonaga berkitganman.

- Keyin-chi?

- Keyin otamdan qolgan katta tuya sandiqqa solib qulflab o'tirdim.

- Keyin-chi?

- Keyin mevani ko'p yeb, qorni buzilib qolmasin deb u yerdan chiqardim.

- Keyin-chi?

- Keyin Qambaralinikiga o'tkazdik.

- Keyin-chi?

- Keyin o'zlaring ushlab oldilaring-ku... Hadeb keyin-keyin deyaverasanmi?

- Demak, boboylar, hammalaring birgalashib jinoyatchi Xoneshonni berkitgansizlar.

- Yurtimizning imomi bo'lgandan keyin berkitamizda, bolam.

- Birgalashib namoz ham o'qigandirsizlar?

- Yoshimiz bir joyga borib qoldi, o'qimasak bo'lmaydida, bolam.

- Imomlikka Xoneshon hazratlari o'tdilarmi?

- Bo'lmasam-chi...

Mana shunaqa savol-javoblar bo'laveribdi-bo'laveribdi. Oxirida peshonasi yaltiroq boshliq, boboylar, mana bu qog'ozlarga qo'l qo'yinglar, debdi. E, bolam, biz qo'l qo'yishni bilmaymiz, kerak bo'lsa barmog'imizni siyohingga bosib bera qolaylik, deyishib bismillohu rahmonir rahimni aytib mana bunday, mana bunday qilib barmoqlarini bosishibdi.



Peshonasi yaltiroq boshliq eng katta boshliqning oldiga kirib ancha mahal yo'q bo'lib ketibdi. Bobojonlar hozir Xoneshon hazratlarini boshlab chiqishsa kerak, quchoqlashib ko'rishib keyin qishloqqa olib ketsak kerak, Ahmadqul, sen hali yoshsan, eshagingni Hazratga berib, o'zing to'qimidan ushlab piyoda ketasan, deb maslahatlashib turgan ekan, bir mahal peshonasi yaltiroq boshliq qovog'ini solib, yig'lamsiraganroq bo'lib chiqibdi-da, uh tortib, hammalaring xo'jayinning oldiga kirasizlar, debdi.

Buyog'i chatoq bo'пти, juda-juda chatoq bo'пти. Etigida g'archi bor boshliqning fe'li aynab qolibdi. Qochoqni, davlat jinoyatchisini berkitganlaring uchun hammalaring qamalasanlar, mana, ayblaringni bo'yinlaringga olib; barmoqlaringni bosib ham beribsizlar, deb baqiribdi. Baqirganda ko'zi ola-kula bo'lib ketibdi. Ertaklardagi vajohati xunuk devlar bo'ladi-ku, ana shunaqa bo'lib ketibdi. Bobojonlar qo'rqib ketishibdi. Hammadan ham ko'proq Ahmadqul bobom qo'rqib, e man qamalib ketsam, nabiram Hayitvoyning to'yini kim qilib beradi deb o'ylabdi. Matmusa bobom, mening o'g'lim tumanning izvoshida yuradigan kattasi-ku, meni qamashmasa kerak deb o'ylab, sal ozroq qo'rqibdi.

Etigida g'archi bor boshliq o'rnidan turib:

– Uhh! – debdi.

Chol bobolar:

– E, xudoyim-ey! – deyishibdi.

– Nega qochoq eshonni berkitganlaringni bo'yinlaringga oldilaring? – deb so'rabdi.

– Rost gapni aytdik-da, boshliq o'g'lim, – deyishibdi bobojonlar.

– E, rost gapni aytadigan zamonmi hozir, kallavaram chollar, – ana shu gapni aytgandan keyin katta boshliq aftini jiyirib, yana uh tortibdi. O'ylanibdi, o'ylanaveribdi. Nima haqda o'ylanayotganini hech bilib bo'lmas emish. Oxiri yana bir uh tortibdi-da, mayli, sizlar boraveringlar, lekin Eshon hazratlarini hozircha bo'shatolmayman, mening ustimda yana

o'nta boshliq bor, bittasini ko'ndirsam boshqasini ko'ndirolmayman. Hazratga men ham achinaman, men ham musulmon odamning farzandiman, tezroq ketinglar endi, debdi-da, bobojonlarga javob berib yuboribdi.

Hali aytdim-ku, bu gaplarning hammasini Ahmadqul bobomning darichasi yonida o'tirib eshitdik. Hayitvoy ham eshitdi, Murodxon o'rtog'im ham eshitdi. Hayitvoy, katta bo'lsam, melisalarga boshliq bo'laman-da, hamma Eshon bobolarni qamoqdan chiqarib yuboraman, dedi. Murodxon o'rtog'im o'rnidan turib, e, qornim ochib ketdi, uyimizga ketaman, dedi. Men bo'lsam, hech narsa demadim. Yig'lagim kelayotgandi-da, yig'lagim kelganda hecham gapirolmayman. Eshon bobom endi qorong'u uyda, yolg'iz o'zlari o'tiradilar, qornilari och qolsa, choy ichgilari kelsa hech kim bermaydi. Taglariga ko'rpacha ham solishmaydi, boshlarida yostiq ham yo'q... Ana shularni o'yladim, o'yladimu endi sal-pal yig'lagim kela boshladi.

O'sha kuni qattiq shamol esayotuvdi. Enajonim, xudoning marhamati esyapti, yerlarni quritadi, daraxtlarni qish uyqusidan uyg'otadi, o't-o'lanlar o'sib chiqadi; shamol emas, orombaxsh bahorning elchisi bu, deydi. Qorong'u tushgandan keyin shamolning guvillashi yana kuchaydi. Xuddi qora devlar tomimiz ustiga o'tirib olib, tuynugimizdan puflyotganga o'xshaydi. Qo'rqib, oyog'i shishib butunlay yotib qolgan bobojonimning pinjiga kirib oldim. Enajonim, tur bolam, chiroqni ushlab tur, mollarga xashak solib chiqaylik, keyin yotamiz, yaxshi ertaklar aytib beraman, devdi, molxonaga kirgani qo'rqaman, shamol kelgan kechasi u yerga qora devlar qamalib oladi, deb ko'nmay, bobojonimning pinjiga battarroq berkinib oldim.

Enajonim molxonadan chiqib tanchaga o't solish uchun o'choqqa endi olov yoqayotgandi, ko'cha eshigimiz oldin sal pastroq, keyin xuddi birov tosh bilan urayotgandek, qattiq taqillab qoldi. Enam ikkovimiz chiqib tanbani tushiruvdik, ie, ie; Eshon bobom turibdilar; rost aytyapman. Devga o'xshagan, novcha bo'yli, mo'ylovi buralib-buralib qulog'ining orqasiga borib qolgan bitta amaki ham turibdi.

O'sha devga o'xshagan amaki bir qo'li bilan devlar minadigan katta otning jilovidan ushlab, boshqa qo'li bilan Eshon bobomning qo'ltig'idan ko'taribroq olgan.

– Voy xudoyim-ey! – dedi enajonim.

– Robiyabibi, men yana tashvish bo'lib keldim, – zo'rg'a nafas olib dedilar Eshon bobom.

– Voy, yaratganga shukr-ey, – dedi enajonim yana.

– Erkavoy uydami?

– Marhamat, kiraversinlar, uydalar.

– Yo'q, chaqiring. Men shu yerdan ketaqolay.

– Voy, Hazratim, unday demasinlar.

Shu paytda hassasiga tayanib, cho'loqlanib, bobojonimning o'zi chiqib keldi. Achomlashib ko'rishib ketishdi. Devga o'xshagan amaki bilan ham qo'l berib so'rashishdi.

– Qani, ichkariga, mehmon; otga ham joy bor, – dedi bobojonim.

– Erkavoy, men yana qochib keldim.

– Xudoning marhamati bu, pirim.

– Meni deb boshingiz yana baloga qolmasin, ketaqolay.

– Pirim, siz uchun hamma narsaga tayyormiz.

E, gaplaridan hammasini bilib oldim. Eshon bobomni bu gal ham yana melisa amakilarning o'zlari qochirishibdi. Devga o'xshagan amaki ham melisa ekan. Faqat yelkasida pogoni yo'q xolos, otiyam o'ziniki ekan.

– «Oq machit»danman dedingizmi, o'g'lim, – deb so'radilar Eshon bobom amaki bilan xayrlashayotganda.

– Ha, o'sha yerlikman, otaxon.

– Yoqubboyning o'g'limisan?

– Ha, o'sha kishiga farzand bo'lamiz.

– Ismingiz Halimboymidi?

– Xuddi shunday, pirim.

– Iloyo ovmin, – fotiha o'qidilar Eshon bobom, – tikilib kelgan balodan, notavon tuhmatu bemahal o'limdan o'zi asrasin. Xudo umr bersa qishlog'ingizga borib sizdek farzandni tarbiyalagan ota-onangizga rahmatlar aytarman, iloyo ularni ham o'z panohida asrasin!

Uyga kirganimizdan keyin juda g'alati bo'ldi. Bir-birlari bilan hech gaplashishmadi. O'zimning bobom, obbo pirim-ey, desa, Eshon bobom bobo Erkavoy-ey dedilar, xolos. Ha, bildim, mendan gaplarini yashirishmoqchi, ko'chaga chiqib, o'rtoqlariga aytib beradi deb, qo'rqishayotgandir-da. Aytmasdim, har narsa bo'lay, cho'yan soqqa beraman deyishsa ham aytmasdim. Boshimni tanchaga qo'yib turaverdim, turaverdim. Oxiri uyqum kelmasa ham ataylab, enajon, yotaman, uyqum kelyapti, dedim o'zimni uyqusiraganga solib. Yo'q, aytdim-ku, uyqum kelmagan edi deb, ovozimni ataylab shunaqa chiqardim. Enajonim, katta uyimizning nariga chekkasiga joy solib berdi. Qulog'imni bobojonim tomonga to'g'rilab, jim yotaverdim. Avval pichirlashib gaplashishdi, keyin ovozlari sal baland qilishdi, oxirida qattiq-qattiq so'zlashishdi...

E, yaxshi bo'пти, judayam zo'r bo'пти. Eshon bobomni etigida g'archi bor eng katta boshliqning o'zi qochiribdi.

- Yo'g'-e! - dedi o'zimning bobom.

- Xudo shohid, - dedilar Eshon bobom, - kecha o'zi oldinga kirib qorovul bolalarni urishib bergan bo'ldi, nega taglariga yumshoqroq ko'rpa to'shab bermadilaring, nega issiq ovqat bermayapsizlar, degan gaplarni aytdi. Keyin menga yaqinroq kelib, hazratim, sabr qiling, bir ilojini qiladiganga o'xshaymiz, deb shivirladi.

- Ikromovning o'zi shu gaplarni aytdimi? - endi ovozini pastlatib so'radi bobojonim.

- Xudo shohid, shunday dedi.

- Yaxshi odam ekan.

- E, Erkavoy, melisa-melisa deymizu ularning orasida ham dini iymonli, musulmon yigitlar ko'p ekan. Hay-hay, hammasi aslida yaratgan egamdan, hammasi Bahovuddin pirimdan. Mana, yorug' dunyoga chiqib o'tiribmiz. Kechki taomni haligi otliq yigit olib kirdi. Qorong'u tushishi bilan hojatxonaga boring, ko'cha tomonning guvalasi bo'sh, to'rttasini tushirasiz, deydi-ya. Yo'q, bolam, oyoq qurg'ur shol, uzoqqa yurolmayman desam, o'zim aytgan joyingizga olib borib

qo'yaman, deydi-ya! E xudoyim, e yaratgan Egam, o'zingga shukronalar bo'lsin... Ostidagi ot emas, uchqur tulpor ekan, uchirib keldi-ya. Tezroq tog' ichkarisiga keting, o'sha yoqlar hali musulmonobod deydi-ya. E, Erkavoy, yaxshi odamlar ko'p bu dunyoda.

Eshon bobomni tog'dagi qishloqlarga qochirish haqida maslahat qila boshlashdi. «Lakkon» degan tojik qishloqda, «Botkon» degan qirg'iz qishloqda o'zimning bobomning qarindoshlari ko'p ekan. Aslida-chi, bobojonimning eng katta bobolari o'sha yoqda yashab, keyin o'lishgan ekan. Yozda borganmiz, o'rik, noklar yeganmiz. U yerda-chi, tegirmonlar ham juda ko'p. Bittasidan un chiqsa, bittasidan yog' chiqadi.

O'zimning bobojonim eshagimizni to'qimlagani kirib ketdi. Enam jun xurjunimizga mayiz, tut tolqon, jizzali nonlar sola boshladi, qarindoshlarimga olib boring deb yong'oq, anor ham berdi.

– Yozda Rahmonberdiga to'y qilsak albatta kelasiz, – dedi enajonim.

– Xudo xohlasa, – dedilar Eshon bobom.

Keyin ikkovlari tashqariga chiqib ketishdi. Eshagimizning hangragani, ko'cha eshigimizning g'iyech etib yopilgani eshitildi. Keyin yana guvillab qo'rqinchli shamol esa boshladi.

Bobojonim tanchaga, o'zining o'rniga, enajonim mening yonimga kirib yotdi.

– Enajon, Eshon bobom yolg'iz o'zlari qo'rqmaydilarmi? – deb so'radim.

– Voy sho'rim, uyg'oqmisan? – deb so'radi enam.

– Hammasini eshitib yotuvdim.

– Voy xudoyim-ey.

– Qo'rqmang, hech kimga aytmayman, cho'yan soqqa berishsayam, varrak yasab berishsayam aytmayman.

– Bolaginam-ey.

– Eshon bobomning orqasidan quvishmaydimi?

– Jim yot, o'g'lim.

– Yo'q, rostini ayting, quvishmaydimi?

– Xudo xohlasa, quvishmaydi.

– Quvishsa, eshagimiz chopolmaydi-da, dung‘azasidagi dumidan tortsa, keyin yaxshi chopadi, shuni aytdingizmi?

– Aytdim, arslonim.

– Bo‘rilar uchrab qolsa nima qiladilar?

– Shamol kuni bo‘rilar inidan chiqmaydi, uxla endi.

– Uxlagim kelmayapti.

– Duo o‘qigin, uxlab qolasan.

– Pichirlab o‘qiymi?

– Ovoz chiqarib o‘qi, ko‘p o‘qigin, keyin hammamiz uxlab qolamiz. Yaxshi tushlar ko‘ramiz.

– Savobini Eshon bobomga bag‘ishlaymizmi?

– Ha, piringa bag‘ishlaymiz.

– Enajon, Eshon bobomning xotinlari o‘lganmi?

– Yo‘q, u kishi uylanmaganlar, o‘g‘lim.

– O‘g‘illariyam, qizlariyam yo‘qmi?

– Endi bas qil, bo‘lmasa o‘rnimdan turib bobomning yoniga borib yotaman.

– Yo‘q, yo‘q, turmaysiz. Mana o‘qiyapman.

Enajonimning ko‘kragiga boshimni qo‘yib, og‘zimni sal buyoqqa burib olib, ho‘ anovi kuni o‘rgatgan duolarini o‘qiy boshladim. Bir marta o‘qiganimdan keyin chindan ham ikkovimiz uxlab qoldik.

## XUDOGA NOLA QILDIK

**A**hmadqul bobom to‘g‘ri aytibdi, bog‘larimizning buzilishi rost ekan. Enajonim bo‘lsa, Otajon, shu hazilkash o‘rtog‘ingizning poyma-poy gapiga ishonib kuyinavermang degan edi, esizgina, shu gapni aytmasa ham bo‘lar ekan. O‘sha kuni Bo‘rhovuz bo‘yiga hammani to‘plashdi. Chol bobolar bordi, boshiga to‘ncha yopingan buvilar bordi, amakilar bordi. Murodxon, Hayitvoy o‘rtog‘im hamma-hammamiz bordik. Men tizzasini tishlab olgan ijroqo‘mbobo, kolxozimizning bitta qulog‘i yo‘q raisi, bitta novcha, bitta pakana melisa amakilar katta-katta otlarga minib kelishgan

ekan. Otlarini tovutxonaning yonidagi qoziqlarga bog'lab qo'yishib, qo'llaridagi qamchi bilan etiklarining sog'iga mana bunday-mana bunday qilib urishib majlis qilishdi. Men ijroqo'mbobo ko'rib qolmasin deb, katta odamlarning orqasiga bekinib turdim.

Qishloqning past tomoni paxta bermay qo'yibdi, yerlarning tagidan sho'r suv kep qopti, davlatga ko'p paxta kerak ekan, ko'p paxta berilmasa dushmanlar qishlog'imizni bosib olarkan, hammani qul qilarkan.

– Hozir qul emasmizmi? – deb so'radi Ahmadqul bobom.

– Xudoga shukr, hozir ozodmiz, – dedi bitta qulog'i yo'q rais amaki.

– Ozod bo'lsak nega bog'imizni buzasan, chinoq?

– Otaxon, chinoq demay gapiring.

– Bitta qulog'i yo'qni chinoq deyishadi-da.

– Gap shu, – dedi rais amaki, – Begovot ariqdan pastdagi hamma bog'lar buziladi. Mana, kattalarning buyrug'i yozilgan qog'oz qo'limda turibdi... Kim bo'yin tovlasa, qamaladi, gap tamom!

– O', Chinoq, – yana gapirdi Ahmadqul bobom, – mening bog'imga tega ko'rma, uyimda Istalin boboning to'rtta surati bor, osib qo'yanman. Ahmadqul cholga deb barmog'ini ham bosib bergan.

– O'rtoq Stalin barmoq bosmaydi, kallavaram chol.

– E, o'zing kallavaram cholsan, Chinoq.

Keyin ijroqo'mbobo gapirdi, keyin melisa amakilar gapirdi. Bir tup olma, bir tup nok bir oilaga yetarkan, qolgani bari bir tagiga to'kilib, chirib ketarkan. Shuncha bog'ning endi kimga keragi bor ekan. Paxta esa hammaga har kun kerak bo'larkan.

– Xo'sh, ustingizdagi to'n nimadan? – deb so'radi ijroqo'mbobo.

Hech kim javob qaytarmadi, ustidagi to'nini ushlab ko'rdi xolos.

– Paxtadan, – dedi pakana melisa.

– Ko'ylagingiz-chi?

– Paxtadan.

- Lozimingiz-chi?
- Paxtadan.
- Ishtonbog'ingiz-chi?
- Paxtadan.
- Ko'rpangiz-chi?
- Paxtadan.
- Obro'yingiz-chi?
- Paxtadan.
- Tarillab turgan traktor-chi?
- Paxtadan.
- Qozonga quyadigan yog'ingiz-chi?
- Paxtadan.

Ijroqo'mbobo bilan melisa amakilar ana shunaqa suhbat qilishaverdi-qilishaverdi, Odamlar boshlarini mana bunday egib, jim turishaverdi, turishaverdi. Men ham, Hayitvoy o'rtog'im ham jim turaverdik. Ijroqo'mbobo, hozir borib bog'lardagi daraxtlarni kesinglar, qarshilik ko'rsatgan o'n yilga qamaladi, degan gapni aytdi. Keyin otlariga minib, jo'nab ketishdi. To'n yopingan buvilar yig'lashdi, chol bobolar bir narsalar haqida suhbatlashishganida, biz eshitolmay qoldik. Oxiri maslahatlashish uchun o'zimning bobomning oldiga kelishdi.

- O' ellikboshi, biror narsa desang-chi, - dedi Matmusa bobom, - baribir foydali gap o'zingdan chiqadi.

- O' zolimlar, o' zolim zamona, - dediyu bobojonim hech foydali gap aytmadi.

Yana maslahat qilishdi. Oxiri Istalin boboning suratini topib, bog'larimizning eshigiga osaylik, u kishining farishtasi ko'p ulug', hech kim mevalarimizni kesolmaydi, deyishdi. Kechasi bilan hech kim uxlamadi. Biz ham uxlamadik. Yo'q, men jindek uxladimu baribir uyg'onib ketdim. Qarasam, enajonim yo'q, so'rasam, Qashqar qishloqqa Istalin boboning suratini axtarib ketgan ekan... Eh, juda qiziq bo'ldi-da. Hammaning ko'cha eshigiga Istalin boboning suratini yopishtirib chiqdik. Esi yo'q bobolar yirtib qo'ymasin deb, sal balandroqqa yopishtirdik. Biz yelim solingan kosachalarni



ushlab turdik, Sultonaliga o'xshagan novcharoq akalar bismillohir rahmonir rahim deb yopishtirishdi. Hayitvoy o'rtog'im bo'lsa o'sha kosachadagi yelimdan yashirib ikki marta yalab olgan ekan, anchagacha labi ochilmay im-imm deb yurdi.

Kechasi yana ham qiziq bo'ldi. Biznikida, soy ko'chadagi Savri xolamnikida enajonimlar to'planishib:

*Har kim aytsa bir soat  
Duo bo'lgay ijobat.  
Lo iloha illo anta  
Lo iloha illo anta, –*

degan duolarni o'qib, «Mushkulkushod» o'qishdi. Mushkulkushod o'qiganda-chi, aziz avliyolar shoshilib yordamga keladi, bildingizmi? Ishingiz yurishib ketadi. Zolimlar yo'q bo'ladi, dilingiz ravshan bo'ladi. Ho' yozda, uzumimiz sotilmay qolganda enajonim mushkulkushod o'qituvdi, ertasiga Qo'qondan o'zbekcha gapiradigan armani amakilar kelib bir xurjun qizil pul berib uzumimizning hammasini sotib olishgan. Bobojonimning dili ravshan bo'lib, yanagi yilga ham kelinglar degan.

Aytuvdim-ku, do'xtirimiz Dehqon shapka amaki juda aqli deb. Ahmadqul bobomdan ham, o'zimning bobomdan ham aqli ko'p uni. Aqlim osmonga uchib ketmasin deb doim boshiga shapka kiyib yuradi. Ana shu amaki tumandagi hamma yerlarning, hamma bog'larning, ariqlardagi hamma suvlarning boshlig'ini bilarkan. Bosh tanobchi ekan o'sha odam. Kechasi uxlamay uning nomiga xat yozib berib, xudo xohlarsa bog'laring buzilmaydi, debdi.

– Xatni men olib borolmayman, – dedi bobojon sal-pal yig'lamsiragandek bo'lib, – ikki oyog'im tengdan yo'q bo'p qoldi, o'rni.mdar turolmayman.

– Kim clib boradi bo'lmasa? – achchig'i chiqib so'radi Ahmadqul bobon.

– O'zing bora,nn, o'rtoq.

– Hammasiga meni yugurtiraberar ekansizlar-da.  
– Gapga chechansan, oyog'ing yengil.  
– Uh, – shunday deb Ahmadqul bobom chiqib ketdi. Endi uyog'i yana chatoq bo'пти. Matmusa bobom ham borolmayman, qo'sh ot qo'shilgan izvoshda yuradigan rahbar o'g'linga gap tegib qoladi, debdi. Xayriyat, Esonqul bobom darrov ko'nibdi. Qambarali bobom bo'lsa eshagim yo'q, eshak topib bersalaring, boraveraman-da, deb oxiri, to'rtta bobojon yo'lga tushishibdi. O'sha bosh tanobchi idorasida istakanda choy ichayotgan ekan:

– Nu? – debdi.  
– Bog'imiz to'g'risida keldik, – deyishibdi bobojonlar.  
– Tak, – debdi bosh tanobchi choy ho'plab.  
Keyin o'rtalarida mana bunday suhbat ham bo'lib o'tibdi:  
– Mevali bog'ni buzish gunoh-ku, o'g'lim.  
– Tak.  
– Ota-bobomizdan qolgan nodir mevalar edi, yaxshi bolam.  
– Tak.  
– Shunaqangi shirin-shakar mevalarki, xuddi jannatning o'zi edi.

– Tak.  
– Tirikchiligimiz ham shu bog'lar tufayli o'tib turibdi, yaxshi yigit.

– Tak.  
– Paxtaga boshqa yer qurib ketmagandir axir?  
– Tak.  
– Hech bo'lmasa Dehqon shapkaning xatini o'qigin.  
– Tak.  
– Bog'ni buzsalaring, ustimizdan o't qo'yamiz.  
– Tak.

– E, menga qara, – debdi oxiri Ahmadqul bobomning jahli chiqib. – Nega hadeb tak-tak deysan, men senga otmanmi? Oyog'imni taqalatgani kelibmanmi?

– Tak, – debdi yana bosh tanobchi.  
Keyin bilishsa, shu tak-tak amaki o'zbekchani bilmas ekan. Boshqa odamni chaqirishibdi. Hamma gapni o'sha aytib beribdi. Tak-tak amaki bu mening qo'limdan kelmaydi deb,

bosh chayqabdi. Chol bobomlar, e bolam, qo'lingdan kelguncha idorangda o'tiraveramiz, deyishibdi. Rostdan ham o'tiraverishibdi, o'tiraverishibdi. Namozlari qazo bo'lsa ham o'tiraverishibdi. Oxiri tak-tak amaki, ha mayli, ijroqo'mga xat qilib beraman, bir ilojini qilar, debdi.

– Bog' buzilmaydimi? – shoshilib so'rabdi Ahmadqul bobom.

– Ha, buzilmaydi, – degan javob bo'libdi.

– Gap degan mana bunday bo'pti, umring uzoq bo'lsin, o'g'lim.

Shunaqa xursand bo'lishibdiki, shunaqa sevinishibdiki, Esonqul bobom yig'labdi, Qambarali bobom bu dunyoda yaxshi odamlar ko'p, debdi. Shodmon bobom xudo xohlasa buqa so'yib, yurtga xudoyi osh tortaman, debdi. Eshaklari ham xursand bo'libdi. Uyoqqa mayda qadam bo'lib, sekin-sekin yurib borgan ekan, buyoqqa tumshuqlarini oldinga cho'zib, quloqlarini dikkaytirib, kim o'zarga chopib kelibdi. Hammasidan ham Ahmadqul bobomning ko'k eshagi yaxshi chopibdi. Kelishsa, xayriyat, men tizzasini tishlab olgan ijroqo'm amaki idorasida qatiq ichib o'tirgan ekan. Xatni o'qib qoshlarini mana bunday jiyirib, pakana melisaga bu amakilaringni tezdin idorangga olib kir debdi. Olib kirgan ekan, endi ustilaridan qulflab qo'y debdi. Qulflagan ekan, o'zi derazadagi temir panjara qarshisiga kelib, bitta qo'lini mana bunday qilib beliga tirab, haligi xatni o'qibdi. «O'rtoq Marufxo'ja Eshonqulov, ushbuni olib borgan chollar davlatimizning paxta siyosatiga qarshi teskari tashviqot qilib yurgan yot unsurlar hisoblanadi. Eslarini yig'ib olguncha qamab qo'yishingizni maslahat beraman».

– Eshitdilaringmi? – so'rabdi ijroqo'm amaki.

– Hazilingni qo'y, – deyishibdi bobolar.

Hazil emas, chin ekan. Nega desangiz kutishaveribdi, kutishaveribdi. Qorong'i tushguncha ham hech kim kelib eshikni ochmabdi. Endi hammalari bechora Ahmadqul bobomni xafa qilishibdi. Sen gapga chechan bo'lmay o'lgur, gapiraverding, gapiraverding, mana, boshimiz baloga qoldi,

degan gaplarni aytishibdi. Ahmadqul bobom sabr qilinglar, bir ilojini qilaman, lekin chizgan chizig'imdand chiqmaysizlar, debdi. Pakana melisani chaqirib:

– Hoy yigit, yaxshi odamning bolasiga o'xshaysan, beriroq kel, – debdi. Pakana amaki derazaga yaqinroq kelgan ekan:

– Musulmon odamning bolasimisan? – degan savolni beribdi.

– Xudoga shukr, – degan javob qaytaribdi.

– Xudo xohlasa, onang ham musulmondur.

– Alhamdulillah.

– Namozning savobi ko'p bo'ladi, bilasan, a, o'g'lim?

– Bilaman, otaxon.

– Barakalla, o'g'lim. Endi bizga ozgina tahorat suvi bergin. Shomni o'qib olaylik. Savobini o'zingga bag'ishlaymiz, – deb yumshoqqina qilib gapiribdi Ahmadqul bobom.

Melisa amaki savobni yaxshi ko'rarkan-da, darrov qumg'onda suv ilitib kelib, oldilariga kirgan ekan, bobojonlar bismillohir rahmonir rahim, deb bechorani yerga bosishibdi. Qo'l-oyog'ini bog'lashibdi, keyin tashqariga chiqib och qolganidan to'xtamay hangrayotgan eshaklarini minib buyoqqa qo'rg'onchaga qarab qochishibdi...

Bu gaplarning hammasini men hali aytdim-ku, Ahmadqul bobomning o'zidan eshitdim. Uylarida Hayitvoy o'rtog'im, Abduhalim, Dilijon, hammamiz barmoq yashirar o'ynab o'tirgan edik, bobom hovliqib kirib keldi-da, eshagini ham bog'lamay, tumandan qanday xushxabar olib kelarkan deb o'tirganlarga mana shularni aytib berdi-yu:

– Endi hammalaring uyingga tarqal, – dedi achchig'i chiqib.

Hamma qo'rqib ketdi. Menam qo'rqdim. Hozir kelib melisa qamab qo'yadi, deb qo'rqdim. Uyimizga qarab chopdim. Borsam enajonim charx yigiryapti. Bobom oyog'i og'riyotgan bo'lsayam, sandalning ustiga bir savat mayiz qo'yib olib, cho'pini tozalayotgan ekan. Eshitganlarimni aytib berdim.

– Obbo Ahmadqul-ey, – dedi o'zimning bobojonim sal-pal kulib, – lekin o'g'lim, sen qo'rqma, Ahmadqulni qamashmaydi, tegirmonga tushsayam butun chiqadi u. Shunchaki bir siyosat qilishibdi, xolos.

– Arslonim, qo‘lingni yuv, – deb yelkamni siladi enajonim, – tezroq shavlangni yeb olgin, hozir o‘rtoqlaring keladi.

Voy, chindan ham enajonlari, buvijonlari bilan qo‘l ushlab bittasi buvijoning charxini ko‘tarib, bittasi pilta savatini ko‘tarib o‘rtoqlarim kela boshlashdi. Eng oldin cho‘loq Qo‘zivoy, undan keyin etigining bir poyini sandalda kuydirib olgan Murodxonlar ham kelishdi. Enajonim, hammalaring o‘choqning yonida, mo‘riga yaqinroq o‘tirib ana shu mo‘ri orqali Xudoi taolaga nola qilasizlar, sizlarda hech gunoh yo‘q, pokizasizlar, bokirasizlar, nolalaring Xudoga tez borib yetadi, shunda bog‘larimiz buzilmay, o‘rigu uzumlarimiz o‘zimizda qoladi, mazza qilib yeb yurasizlar, aytganimni qilsalaring cho‘ntaklaringni to‘ldirib o‘rik, mayiz solib beraman, anor so‘yib beraman, nok archib beraman, dedi.

– Voy, xolajon, men hech narsa bilmayman-ku, – shoshilib so‘radi Hayitvoy.

– Aylanaylar, o‘zim o‘rgatib turaman, – deb javob qaytardi enajonim.

– Men qattiqroq nola qilsam nokdan ikkita berasizmi? – so‘radi Dilijon o‘rtog‘im.

– Beraman, arslonim, hammalaringga beraman.

Enajonim o‘rgatib turdi, hammamiz tuynuk tomonga bo‘ynimizni cho‘zib nola qila boshladik:

– E Xudo, bog‘imizni o‘zing asra.

– E Xudo, zolimning zulmini daf qil.

– E Xudo, mevalarimiz jannatdan chiqqan, o‘zing himoya qil.

– E Xudo, biz sag‘irlarni shirin-shakar uzumlardan mahrum qilma.

– E Xudo, katta amakilarga, rahbarlarga insof ber.

– E Xudo, o‘zimning bobojonim tezroq tuzalib qolsin.

Charchab qolguncha bir-birimizga qiziqishib nola qilaverdik. Hayitvoy o‘rtog‘im yong‘oqni ko‘p olaman deb boshini mo‘rining ichkarirog‘iga tiqib baqirdi, hammayog‘i qorakuya bo‘lib ketdi. Sanambuvi bilan puchuq Dilbarxon

pichirlab nola qilishdi... Keyin enajonim hammamizning cho'ntagimizni to'ldirib o'rik, yong'oqlardan solib berdi. Rosa mazza qildik.

## ENAJONIM AYTGAN ERTAK

- E**najon, baribir, vatan deganingizga tushunmadim.
- Katta bo'lganingizda tushunasan, o'g'lim.
  - Voy, kecha, sen endi katta yigit bo'p qolding, dedingiz-ku!
  - Uxla, arslonim.
  - Uyqum kelmayapti, ko'zimni yumsam ajinalar ko'rinadi.
  - Vatan... shu qishlog'imiz-da, azamatim...
  - Yo'q, aldayapsiz. Olim tog'am bilan Odil tog'amlarni Vatan yo'lida shahid bo'ldi, dedingiz-ku.
  - Ha, aytganman.
  - Yana ayting!
  - Uxla deyapman.
  - Uxlamayman, aytmasangiz, Sigir soqqaningizda buzoqchani ushlab turmayman, o'chog'ingizni kulini ham olmayman, bildingizmi!
  - Xo'p, ertak aytay bo'lmasa, baribir, sendan qutulib bo'lmaydi shekilli, arslonim, faqat gap qo'shmay turasan.
  - Gapirmasam, uxlab qolaman-da.
  - Bir bor ekan, bir yo'q ekan... Qo'lingni biqinimdan ol o'g'lim, qitig'im kelyapti... Qadim-qadim zamonda bir poshsho yashagan ekan, gulni yaxshi ko'rarkan, dunyoni qaysi burchagida chiroyli gul bor deb eshitsa, darhol ko'chatidan oldirib kelib gulzorga o'tqazar ekan, gulzori shunday katta ekanki, ming tanobdan ham ko'p ekan, gulzorlar orasidagi ariqlardan sharaqlab zilol suvlar oqib yotarkan, poshsho gulni qancha sevsa qushlarni ham shuncha yaxshi ko'rarkan. Olamdagi barcha go'zal qushlardan namuna keltirilgan ekan. Bog' bamisoli jannatdek bo'lgan ekan, zilol suvlarning shildirab oqishi, qiyg'os ochilgan gullarning shabbodada

mayin tebranishi, sayroqi qushlarning yoqimli ovozi bog'ning fayzi-tarovatini oshirarkan... Roshshoning bir suyukli xotini bo'larkan, Malika deb atasharkan. Malika faqat qush go'shti yerkan, yeganda ham shu poyonsiz gulzordagi qushlarning go'shtidan yerkan. Semizidan tanlab har kun bittasini so'yib turisharkan. Navbat bir qushchaga kelipti. Do'mboqqina bo'lib semirgan ekan, o'ziyam g'oyat go'zal, patlariyu qanotlari oltindek tovlanib turarkan.

Jalldod o'tkir pichog'ini bo'g'ziga endi olib borgan ekan, go'zal qushcha to'satdan tilga kirib:

– Shahanshohimga arzim bor! – deb qichqiribdi. Qushchani to'satdan inson tilida gapirishi jallodni hayron qoldiribdi va bo'lgan voqeani darhol poshshoga yetkazibdi. Qushchani poshshoning huzuriga olib boribdi.

– Ayt arzingni! – debdi poshsho.

– Shahanshohim, – deb gap boshlabdi qushcha, – biz qushchalar inson uchun yaratilganmiz. Goh husnimiz bilan ko'zlarini quvoniramiz, goh chiroyli ovozimiz bilan dillarini yayratamiz, goho ularga yemish ham bo'lamiz, so'yilamiz. So'yilish navbati bugun menga yetgan ekan, o'limim oldidan sizga bir iltimosim bor.

– Ayt iltimosingni, – deb buyuribdi poshsho.

– Ruxsat bersangiz, o'limim oldidan Vatanimni bir ko'rib, vidolashib kelsam, – deb zorlanibdi qushcha.

Shahanshoh shu zig'irdekkina qushchaga men yaratgan bog' vatan bo'lmabdi, nahotki uning vatani bundan go'zalroq bo'lsa, agar chindan ham go'zalroq bo'lsa undan namuna olishim kerak ekan, deb o'ylab, orqasidan poyloqchi qo'yib, qushchaga ruxsat beribdi. Qushcha yetti kechayu yetti kunduz uchib, nihoyat bir sahroyu-biyobonga borib yetibdi. Jazirama sahroda bir to'p qurib qolgan daraxt bor ekan. O'shaning kovagiga kirib, Xudoga ming qatla shukur, vatanimni ko'radigan kunim bor ekan, oh mening ko'z ochgan uyim, oh mening ota-onamni ko'rgan chiroyli kovagim, oh ukalarim bilan chirqillashib katta bo'lgan uyginam deb. ko'ziga yosh

olib, kovakda to'xtamay dumalar emish, chetlarini nozik qanotlari bilan silab-siypalar emish.

Qushcha qayta-qayta alvido aytib, shahanshohning huzuriga kelib, ta'zim qilibdi. Poyloqchi qush bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay so'zlab beribdi. Shahanshoh adolatli ham ekan. Demak, deb o'ylabdi, har bir zotga u insonmi, qushmi, kim bo'lishidan qat'i nazar, birov yaratgan go'zal bog'lardan ko'ra kovakdek xarob bo'lsa ham o'zi tug'ilib o'sgan joy jozibali Vatan bo'larkan, o'shani qo'msab, o'shani ulug'lab e'zozlab yasharkan.

– Shahanshoh shu gaplarni eshitib gulzordagi o'zga o'lkalardan keltirilgan barcha qushlarga ozodlik beribdi...

Enajonim ertakni aytib bo'lib jim bo'ldi. Men ham jim yotaverdim. Qushcha vataniga borib, aka-ukalarini topoldimikan, yo'qmikan, deb o'ylayotgandim. Enajonim xo'rsindi, uh tortdi, keyin boshimni yumshoq silab:

– Uyg'oqmisan, toychog'im? – deb so'radi.

– Uyg'oqman, – dedim.

– Vatan deganiga endi tushundingmi?

– Ozgina tushundim, xolos... Shu qishlog'imiz mening vatanim bo'ladimi?

– Ha, seniki bo'ladi. Katta bo'lsang, xudo xohlasa, bobongga o'xshab bog'lar yaratasan, Esonqul bobongga o'xshab ariqlar ochasan, To'raqul bobongga o'xshab bir-biridan go'zal imoratlar qurasan, uxla endi azamatim.

– Voy, enajon, hammasini qilolmayman-ku!

– Navbati bilan qilasan-da.

– Imoratga mix ko'p ketadimi?

– Ha, juda ko'p ketadi.

– Mixni nimadan qilishadi.

– Uxla deyapman:

– Enajon, jon ena, ko'ylagingizning ustidan mammangizni ushlab uxlasam maylimi? Enajonim meni yaxshi ko'radi. Bu oxirgisi bo'lsin dedida, rozilik berdi, keyin ikkovimiz ham uxlab qoldik.



## BOG'LARIMIZ YONA BOSHLADI

O'sha kundan buyon har kuni otliq amakilar kelishadi. Uyma-uy yurishadi, bog'larimizni g'altakka o'ralgan ip bilan o'lchab, Erka cholniki uch tanob, Ahmadqul boboyniki to'rt tanob deb, qalin-qalin daftarlarga yozishadida:

– Bugundan qolmay ko'chasizlar, – degan gaplarni aytishardi.

– Tirik bo'lsak ko'chmaymiz, – deyishadi bobojonlar.

– Hukumatga qarshi bo'lsangiz qamalasiz, – deydi boshliqlar.

– E manqa, sen hukumat emassan-ku, – deydi Ahmadqul bobom.

O'sha, sen manqa, hukumat emassan-ku, degan kuni kechqurun Ahmadqul bobomni qamoqqa olib ketishdi. Teskari tashviqot yurg'izgan ekan. O'g'illari, qizlari, Hayitvoy o'rtog'im – hammalari yig'lashdi. O'zimning enam ham yig'ladi, faqat bobojonim yig'lamay, ko'zini yumib jim yotaverdi. Ertalab tursak, yo'q, azon vaqti edi, bobom o'rnidan turolmagani uchun o'tirib namoz o'qiyotuvdi, enam o'choqqa o't qalab bo'lib sigirimizni soqqani kirib ketuvdi, o'zim turgani erinib, bugun namoz o'qimayman, ertaga ko'proq o'qirman deb, ko'rpadan boshimni chiqarib yotuvdim. Juda ko'p otlarning tuyoq tovushi eshitilib, ko'cha tomon tapir-tapir bo'lib ketdi. Oyimqishloqdagi kazarmada askarlar turishadi-da, o'shalar bo'lsa kerak deb, juda-juda ko'rgim kelib ko'chaga qarab yugurmoqchi bo'luvdim, bobojonim:

– Yer zax, oyog'ingga kavushingni ilib ol, – dedi.

– Ilsam kechga qolaman, – deb oyoqyalang yugurdim.

Rost, askar akalar ekan. Bo'rhovuz tomonga burilishayotganini ko'rib qoldim.

– Tinchlikmi? – deb so'radi bobojonim.

– Askarlar keldi, – dedim sevinib.

– E, attang, – bobojonim boshini chayqab-chayqab oldi, – yaxshilik belgisi emas bu, bolam.

– Nega, urush bo‘ladimi?

– Qaytaga urush bo‘lgani yaxshi edi.

– Nafasingizni issiq qiling, – urushib berdi bobomni enajonim.

Birpasdan keyin mashinalarning bit-bit deb signal chalgani, traktorlarning tarillagani eshitila boshladi. Nonushta qilgim kelmadi. O‘sha yoqqa borgim kelaverdi. Yo‘q, keyin borsam ham bo‘lardiyu mendan oldin Hayitvoymi, Murodjonmi borishsa, biz sendan oldin keldik, hammasini sendan oldin ko‘rganmiz, deb maqtanishadi-da, shuning uchun nonushta qilgim kelmadi.

– Bobojon, mollarni optovchuvoqqa olib chiqib bog‘laymi? – deb so‘radim.

– Voy, o‘g‘lim, bugun esing kirib qolibdimi? – deb so‘radi bobojonim.

– Ha, kechasi uxlaganimda esim kirib qoldi, – deb javob qaytardim.

– Obbo azamat-ey, endi, ko‘p-ko‘p uxlagin, ko‘p uxlasang, mana shunaqa esing ko‘payib qoladi. Mayli mollarni olib chiq, keyin qo‘ylaringni ham boqqa haydab yubor.

Hammasini bajarib bo‘lib uyga kirayotgan edim, bobojonim «Obbo o‘g‘lim-e, bilib turibman, o‘shayoqqa borging kelyapti, ha mayli, boraqol. Nima gapligini bilib, darrov orqangga qaytgin», deb tayinladi.

Borsam, o‘h-ho‘, juda zo‘r bo‘p ketibdi. Yuk tashiydigan to‘rt g‘ildirakli mashinalar, g‘ildiragini qornining ichiga berkitib olgan askar akalarning tankalari, otliqlar, ijroqo‘m amaki-yu, bitta qulog‘i yo‘q raisimiz, melisalar... E-he, juda zo‘r tomosha bo‘layotgan ekan. Mozorboshi tomondan katta mashinada bilagiga qizil latta bog‘lagan komsomol akalar ham kelishyapti, ashula ham aytishyapti.

*Eski dunyoni buzamiz,  
Yangi dunyo quramiz.  
To'siqlarni yengamiz,  
Faqat olg'a yuramiz.  
Olg'a bos,  
Olg'a bos,  
Olg'a bos.*

Ashulani juda baland ovoz bilan aytishyapti. Hammamiz xursand bo'p ketdik. Qulijon o'rtog'im yelkasiga ukasini mindirib chiqqan ekan, ular ham sevinib ketishdi. Keyin biz ham:

*Olg'a bos,  
Olg'a bos,  
Olg'a bos, –*

deb oyog'imizni tapillatib ashula ayta boshladik.

Bitta qulog'i yo'q raisimiz tegirmon toshining ustiga chiqib ot minib turgan yelkasida yulduzi bor eng katta boshliqdan: «Komandir o'rtoq, askarlaringizning hammasi kelib bo'ldimi?» – deb so'radi.

– Kelib bo'ldi, – degan javob qaytdi.

– Komsomollar-chi? – yana so'radi raisimiz.

– Biz shaymiz! – deb javob qaytardi qishlog'imizdagi hamma komsomollarning boshlig'i Yusufali akam. U ot minmabdi, velosipediga suyanib turgan ekan. Qulijon o'rtog'im, ana shu velosipedning qo'ng'irog'i ichida shayton bor ekan, deb shivirladi menga.

Rais amaki qo'lidagi qog'ozga qaradi. «Mirza boboning bog'ini buzgani Rapqondan kelgan hasharchi komsomollar bilan bitta tanka, to'rtta askar yuborilsin», deb o'qidi. Keyin o'qiyverdi-o'qiyverdi, askar akalar, komsomollar, tankalar, bog'larni buzgani jo'nab ketaverdi. Bilagiga qizil taqqan akalar mashinaga o'tirayotib:

*Eski dunyoni buzamiz,  
Yangi dunyo quramiz.  
Olg'a bos,  
Olg'a bos,  
Olg'a bos! –*

deb ashula aytaverdi-aytaverdi.

Men, xayriyat, bizning bog'imiz buzilmas ekan, ana, ro'yxatni o'qimayapti-ku, e Xudo, hecham buzilmasin, buzilmasin, deb «Lo iloha illollohu valo quvvata illo billohi ali-yul aziym», – deb enajonim o'rgatgan duolardan o'qib turuvdim, rais amaki, Erkavoy Hojimat o'g'lining bog'iga Yangi qishloqdan kelgan komsomollar bilan bitta tanka jo'natilsin, deb o'qib qoldi.

Dodlaganimcha uyimizga qarab yugurdim. Tezroq borib ko'cha eshigimizni tanbalab olmoqchi edim. Shunaqa tez yugurdimki, oyog'imga enajonimning kavushini kiyib borgan edim, bir poyi tushib qoldi, ertaga kelib olarman deb, unga ham qaramadim. Kelsam, bizdan xabar olgani Zahro xolam bilan eshakarava minib yuradigan baqqol pochchamlar kelishgan ekan. Ularga ham qaramay to'g'ri bobojonimning bag'riga otilib:

- Bog'imiz buzilarkan, – dedim hiqillab.
- Yig'lama, o'g'lim, yig'lama, – bobojonim boshimdan, yelkamdan siladi.
- Yuring, ko'cha eshikni tezroq tanbalab olaylik.
- Tanbalasak, devordan oshib tushishadi.
- Miltig'ingizni olib chiqing bo'lmasa, otamiz.
- Yo'q, polvonim, endi miltiqning ham foydasi tegmaydi.
- Jon bobojon!
- Yig'lama!
- Axir biz tuynukdan Xudoga nola qiluvdik-ku, bobojon?
- Xudo ularning jazosini beradi, azamatim.

– Baribir kelisha tizzalarini tishlayman, betlarini timdalayman.

– Unday qila ko'rma, o'g'lim.

– Ana, enajonim ham yig'layaptilar. Nega yupatmaysiz?

– Bitta enangmas, butun qo'rg'oncha yig'layapti, butun yurt yig'layapti, o'g'lim.

Ko'cha eshigimizdan qatorlashib chakmoniga yaltiroq tugmalar qadab olgan to'rtta askar, ketidan bolta, arra ko'tarishib ashula aytgan komsomol akalar kirib kelishdi.

Askarlar to'g'ri bobojonimizning oldiga kelib:

– Erkavoy Hojimat o'g'li? – deb so'radi.

– Ha, Hojimat o'g'li, – dedi bobojonim.

– Bog' yaxshi.

– Ha, yaxshi.

– Bog' buziladi.

– Ha, buzasan endi.

– Ayb bizda yo'q.

– Ha, senda yo'q.

Yana askar aka ancha narsa so'ragan edi, bobom javob qaytarmay, teskari qarab o'tiraverdi. Zahro xolam bilan enajonim ovoz chiqarmasdan yig'lashdi. Bobojonim, hammasi Xudodan, hammasi Xudodan, deb ko'ngillarini ko'targan bo'ldi.

Boqqa chiqsam, e, komsomol akalar allaqachon daraxtlarni kesishayotgan ekan. Men yaxshi ko'rgan gilosniyam yiqitishyapti. Endi bir martagina hosil qiluvdi. Yozda mevasini ko'z-ko'zlab yevdim. Ekayotganda tanasini ushlab turuvdim, mevasi shirin bo'lsin deb tagiga tuproq ham tashlovdim.

– Bobojon, – deya orqamga qaytdim, – mening gilosimniyam kesishyapti, molxonaning orqasida bor ediku, ikkovimiz ekan.

– Hoy, musulmonlar, hoy, ular 'ali niholcha-ku, – shunday deb bechora bobojonim kavushini arang kiyib baqirgancha, oyoqlari shol bo'lib yotgan bo'lsa ham endi ishlab ketdi shekilli, qo'ltiqtayog'iga ham tayanmay askar akalarning

oldiga yugurdi: – Hoy, bolalarim, sabr qilinglar, nihollarimni ko‘chirib olay, musulmonsizlar-ku, axir, yaxshi odamlarning farzandlarisiz-ku, nihollar ham mening farzandlarim bo‘ladi, o‘zim tuqqanman, o‘zim payvand qilganman, uloq solganman. Otamdan, bobolarimdan qolgan navlar bular. Ko‘chirib beringlar, jon bolalarim, qo‘y so‘yib beraman, katta qozonda osh damlab beraman... Baqqol kuyovim, qayerdasan, qo‘ydan bittasini so‘ygin. Jon bolalarim, nihollarimni ko‘chirib beringlar, hoy askar yigit, senda ham ayb yo‘q, majbur qilishgan. Qora ko‘zlaring mo‘ltillab turibdi-ku, axir. Kofir bo‘lsang ham achinyapsan. Sezib turibman. Ayt, nihollarimni ko‘chirib berishsin, duo qilaman. O‘lgunimcha duo qilaman.

Bilagiga qizil bog‘lagan akalardan bittasi kelib zax yerga o‘tirib olib zorlanayotgan bobojonimning qo‘ltig‘idan olib turg‘azdi-da, otaxon, kuyinmang, hamma nihollaringizni ko‘chirib beramiz, biz ham kofir emasmiz, dedi. O‘sha aka judayam yaxshi ekan. Katta bo‘lganda, Xudo xohlasa, menam shunaqa aka bo‘laman. Bobojonlar yiqilganda o‘rnidan turg‘azib qo‘yaman, zorlansa ko‘chatlarini ko‘chirib beraman. Bobojonim haligi akaning yelkasiga osilib yurib, mana bular anor ko‘chatlari bo‘ladi, mana bular nokniki. Namangandan keltirganman, mana bular anjir, jannatdan chiqqan deb ko‘rsataverdi, ko‘rsataverdi. Boshqa akalar ham yordamga kelib ko‘chiraverdi, ko‘chiraverdi. Oxiri bobojonim haligi akaning yelkasiga suyanib turib ko‘zlarini yumgancha birpas jim qoldi-da, keyin gupillab yerga yiqildi. Hamma qo‘rqib ketdi. Askar akalar ham, pochchamu xolam ham qo‘rqishdi. Enajonim yugurib kelib:

– Voy sho‘rim! – deb dodlab yubordi, – cholginamdan ayrilib qolganga o‘xshayman.

Bobojonimni chakmonga solib to‘rt tomondan avaylab ko‘tarib uyga olib borishdi. Xayriyat, ko‘zini sal ochib:

– Yig‘lama, onasi, – dedi.

Keyin uyog‘i juda tez bo‘ldi, juda-juda ham tezlashib ketdi. Baqqol pochcham bitta qo‘yni so‘yib bergandan keyin,

qolganlarini sigirimiz bilan buzog'imizga qo'shib qishloqdagi uyimizga haydab ketdi. Askar akalarning katta mashinasida avval sandiqlardagi mening to'yimga atalgan mayizu o'riklarimizni, ko'rpayu kigizlarimizni jo'natdik, eng oxirida baqqol pochchamning eshak aravasida bobojonimning o'zini olib ketdik. Tagiga yumshoq-yumshoq ko'rpalar soldik, boshiga qalin-qalin yostiqlar qo'ydik. Borguncha ham bobojonim hecham ko'zini ochmadi. Bog'imizning devorlarini buzayotgan tankalarning tarillagan ovozi to qorong'u tushguncha ham eshitilib turdi. Kesilgan daraxtlarning ustiga fonar yog'i quyib o't qo'yishgan ekan, alangasi osmonga ko'tarilib, ertalabgacha hammayoqni yoritib turdi.

## BOBOJONIM JANNATGA KETDI

Qishloqdagi uyimizga ko'chib kelganimizdan keyin, qorong'u tushganda bizni ko'rgani o'zimning buvijonim, mo'ylovi bor o'gay otam, oshiqlarimni o'g'irlab qo'ygan o'gay akalarim kelishdi. Bobojonim yumshoq-yumshoq ko'rpalarda sal-sal xurрак otib ko'zini yumib yotuvdi, o'gay otam oyoqlarini silab:

– Xafa bo'lmang, mana, bir arava ko'chat olib kelibsiz, o'zimiz sizga yangi bog' qilib beramiz, – deb ko'nglini ko'targan bo'ldi.

Bobojonim ko'zini ochmay:

– Im-m, – deb qo'ydi.

Keyin hammalari jim bo'lib uh tortishdi. Zahro xolam bilan o'zimning buvim bir-birlarini yelkasiga boshini qo'yib ozgina-ozgina yig'lab, bir narsalar haqida pichirlab olishdi.

O'gay otam bilan o'gay akalarim eshaklariga minib ketishgach, buvijonim bilan yolg'iz qoldik. Eshityapsizmi, buvijonim bilan qoldim deyapman! Oh, qanday soz bo'ldi-ya! Sog'inuvdim, mana shu ko'zlarim bilan juda-juda sog'inuvdim. Oh, hozir Hayitvoy, Dilijon o'rtoqlarim

bo'lganda ko'rsatib rosa maqtanardim. Ular har yoqqa ko'chib ketishdi. Endi topolmayman ularni. Buvijonim, asalim, sochingizning hidini sog'ingandim, baxmal to'ningizni sog'ingandim. Ana shu menga qarab turgan ko'zlarinigizniyam sog'inuvidim. Men o'pyapman, buvijonim o'padi, hech bir-birimizga to'yamaymiz. Yuzlariga yuzlarimni bosaman, buvijonim bo'lsa boshimdan, yelkalarimdan ohista-ohista silaydi. Qo'llari biram yumshoq yuzlari biram issiq, hidlari biram yoqimli... Buvijonim!

- Endi ketmaysiz-a?

- Ketmayman, o'g'lim.

- Bobojonim ham o'lmaydi, a?

- Yo'q, o'lmaydi.

- O'lgan odam ham tirilib keladi, a? Duolar o'qiyapman-ku?

- Xudo xohlasa. Bor endi, enangning oldiga chiqqin, sigir sog'yapti, buzoqchasini ushlab turasan.

- Yo'q, tomga chiqib bog'larimizning yonayotganini ko'raman, qorong'ida-chi, buvijon, alanga juda yaxshi ko'rinadi, - shunday deb kalta narvonimizni tirab, pastak molxonamizning ustiga chiqdim. Ha, ana, bog'larning yonayotgani endi yaqqol ko'rinyapti. Yaxlit bo'lib yonmayapti, yo'q, to'p-to'p bo'lib har joy, har joyda yonyapti. Eng baland yonayotgani Ahmadqul bobomniki, ularning bog'i katta edi-da, daraxtlari ham ko'p edi-da, hammasini to'plab yoqishibdi-da. Eh, Ahmadqul bobom qamalmaganda hammasini boplardi, bog'ini hecham yoqtirmasdi... Bizning bog'imizdagi olov pasayib qolibdi. Endi qop-qora tutun bo'lib chiqyapti. Yo'q, tutunmas, sal-pal alanga ham aralashib chiqyapti. Ana, Ro'zimat bobomning bog'idan lov etib alanga ko'tarildi. Voy-bo'y, biram baland bo'lib ko'tarildiki, ho' naridagi tog'lardan ham, osmondan ham balandga chiqib ketdi.

- Toylog'im, tushaqol endi, bobojoning chaqiryapti, - dedi enam.



Eh, yana birpas tomosha qilsam bo'lardi-da. Kimning bog'idan eng baland alanga chiqqanini bilib olmoqchi edim. Bilganimda o'rtoqlarimga hammangdan oldin men ko'rganman deb, maqtanib yurardim. Kirsam, bobojonimning orqasiga o'ntacha yostiqlik qo'yib, o'tirganga o'xshatib qo'yishibdi. Ko'zlariyam ochiq, katta-katta bo'lib ochilibdi.

– Ha, qizlarim, – deb to'xtab-to'xtab gapiryapti, – oldin kelgan oldin ketadi... Zahro qizim, beriroq kel, Sorabibi, shu yerdamisan?... Onalaringni yolg'izlatib qo'ymanglar, jannati ayol bu... Roziman, hammalaringdan roziman... Oh, voy otamlab yig'laydigan o'g'illarim ham yo'q. Zolimlar otib tashlashgan ularni. Qabrga olib kiradigan Ahmadqul o'rtog'im ham yo'q, o', yaxshi o'rtog'im edi u. Qamab qo'yishdi-ya... Rahmonberdi, beriroq kel, qo'lingni ber menga, barakalla... Bu yil maktabga borasan, a.

– Boraman, bobojon, – dedim yig'lamsirab, – qo'rqadigan gaplarni aytmang, yig'lagim kelyapti.

– Yaxshi o'qigin, jon o'g'lim.

– Yaxshi o'qiyman, bobojon.

– O'qib-o'qib muallim bo'lgin.

– Bobojon, muallim bo'lsam qo'ng'iroqli velosiped olib berasizmi?

– Olib beraman, o'g'lim. Enajoningni yolg'iz tashlab ketmagin.

– Ketmayman, endi buvijonim ham biz bilan qolarkan. O'gay otamnikiga bormas ekan.

– Har juma oqshomida menga bag'ishlab fotiha o'qigin, xo'pmi, arslonim?

– Bobojon, unaqa demang, qo'rqyapman.

– O'qiyman degin, o'g'lim.

– O'qiyman, bobojon.

– Qani o'qigin-chi.

– Zahro xolamdan uyalamanda, bobojon.

– Uyalma, o'qi, o'g'lim. Ovozingni yana bir eshitay.

– Ahmadqul bobomga o'xshab tilovat qilib o'qiymi?

– Ha, ha. Tilovat qil.

– Bismillohir rahmonir rohiym.

Quhu ollohu ahad, ollohu somad, lam yalid va lam yulad va lam yakun lahu kufuvan ahad. Ollohu akbar. Bo‘ldimi, bobojon?

– Yana o‘qi, azamatim, ovozing xuddi jannatdan chiqayotgandek, farishtalarning ovozidek yoqimli, huzurbaxsh, o‘qi, o‘g‘lim. Onasi, shu yerdamisan, yozda Rahmonberdining to‘yini qilgin. Karnaylar chaldirgin... Ana, rahmatli otam ham kep qoldi, uloqchi otini minib kepti. Endi meni mindirib olib ketadi, olib ketadi. Oh, onajonim, siz ham keldingizmi, oq paranjingizni yopinibsiz, a? Chimmatingizni oling, yuzingizni yana bir ko‘ray, onajonim... Onasi, shu yerdamisan, fotihaga kelganlarga ko‘chatning hammasini ulashinglar, ikkitadan, uchtadan beringlar. Jannatdan chiqqan mevalar bular denglar. Rahmonberdi o‘g‘lim, qayerdasan, men seni ko‘rmayapman-ku? O‘qi, o‘qi, baland ovoz bilan o‘qi.

– Bismillohir rahmonir rahiyim, – deb endi sal yig‘lamsirabroq o‘qiy boshladim: – Qul auzi bira binnasi malikin nasi ila xinnasi min sharil vasvasul xannas al – lazi yuvasvisu fu sudurin nas, minal jinnati vannas. Oblohu akbar.

– Barakalla, o‘g‘lim. Hursan, jannatidan, azamatim. Yana o‘qi, ovozingga to‘ymayapman.

Yana o‘qigandan keyin bunday qarasam bobojonim endi boshini baland yostiqqa qo‘yib ko‘zlarini chirt yumib olibdi. Uxlabdi shekilli, sekin-sekin xurrak ham tortyapti. Xolam bilan buvijonim ovoz chiqarmasdan xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘lab turishibdi.

– Bobojon, soqolingizni barmog‘im bilan sekin-sekin tarab qo‘yaymi, – deb oldiga o‘tmoqchi bo‘luvdim, enam meni ko‘tarib oldi-da: – Yur, narigi uyga chiqamiz, bobojoning damini olsin, ertalab yana duolaringdan o‘qib berasan, – dedi. Men bobojonim bilan achomlashib yotmoqchi edim. Ko‘nishmadi. O‘zinning buvim, yur, toylog‘im, axir men ham seni sog‘inganman, hech bo‘lmasa shu kecha birga yotaylik, deb qo‘limdan yetaklab tepa yog‘ochlari qorayib ketgan, deb tokchalari chuqur, tanchasiga o‘t solinmagan uyga olib kirib

ketdi. Chindan ham achomlashib yotdik. Hali aytuvdim-ku, buvimning sochidan qatiqning hidi keladi deb, men ana shu hidni juda, judayam yaxshi ko'raman. O'sha hid-chi, buvim ketgandan keyin tushlarimga kirgan. Ertaga yana ketib qolsa tushimga kirsin deb to'yib-to'yib hidladim. Keyin uxlab qoldim. Qattiq uxlabman, hecham tusham ko'rmabman. Uyg'onuvdim, hovli tomonda xotinlar yig'layotgan ekan. E, o'shalarining ovozigiga uyg'onib ketibman. Chiqsam, voy-bo', odamlar judayam ko'p, Qambarali bobom, Esonqul bobomlar, bitta qulog'i yo'q raisimiz – hammalari kelishibdi. Buvim baxmal to'nining ustidan belini bog'lab:

– Bizni tashlab qayerga ketdingiz, otajonim, – deb tizzasiga qo'llarini urib-urib yig'layapti. Zahro xolam bo'lsa, uyam qiyiq bilan belini mahkam bog'lab olib, Bibiqiz ammamni quchoqlagancha mehribonim, bog'bon otam, shirin-shakar mevalarni kim beradi endi, deb yig'layapti.

Bobojonim o'libdi. Bilmay qolibman. Bilganimda hecham o'ldirmasdim, duolar o'qirdim. Duo o'qiganimda tirik ediku, to'g'rimi? Nega meni aldashdi, nega darichasi chuqur uyga haydashdi, yo'q, yo'q, bobojonim o'lmaydi, o'lsa enajonim ikkovimiz nima qilamiz? O'lsa qorong'i go'rga qamab qo'yishadi, u yerda yolg'iz o'zi qo'rqadiku?.. Dodlab, bobojonim yotgan uyga kiruvdim, yo'q, xuddi o'lmaganga o'xshab yotgan ekan. Ko'ksiga o'zimni tashlab quchoqlab oldim. Betlaridan o'pib, soqollarini silab-silab qo'yimoqchi edim. Enajonim ko'nmadi. Ko'tarib olib chiqib ketdi. Yo'q deyishimga ham qaramay, to'yimga atab tikilgan beqasam to'nimni, chamanda gul do'ppimni, g'archi bor, piston qadalgan etikchamni kiygizib, belimni ham bog'lab, qo'limga hassacha berib:

– Sen ham voy bobomlab yig'lagin, – dedi, o'zi ham yig'lab, – gunohi kamayadi, bobongning kuyinib yig'laydigan hech kimi yo'q.

O'gay otam, baqqol pochcham, bobojonimning jiyani G'ani amakilar ko'cha eshigimiz oldida hassa ushlab turishgan ekan, o'shalar qatoriga boruvdim, hecham yig'lay olmadim,

uyalib ketaverdim. Endi otam ham yo‘q, bobom ham yo‘q, Ahmadqul bobom ham qamalib ketdi, deb o‘y laymanu baribir yig‘lay olmayman. Kechgacha ham yig‘lay olmadim. Qirg‘iz qishloqdagi qarindoshlarimiz bilan o‘sha yoqqa qochib borib berkingan Eshon bobom kelganlarini ko‘rib, endi rasmana yig‘lab yubordim. Tizzalaridan mahkam quchoqlagan edim: «Yig‘lama, bo‘tam, Erkavoy, Xudoning suyukli bandasi edi, xudo xohlasa, jannati bo‘ladi», deb engashib boshimdan, yelkalarimdan silab, peshonamdan ham o‘pib qo‘ydilar.

Chol bobolar qo‘rqib ketishdi. Esonqul bobom, hoy Eshon hazratlari, siz qochib yurgan bandasiz, ushlab ketishsa, yana isnodi bizga tegadi. Chakki kelibsiz. Hozir ham kech emas. Minib kelgan otingizni boshini o‘sha yoqqa buring, deb yolvordi. Yig‘layotgan opalar ham, hassa ushlagan amakilar ham yolvorishdi. Eshon bobom bo‘lsalar, hay-hay, deb jim turaverdilar-da, oxiri:

– Erkavoyday jannati bir odam olamdan o‘tadi-yu, hay-hay, janozasini men o‘qimasam, kim o‘qirkan? – deb oyoqlari bilan yerni mana bunday qilib bir tepib qo‘ydilar, – janozasini o‘qib, xudo xohlasa, fotihasida ham turib beraman. Mayli, qamasinlar, mayli, peshonamdan otsinlar. Ammo Erkacholning janozasini o‘qiyman.

Eng oxirida qiblaga qarab ikkovi qo‘llari bilan quloqlarini ushlab qattiq ovoz bilan «Salotin janoza, Salotin janoza», deb aytgan edilar, voy, hamma jim bo‘ldi-qoldi. Hech kim yig‘lamadi, xayriyat janoza o‘qilsa Munkarnakir bobojonimni so‘roqqa tutmaydi, boshiga gurzi bilan urmaydi, jannatning darvozasini ochib beradi, o‘sha yoqqa tez borib otishmada o‘lgan tog‘alarimni, quloq bo‘lib o‘lgan otamni ko‘radi, hammalari birgalashib yashashadi, deb o‘yladimu negadir yana battarroq yig‘lab yubordim. To‘g‘ri-da, endi meni kim azamatim deb erkalaydi, kim endi do‘ppilarimni to‘ldirib mayiz, o‘riklar solib beradi, kim kechasi qo‘rqqanimda orqamni silab, qo‘rqma, o‘g‘lim, deydi. Kim eshakka mindirib, sayillarga olib boradi.

– Bobojon, bobojonim! – deb dodlab yerga yotib oldim.

Turg'izib qo'yishdi. Baribir yig'lay berdim. Yupataman deyishsa, qo'llarini tishlab oldim. Keyin ovozimni chiqarmasdan piqqillab yig'ladim. Faqat ko'z yoshimning o'zi oqib kelaverdi, xolos. Mozorga borgandayam, bechora bobojonimni qabrga qo'yishganda ham hiqillashim hecham bosilmadi, kechasi tirilib qolsa tepaga qanday chiqadi, deb o'ylab battar hiqillayverdim.

Eshon bobom tilovat qilib bo'lganlaridan keyin, G'ani amakim o'rnidan turib:

– Hoy, musulmonlar, Erka amakim qanday odam edi? – deb so'radi yig'lamsirab.

– Jannati edi.

– Katta bog'bon edi, xayri sahovatli edi, – deyishdi odamlar.

– Hoy musulmonlar, – dedi yana G'ani amakim. – Bobomiz qazo qilishlaridan oldin janozamga, fotihamga kelganlarga ikki tupdan nihol ulashgin, deb vasiyat qiluvdilar. Iltimos, uyga borib ko'chatni olib ketinglar.

Qabristondan qaytayotganda Eshon bobomning qo'llaridan ushlab oldim. Shunday qilsam o'zimning bobom tezroq qorong'u go'rdan chiqib jannatga borar deb o'yladim. Kechasi biznikida yotib qoluvdilar, yonlariga o'tirib to uyqum kelguncha bobomni duo qiling, tezroq jannatga borsin, deb iltimos qildim.

Tong paytida har xil ovozlardan uyg'onib ketdim. Men o'zi ovozni eshitsam darrov uyg'onaman. Hovliga chiqsam odamlar ko'p to'planibdi. Bobojonimning o'rtoqlari ham kelishibdi.

– Jon bo'tam, kechgacha sabr qilgin, hech bo'lmasa fotihachilarning yarmi kelib-ketsin, – deb gapiryaptilar Eshon bobom.

Yana melisa amakilar kelgan ekan. Yo'q, kechasi Eshon bobomni otga mindirib kelgan melisa amaki emas, butunlay boshqalari kepti.

– Qarshilik ko'rsatsangiz, qo'lingizga kishan uramiz, – deyapti bittasi.

– Yuring, tezroq oldinga tushing, – deyapti boshqasi.

Odamlar shuncha iltimos qilishsa ham, baribir, bo‘lmadi. Eshon bobomni oldilariga solib haydab keta boshlashdi. Bobom bo‘lsa orqalariga o‘girilib:

– Meni yetti marta haydab ketishdi, – degan gapni aytdilar, – xudo umr bersa yana yetti marta qochib kelib dinu imoningiz to‘g‘risida qayg‘uraveraman.

Fotihaga kelganlarni Esonqul bobom bilan Matmusa bobomlar kutib olishdi. Men choy tashib turdim.

Keyin yozda to‘yim bo‘ldi.

Keyin kuzda 1-sinfga o‘qishga bordim.

Keyin...

Keyin, yo‘q, qolganini keyin aytaman.

\* \* \*

Bobojonimning nomiga qo‘yilgan beton ko‘prik ustida turib ana shularni o‘ylab ketdim. Kattatagob qishlog‘ining toqqa yaqin tomonida, adirlarda, bir zamonlar gul-gul yashnab, so‘ng kuydirilib, kultepaga aylantirilgan jannatiy bog‘lar o‘rnida kanaldan suv chiqarib yana bepoyon bog‘lar barpo qilishibdi. Qaysi daraxt yonida to‘xtasam, bu qora shakar anorlar, nashvati-yu sarg‘ayib pishadigan behilarni, shirador uzumlarning navlarini qadim yashab o‘tgan Erka bobo, Ahmadqul bobo, Esonqul bobo degan insonlar yetishtirishgan ekan, deyishadi. Mehmon, marhamat qilib to‘yib-to‘yib yeng, mashinangizning yukxonasini to‘ldirib beray, Toshkentga olib ketasiz, deb ham qo‘yishadi.

Dashtdan qaytayotganda ota-bobolarimizning ruhi arvohiga fotiha o‘qish niyatida qabristonga kirdim. Hammalari abadiy, oromli uyquda, jimgina yotishibdi. Qabriston etagida pishgan g‘ishtdan sahni keng o‘ymakor eshik, derazalar qo‘yib, mo‘jazzgina masjid ham tiklashibdi.

– Xoneshon hazratlari nomiga qo‘ydik, – deb tushuntirdi mutavalli.

– U kishini bilarmidingiz? – deb so‘rayman.

– Yo‘q, eshitganmiz, ko‘p ulug‘ inson bo‘lgan ekanlar. Qani o‘tirsinlar, hazratimning ruhi arvohtariga atab bir tilovat qilib beray.

Mutavalli atlas ko‘rpachaga o‘tirishga taklif etdi. O‘tirdik. Men bolaligimda Eshon hazratlarini ko‘rganligimni, tizzalarida o‘tirib erkalanib, soqollaridan silab duolar o‘rganganligimni aytdim. Ruxsat bersangiz tilovatni o‘zim qilsam, dedim. Bilganimcha o‘qidim. Negadir xayollarim ham shu daqiqalarda qanot bog‘lab uchgandek bo‘ldi. Qiziq, odam bolasi dunyoga kelarkan, yasharkan, vaqti kelib yana kelgan tomonga ketarkanu, lekin, baribir, birining nomi sarg‘ayib pishgan behilarda, birining ismi shirin-shakar uzumlarda, boshqasining ruhi peshtoqi baland masjidlarda yasharkan... O‘lmas ekan. O‘lim yo‘q ekan.

Keyin, yo‘q, qolganini keyin aytaman.

# TELEBOLA





# TELEBOLA

*(Peshonasiga televizor yopishib qolgan bolaning sarguzashtlari)*

## SARGUZASHTNING BIRINCHI BOBI

**B**ir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonlarda emas, o‘zimizning shu kunlarda go‘zal Farg‘ona tomonda, undan ham go‘zal Tagob qishlog‘ida Omonboy degan bola yasharkan. O‘zi juda hushyor, aqlli ham ekan. Televizor tomosha qilishni yaxshi ko‘rarkan. Har kuni o‘n soat tomosha ko‘rmasa ham oyog‘i, ham tomog‘i og‘rib qolar ekan. Dars tayyorlayotganda eski televizorlarning ichidagi ashqal-dashqalini olib tashlab, bo‘shagan qutichasining ichiga kirib olib tayyorlarkan. Shunday qilmasa, miyasiga hech narsa kirmas ekan. O‘sha kuni Omonboyning maktabga borgisi kelmabdi. Yo‘q, borgisi ham bor ekan-u, dars tayyorlamagan ekan, shuning uchun borgisi kelmabdi. Dadasi bilan oyijonisi barvaqt ishga jo‘nashibdi. Keta turib oyijonisi: «Jon o‘g‘lim, avval qaymoq bilan nonushta qilgin, keyin echkingga xashak solgin, keyin tovuqlaringni katakka qamab qo‘ygin, keyin maktabga keta turib kalitni Xosiyat xolangga berib ketgin, degan ekan. Omonboy hech qaysisini bajarmabdi, yo‘q-yo‘q, bajarmoqchi ekan-u, ularni bajargani ketsam, televizordagi qiziq-qiziq tomoshalar o‘tib ketib qoladi, deb qo‘rqibdi. To‘g‘rida, qiziq-qiziq tomoshalar o‘tib ketib qolsa, hammaga ham alam qiladi-da.

Katta televizor uyda, dadajonisi dalada suv quyganda ko‘rib yurarman deb olib kelgan kichkina televizorcha ayvonda, xontaxtaning ustida ekan. Omonboy chaqqon bola bo‘lgani uchun goh unisiga, goh bunisiga o‘tib, tomosha ko‘ra boshlabdi. Katta televizorni tikka turib, kichkina televizorni chalqancha yotib, qomini yerga berib, qiziq-qiziq joylari kelganda xuddi suvda suzib ketayotgandek oyoqlarini gilamga

tapillatib urib-urib tomosha qilar ekan. Eh, o'sha kuni juda-judayam zo'r bo'libdi, biri-biridan qiziq tomoshalar emish. Unisiga qarasang, bunisi qolib ketar emish, bunisiga qarasang, unisi. Kun botay-botay deganda Omonboyning boshi aylanib, ko'zi tinib, qulog'idan g'alati-g'alati ovozlari eshitalarmish, xuddi qulog'ining ichidan pakana-pakana odamlar chiqib kelayotganga o'xsharmish. Keyin sehrli voqea yuz beribdi, ha-ha, chinakam sehrli hamda sirli emish. Xontaxta ustida turgan televizorcha pastga tushib, Omonboy tomonga qarab surilib kelayotgan emish. Uning odamga o'xshash boshi, jovdirab turgan ko'zi, shalpang quloqlari ham bor emish. Surilib kelib-kelib Omonboyning peshonasiga chippa yopishib qolibdi.

## SARGUZASHTNING IKKINCHI BOBI

— Voy! — debdi Omonboy peshonasini ikki qo'llab ushlab. Keyin qo'rqib ham ketibdi. O'rnidan turmoqchi bo'lgan ekan, qiziq, boshi zil-zambildek og'ir emish. Peshonasiga yopishib qolgan televizorchaning ajratib olmoqchi bo'lgan ekan, televizorcha miyasining ichiga kirib ketayotgan emish. Boshining og'irligi shundan bo'lsa kerak, deb o'ylab yana battar qo'rqib:

— Voy-dod! — deb o'rnidan turib ketibdi.

Xayriyat, shu paytda fermadan qaytgan oyijonisi ko'cha eshikni sharaqlatib ochib, kirib kelayotgan ekan, qo'ltig'idagi bir quchoq o'tni yerga tashlab:

— Voy bolam, nega dodlaysan? — deb so'rabdi.

— Peshonamga televizor yopishib qoldi, ko'rmayapsizmi?

— deb rosmanga yig'lab yuboribdi Omonboy.

— Voy o'lmasam, chindan ham peshonang shishib ketibdi, — shunday deb mehribon oyijonisi o'g'lini tizzasiga olib, peshonasini silasa, tavba, peshonasi qo'lni kuydiradigan darajada issiq emish. Voy o'lmasam, seni qovoqari chaqqanga o'xshaydi, debdi yana oyijonisi.

Omonboy yig'lab, ari chaqqani yo'q, kichkina televizorcha miyamning ichiga kirib qoldi, mana o'zingiz paypaslab ko'ring, mana ekrani, mana buraydigan joylari, ana otliqlar kelyapti, qo'llarida yalang'och qilichi bor. Ana, qo'sh karnaylar chalindi, qoching, hozir jang boshlanadi, degan gaplarni aytarmish.

Oyijonisi qo'rqib ketibdi, juda-juda qo'rqibdi, suyakli o'g'lini ko'tarib, ichkariga olib kirmoqchi bo'lgan ekan, voy tavba, zil-zambildek og'ir emish. Bunday qarasa, xontaxta ustida turgan kichkina televizorcha ham yo'q bo'lib qolgan emish.

— Televizorchani biron kishiga berganing yo'qmi? — deb so'rabdi o'g'lidan.

— Peshonamning ichida deyapman-ku! — endi Omonboy rosmana dodlab yuboribdi. Oyijonisi ham rosmana qo'rqib ketibdi.

## SARGUZASHTNING UCHINCHI BOBI

Oyijonisi qo'shnilarini aytib chiqibdi. Omonboyning peshonasida televizorchaga o'xshash bir narsa borligini ular ham ko'rishibdi. Bitta qo'shnilari bu o'g'lingiz o'zi hazilkash edi, odamlarni kuldiraman deb, televizorchani ataylab peshonasiga yopishtirib olgandir desa, yana bitta qo'shnilari tavba, bolaning peshonasida hech narsa yo'q-ku, sal-pal shishinqirab qolibdi, xolos, hadeb vahima qilaverasizlarmi, debdi.

Qiziq televizorcha Omonboyning peshonasida bir paydo bo'larmish, yana bir yo'q bo'lib qolarmish.

— Ajinalar o'yin qilyapti, — debdi bitta qo'shnilari.

— Sehrgarlarning ishiga o'xshaydi bu, — debdi kap-katta bir odam.

— Osmondan uchar tarelkalarda noma'lum odamlar tushib, miyasiga televizorchani joylab bir ko'rinadigan, bir ko'rinmaydigan qilib qo'ygan, — degan gapni aytibdi qo'lida

gazeta ushlab turgan bitta amaki. Mana, gazetada o'sha haqda yozishgan, deb qo'shimcha ham qilib qo'yibdi.

Vahimali gaplar ko'paygandan-ko'payaveribdi.

Qo'rqqanidan Omonboyning rangi oqarib ketayotganmish. Oxiri, peshonasidagi bir ko'rinib, bir yo'q bo'lib qolayotgan televizorcha sehlimi, sehrlı emasmi, shuni sinab ko'rmoqchi bo'lishibdi. Bu foydali gapni Omonboyning jonajon o'rtog'i Davronboy aytibdi. Nega desangiz, u Omonboyning chinakam do'sti ekan. Qirq yilga o'rtoq bo'lamiz deb, jimjiloqlarini birlashtirib olishgan ekan. Birga o'qishar ekan, bir partada o'tirishar ekan, narigi mahallaning bolalari bilan koptok o'ynashganda bittasi hujumda, bittasi himoyada turib, o'ntadan to'p urishar ekan. Shuning uchun ham jonajon o'rtog'ining joni qiynalayotganini ko'rib, hammadan ko'ra ko'proq ana shu Davronboy achinibdi. yig'lab yuboray-yig'lab yuboray debdi.

Mahallada Turg'un aka degan televizor ustasi bor ekan. Sinab ko'rish uchun ana shu amakini chaqirib keladigan bo'lishibdi.

## SARGUZASHTNING TO'RTINCHI BOBI

Odamlar ikkiga bo'linishibdi. Katta yoshdagilar ichkariga, katta televizor yoniga o'tishibdi. Yosh bolalar Omonboyning yoniga o'tirishibdi. Turg'un amaki katta televizorni ishlatib:

— Xo'sh, Omonboy o'g'lim, sening miyangdagi televizorcha ham ishlab ketdimi? — deb so'rabdi.

— Ha, ishlab ketdi, — debdi Omonboy.

— Nimani ko'rayapsan, o'g'lim, — so'rabdi ichkaridagi amaki.

— Miyamda bitta odam ashula aytyapti, — debdi Omonboy.

Amaki televizor kanalini o'zgartirib:

— Endi-chi? — deb so'rabdi.

— Birov traktor haydayotganga o'xshaydi, — javob qaytaribdi Omonboy.

— To'g'ri, — debdi amaki, — bizning televizorda ham shuni ko'rsatyapti.

— Endi-chi?

— Bitta bola eshak aravada xshak olib kelyapti.

Televizor kanali yana o'zgaribdi.

— Endi-chi? — deb so'rabdi amaki.

— Haligi ashula aytgan odam yana ko'rindi.

— Endi-chi?

— Traktorchi amaki sekin pastga tushyapti...

Mana shunaqangi savollaru javoblar bo'laveribdi, bo'laveribdi. Ichkaridagi katta televizor nimani ko'rsatsa, Omonboyning peshonasida bir ko'rinib, bir ko'rinmay qolayotgan sehrli televizorcha ham xuddi o'sha tomoshani ko'rsataveribdi, ko'rsataveribdi. Ichkaridagi katta odamlar hayron qolib, goh tashqariga, Omonboyning oldiga yugurib chiqisharmish, goh yana e tavba, deya ichkariga chopib kirisharmish. Omonboyning yonida o'tirgan o'rtoqlari esa nima deyishlarini bilmay dovdirab qolishgan emish. Ayollar bo'lsa o'zlarini bosolmay vahimali gaplar aytisharmish. «Bas qilinglar, o'rtog'im qiynalib ketdi», — deb baqiribdi Davronboy, bas qilmasalaring chelakda suv olib kelib, ustilaringga sochaman, deb qo'rqitib ham qo'yibdi.

Qo'shnilar suvga pishilib qolishdan qo'rqib, tezgina tarqalishibdi. Bittasi ko'cha eshik yoniga borganda, bu bola sehrarga o'xshaydi, degan ekan, Davronboy o'rtog'ini himoya qilib, o'zing sehrgarsan, kovushingni poyma-poy kiyib chiqqansan, deb unga ham baqirib beribdi.

Onasi yumshoqqina joy hozirlabdi, Omonboy ni avaylab yotqizishibdi, Davronboy o'rtog'im tuzalmaguncha yonida o'tiraveraman, hech yoqqa ketmayman, deb so'z beribdi. O'rtog'ining sal shishinqirab, sal-pal qizib turgan peshonasini yumshoq-yumshoq silay boshlabdi.

## SARGUZASHTNING BESHINCHI BOBI

Kech kiribdi, Omonboyning dadasi ishdan qaytibdi. Yelkasida bir qop o't olib kelgan ekan, o'shandan bir qo'ltig'ini tinmay ma'rayotgan echking oxuriga tashlabdi. Omonboy mehribon dadasining beparvoligini ko'rib:

— Dadajon! — deya yig'lab yuboribdi.

— Nima deysan? — deb so'rabdi dadasi.

Uyda supra yoyib, un oshiga ugra yoyayotgan onasi yugurib chiqibdi. Bo'lgan voqeani goh onasi, goh Davronboy so'zlab beribdi. Omonboy hiqillab-hiqillab ko'zlarini mo'ltillatganicha jim yotaveribdi. Dadasi bu gaplarga uncha ishonmay:

— Peshonangda hech narsa ko'rinmayapti-ku, — deb so'rabdi.

— Tikilib qarasangiz ko'rinadi, — o'rtog'ining o'rniga javob beribdi Davronboy.

Xuddi shu paytda qiziq voqea yuz beribdi. Kichkina televizorchaning shakli ichidagi tasvirlari bilan Omonboyning peshonasida yaltirab bir ko'rinarmish-da, yana yo'q bo'lib, o'rni qorayib qolarmishu, anchagacha ko'm-ko'k tutun chiqarib turganga o'xsharmish. Dadasi yoqasini ushlagancha hayron bo'lib qolibdi. Davronboy hushyor, ham aqlli bola emasmi, hali qo'shnilarga ko'rsatgan sehrli manzarani Omonboyning hayratdan yoqasini ushlab turgan dadasiga ham ko'rsatmoqchi bo'lib ichkariga yetaklab kiribdi. Endi dadasi katta televizor yonida o'tirganicha hovlidagi o'g'li ko'zlarini yumib olib, ichkaridagi televizordagi hamma voqealarni so'zlab berayotganini ko'rib, eshitib:

— O'g'ilginam, pahlavonim, seni ajinalar chalib ketganga o'xshaydi, — deb yig'lab yuboribdi, — ertagayoq seni duoxonlarga o'qitmasam bo'lmaydi, — degan gaplarni ham aytibdi.

## SARGUZASHTNING OLTINCHI BOBI

Qorong'i tushibdi. Endi hech kim kirmasin deb, ko'cha eshikni berkitib olishibdi. Ikki o'rtoqqa bitta joy solib berishibdi, mayli achomlashib yotsanglar, yotaqolinglar, degan gapni aytishibdi. Davronboy o'tirib olib, o'xtin-o'xtin o'rtog'ining peshonasini silarmish, peshonangda tomosha haliyam ko'rinyaptimi, — deb so'rarmish. Ha, endi Shimoliy muz okeanidagi semiz-semiz ayiqlarni ko'rsatayapti, demish Omonboy. Qo'rqayapsanmi, demish Davronboy. Sal-pal qo'rqayapman, sal-pal maza qilayapman, demish Omonboy.

Har qancha ehtiyot qilishmasin, baribir ertalabgacha Omonboylarning uyida bo'lgan voqea butun qishloqqa tarqalib ketibdi. Bu qishloqda og'zaki telefon zo'r ekan-da, shuning uchun tarqalib ketibdi. Ertalab o'rinlaridan turishsa, voy-bo'y, ko'cha eshikning narigi tomonida odam degani to'lib ketganmish. Bolalar ham bor emish, chollar ham bor emish. Bitta kampirning oyog'i ishlamas ekan, nabirasi chaqaloqni ko'targandek ko'tarib kelibdi. Bir xili Omonboyga achinganidan, bir xili maslahat bergani, yana bir xillari shunchaki tomosha qilgani kelarmish. Qiziq, hammasi ham bu sirli voqeaning poyoniga yeta olmagan uchun tavba-tavba, deya yoqasini ushlab chiqib ketarmish. Ertasiga kechgacha uch mingta odam yoqasini ushlab, olti mingta tavba aytib ketibdi. Nabirasiga ko'tartirib kelgan cho'toq kampir, Omonboy, uyimda televizorim yo'q, seni olib ketsam, qulog'ingni burab tomosha ko'rsam, burningni bosib, ovozingni balandlatsam, debdi.

O'sha kuni kechasi Omonboyning ahvoli ancha mushkullashib qolibdi. Boshi yana ham og'irlashib, ko'zlaridan olov chiqqanga o'xshab, qulog'idan buzuq traktornikiga o'xshab g'alati-g'alati ovozlari chiqayotgan emish.

— Qo'rqayapman, — yig'lamsirab debdi Omonboy.

— Nimadar qo'rqayapsan? — deb so'rabdi Davronboy ham yig'lamsirab.

— Qara-chi, burnimdan tutun chiqyaptimi, yo'qmi? — deb so'rabdi yana Omonboy.

— Yo'q, tutun emas, mishig'ing oqayapti, artib qo'yaymi? — deb javob qaytaribdi Davronboy.

## SARGUZASHTNING YETTINCHI BOBI

Qaysi ota-ona suyuqli farzandi shu ahvolda turganda tinchgina uxlaydi, deysiz. Er-xotin ikkovlari kechasi bilan uxlamay chiqishibdi, o'ylayverishibdi-o'ylayverishibdi. Oxiri tuman markazidagi dong'i olamga ketgan televizor ustasini olib kelishga qaror qilishibdi. Agar pul so'rasa, menda pul bor, debdi Omonboyning jonajon o'rtog'i Davronboy. Chindan ham cho'ntagida o'n olti so'm puli bor ekan. O'shani chiqarib beribdi. O'sha usta, voy-bo'y, juda ham zo'r ekan. Televizorlarning buzuq joyini ko'zini yumib turib ham topa olarkan, topganidan keyin qo'li bilan bir silasa televizor o'z-o'zidan varanglab ishlab ketaverarkan. Shuning uchun ham hokimlar, bozorkomlar, puli ko'p tadbirkorlar televizorlari buzilsa o'shanga, faqat o'shanga ko'rsatishlar ekan. Amaki insofli odam ekan, Omonboyning dadasi yig'lamsirab turib, a'lochi o'g'limiz shundoq-shundoq bo'lib qoldi, degan ekan, qora sumkasini yelkasiga osib, qani ketdik, debdi. Kelibdi-yu, ayvonda atlas ko'rpachalar ustida yotib, peshonasida aks etayotgan g'alati-g'alati tasvirlarni o'rtog'iga so'zlab berib, xafa bo'lishini ham, xursand bo'lishini ham bilmay yotgan Omonboyning yoniga cho'kkalab:

— Nima bo'ldi, o'g'lim? — deb so'rabdi.

— Shunaqa bo'ldi, — debdi Omonboy.

Amaki rezinka qo'lqopini kiyib, mening qo'lim emas, pirlarimning qo'li, degan gaplarni aytibdi-da, Omonboyning qizib turgan peshonasini yumshoq-yumshoq silab, ozgina shish bor, mabodo yiqilib urganing yo'qmi, deb so'rabdi.

— Yiqilgami yo'q, — o'rtog'ining o'rniga javob beribdi Davronboy.



Usta amaki Omonboyning peshonasini yana silabdi, qulog'iga qulog'ini qo'yib ko'ribdi. Uzoqroqqa borib, bitta ko'zini qisib ham qarabdi. Yo'q, endi kecha odamlarga ko'ringan kichkina televizorcha ko'rinmasmish.

— O'g'lim, ota-onangni bekorga qo'rqitibsan, — xafa bo'lib debdi usta amaki.

— Yolg'onmi? — deb boshini sekin ko'taribdi Omonboy.

Keyin Davronboy bilan Omonboy xuddi avvalgi kuni qo'shnilari ko'rsatgandek, ham miyasidagi, ham ichkari uydagi televizorlarda g'alati-g'alati tomoshalarni ko'rsatgan ekan, usta amaki bir ko'rinib, bir ko'rinmay qolayotgan tasvirlarga qarab, e tavba, qirq yil ustachilik qilib, bunaqa sehrli voqeaga duch kelmagan edim. Tuzatish qo'limdan kelmaydi, debdi-da uyiga jo'nab ketibdi.

## SARGUZASHTNING SAKKIZINCHI BOBI

Ertasiga ko'rgani kelayotganlar yana ham ko'payibdi, sinfdoshlari ham kelibdi. O'zi shu ikkinchi «A»dagilar bir-biriga juda mehribon, juda g'amxo'r ekanlar-da. Tug'ilgan kunlarini birga o'tkazishar, kasal bo'lganda gul ko'tarib ko'rgani borishar, muzqaymoq olganda bir juft olib, bir-birlariga hadya ham qilishar ekan. Bu gal ham ko'ngil so'ragani, ham o'rtoqlarining peshonasiga yopishgan televizorchani tomosha qilgani kelishgan ekan.

— Voy, hech narsa yo'q-ku, — debdi Gulnora degan qiz.

— Men peshonasida bir narsa ko'rgandek bo'lyapman, — debdi a'lochi Nasiba.

— Mayli o'rtoq, tuzalguningcha maza qilib yotaver, — debdi eng orqa partada o'tiradigan Orifjon, — «A» unlisini o'tganmiz, o'zim senga tushuntirib qo'yaman. Og'zingni katta ochib, ovoz chiqarsang, «A» bo'larkan.

O'rtoqlari Omonboyning aytganlariga bir ishonib, bir ishonqiramay turishgan ekan, to'satdan sehrli voqea yana yuz berib qolibdi-yu, Omonboy miyasidagi tasvirlarni o'rtoqlariga

soʻzlab bera boshlabdi, ana, «Shaxmat darsi» boshlandi, ana qizaloqlar oʻyinga tushishyapti. Ahvoliga hammalari achinishibdi. Xafa boʻlishib, boshlarini egib chiqib ketishibdi. Gulnora boʻlsa, koʻchaga chiqqach, chinakam yigʻlab yuboribdi.

Bora-bora Omonboy koʻchaga ham chiqolmay qolibdi, toʻp ham tepa olmasmish, xokkey ham oʻynay olmasmish, sal narsaga boshi aylanib ketaverarmish. Doktor chaqirtirishibdi, tabibga koʻrsatishibdi, kechasi bitta domla kelib, kuf-suf ham qilib ketibdi. Biri u debdi, biri bu debdi. Oqibat shu boʻlibdiki, unga Telebola deb nom berishibdi. Bu nom Omonboyga hech yoqmas emish, gʻashi kelarmish, oxiri, Toshkentdagi eng katta doktorgami, televizor ustasigami uchrashmoqchi boʻlishibdi.

## SARGUZASHTNING TOʻQQIZINCHI BOBI

Toshkentdagi nom chiqargan mashhur doktor amaki uyida qabul qilibdi. Avval Omonboyning ota-onasi bilan rosa suhbatlashibdi. Keyin Omonboy bilan doktor amaki oʻrtalarida mana bunday suhbat ham boʻlib oʻtibdi:

— Obbo oʻgʻlim-ey, sening ham peshonangga televizorcha yopishib qoldimi? — deb soʻrabdi amaki.

— Sizga koʻrinyaptimi? — shoshilib soʻrabdi Omonboy.

— Ha, koʻrib turibman, oʻgʻlim.

— Amaki, siz qanday koʻryapsiz?

— Men hamma narsani koʻraman, oʻgʻlim.

— Bu voqea 17-may kuni boʻlganmidi, oʻgʻlim?

— Ha, oʻsha kuni boʻlgan edi, siz qayoqdan bilasiz?

— Oʻgʻlim, men hamma narsani bilaman, oʻsha kuni sen ertalabdan kechgacha televizor tomosha qilgansan, shundaymi?

— Toʻgʻri, kun botay-botay deguncha koʻruvdim.

— Echkingga xashak solishni unutmagan, toʻgʻrimi?

— Voy, bunisiyam toʻgʻri, amaki, — debdi Omonboy.

— Tovuqlaringni katakka kiritmagansan.

— Kiritmoqchi edimu, tursam tomosha tugab qoladi, deb qo'rqanman.

— O'sha kuni, rostini ayt, o'g'lim, necha soat televizor tomoshasini ko'rding?

— Esimda yo'q, amaki.

— Kun bo'yi ko'rgansan, kechga yaqin xontaxta ustidagi kichkina televizorcha sen tomonga kela boshlagan.

— To'g'ri, surilib kelayotgandek edi.

— Surilib kelib, peshonangga yopishib qolgan.

— Voy amaki, siz ko'rib turganmidingiz?

— Ha, hammasini ko'rib turgandim.

— Siz sehgarmisiz?

— Ha, sehgarkan.

Savol-javob mana shu yerga yetganda Omonboy yig'lab yuboribdi. Nega yig'layotganini o'zi ham bilmas ekan. Lekin doktor amaki yig'lagan bolalarni yupatishga usta ekan. Kafi bilan Omonboyning qizib turgan peshonasini uch marta silagan ekan, yig'i to'xtab qolibdi. Keyin doktor amaki, tashvishlanma, o'g'lim, sendan oldin ham oltita bolaning peshonasiga yopishib qolgan televizorni ajratib olganman. Xudo xohlasa, sen yettinchisi bo'lasan, lekin bu oson emas, og'ir-og'ir shartlari bo'ladi, debdi.

— O'shanda Telebola degan nomim ham yo'q bo'ladimi?  
— shoshilib so'rabdi Omonboy.

— Albatta, yo'q bo'ladi, — debdi hamma narsani biladigan sehgarkan amaki.

Keyin ichkarida sehrli sandiqchasi bor ekan, o'shani ochib, ichidan yettita sehrli, ehtimol sehrli emasdiru, Omonboyga sehrlidek tuyulibdi-da, ishqilib yettita ko'k konvert olib, har kuni bittadan ochasan, qanday shart yozilgan bo'lsa, so'zsiz bajarasan, bajarib bo'lganingdan keyin mana bu shishadagi sehrli suvdan uch ho'plam ichasan, ichishing bilan darhol uxlab qolasan, degan gaplarni aytibdi. Yetti kun deganda peshonangdagi televizorcha o'z-o'zidan yo'q bo'lib qoladi, degan gaplarni negadir Omonboyning qulog'iga shivirlab aytibdi.

Omonboy xursand bo'libdi, tashqarida betoqat kutib o'tirgan ota-onasi ham behad sevinishibdi.

## SARGUZASHTNING ENG QUVONCHLI BOBI

Shoshilib uylariga qaytishibdi. Katta Tagob qishlog'idagi barcha odamlar bu sehrli voqea nima bilan tugashini kutishayotgan ekan. Hammalari yopirilib kelishibdi. Qandoq bo'ldi, qandoq bo'ldi, deb rosa so'rashibdi. Hatto bitta kampir «O'sha sizlarni ko'rgan doktorning orqasida ham ko'zi bor emish, shu rostmi?», deb so'rabdi. Lekin hech kimning savoliga javob qaytarishmabdi. Faqat uylarini poylab, echkilari bilan tovuqlariga qarab o'tirgan Davronboyga juda-juda mehribon bo'lgani uchun bo'lgan voqeaning hammasini bitta qoldirmay so'zlab berishibdi. Xullas, ertasiga mashaqqatli sinov boshlanibdi. Birinchi ko'k konvert ochilayotganda Davronboy o'rtog'iga qo'rqma, men yoningda turaman, yiqilsang, turg'izib qo'yaman, deya dalda beribdi. Konvert ichidan qo'rqinchli hech narsa chiqmabdi, xat chiqibdi, unda Omonboy o'g'lim, esingdami, 21-yanvar kuni qo'shning Sora xola pul uzatib, jon o'g'lim, menga magazindan non olib kelib bergin, deganda, pulni olgansanu, nonga bormagansan. O'shanda kampir xolang och qolgan, hozir kirib kechirim so'ra, degan yozuv bor ekan.

Omonboy, e, bu shart juda oson ekan-ku, deb xursand bo'lib, magazindan non olib, xolasining oldiga kirgan ekan, xola xursand bo'lib ketibdi-da, Omonboyning peshonasidan o'pib, unga sherik bo'lib turgan Davronboyga ham rahmat aytib, ikkovlariga cho'ntaklarini to'ldirib, yong'oq beribdi. Omonboy uyiga qaytib, sehrli suvdan uch ho'plam ichgan ekan, shu zahotiyuq uxlab qolibdi. Uyqudan turgach, navbati bilan qolgan yettita shartni ham bajaraveribdi, bajaraveribdi. Uxlash ham davom etaveribdi, etaveribdi. Oxirgi konvertni ochayotganda Omonboyning ota-onasi ham, jonajon o'rtog'i

Davronboy ham juda qo'rqishibdi. Bordi-yu, bu shart qiyin bo'lsa, Omonboy uni bajara olmasa, peshonasida bir ko'rinib, bir yo'q bo'lib qolayotgan televizorcha butunlay qolib ketsa, unda nima qilamiz, deb qo'rqisharkan.

Nihoyat, oxirgi ko'k konvertni ochishibdi, undan sehrigar doktorning mana bunday so'zlari chiqibdi: «Omonboy o'g'lim, endi senga berib yuborganim, sehrli suvdan uch ho'plam emas, olti ho'plam ichasanu, darhol uyquga ketasan, demak, bu gal ikki norma uxlaysan. O'rningdan turganingda miyangdagi har xil tasvirlar, qulog'ingdagi yoqimsiz ovozlari, peshonangning qizishi butunlay yo'q bo'ladi, sen endi soppa-sog'san, papkangni yelkangga osib, maktabga jo'nayverasan. Shartli savollarni tuzib chiquvchi professor Odil Usmonov».

Omonboy ko'zini ochib, atrofiga qarasa, o'sha birinchi kuni uyqusirab, boshi og'irlashib, qulog'i shang'illab, jahl ustida qo'yxonadagi o'tlar orasiga otib yuborgani kichkina televizorcha yonginasida paydo bo'lib qolibdi.

— Voy, mening miyamga kirib ketgan televizor mana shu edi-ku, — deb qichqiribdi Omonboy.

— Ha, o'sha televizorcha miyangdan chiqib keldi, — deyishibdi ota-onasi.

— Ha-ha, o'shaning o'zi, — deb tasdiqlabdi Davronboy ham. — Miyangdan chiqib kelganini men ham ko'rdim, — degan so'zlarni ham aytibdi.

Ertasiga ertalab ikki o'rtoq barvaqt maktabga jo'nashibdi. Undan keyin o'z vaqtida maktabga boradigan, o'z vaqtida tomosha ko'radigan, o'z vaqtida echkiga xashak soladigan ham bo'lishibdi. Lekin ming afsuski, Omonboyning telebola degan laqabi hech o'zgarmay haligacha qolib ketibdi.

## TELEVIZOR BILAN MUZLATGICH O'RTASIDAGI OMONSIZ OLISHUVLAR QISSASI

**A**bdurasul degan yigit uchinchi qavatdan ikki xonali shinamgina uy sotib oldi. O'sha kuni xursandchilikni qarang, qaynotasi televizor bilan muzlatgich ham sovg'a qildi. Televizor bilan muzlatgich bir haftagacha xuddi akakalardek ahil, inoq yashashdi. Masalan, muzlatgich ishlab charchaganda televizordagi qiziq-qiziq tomoshalarni ko'rib, hordiq chiqarar, kuch yig'ib yana gurillab ishlab ketardi. Televizor bo'lsa ko'p gapirib, charchab, ochqab qolganda muzlatgichning ichidagi lazzeatli taomlarga, shirin-shirin mevalarga nigoh tashlab nafi orom olar, huzur qilar edi.

Yaxshigina hayot kechirishayotgan edi.

Bir kuni muzlatgich, «Tavba, — deb o'ylay boshladi. — Xonadonni oziq-ovqatlar isrof bo'lishidan, mevalari achib qolishidan men saqlaymanu, egamning bolalari nuqul televizorni maqtashadi, kun bo'yi o'shanga tikilishganitkilishgan. Meni o'sha vaysaqi qutichadan qayerim kam ekan». Shunday deb o'ylab televizor tarafga bir sovuq qarash qilgan edi, televizorning ich-ichi muzlab ketgandek bo'ldi.

«Tavba, — deb o'yladi o'sha kuni televizor ham, — qiziq-qiziq tomoshalar ko'rsatib o'lib-tirilib ishlaymanu, shirin-shakar mevalarni, lazzeatli taomlarni xo'jayin muzlatgichning sovuq qorniga joylaydi. Yana to'ydim demaydi. He ochopat bo'lmay o'!». Televizor shunday deb o'ylab muzlatgich tarafga bir hovuch olov purkadi. Muzlatgichning ichi yonib ketgandek bo'ldi.

— Ey vaysaqi, — dedi muzlatgich o'rnidan bir qo'zg'alib, — nega menga qarab olov purkading?

— O'zingchi, o'zing? — dedi televizor ham silkinib, — nega menga sovuq tikilding, ich-ichim muzlab ketdi.

— Sen hasadchi ekansan, — dedi muzlatgich sovuq qaltirab, — mening to'kin-sochin yashaganimni, qornim to'la

ovqat ekanligimni ko'rolmay, kun bo'yi vaysaysan, qulog'imni kar qilib qo'yding, meni uxlatgani qo'ymaysan. Niyating yomon seni. Yaxshi niyatli bo'lganingda, qutichangni ikkiga bo'lib, yarmiga oziq-ovqat solishardi, yalab-yalab gapirarding, yaxshi esang ranging ham o'ziga kelib qolardi. He oq-qora bo'lib tovlanmay o'!

— Hoy to'xta, — dedi televizor ichi battar qizib, — hasadchi, ichi qora deb seni aytsa bo'ladi. Niyating yomon bo'lgani uchun ichingga qo'yilgan mahsulotlarni doim achitib qo'yasan. Yaxshi niyatli bo'lganingda ostingni tomoshaxona, ustingni muzxona qilib qo'yishardi, ishlab charchaganingda tomosha qilib dam olarding. Ichlaring muzlab o'lgin, iloyim!

— Jim bo'! — deb baqirdi muzlatgich.

— O'zing jim bo'! — undan ham battarroq baqirdi televizor.

Ikki tomon ham g'azab otiga minib, bir-birlarining ustiga tashlanmoqchi bo'lishuvdi, qorinlariga bog'langan sim arqon ikkovlarini ikki tomonga tortib qoldi.

— Sen hali shoshmay tur! — entikib dedi muzlatgich.

— Sendan qo'rqadigan joyim yo'q, — bo'sh kelmadi televizor ham va ikki-uch marta «qig'-qig'» deb ma'noli yo'talib oldi. Muzlatgich ham tunganmas nafratini bayon qilish uchun naq bir soat davomida ichi buzilgan odamdek guldirab turdi. Yo'q, bu bilan ham g'azabi bosilmadi, tuni bilan uxlay olmadi, qo'liga qalam olib nafrat xatini yozdi: «Barcha televizorlarning boshlig'i janobi oliylariga. Biz kim, ko'p qavatli uyda yashovchi barcha muzlatgichlar 41-uyda istiqomat qiluvchi televizor haqida quyidagilarni ma'lum qilishni burchimiz deb bildik.

Bu televizor o'taketgan yolg'onchi, axloqi ham joyida emas. Damqisar kasaliga chalingan bo'lsa kerak. Ovozi hamisha qisqa-bo'g'iq bo'lib chiqadi. Ichida og'ir kasali ham bor — nuqul qig'-qig' qilib yo'talib turadi. Axloqi chatoq deganimiz shuki, tomoshalari hamisha zo'rlik, zo'ravonlik, otib, bo'g'ib, osib o'ldirishdan iborat. Bunday tomoshalarni ko'rgan bolalar tuni bilan uxlamay bosinqirab chiqadi. Yolg'onchi deganimiz

shuki, ko'pincha kasalman, deb tomosha ko'rsatmay yotaveradi. Uy egasi usta chaqirsa, kasal joyini berkitib, sog' joyini ko'rsatadi.

Bunday bezoriga chora ko'rishingizni, ichidagi ichak-chavog'ini sug'urib olib, qutisiga somon tiqib jazolashingizni so'raymiz.

Salom bilan bir guruh aziyat chekkan muzlatgichlar».

Tabiiyki, bunday paytda haqiqatni ro'yobga chiqaruvchi odil komissiyalar tuziladi. Shunday bo'ldi ham. Bosh boshqarma muovini komissiyaga bosh bo'lib keldi. Televizorni xontaxta ustiga yotqizib qo'yib obdan tekshirishdi. Ichak-chavog'ini sug'urib olish, qutisiga somon tiqishga arzigulik biron kamchilik topisholmadi. Komissiyaga ko'zi tushishi bilan televizorning rangi oqarib ketgan edi. Aktni bo'lar-bo'lmasga rangi oqaraveradi, deb yozib ketishdi.

— Ha, ha, — deb muzlatgichga musht o'qtaldi televizor.

— Hali sen ig'vo xatlar ham yozadigan bo'lib qoldingmi. Yozishni mana endi mendan ko'rasan.

O'sha kechasi televizor uxlamadi. Ertalabga yaqin mana bunday xat ham tayyor bo'ldi:

«Barcha muzlatgichlarning eng katta boshlig'i janobi oliylariga!

Biz kim, ko'p qavatli uyning barcha xonadonlarini to'ldirib yashovchi xushovoz, xushfe'l, gul-gul chehrali televizorlar, sizga yozib shuni ma'lum qilamizki, 41-uyda istiqomat qiluvchi muzlatgich ashaddiy jinoyatchi, tug'ilgan yili ham ma'lum emas va o'taketgan qo'pol, dag'al. Ichki buqoq kasaliga muhtalo bo'lgani uchun doimo g'o'ldirab ovoz chiqarib, uxlab yotgan bolalarni cho'chitib yuboradi. Uning jinoyati shundaki, soppa-sog' bo'lsa ham ko'pincha motorim ishlamaydi degan bahona bilan ichiga qo'yilgan mahsulotlarni achitib, uy egasiga zarar ustiga zarar keltiradi.

19-avgust kuni oilaning 24 dona tuxumini, bir kilo qiymasini, bir lagan moshkichirisini, sanab qo'yilgan 31 ta shaftolisini ataylab achitib-sasitib, men hech narsa bilmayman, deb bezrayib turib olgan.



Bunday bezbet, zararkunanda muzlatgichlarning borligi dunyodagi barcha muzlatgichlarga haqoratdir. Tezroq kelib ta'zirini beringlar, ichidagi ichak-chavog'ini yulib olib, o'zini temir-tersaklar qabristoniga ko'minglar.

Tezroq kelishlaringni kutib,  
salom bilan bir guruh televizorlar».

Yana komissiya tuzishga to'g'ri keldi. Tekshirishga adolatparvar bir ayol bilan haqiqatchi bir yigit keldi, rosa tekshir-tekshir bo'ldi. Muzlatgichning ko'k yo'tal kasali borligi aniqlandi. Lekin bu jinoyat kodeksining biror bandiga mos kelmagani uchun muzlatgichning ichak-chavog'ini sug'urib olib, o'zini qabristonga ko'mish haqida qaror qabul qilib bo'lmadi.

Olishuv avjiga chiqib ketdi. Hasad birining qalbini kuydirayotgan bo'lsa, boshqasining ichini muzlatayotgan edi. So'nggi olishuv yaqinlashib kelayotgandek edi, o'sha kun keldi ham.

Uy egasi ishga ketishi bilan bir-birlarining ustiga tashlandilar. Rozetkaga ilingan simlar cho'zilishib, bir-birlariga chatishib avval charsillagan uchqun chiqardilar, so'ng lovillab yonib ketdilar.

O't o'chiruvchilar kelganda televizor o'rniga bir hovuch kul, nariroqda muzlatgichning kuyib, qorayib ketgan tunuka qutisi qolgan ekan.

## YOVVOYI ECHKILAR

### *Ertak-qissacha*

**B**ir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda emas, shu o'zimizni kunlarda Toshkent shahrida eng aqlli odamlarni shoshirib, o'ylantirib qo'yadigan sirli bir voqea yuz beribdiki, butun shahar ahli hayratdan yoqasini ushlab qolibdi. 12 qavatli uylarning qoq o'rtasiga dadalari qurib bergan qizil qum

to'kilgan, keng, bohavo maydonchada jamiki bolalar qiyqirishib, yugurishib, o'mbaloq otishib o'ynashayotgan ekan. O'ynayotganlar orasida Farrux degan hushyorgina bir bola ham bor ekan. Tug'ilgan kunida dadasi sovg'a qilgan rostakamidan hech qolishmaydigan samolyotga opasi Soraxonni, akasi Humoyunni, mehmonga kelgan Rasuljon o'rtog'ini chiqarib olib, goh o'ngga, goh chapga haydashib, qiyqirib kulishib, juda-juda maza qilishayotgan ekan. To'satdan, ha-ha, to'satdan sirli voqea yuz beribdiku, samolyot tarillab ovoz berib orqasidan ko'm-ko'k tutun chiqazib, avval 12 qavat uylar barobar uchibdi, keyin xuddi lochin qushdek tumshug'ini oldinga cho'zganicha havolab borib-borib pag'a-pag'a bo'lib suzayotgan oppoq bulutlar orasida ko'zdan g'oyib bo'libdi.

— Xayr, dadajon! — qichqiribdi Farrux osmondan turib.

— Opajon, qozondagi suv toshib ketsa, men aybdor emasman, — deb baqiribdi Soraxon.

— Oyijon, men ertaga bog'chaga bormayman, — debdi Rasuljon.

Humoyun ham bir narsa deb qichqirgan ekan, samolyotning tarillagan ovozi eshittirgani qo'ymabdi. Samolyot bo'lsa uchgandan-uchaveribdi, uchaveribdi. Goh o'rkach-o'rkach bo'lib, bir-birini quvlab borayotgan oppoq bulutlar orasidan sho'ng'ib o'tarmish, goh qop-qora bulutlar samolyotni yutib yo'q qilib yuborarmish. Bir qarasa, charaqlab oftob chiqarmish, yana bir qarasa, qorong'ulik shunaqa quyuq bo'larmishki, Rasuljon hatto o'zining burnini o'zi ko'rolmay burun o'rniga qulog'ini ushlab-ushlab qo'yarmish.

Yerda qolganlar esa yoqa ushlab anchagacha angrayib turishibdi. Bir xillar «Uchar tarelkalar o'g'irlab ketdi ularni» deyishsa, boshqalari sehrli voqea yuz berdi, dermish. Yana bitta hammadan ham aqlliroq odam bor ekan. O'sha bo'yini baland cho'zib, baland ovoz bilan «Yapon o'yinchoqlarining ichida to'satdan g'irillab ishlab ketadigan kichkina-kichkina sehrli motorchalar bo'ladi, bolaga samolyotni berishdan oldin zo'r ustaga ko'rsatib olish kerak edi» dermish.

Xullas, u bo'пти, bu bo'пти, samolyot osmonda guvillab uchib ketaveribdi-ketaveribdi.

— Urra, men mazza qilyapman, — dermish ikki qo'llab rulni mahkam ushlab olgan Farrux.

— Men sal-pal qo'rqyapman. — dermish Soraxon.

— Men hech ham qo'rqmayman, botirman, — dermish Rasuljon.

— Meni uyqum kelayapti, — dermish Humoyun.

Samolyotning tumshug'ini lochin qushni tumshug'iga o'xshatib sal pastga egiladigan qilib yasashgan ekan. Bir mahal ana shu qayrilma tumshuqdan «qo'rqmasang, o'zingni yo'qotmasang, mard bo'lsang, murodu maqsadingga yetasan» degan o'zbekcha ovoz eshilib qolibdi. Ovoz Farruxning buvisinikiga ham, Rasulning bobosinikiga ham juda-juda o'xshab ketarmishku, bunday ko'zlarini kattaroq ochib qarasa, oldilarida qorong'ulikdan boshqa hech narsa yo'q emish. Samolyot esa varillab uchgandan-uchaveribdi, uchaveribdi. Osmon shunaqa keng emishki, bolalar oldinga ketishyaptimi, orqaga ketishyaptimi, hech bilishmas ekan. Goh, o'ng tomondan, goh chap tomondan lovillab yonib turgan meteriodlar zuv-zuv etib o'tib ketarmish. O'tayotganda osmonning yarmini charog'on qilib yoritib yuborar emish. Bir payt, samolyot shunday balandlab uchibdiki, Soraxonni bo'yi sal novcharoq emasmi, boshi yulduzlarga tegay-tegay deb qolibdi. Humoyun bitta yulduzni ushlab ko'rmoqchi ham bo'libdiku, lekin yulduz menga yetolmaysan degandek, tezgina havolab uchib ketibdi.

Osmondagi gashtli, faqat huzurdan iborat bo'lgan safar davom etaveribdi-etaveribdi. Yer vaqti bilan qancha bo'lganini bilisholmabdiku, osmon vaqti bilan bir yilcha uchganlaridan keyin, bir yilcha uchganlarini hammadan oldin Rasuljon sezib qolibdi. Nega desangiz, Rasuljonning qorni osmon vaqti bilan bir yilda bir marta ochqar ekan. Hozir ham juda-juda ochqab turganidan, demak, bir yilcha uchibmizda deb o'ylabdi. Bir vaqt bunday qarashsa, samolyotni tarillab turgan ovozi to'satdan o'chib, o'zi xuddi o'q tekkan qush kabi

lapanglab-lapanglab pastga tushib borayotgan emish. Qo'rqib ketishibdi. Xursand bo'lishni ham, xafa bo'lishni ham bilisholmay bir-birlarining pinjiga kirib, quchoqlashib jim turishaveribdi. Samolyot ohista pastlab borib, quyuq bir o'rmonning chekkasiga, barra o'tlar o'sib yotgan bir kenglikka qo'nibdi. Qo'ngan joylari shunday bir go'zal ekanki, ta'rifga so'z topolmay, ancha mahal angrayib qolishibdi. Farruxning hayratdan og'zi ochilib qolgan emish. O't-o'lanlar qalin o'sganmish, ariqlarda jildirab zilol suv oqarmish, zilol suvlar jarangli ovoz bilan yoqimli ashulalar aytarmish, chigirtkalar yoqimli kuylar chalarmish, o'rmondagi qushchalar chaq-chaqlashib xuddi xush kelibsizlar degandek tabrik aytarmish. Muzdekkina shabboda yengil-yengil esib, yuzlarini yumshoq-yumshoq silab o'tarmish. Quyosh erkalab mayin-mayin nurlar socharmish.

— Juda mazza-ku! — debdi Farrux quvonchini ichiga sig'dira olmay.

— Voy, lolalar ham ochilib yotibdi, — debdi gullarni yaxshi ko'radigan Soraxon.

— Men endi hech narsadan qo'rqmayman, — dermish Rasuljon. Aslida bu yerda yirtqich hayvonlar bo'lsa-ya, deb dag-dag qaltirayotgan ekanu, shunday bo'lsa-da men hech narsadan qo'rqmayman, deb yuboribdi.

— Qo'rqmanglar, agar bo'ri kelsa, mana bunday tepib yerga yiqitaman, — deb Humoyun sakrab o'ng oyog'i bilan havoni bir tepib qo'yibdi.

Xayriyat, o'zlarini yo'qotishmabdi. Dadil bo'lishibdi. Adirlardan-adirlarga o'tib, anvoyi gullardan terib chiroyli guldastalar yasashibdi. O'rmon ichidagi tor-tor so'qmoqlardan yurib qo'ziqorinlar terishibdi. Har qo'ziqorinlar emishki, bir xillari Rasuljonlarnikidagi xontaxtaday kelarmish. Dumaloq o'sganlari esa Farruxning boshicha kelarmish.

Nihoyat o't-o'lanlar bilan qoplangan bir go'zal tepalikka to'xtab, endi nima qildik, deya o'y surib ketishibdi. O'zlari ham behad charchashgan, ochqashgan ekan. Ochlik zo'r kelib,

ukalari asta-sekin hiqillay boshlashgan ekan, Soraxon nima qilarini bilmay xuddi echki bolasiga o'xshab ma'rab yuboribdi. Qishloqdagi buvisinikiga borganda echki bolalariga taqlid qilib ulardan ham chiroyliroq ma'rashni o'rganib olgan ekan. Bu yerlarda yovvoyi echkilar ko'p ekan. O'shalardan biri Soraxon tomonga asta-sekin kela boshlabdi. Uning jajji bolalarini bo'ri yeb ketgan ekan. Soraxonning ovozi o'sha bolasinikiga juda-juda ham o'xshab ketgan ekan. Ona echki Soraxonga yaqin kelib oyog'iga suykalarmish, iliqqina tilini chiqazib tizzalarini yalab-yalab qo'yarmish. Bolalar avvaliga sal-pal qo'rqishibdi. Humoyun bo'ri bilan echkning farqiga bormas ekan, bu hoynahoy bo'ri bo'lsa kerak, deb o'ylab, boplab tepmoqchi ham bo'libdi. Soraxon echki sog'ishni bilarkan. Qishloqdagi buvisi o'rgatgan ekan. Bunday qarasa, echkning yelini sutga to'lib, xamir qoradigan tog'oradek shishib ketgan emish. Soraxon achinibdi, juda-juda achinibdi, bechoraginam, deb yunglaridan mayin-mayin silabdi-yu, silayotib sutini sog'ib tashlasam yelini ancha bo'shab, joni huzur qilarmikin deb o'ylabdi. Ona echkini yana qayta-qayta silabdi. G'avakdek osilib turgan emchagiga qo'l uzatib ohista-ohista sog'a boshlabdi. Iliqqina sutdan bir-ikki marta hovuchlab ichib ham olibdi.

— Menga ham ichir! — debdi qorni ochib turgan Rasuljon.

— Menga ham ikki hovuch berasan, — xarxasha qilibdi Farrux.

— Mening qornim katta, mana ko'ringlar, uch hovuch ichaman, men hammangdan kattaman, — deb ataylab oyog'ining uchida turib bo'yini baland ko'rsatibdi Humoyun.

Soraxon ham aqli, ham tadbirkor qizlardan ekan. Janjal chiqmasin deya uchala ukasini echki bolalariga o'xshatib emaklatib qo'yib, hovuchidagi iliqqina sutni navbati bilan ichira boshlabdi. Qiziq, xuddi buloqdan chiqayotgandek ona echkning suti hech ado bo'lmas emish.

Kech kira boshlabdi. Tun borliqqa asta-sekin qora pardasini yoyibdi. O'rmon tomondan yirtqich hayvonlarning bir-biridan vahimali ovozlari eshitilarmish, och bo'rining

cho'zib-cho'zib uvillagani, chiyabo'rining xuddi birovni masxara qilayotgandek ingichka chiyillashi, ayyor tulkining chaqaloqdek ingalab yig'lashi, sherxonning o'rmonni boshiga ko'tarib atrofga dahshatu vahshat solib qattiq o'kirkani eshitalarmish. Qo'rqib ketishibdi, juda-juda qo'rqishibdi. Bir-birlarining pinjiga kirib, dag'-dag' qaltirasharmish. Rasuljonning iyagi-iyagiga tegmay, birdan tishlarini taqillatarmish. Har ehtimolga qarshi 20 tadan tosh terib kelib, oldilariga qo'yib olishibdi. Humoyun bo'ri kelsa shoshib qolmayin deb o'zini boshicha keladigan toshni qo'lida mahkam ushlab olgan emish. Og'ir sharoitda, hayoti xavf ostida qolganda odam bolasining aqli juda tez ham ishlab ketar ekan. Rasuljonning aqli ham shu paytda juda, judayam tez ishlab ketibdi.

— Olov yoqamiz! — deb sakrab o'rnidan turib ketibdi u.  
— Toqqa borganda ko'rganman, toshni-toshga ursa olov chiqadi, urra, buni men topdim ur-ra-ra... men topdim.

— To'g'ri, — deb Soraxon ham mehmon ukasini ma'qullab, faqat, chaqmoqtosh topish kerak, chaqmoqtoshdan tez olov chiqadi. Qora toshdan olov chiqmaydi... Qishloqqa borganda tosh terganmiz.

Qorong'i bo'lgani uchun oldilaridagidan qaysi biri chaqmoqtosh ekanligini bilisholmabdi. Axir bittasidan olov chiqib qolar deb, hamma toshlarni bir-biriga urishtiraverishibdi-urishtiraverishibdi. Bir mahal Humoyunning ko'ylagi pov etib yonayotganini ko'rib qolishibdi. Tosh urushtirishayotganda uzilib chiqqan uchqunni Humoyun ko'rmay qolgan ekan.

— Ur-ra-ra-ra... Olovni men yoqdim, — deb Humoyun o'rnidan turib ko'ylagini yecha boshlabdi.

— Tezroq yech, — deb qichqiribdi Soraxon.

Hammalari esli-hushli bolalar ekan. Olov o'chib qolmasligi uchun nimalar qilish kerakligini bilishar ekan. Ko'z yumib-ochguncha cho'p-xaslardan, qurib qolgan o'tlardan terib kelib olovni guldiratib yuborishibdi. Shunday guldiratishibdiki, olovning balandligi huv naridagi chinorlardan ham yuqoriroq bo'lib ketibdi.

— Ko‘ylagim kuyib ketdi, deb xafa bo‘lma, — debdi Soraxon Humoyun ukasining ko‘nglini ko‘tarib, — mana shu yonimizda turgan ona echking junidan qirqib, senga chiroyli ko‘ylak tikib beraman.

Kechasi bir-birlarining pinjilariga kirib uxlashibdi. Soraxon tez-tez uyg‘onib olovga cho‘p-xasdan tashlab qo‘yarkan. Rasuljon bir-ikki uyg‘onib «Opa, ertaga bog‘chaga bormasam maylimi» deb so‘rabdi. Farrux boshini xiyol ko‘tarib, ko‘zi yumuq emishu, qo‘limdagi nonim qani, hozir yeb turuvdimku, deb so‘ragan emish. Humoyun bo‘ri kelsa uraman deya, katta toshni quchoqlaganicha tuni bilan hech uyg‘onmabdi. Ertalab qulog‘idan cho‘zib, oyog‘idan tortib zo‘rg‘a uyg‘otishibdi.

Ertalab o‘rinlaridan turishsa, voy-bo‘y yirtqich hayvonlardan qo‘rqib pana-panada pisib, berkinib uxlaydigan boshqa echkilar ham bolasini bo‘ri yeb ketgan ona echkiga ergashib, gulxan atrofiga shunaqa ko‘p to‘planishibdiki, hisobi yo‘q emish. Bir xil echkilar yangi tuqqan ekan, chiroyli-chiroyli uloqchalar dikondikon qilib sakrashib yurishgan emish. Humoyun men yoqqan katta gulxanga isinishga kelishdimi, gulxan himoyasida yirtqichlardan jonlarini saqlash uchun kelishgandir yoki sutning yarmini sog‘dirib tashlab sal yengilroq bo‘lay deyishganmi, ishqilib, nega kelishdiykan deb rosa o‘ylabdi-yu, lekin shuncha echking biryo‘la yig‘ilib kelganligiga hech tushunolmabdi. Farrux bitta echki bola bilan bosh urushtiraman deb ushlamoqchi bo‘lgan ekan, ushlay olmabdi. Echkilarning erkagi — takalari shunaqa katta, shoxlari ham o‘tkir, soqollari ham qurt sotadigan chol bobonikiga o‘xshab shunaqa uzun ekanki, odam astoydil tikilsa qo‘rqib ketar ekan. Rasul ana shu bahaybat takalardan bittasini minmoqchi bo‘lgan ekan, yaqiniga ham yo‘latmabdi. «Ma-a», — deb yuborgan ekan, Rasul qochib borib opasining orqasiga berkinib olibdi. Soraxon ko‘p aqlli, ham ziyokor qiz ekan. Oyijonisi bekorga asal qizim, deb erkalamagan ekan. Ukalari sut ichib qorni og‘riyapti, jvachka chaynagim kelyapti, qurt sotadigan chol bobo qayerda qoldi, yerda yotmayman,

shamollab qolaman deb yig'lashganida, hammalarini aldab yupatarkan. Xuddi bog'cha opalariga o'xshab, boshlaridan silab-silab, peshonalaridan o'pib-o'pib yupatar ekan. Echki sog'arkan, kechasi yoqishga o'tin tayyorlar ekan. O'tgan yil qishloqqa borganida loydan kosa yasab olovda pishiradigan kulol bobonikiga o'rtog'i bilan mehmonga kirib, kosa qanday yasalishini, qanday pishirilishini ko'rgan ekan. Hatto o'sha bobosi Soraxon yasagan kosani olovda pishirib ham bergan ekan. Men ham kosa yasayman. Tosh ustiga qo'yib pishiraman, deb o'ylabdi-yu, darhol ukalarini yordamga chaqirib, ishga kirishib ketibdi. Yetti kun deganda 14 ta kosa, 11 ta piyola, sal qiyshiqroq bo'lsada 5 ta lagan tayyor bo'libdi. Humoyun sevinganidan kosani osmonga otib o'ynayman, deb sindirib ham qo'yibdi. Odamning hayoti xavf ostida qolganda u juda-judayam aqlli bo'lib ketadi, deganlari rost ekan. Hammalarining aqliga aql qo'shilaveribdi-qo'shilaveribdi. Rasul bilan Farrux echkilarning bolasiga o'xshab, mayin-mayin erkalaniib ma'rashni o'rganib sog'in echkilardan 4 tasini qo'lga o'rgatib olishibdi. Sog'ishni ham o'rganishibdi. Rasul sog'ayotganda Humoyun echkining bo'ynidan quchoqlab boshini silab-silab turarkan. Ko'pincha echki bolaga o'xshab emaklab kelib chalqancha yotarkanda, echkining yumshoqqina emchagini og'ziga solib lo'qillatib so'rib olar ekan. Bir marta bilmasdan tishlab olgan ekan, ona echki uni boshiga bir tepibdi. O'shandan buyon emishni bilmas ekansan deb, yoniga qo'ymayotgan ekan.

Endi echki sutini pishirib ichishni o'rganishibdi. Tovoqqa o'xshab ketadigan sariq toshlarda qatiq uvitishar ekan. Yovvoyi o'tlardan tag'in zaharlanib qolmaylik, deya oz-oz yeb ko'rishibdi. Qorinlari og'rimagan ekan, endi ko'p yeya boshlashibdi. Anormi, nokmi, olmami, nomini bilishmas ekan, baribir to'yib-to'yib yeyishar ekan. Bu yerlar asli yovvoyi echkilarning makoni ekan. To'p-to'p bo'lib yashashar ekan. Bir to'da ikkinchi to'daga qo'shilmas ekan. Rasuljon bitta yunglari mayin bo'lgan, kattaligi fermada boqiladigan bahaybat takani dori-darmon berib tuzatib asta-sekin ustiga minib yaylovlarni aylanadigan bo'libdi.



Avvalga dadalarimiz kelib olib ketishadi, deb yo'l poylashibdi, tepalikka chiqib goh osmonga, goh o'rmon tomonga rosa tikilishibdi, yig'lab-yig'lab ham olishibdi. Borabora o'rganib ketishibdi. Soraxon qo'lbola xumidonda echkilarning sutidan qaymoq, sariyog'lar yig'ar ekan. Echkilarning junidan kesib, ostilariga qalin-qalin ko'rpalar, ustilariga yumshoq-yumshoq yoping'ichlar tayyorlashar ekan. Yovvoyi mevalardan mo'l-ko'l quritib qishga tayyorgarlik ko'rishar ekan. Ba'zan haligidek ota-onalarini, o'rtoqlarini sog'inib yig'lay-yig'lay deb turganlarida to'satdan, qadrton samolyotlarning tumshug'idan «Qo'rqmasang, o'zingni yo'qotmasang, murodu maqsadingga yetasan, dunyo botirlarniki, dunyo mardlarniki» degan tanish o'zbekcha ovoz eshitilib qolar ekan. Shunda Farrux hiqillashdan to'xtab:

— Men botirman, to'g'rimi, opa, — deb so'rarkan Soraxondan.

— To'g'ri, hammamiz botirmiz, — gapga qo'shilarkan Humoyun.

— Biz bo'rilardan ham qo'rqmaymiz, qo'rqmaymiz, deyishib hammalari o'yinga tushib ketisharkan. Rasuljon barmoqlarini qarsillatib o'ynarkan. Humoyun oldinga egilib egilib salom berib o'ynarkan, Farrux ikki qo'lini biqiniga qo'yib sakrab-sakrab o'ynarkan. Bir marta oldinga, bir marta orqaga sakrab-sakrab o'ynarkan.

Shundan keyin kunlar ketidan kunlar o'taveribdi-o'taveribdi. Vaqt hisobini, asosan, Rasuljonning qorni ochgan va ochmaganligidan o'lchasharkan. Uch marta och qolsa, bir kuni o'tgan bo'larkan. Hisob 10 mingga yetganda, u yog'iga adashib ketishibdi, nega desangiz 10 mingdan u yog'ini sanashni hech birlari bilmas ekanlar. Lekin, baribir, bekor o'tirishmas ekan. Humoyun echkilarning semizrog'idan tanlab so'yib, go'shtini nimalashni o'rganibdi. Yaxshigina qassob bo'lib qolibdi. Rasuljon qizigan toshning ustiga go'shtni yopib pishirish mashqini olibdi. Farrux daraxtning navdasidan six yasab kabob pishirishni o'rganibdi. Soraxon bo'lsa, eh-he, 20 tacha hunar o'rganibdi. Echkining terisidan tikkan kavushni

ko'rsangiz og'zingiz ochilib qoladi. Lekin eng zo'r bir ishni Humoyun bajaribdi. O'rmon chekkasida ona sherning uyasi bor emish. Humoyun ko'pincha emaklab borib, daraxtning panasida berkinib turib, sherni kuzatgani-kuzatgan ekan. Nega bunday qilayotganini bilmas ekanu, baribir kuzatgani-kuzatgan ekan. Kunlardan bir kun ona sherni katta zaharli ilon chaqib olibdi-yu, o'n ikki kunlik bolasi yetimcha bo'lib qolibdi. Humoyun ana shu yetimcha sherni jun qopga o'rab olib kelib echki sutidan oz-oz berib boqib, asta-sekin o'ziga o'rgatib olibdi. Avvallari ukasi Farrux bilan sherning bo'yniga jun arqon bog'lab galma-galdan yetaklab yurishar ekan. Keyinchalik minadigan ham bo'lishibdi.

— Sherning bolasini minganimni adajonim bir ko'rsaydi!  
— deb orzu qilar ekan Humoyun.

— Agar olib ketsak, men uni bog'chamga minib borar edim, — derkan Farrux.

— Bizning ko'chada hech kim sherdan qo'rqmaydi, — derkan Rasuljon.

— Eh. Gapni cho'zmasalaring-chi, sho'rva sovib qolayapti, — urushib berarkan, — Soraxon.

Keyin kattakon toshqozonni o'rtaga qo'yib toshqoshiq bilan qaynoq-qaynoq sho'rvani po'rillatib ichishar ekan. Hammalariga ish teng taqsimlangan ekan. Soraxon 14 ta echkini sog'arkan. Rasuljon sut pishirib, qatiq qilarkan, qaymog'ini qaynatib sariyog' tayyorlar ekan. Tayyor bo'lgan sariyog'larni Soraxon yasagan xumlarga qo'yib og'zini berkitar ekan. Farrux toshqozon ortiga tunu kun olov yoqib berarkan. Unga «olovkor» deb nom ham qo'yishgan ekan. Humoyun yalpoq toshning ustiga o'tirib olib, suzmaldan hech charchamasdan qurt yasar ekan. Qurtlar soni 17 mingga yetganda, 17 mingdan u yog'iga sanashni bilmagani uchun, qolganlarini sanamasdan qopga solaveribdi. Goho boshini ko'tarib:

— U yoqqa borganimda saqichga almashtiraman, — deb qo'yarkan.

— Men sariyog‘imdan sotib, tarillatib otadigan avtomat olaman, — derkan Rasuljon.

Farrux bo‘lsa nima deyishini bilmay:

— Men adajonimni achomlab uxlayman, — deya bir xo‘rsinib olar ekan.

Turmushlari shu yo‘sin kechaveribdi-kechaveribdi. Bir kun tashqarida havo juda sovuq ekan, bir-birlarining pinjiga kirib uxlashibdi, ustimiz ochilib qolsa, muzlab qolmaylik, deb shunday qilishibdi. Qarangki, hammalari bir xil tush ko‘rib, hammalari bir ovozdand:

— Oyijon! — deya uyg‘onib ketishibdi. Keyin uyqulari qochib rosa gapga tushib ketishibdi. Onalarini, adajonlarini, muzqaymoq sotadigan semiz xotinni qayta-qayta eslashibdi. Farrux ozgina yig‘lab ham olibdi. Yig‘labdi-yu, lekin ko‘ziga yosh kelmabdi.

— Ertaga ketaman, — debdi hiqillab, — tramvay bo‘lmasa piyoda ham ketaveraman.

Hammalari kulib yuborishibdi, nega desangiz bu yerlarda, ya‘ni osmondagi mamlakatda tramvay bo‘lmasligini Farruxning o‘zi ham yaxshi bilarkan. Aytgan gapi g‘alati bo‘lgani uchun akalariga qo‘shilib o‘zi kulaveribdi. Hammalari charchab qolguncha kulishibdi.

Tong otibdi, kun chiqibdi, qaymog‘u sariyog‘lar bilan nonushta qilishibdi. Keyin hammalari har kungidek o‘z ishlariga mashg‘ul bo‘lishibdi. Rasuljon dori-darmon berib oyoqqa turg‘azib olgan navvosdek takasini minib uzoq yaylovdagi echkilardan xabar olgani jo‘nabdi. Soraxon o‘zi yaxshi ko‘rgan yovvoyi gullarning urug‘idan yig‘ishga majbur bo‘libdi. Farrux o‘zlarini olib kelgan samolyotning oldiga echki bolalari bilan kalla urishtirish o‘ynayotgan ekan. Samolyotning qiyg‘irnikiga o‘xshash qayrilma tumshug‘idan «qo‘rqmading, o‘zingni yo‘qotmading, endi murodingga yetasan, tayyorlan, yurtingga qaytasan» degan o‘zbekcha yoqimli ovoz eshitila boshlabdi. Farrux shoshganidan dovdirab qolibdi. Soraxon opasining oldiga yugurib borib, nima deyishni bilmay echki bolaga o‘xshab nuqul sakrarmish.

Bir nafasda hammalari yig'ilib kelishibdi. Yoqimli ovoz takror va takror eshitilarmish. Oh-oh o'sha paytlardagi ularning quvonchi-sevinchlari! Har birining yuzida bamisoli chiroyli gul ochilgandek bo'libdi. Sevinchlariga sayroqi qushlar sayrashibdi. Yaylovdagi maysalar chayqalib tabrik aytgandek bo'libdi. Lekin bolalarning o'zlari goho-goho ikkilanib qolishayotgan emish. Ketaylik deyishsa, bu yerda o'zlari kashf qilgan, o'zlari egasi bo'lgan ajoyibotlardan ko'zlari qiymas emish, qolaylik deyishsa, ota-onalarini, muzqaymoq sotadigan baqaloq xolani juda-juda sog'inishgan emish. Qiziq, shu paytda yana bir mo'jiza yuz beribdi. Samolyotchalar astasekin kengayib, kattalashib borayotganmish, xuddi kimdir puflab shishirayotganga o'xsharmish.

— Ketamiz, qadrdon uyimizga ketamiz! — baravariga qichqirib yuborishibdi. Nega desangiz shu paytda ko'zlariga bu yerdagi barcha mo'jizalardan, barcha ajoyibotlardan uylari chiroyli bo'lib ketibdi.

Ko'p narsa yig'ib qo'yishgan ekan. 21 ming xumda saryog', 14 xumda qaymoq, 31 ming donaga yaqin yog'li qurt, 3 qop quritilgan yovvoyi o'tlar, 1 qop anvoyi gullarning urug'i, echki junidan to'qilgan ko'rpa-choyshablar, chaqmoq toshlar-u sut berib ularni ochlikdan qutqarib qolgan ona echkiyu, Rasuljon minib yurgan bahaybat taka, o'rgatilgan sher bolasi... Hamma-hammasini samolyotga yuklashaverishibdi-yuklashaverishibdi. Bir kechayu, bir kunduz yuklashibdi. Oxiri tarillashdan hech to'xtamay uchishga shay turgan samolyotga chiqishib:

— Xayr, qadrdon echkilarimiz!

— Xayr, gullarga to'lgan yaylovlar!

— Xayr, ey toshlardan yasalgan uylarimiz!

— Xayr, ey o'rmondagi daraxtlar! — deyishib, goh yig'ilishib, goh kulishib uchib ketishibdi.

Samolyot tarillab, orqasidan ko'm-ko'k tutun chiqarib parvoz qilibdi. Keyin xuddi vertolyotga o'xshab goh tepaga, goh o'ngga, goh chapga uchaveribdi. Samolyotning qiyg'irnikiga o'xshash qayrilma tumshug'idan «qo'rqmading,

o'zingni yo'qotmading, dunyo mardlarniki, mana murodingga yetding» degan so'zlar tinmay eshitilaveribdi-eshitilaveribdi.

Osmon vaqti bilan necha oyu necha yil uchganlarini eslay olmabdilarku, lekin Rasuljonning parvoz mahalida 11 marta qorni ochganligini hisobga olishib, shundan parvozda qancha vaqt bo'lganlarini taxmin qilishibdi. Samolyot 12 qavatli uylarning o'rtasiga qurilgan bolalar o'ynaydigan maydonchadan ko'tarilgan ekan. Yana xuddi shu yerga yumshoqqina qo'nibdi. Soraxon, Humoyun, Rasuljon, birin-ketin sakrab pastga tushishibdi. Rulni boshqarayotgan Farrux hammadan keyin tushibdi. Qiziq, maydondagi odamlar ular osmonga parvoz qilgan mahalda qanday bahslashayotgan bo'lsa, yana o'shanday bahslashayotgan emish.

— Uchar tarelkalar o'g'irlab ketdi ularni.

— Yo'q, bilmaysan. Samolyot to'satdan uchib ketdiki, demak sehrli ekan u.

— Bo'lmagan gap, samolyotning ichida yashirincha motor bo'lgan...

Xullas, mana shunaqa pastu baland gaplar, tortishuvlar hech to'xtamasmish.

Keyin to'satdan hammalari jim bo'lishib bolalarning osmon sayohatidan sog'-omon qaytganlariga hayrat ichida tikilib jim bo'lib qolishibdi.

Nega jim bo'lib qolishdi ekan, sababiga hech kim tushunmas emish.

## QUVG'INDAGI HAYVONLAR

**Q**adim-qadim zamonlardami, o'zimiz yashab turgan shu kunlardami, baland-baland tog'lar ortidami, qalin-qalin o'rmonlar ichidami, olis-olis qishloqlardami qiziq bir voqea bo'lib o'tgan ekan.

Katta ko'chada oriqligidan 12 ta qovurg'asi shundoqqina ko'rinib turgan, quvvati yo'qligidan dumini silkitib pashshasimi qo'rishga ham holi kelmaydigan, og'ir boshini

solintirgancha, darmonsiz oyoqlarini sudrab bosib, bir ho'kiz borar ekan. U «E shafqatsiz boy. Meni o'ttiz yil ishlatding, qo'sh haydadim, arava tortdim, bug'doy yanchdim. Endi qariganimda so'yay desam go'shing yo'q, o't yeyishga tishing yo'q aravaga hushing yo'q, deb ko'chaga haydading-a, qashqirlarga yem qilmoqchi bo'lding-a», deb hasrat qilib borayotgan ekan. Ho' narida, pastlik joyda bir qari ot to'rt oyog'ini barobar uzatib, boshini maysa ustiga qo'ygancha cho'zilib yotgan emish.

— Ha, otvoy, nega yotibsan, — deb ko'ngil so'rabdi Ho'kizvoy.

— E Ho'kizvoy, aslo so'rama, — deb hasrat qilibdi Otvoy, — bir boyning uyida o'ttiz yil xizmat qildim, uloq chopdim, arava tortdim, bolalariga ermagu o'yinchoq bo'ldim. Mana endi qarib, o'rnimdan turolmay qolganimda «So'yay desam go'shting yo'q, yem yeyishga tishing yo'q, yuk tashishga hushing yo'q», deb ko'chaga haydab, meni bo'rilarga yem qilmoqchi bo'ldi.

— Xafa bo'lma, ikkovimiz bir bo'lsak bo'rilarga yem bo'lmaymiz. Yur, yaylovlarga boramiz, o'rmonlarga boramiz, barra o'tlardan yeb, zilol suvlardan ichib mazza qilib yashaymiz, — debdi Ho'kizvoy.

Ot bir amallab o'rnidan turibdi.

Yo'lga tushibdilar.

Oldinda Ho'kizvoy, orqada Otvoy borayotganmish.

To'satdan quloqlariga bemor eshakning «Ia-ia» deb ojizgina hangragani eshitilib qolibdi. To'xtab bunday qarashsa o'sgan o't-o'lanlar orasida bir eshak behol yotgan emish.

— Ha, Eshakvoy, nega yig'layapsan, — deb ko'ngil so'rabdi Ho'kizvoy.

— Qornimga emas, qadrimga yig'layapman, — deb yig'labdi Eshakvoy. — Bir boyning uyida rosa o'ttiz yil xizmat qildim, tegirmonga yuk tashidim, yelkamda xurjun, bozorlarga yuk tashidim, nabiralar galma-gal minib yelkamni yag'ir qilishdi. Oxiri qarib qolganimda ko'chaga haydashdi.

— Yig'lama, — debdi Ho'kizvoy, — dashtlarga, o'rmonlarga ketamiz. O'sha yoqlarda sen ajriqlardan yeb, biz barra o'tlardan yeb mazza qilib yashaymiz.

Ho'kiz eshakning qulog'idan, ot dumidan tortib bir amallab turg'azishibdi. Yo'lga tushibdilar.

Oldinda Ho'kizvoy, ortida Otvoy, uning ortida Eshakvoy borayotganmish.

To'satdan quloqlariga «vov-vov, vov-vov» degan och qolgan itning ovozigga o'xshash bir ovoz eshitilib qopti. Bunday qarashsa, ho' naridagi katta toshning orqasida qari bir it yotgan emish. Junlari to'kilgan, quloqlarini yara bosgan, o'zi ham o'lay-o'lay deb turgan emish.

— Ha, Itvoy, nima bo'ldi, — deb so'rabdi Ho'kizvoy.

— Men o'layapman, — debdi Itvoy.

— Nima bo'layotganini bizga aytgin, — debdi Ho'kizvoy.

— Bir boyning uyida rosa o'ttiz yil xizmat qildim, — deb gap boshlabdi Itvoy. — Qo'rg'oniga bo'rilarini yo'latmadim, ovga chiqsa, quyon ushlab berdim, urishtirishga olib chiqsa, manaman degan arslonlarni tagimga bosdim. Mana endi qarib qoldim, tishim suyakka o'tmaydi, ko'zim xira, sharpalarni sezmayman, qorovullikka yaramayman. Xo'jayinim «bor, noningni topib ye, tekinxo'rni yomon ko'raman», deb haydadi, kaltak bilan urib haydadi. Iltimos, o'lsam ustimga tuproq tortib qo'yinglar.

Bu gaplarni eshitib Ho'kizvoyu Otvoy bilan Eshakvoylarning bag'ri ezilibdi, achinib yig'lamoqdan beri bo'lishibdi. «Biz bilan ketasan. O'rmonlarga borib har xil parrandalardan tutib yeb, mazza qilib yashaysan», deya ko'tarib Eshakvoyning yelkasiga mindirmoqchi bo'lishgan ekan, Itvoy ko'nmay, «yo'q, hali uncha-muncha kuchim bor, o'zim yuraman», debdi.

Yo'lga tushibdilar.

Oldinda Ho'kizvoy, ketidan Otvoy, ketidan Eshakvoy, ketidan Itvoy borayotganmish.

Bir mahal orqalariga bunday qarashsa bir baroq mushuk oqsoqlanganча halloslab kelayotgan emish. Mana shu

mushuk Itvoy bilan rosa o'ttiz yil urishib, talashib yashagan ekan. Shunday bo'lsa ham Itvoy uni ko'rishi bilan sevinib ketibdi.

— Meni ham haydashdi, — debdi Mushukvoy yig'lab, — sichqon tutolmasang, kalamushdan qo'rqsang, kun bo'yi pishillab uxlaybersang, tur yo'qol», deb haydashdi.

Mushukvoyning ham ko'nglini ko'tarib saflariga qo'shib olishibdi.

Oldinda Ho'kizvoy, ketida Otvoy, ketida Eshakvoy, ketida Itvoy, eng orqada oqsoqlanib Mushukvoy borayotganmish.

Ko'p yuribdilar, jazirama cho'llardan o'tibdilar, sero't yaylovlardan o'tibdilar, suvi chuchuk ko'llar yonida haftalab dam olibdilar. Etlariga et qo'shib, kuchlariga kuch qo'shib, xuddi boquvda yotgandek semirib ketibdilar.

Shunaqangi ahil, bir-birlariga shunaqangi mehribon bo'p qoptilarki, it bilan mushuk uxlaganda ot uzun dumi bilan ularning pashshasini qo'rib turarkan. Eshak kasal bo'lsa ot dorivor giyohlardan chaynab berarkan, ho'kiz xuddi mehribon otadek barchasining boshini silarkan.

Cho'ponlar tashlab ketgan bir kulbani o'zlariga makon qilib olishibdi.

Bir kuni to'satdan, ha, ha, to'satdan dovul turib, sharillatib yomg'ir yog'a boshlabdi. Bu kulbani oldinroq bir bo'ri, bir tulki, ikki shoqol in qilib olishgan ekan, yomg'irdan qochib o'zlarini shu inga urishibdi. Xayriyat oqsoq mushuk qorovulda turgan ekan, miyovlab hamxonalarini uyg'otibdi.

Dahshatli olishuv boshlanib ketibdi. It tulki bilan olishayotgan emish, ot orqa oyoqlari bilan chiyabo'rilarini tepayotganmish.

Hammadan ham ho'kizga og'ir bo'пти, kirgan zahotiyoch bo'rini devorga qisib olgan ekan. Bo'ri «qisuvdan tezroq qutilib, ho'kizni yiqitsam, go'shti och qolgan bolalarimga bir hafta ovqat bo'lardi», deb intilarkan. Ho'kiz, «men uni siquvdan chiqarsam, mening himoyamda bo'lgan hayvonlarning hammasini bo'g'izlab o'ldiradi. Ularni men



boshlab kelganman, men himoya qilishim kerak», deb bo'rini devorga battarroq qisarmish.

Olishuv naq ertalabgacha davom etibdi. Ho'kizvoy, Otvoy, Eshakvoy, Itvoy, Mushukvoylar ahil, inoqliklari uchun yovuzlar ustidan g'alaba qozonishibdi. Sero't yaylovlar bag'rida bir umr rohat-farog'atda yashashibdi.

## OSMONDAN MUZQAYMOQ YOQQANKUN

**Q**adim-qadim zamondami, o'zimiz yashab turgan yorug' kunlardami, baland-baland qorli tog'lar ortidami, qalin-qalin o'rmonlar ichidami, sero't yaylovlardami, dashtu biyobonlardami, olis-olis qishloqlardami, ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan qiziq-qiziq voqealar bo'lib turarkan.

Ana shunday voqealardan biri yaqinda Yangi Tagob qishlog'ida bo'libdi. Bo'lganda ham juda qiziq bo'libdi. Hafizaxon degan qiz yoniga ukasini olib piyoz o'tayotgan ekan. Fermer onalari ham sigirini sog'ish, ham tushlikka ovqat tayyorlash uchun uylariga ketgan ekan, kun issiq ekan, juda-juda issiq ekan. Shunaqangi issiq ekanki, Hafizaxon o'zini xuddi qizdirilgan tandirning ichida o'tirgandek his qilayotgan ekan. Peshonasidan, yuzlaridan ter sharillab quyilayotgan ekan. Piyoz o'tayotgan fermerlar o'zlarini salqinga urishibdi. Hafizaxon juda rahmdil qiz ekan, yonginasida piyoz o'tayotgan ukasiga achinib, uniyam salqinga chiqarib yuboribdi. O'zim qatorimni chiqarib, keyin dam olaman, debdi. Piyoz siyrak chiqib, qalin o't bosgan ekan. O'tlarni olib tashlamasa, piyoz tub ololmas ekan, piyoz tub ololmasa mayda bo'p qolarkan, mayda piyoz bozorda yaxshi pul bo'lmas ekan, yaxshi pul bo'lmasa, ro'zg'orlari barakasiz bo'p qolarkan.

Oyijonisi, «ona qizim, ukalaring hali yosh, sendan boshqa yordamchim yo'q, yaxshi mehnat qilsak, piyozimiz yaxshi pul

bo'lsa, seni shaharga olib borib, «Shakar septi» gulli ko'ylak olib beraman, salqin xiyobonlarda ukalaring bilan o'tirib, to'ygunimizcha har xil muzqaymoqlardan yeymiz», der ekan.

Kun issiq ekan, haddan tashqari issiq ekan. Badani qizigan sari Hafizaxon «Oyijonim kelguncha, shu qatorni albatta egat boshiga chiqaraman», deb o'ylab yana ham qattiqroq ishlarkan. Xayolidan nuqul xiyobonda o'tirib muzqaymoq yeydigan kunlari nari ketmashmish, yeya boshlarmish, yegan sari badani muzlab, butun borlig'iga rohat kelarmish, voy narigi paykalda piyoz o'tayotgan o'rtoqlarimga ham bersam bo'larkan, deb o'ylarmish. Bir mahal samodan oppoq tuman paydo bo'lgandek bo'libdi. Kengayib, quyuyqlashib Hafizaxon tomonga bostirib kela boshlabdi. Tuman ham muzdekkina emish, jon rohat qilarmish. Tuman orasidan novcha bir kampir xola chiqib kelayotganmish. Kiyim-boshlari ham, sochlari ham oppoq. Xuddi nurdan yaralgandek...

— Horma, qizim! — debdi kampir xola.

Hafizaxon javob qaytara olmabdi, dovdirab qolibdi.

— Qo'rqma, qizim, — debdi kampir xola.

Hafizaxon qo'rqmas qizlardan ekan, asta-sekin o'zini o'nglab ola boshlabdi. Qiziq, kampir xola bir qarasa, o'zining olamdan o'tgan buvijoniga o'xshab ketarmish, yana bir qarasa, qo'shnilari Niyoz ammaga juda-juda o'xshab ketarmish. Kampir xola yaqin kelib Hafizaxonning qizib turgan boshidan, ter quyilib kelayotgan peshonasidan yumshoq-yumshoq silay boshlabdi:

— Shirin qizim, shakar qizim, muzqaymoq yeging kelayaptimi? — deb so'rabdi.

Yo tavba, ovozi ham olamdan o'tgan buvijonining ovozigaga juda-juda o'xshab ketarmish.

— Ha, yegim kelayapti, — deb javob qaytaribdi Hafizaxon.

— Rost gapirganing uchun sendan xursand bo'ldim, — debdi nuroniy xola.

— Chindan ham yegim kelayotuvdi-da, — debdi Hafizaxon.

— Bir chelak muzqaymoq bersam hammasini yeb olarmiding? — yana so‘rabdi nuroniy xola.

— Yarmini ukalarimga, yarmini u narigi paykalda piyoz o‘tayotgan o‘rtoqlarimga berardim, — debdi Hafizaxon.

— O‘rtoqlaring ko‘pmi?

— Juda ko‘p.

— Ikki chelak muzqaymoq bersam-chi?

— Qishlog‘imizdagi hamma qizlarga ulashardim.

— Qizginam. O‘zing saxiy, niyating yaxshi, maqsading ulug‘ ekan. Yaxshi niyatlarni Olloh qo‘llab-quvvatlaydi. Sen ham niyatingga yetasan.

Hafizaxon, endi o‘zini butunlay tutib olibdi. Nuroniy xola nimani o‘rgatsa, o‘shani takrorlay beribdi. Nuroniy xola goh o‘ng qo‘li bilan, goh chap qo‘li bilan g‘alati-g‘alati ishoralar qilarmish. Osmondan ketma-ket sirli aravacha tushib kela boshlabdi. Aravachaga sirli qutichalar yuklanganmish.

Nuroniy xola yana qo‘llari bilan sirli harakatlar qila boshlabdi. «Bu harakatlarni sen ham takrorla» debdi Hafizaxonga. Hafizaxon takrorlabdi.

— Harakatlarni yodingda olib qoldingmi? — deb so‘rabdi nuroniy xola.

— Yodimda olib qoldim, — debdi Hafizaxon.

— Hushyor qiz ekansan, — deb maqtabdi nuroniy xola.

— Xolajon, siz sehgarmisiz? — deb qo‘rqa-pisa so‘rabdi Hafizaxon.

— Men yaxshi qizlarning orzusiman! — debdi nuroniy xola.

— Qani men o‘rgatgan harakatlarni takrorla-chi. Hafizaxon nuroniy xola o‘rgatgan harakatlarni takrorlabdi. Avval osmondan uch g‘ildirakli aravacha tushibdi. Aravacha ichidan ikki quti muzqaymoq chiqibdi. To‘satdan nuroniy xola g‘oyib bo‘lib qolibdi. Hafizaxon qutichalardagi muzqaymoqlardan birini yeb ko‘rgan ekan, yo tavba, rostmana muzqaymoqdan hech qolishmash. Demak, tush ko‘rayotganim yo‘q ekan, hammasi o‘ngimda bo‘layotgan ekanda, deb o‘ylabdi Hafizaxon. Muzqaymoqdan yana bitta yeb ko‘ribdi, voy, bunisi oldingisidan ham mazaliroq emish. Aravachani uchirib,

daraxtlar ostida uxlab yotgan ukalarining oldiga olib boribdi. Bir chelak muzqaymoq chiqarib, ukalariga bittadan ulashibdi. Ular muzqaymoqni yeb bo'lishib, «yana, yana» deb so'rarmish. Hafizaxon, demak tushim emas, o'ngim ekan, deb o'zida yo'q sevinib, g'ildirakli aravachasini uchirib, narigi paykallarda sabzi, piyoz o'tayotgan o'rtoqlarining oldiga jo'nabdi. O'rtoqlari isib ketgani uchun ishni to'xtatib, katta tollarning soyasida salqinlashib, bir-birining qoshiga o'smalar qo'yishib, bir-birining biqinidan chimdalashib, qiqirlashib, kulishib dam olishayotgan ekan, Hafizaxonga ko'zlari tushishi bilan:

— Voy o'rtoqjon, qayoqdan paydo bo'lding? — deb chuvillashibdi.

— Osmondan tushdim, — debdi Hafizaxon. — Sizlarga muzqaymoq olib keldim.

Qizlar:

— Hammasi bizlargami? — deyishibdi-yu, o'sma siqib o'tirgan piyolalarini har tomonga otishib, chelakdagi muzqaymoqlarga yopishibdi. Chelak ham sehrli ekanmi, yeyisharmish, tagi ko'rinmasmish, yeyisharmish, tagi hech tugamasmish. Tinmay saxiy, saxovatli dugonalarini maqtasharmish. Hatto bittasi: «Hafizaxon, xudo xohlasa, to'yingda tong otguncha childirma chalib, hammani o'ynataman», deb muzqaymoq yuqi lablari bilan betlaridan cho'lpillatib o'pib-o'pib olibdi.

O'sha kuni Hafizaxon qishloqning dasht qismidagi barcha bolalar, qizlarni muzqaymoqqa rosa to'ydiribdi. O'sha kundan boshlab uch g'ildirakli sehrli aravacha, osmondan tinmay yog'ilib turgan muzqaymoqlar haqidagi ovozarlar, mish-mishlar qishloqdan-qishloqqa o'tib, ko'cha beribdi. Har xil taxminlar ham ko'paya beribdi, nima deysan Hafizaxonning onasi osmonda yashirincha muzqaymoq sexi ochibdi, nima deysan, osmondagi farishtalar Hafizaxonning uyiga chelak-chelak muzqaymoq tashlab ketayotganmish, nima deysan, uchar likopcha odamlari kelib, qishloq bolalarini o'zlariga o'rgatib olish uchun sehrli muzqaymoqlar

ulashayotganmish. Xullas, mana shunaqa gaplar ko'paygandan ko'payaveribdi. Tuman ichki ishlar bo'limida g'oyat hushyor, g'oyat ziyrak, g'oyat tadbirkor amakilar ishlar ekan. Ular tezlik bilan ishga kirishib, muzqaymoqlardan namunalar olib, analiz qildira boshlashibdi. Hech kamchilik topisholmabdi. Shahardagi sexlarda tayyorlanadigan muzqaymoqlarga qaraganda qaymog'i ham, shakari ham mo'loq emish. Hatto, boshliq o'sha muzqaymoqlardan bittasini yeb ham ko'ribdi. Yo'q, kamchilik topolmabdi. Lekin Hafizaxonni so'roq qilib ko'ribdi:

— Sexim yo'q, — deb javob qaytaribdi Hafizaxon.

— Muzqaymoqlarni qayerda tayyorlaysan? — so'rabdi amaki.

— Osmonda tayyorlanadi, — debdi Hafizaxon.

— Yolg'on gapirma, osmonda bulutdan boshqa hech narsa bo'lmaydi.

— Bor, — debdi Hafizaxon. — O'sha yerda menga o'xshagan qizlarning yaxshi niyatlari, pokiza orzulari, bitmagan orzulari bo'ladi.

Shu gaplarni aytib Hafizaxon qo'llari bilan nuroniy xola o'rgatgan g'alati-g'alati harakatlarni takrorlagan ekan, osmondan shokoladli, mevali, sutli muzqaymoqlar shunaqangi yog'ilibdiki, kuzatib turgan odamlar hang-mang bo'lib qolishibdi. Militsioner amaki insofli, ham adolatli ekan. Hafizaxonning harakatida jinoyat belgisi yo'q, yaxshisi bu ishni «Koinot» ilmiy tekshirish instituti o'rgansin, degan qarorga kelibdi. Hafizaxon hadya qilgan bir chelak muzqaymoqni olib, «ha, mayli, nabiralaringa berarman» deb iliqqina xayrlashib ketibdi.

Odamlarning aytishicha, osmondan muzqaymoq yog'ilishi haligacha to'xtagani yo'q emish. Muzqaymoq qancha ko'p yog'ilsa, dashtda ishlayotgan o'g'il-qizlar shunchalik xursand bo'larmish.

## BIRINCHI RIVOYAT

### Ota tarbiyasi haqida

↑ ilada o'g'il ulg'aya boshlabdi, o'n to'rtga kiribdi, o'n beshga kiribdi, ha ana o'n oltiga ham kiribdi. Lekin o'yindan bosh ko'tarmas emish, uy ishlariga qarashmas emish. Ona ish buyursa, «o'zing qilaver» dermish, ota ish buyursa, «vaqtim yo'q» dermish. Yana tag'in taomning eng lazzatlisini so'rarmish, kiyimning eng tozasini kiyarmish.

Ota-onaning boshi qotib qopti, «nima qilsak, o'g'limizni mehnatga o'rgatamizu, nima qilsak halol yeyishni o'rgatamiz» deb o'ylashibdi. O'g'illarini mashhur bir kosibga berishkan ekan, kosibning qo'lida rosa bir oy ishlagan bo'ptiyu, ammo qo'lini ishga urmabdi, biror narsa o'rganay ham demabdi. Kosib otasining qadrdoni ekan, uyiga quruq bormasin deb qo'lga anchagina pul beribdi. Bola uyiga kelib, «ota, mana ishlab keldim» deb pulni otasiga bergan ekan, hamma gapdan xabardor ota pulni olib olovga tashlabdi. Pul yonayotgan emishu, bola jimgina tomosha qilib turgan emish.

Ota endi o'g'lini qattiqqo'lroq oshnasining qo'lga topshiribdi. Bir oydan so'ng o'g'il pul olib qaytibdi. Hamma gapdan xabardor bo'lgan ota pulni olib olovga tashlabdi. Pul o'choqda yona boshlabdi. O'g'il pulning yonishini tomosha qilib turganmish.

Ota darg'azab bo'pti. O'g'lini qo'lidan yetaklab yana ham qattiqqo'lroq, yana ham talabchanroq bir oshnasiga olib borib, «suyagi meniki, eti sizniki» deпти. O'sha oshnasi chindan ham qattiqqo'l, bir so'zli inson ekan, bolani asta-sekin ishga o'rgatibdi. Loy qilishni o'rgatibdi, g'isht quyishni o'rgatibdi, ustaga g'isht uzatishni ham o'rgatibdi. Nihoyat bir oy deganda uyiga qaytayotgan ekan, qo'lga ancha-muncha pul ham beribdi. O'g'il pulni otasiga uzatgan ekan, otasi pulni olib lovillab yonayotgan olovga tashlabdi. O'g'ilning jon-poni chiqib ketibdi, yugurib borib, olovni o'chirib, u yoq-bu yog'i

kuygan pullarni puf-puflab, bag'riga bosayotgan emish. «Nega unday qildingiz, nega?», — deb depsinarmish.

— Xayriyat, — deb o'ylabdi ota, — o'g'lim mehnat qilishni o'rganibdi, halol pul topishni o'rganibdi.

O'sha kuni ushbu xonadonda xursandchilik bo'пти.

## IKKINCHI RIVOYAT

↑  
ilada o'g'il katta bo'libdi, voyaga ham yetibdi. Lekin qaysarroq, nopisandroq bo'lib o'sibdi. Otasi biror narsa o'rgatsa, «O'rgatmang, buni sizdan yaxshiroq bilaman» derkan. Onasi nasihat qilmoqchi bo'lsa «E, xotin kishining gapini xushlamayman» derkan. Shunda otasining jahli chiqib, «Sen baribir odam bo'lmayсан» derkan.

Yillar o'tibdi. O'g'ilning ishlari rivojlanib, gurkirab o'sibdi, qo'sha-qo'sha imoratlar ham quribdi, keragidan ortiq boylik ham to'plab olibdi. Bir kuni to'satdan otasining «Baribir odam bo'lmayсан» degan alamli gaplari esiga tushib qolibdi. «Borlaring, otamni olib kelling», deb buyuribdi. Keksayib, munkayib qolgan otasini oyog'ini yerga tegizmay olib kelibdilar. Ota kelib qarasa, o'g'li uyning to'rida beku bekdalarddek savlat to'kib o'tirganmish.

— O'tiring, — debdi otasiga. — Esingizdami, menga doim odam bo'lmayсан, odam bo'lmayсан, derdingiz. Mana, dang'illama uylar, xizmatkorlar, boylik. Demak, odam bo'libmanda, gapingizni qaytib oling.

— Yo'q, — debdi Ota o'rnidan turib, — sen baribir odam bo'lmasan. Odam bo'lganingda, otangni qarollar orqali olib kelmay, o'zing oldiga borgan bo'larding.

Ota shunday deb etagini qoqib uydан chiqib ketibdi.

## MEHNATIM — BEMINNAT NONIM

**B**ir yurt odamlari behad darajada qashshoq, ochu nahor yasharkan. Yer haydarga qo'shi yo'q, icharga oshi yo'q, ishlashga hushi yo'q ekan. Olloh marhamat qilib, bu yurtga uchta esli-hushli, qo'lli-oyoqli ham tadbirkor odamlarni yaratib beribdi.

Bu kishilardan biri baliqchilikni o'rganibdi, ikkinchisi bog'bonlikni o'rganibdi, uchinchisi chorvadorlikni o'rganibdi. Har bittasi o'z sohasida nom chiqaribdi, yurtga yetishtirgan mahsulotlaridan ozmi-ko'p berib, ularni oyoqqa turg'iza boshlabdi. Lekin qishloq ahli dangasa, ham tanbalroq ekan, tilanchilikni yaxshi ko'rarkan.

Bir odam baliqchining oldiga, ayniqsa, ko'proq borarkan. «Bolalarim och, yegani hech narsa yo'q» deb hasrat qilarkan. Baliqchi tutgan balig'idan bir beribdi, ikki beribdi, uchinchi berganda, «Yo'q, endi senga baliq bermayman, baliqni qanday tutishni o'rgataman», debdi. To'r to'qishni, to'r tashlashni, po'kak bog'lashni o'rgatibdi. «O'rgansang tilab yeyuvchi emas, tutib yeyuvchi bo'lasan», debdi. Yigit hushyorgina ekan, bir yilda baliq tutishni o'rganib olibdi. Oilasi ma'murchilikda yashay boshlabdi.

Bog'bonning oldiga bir tilanchi «Uzum bering, olma bering», deb ko'p borarkan. Bir kuni bog'bon «Yo'q endi senga mevamdan bermayman, tilab yeyishni emas, silab yeyishni o'rgataman», debdi. Har gal borganda yo olmaning, yo shaftolining ko'chatidan berib, «Yaxshilab ek, silab-siypalab o'stir», derkan. Ko'chatlarni qanday parvarish qilishni o'rgatib turibdi. Yillar o'tishi bilan nihollar shig'il hosilga kiribdi. Bu yigit ham bola-chaqasi bilan mevalar chevalardan yeb, ortganini sotib, ro'zg'orini tiklab olibdi.

Uchinchi kishiga Olloh chorvadorlikni yuqtirgan ekan. Qo'y boqarkan, echki boqarkan, bola-chaqasi bilan sut-qatiqlarni ichib, ortganini sotib turarkan. Ammo ozgina sutmi, qaymoqmi so'rab tilanib boruvchilar tinchlik bermas ekan. Bir berarkan, ikki berarkan, beraverib joniga tegib



ketarkan. Bir kuni qatiq so‘rab katta tovoqni ko‘tarib borgan yigitni to‘xtatib, «tilab ichuvchi bo‘lma, sog‘ib ichuvchi bo‘l», debdi. Bir echkinging bolasini berib «shuni parvarish qil, suyib yunglaridan sila. Katta bo‘lib tug‘ib bersa, birovlarining uyiga borib tilanchilik qilib yurmaysan. O‘zing sog‘ib ichasan» debdi. Echki bolasini parvarishlab bolasini yaxshi boqibdi. Olti oy deganda echki tug‘ib ham beribdi. Echki sutini ichaverib bolacha-qalari bilan semirib ham ketishibdi.

Shunday qilib, Ollohning marhamati bilan uch tadbirkor yigit tufayli och-qashshoq yurtda baliqchilik deysizmi, chorvachilik deysizmi, bog‘dorchilik deysizmi, — hamma-hammasi rivojlanib, odamlari ma‘murchilikda yashay boshlashibdi.

## ONA ALLASI

### *Ona haqida rivoyatlar*

**Q**adim-qadim zamonlarda baland-baland qorli tog‘lar ortidami, yashil yaproqlari hamisha shovullab turadigan qalin-qalin o‘rmonlar ichidami, yam-yashil o‘tlar bilan qoplangan yaylovlardami, poyonsiz cho‘llar ortidagi katta-kichik qishloqlardami hamisha g‘alati-g‘alati voqealar bo‘lib turarkan.

Yurtda boshlangan ocharchilik ana shu qishloqlardan biriga ham yetib kelibdi. Shunaqangi qattiq ocharchilik bo‘libdiki, odamlar yeyarga hech narsa topolmaganidan ajriqning tomirini qaynatib ichishibdi, sholining to‘ponidan non yopib yeyishibdi. Tinkasi qurigan odamlar birin-ketin omonatini topshira boshlabdi. Xudoning marhamati bilan qishloqqa don bilan savdo qiladigan bir allof kelib qolibdi. Puli bor puliga, puli yo‘q moliga don sotib ola boshlabdi. Bu qishloqda bir xarob oila ham bor ekan, otasi olamdan o‘tib, mayibroq ona besh bolasi bilan qolgan ekan. Ona behol ekan, o‘rnidan turolmas ekan. Besh bolasi birdan «non ber», deb

yig'lar ekan. Oilaning katta qizi endigina 16 yoshga kirgan ekan, ukalariga o'sha qarab turarkan. Qizgina bir mis choynagu to'rttagina chinni kosani olib, borib bir qopgina bo'lsa ham yo bug'doy, yo unga almashtirib bering deya savdogarga murojaat qilibdi. Murojaat qilayotganda epkin bir shamol kelib qizning yuzidagi harir ro'molni uchirib yerga tushiribdi. Savdogar yigit qizning gul yuziga ko'zi tushishi bilan bir daqiqa dovdirab qolibdi. Yana bir shamol turishini Ollohdan so'rabdi. Epkin shamol qizning harir ro'molini yana uchiribdi, endi yigitning qalbi yonib ketgandek bo'libdi. Ollohning menga buyurgani shu bo'lsa kerak, deb qizga sovchi ustiga sovchi qo'yibdi.

— Dod, — debdi onasi, — axir menga, ham ukalariga qarab turgan shu qizgina-ku. Bu ketsa biz xarob bo'lamiz, — debdi.

Savdogar «Oilangizga besh yilga yetadigan don-dun beraman», debdi. Qiz ham ukalarini, ham onasini ochlikdan qutqarish uchun begona eldan kelgan savdogarga erga berishini so'rab onasiga yolvoribdi va ko'ndiribdi. Ona rozi bo'libdi. «Lekin bir sharti bor», debdi. «Shartingizni ayting», debdi qiz ham yig'lab.

— Begona ellarga ketayapsan, olis ellarga ketayapsan, qaytishingni xudo biladi. Baxtli bo'l, saodatli bo'l. Xudo xohlasa, farzandlar ham ko'rasan. Agar farzand ko'rsang, alla aytmagin. Qani, menga alla aytmayman, deb va'da berginchi.

— Alla aytmayman, onajon, — debdi qiz.

— Yana takrorla, — debdi ona.

Qiz «alla aytmayman», — deb uch bora takrorlabdi.

Shunday qilib, qiz begona ellarga kelin bo'lib ketibdi. Majruh ona savdogar yigit qoldirib ketgan don-dunu, boshqa boyliklar bilan o'zi ham oyoqqa turibdi, farzandlarini ham boqib katta qilib olibdi. Begona ellarga kelin bo'lib ketgan qizgina ham o'sha yigitning tilini, urfu odatini o'rganib totuv turmush kechira boshlabdi. Olloh ularga ham qo'sha-qo'sha farzandlar beribdi. Qiz onaizorining iltimosini yodidan chiqarmabdi, hech biriga alla aytmabdi, alla aytmay katta qilibdi.

Nihoyat yillar o'tib, qarib, buvi ham bo'libdi. Qo'sha-qo'sha nabiralari ko'ribdi. Bir kuni yaxshi ko'rgan nabirasini tizzasiga olib, to'lg'onib, chayqalib alla ayta boshlabdi. Onaizorining so'nggi so'zini butunlay unutib, onasi aytgan alla so'zlarini yodida saqlab qolgan ekan, ana o'shalarni takrorlab, og'ir, g'amgin ohangda kuylay boshlabdi. Kuylar emish, yig'lar emish. Kuy ohangi qalbidagi sog'inch hislarini to'lqinlantirib yuboribdi. Majruh onasi, orqasidan yig'lab qolgan ukalari ko'z o'ngidan o'ta boshlabdi. Kuy avjiga chiqqan sari birga o'ynab katta bo'lgan dugonalari, anhorlarda bir-birlariga suv sochib cho'milganlari, hovlilari ortidagi keng yaylovda gurkirab o'sadigan o't-o'lanlar, qishlog'idagi tor ko'chalari, soya-salqin maydonlar, to'ylarga borgani, rahmatli dadasi tirikligida, yelkasiga minib bozorga borgani, dadajonisi popukli zar do'ppi olib bergani esiga tushibdi. G'amgin kuy avjiga chiqqan sari buvining bolaligi, butun qishlog'i bor go'zalligi, latofati bilan ko'z o'ngidan to'lqin-to'lqin bo'lib o'ta boshlabdi.

Kuy goh kuchayib, goh pasayib borarmish. Kuy sehriga mahliyo bo'lgan ona dod solib hovliga chiqib ketib, «Ketaman, qishlog'imga ketaman», deb faryod solibdi.

Boshqa nabirasini ovuntirib o'tirgan bobo gap nimadaligini tushunib kampirini yupatibdi. Ona allasida, uning goh quvonchli, goh g'amgin to'lqinlarida insonning butun borlig'i, ruhiy dunyosi aks etishini tushunibdi. «Onang alla aytsang, meni tashlab ketib qolishingdan qo'rqqan ekan. Yur, kech bo'lsa ham ona yurtingga borib, bolaliging bilan qayta ko'rishib kelaylik», deb tuyalarga don-dun, sovg'a-salomlar ortib yo'lga tushibdilar.

## *TUYAKASHNING DA'VOSI*

**Q**adim zamonlarda bir tuyakash yashagan ekan. Keng sahrolar, poyonsiz cho'llar, o'rkach-o'rkach qum barxanlari uning vatani ekan. Tuyasi karvonlarning yukini tashib

berarkan. Bergan pullari ro'zg'origa madad bo'larkan, tuyasi har ikki yilda bir bora tug'ib berarkan, suti tuyakashning bolalariga ovqat bo'larkan. Butun oilaning ovunchog'i ham shu tuya ekan.

Kunlarning birida tuya yo'qolib qopti. Tuyakash iztirob chekib, uni izlab keng sahrolarni, poyonsiz cho'llarni, o'rkach-o'rkach qumlar ortini ho'p axtaribdi. Tuyasidan darak bo'lmabdi. Karvonsaroylarga boribdi, saroybonlardan so'rabdi, «Ko'rganimiz yo'q» deyishibdi. So'roqlab qishloqdan-qishloqqa o'tibdi, molbozorlarga boribdi. Qassobxonaga duch kelib qolibdi. Qarasa, har xil go'shtlar ilingan emish. Sinchiklab qarab, to'satdan tuyasining go'shtini tanib qolibdi. Qanoradagi go'shtni yulib olib, bag'riga bosib, «bu mening tuyamning go'shti, meniki, meniki», deya dod solibdi. Qassob uni urib haydamoqchi bo'lgan ekan, battarroq dodlabdi. Olomon to'planibdi, gap-so'z ko'payibdi, birov tuyakashning yonini olibdi, birov qassobning yonini olibdi. Shunda aqlli bir odam «Yaxshisi, yurt qozisiga murojaat qilish kerak» degan gapni aytibdi. Bu fikr ikkiga bo'linib, talashib- tortishayotgan odamlarga ma'qul bo'libdi. Odamlar gurullab qozining huzuriga jo'nashibdi. Qozi tuyakashdan «Hayvonlarni goho tirikligida tanish qiyin bo'ladiyu, sen qanday qilib, shu go'shtlar tuyangniki ekanligini bilding. Da'vongni isbotla, bo'lmasa besh darra urishga buyuraman», debdi.

— E taqsiri olam, — debdi tuyakash, — mening tuyam urg'ochi edi. Uch marta bolalagan edi. Suvsiz, yantoqsiz sahroda har bir bolasini yalab-yulqab katta qilguncha adoyi tamom bo'lardi. Jigaridan qonlar oqib teshikcha hosil qilardi. Ana qarang, jigarida uchta teshik bor.

Tuyakash jigarni boshi uzra baland ko'tarib, undagi teshiklarni ko'rsatibdi.

Yurt qozisi qassobga «Sen tuyani qayerdan, kimdan olgansan. Rost so'zla, yolg'on so'zlasang, besh darra urishga buyuraman», debdi.

— E taqsiri olam, — deb gap boshlabdi qassob, — kecha kechasi bir kishi eshigimni qoqdi. Ochsam, novcha bir odam tuya yetaklab turibdi. Shuni oling, qancha bersangiz ham roziman, shoshib turibman, dedi. Ollah guvoh, men tuyani yarim bahosiga sotib oldim, — debdi.

Tuyakashning da'vosi isboti bilan ekanligini aqlli, donishmand qozi darrov fahmlabdi. Ha, onalar bolalarini katta qilguncha goho adoyi tamom bo'ladilar, xunob bo'ladilar, jigarlariga teshik tushadi, deb o'ylabdi. Qassobga «Go'shtni sen ol, tuyakashga bir urg'ochi tuya olib berasan», deb buyuribdi.

To'planganlar yurt qozisining hukmidan rozi bo'lishibdi.

## UCH SAYYOHNING SAFARI

**Sh**unday qilib, bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda Arabiston tomonda uch sayyoh keng jahonning tor ko'chalaridan o'tib, yaxshi-yomonni ko'rish umidida ko'p yaxshi niyatlar bilan safarga chiqqan ekanlar. Yo'l yuribdilar, yo'l yursalar ham mo'l yuribdilar. Bir mahal yo'llari pastu baland adirlar o'rtasiga to'g'ri kelib qolibdi. To'rt tomonda osmono'par baland-baland tog'lar bor ekan. Bunday qarashsa, ey xudoyimey, haligi tog'lar o'rnidan qo'zg'alib, qasur-qusur deya vahimali ovozlari chiqarib sayyohlar to'rt tomondan o'rab, qisib kelayotgan emish. Na qochishning, na qutilishning iloji bor emish. Shunda uchovlari ham Ollohga xush keladigan ishlarini eslashibdi. O'sha sa'yi harakatlarimiz Yaratganga ma'qul kelsayu, ushbu baloni o'zi daf qilsa, deya xotiralaridan o'tgan voqealarni bir-bir eslay boshlashibdi. O'shalarni aytib, taqdirlarini Ollohga topshiribdilar.

Birinchi sayyoh ko'p faqiru haqir ekan. Uch bolasi, xotini va bir qari kasalmand bo'lib butunlay yotib qolgan otasi bor ekan. Xo'p kambag'al ham ekan. Bisotlarida bor-yo'g'i bir sog'in echkilari bor ekan. O'shaning sutini ichib kun o'tkazar ekanlar. Xotini har kuni echkini sog'ib, tovoqdagi ko'piklab

turgan iliqqina sutni kasalmand otasiga tutib, oldidan siz iching, rozi bo'lganingizdan so'ng nabiralaringizga beraman, der ekan, har kuni shunday qilar ekan. Otasining kasali og'irlashib, besh kun behush bo'lib yotib qolibdi. Nihoyat bir kuni ko'zini ochsa, sut to'la tovoqlar tokchada qator terilib turgan emish, ie, o'g'lim, nega sutni ichmadilaring? Nega nabiralaringizni och olib o'tiribsizlar, desa, o'g'li, ey otajon, ey padari buzrukvorim, ota rozi, xudo rozi deganlar. Oldidan bir ho'plamdan bo'lsa ham roziligingizni aytmaguningizcha sutlarni to'xtatib turibman, debdi. Minnatdor otaning xira ko'zlariga marjon-marjon yosh kelibdi. Kosadagi serqaymoq sutlardan bir ho'plamdan ichib, farzandi, nabiralari, ayniqsa, mehribon kelinidan mingdan bir rozi ekanligini takror-takror aytib, qazo muddati yaqinlashib qolgan ekan, o'sha zahotiy oq omonatini topshiribdi.

Sayyoh shu voqeani eslab, ey parvardigor, ey yaratgan egam, otamni qo'limdan kelganicha rozi qildim, o'zing guvohsan, zero, bu harakatim senga maqbul bo'lib, o'zing yuborgan ushbu ofatni yana o'zing daf qilsang, deya tavallo qilibdi.

Tog'lar vahimali ovozlari chiqarib, qasir-qusuriga olib, siljib kelayotgan emish. Ikkinchi sayyoh nomdoru qudratli bir bekning yakkayu yagona o'g'li ekan. Qo'l uzatsa, osmonga yetadigan qudrati, behisob imkoniyati bor ekan. Uning bir beva ammalari bo'lib, bevaqt vafot qilgach, undan bir qiz qolgan ekan, yigit ana shu yetimcha qiz bilan tepkilashib katta bo'lgan ekan. Qiz Ollohning marhamati bilan asta-sekin kamolga yeta boshlabdi. O'n olti yoshga yetganida xudoi taolo unga tengsiz husn, nozik did, beqiyos aqlu, beqiyos latofat ato qilibdiki, uning ovozi butun poshsholikka tarqalib ketibdi. Manman, degan sultonlardan, xonlarning erkatoyi o'g'illaridan sovchilar kelarmish, bek yigitning otasi shunday go'zal parivashni, shunday oqila jiyanini begonaga bergandan ko'ra o'z saroyimning guli, gultoji bo'lib qolsin deya o'z o'g'liga nikohlab bermoqchi bo'пти. Axir begona emas, o'z singlimning bolasi-ku, degan gaplarni ham aytibdi. To'yni

boshlab yuboribdilar. Qirq kechayu qirq kunduz kambag'allarga osh-non, to'qlarga to'n beribdi. To'y tugabdi, nikoh o'qilibdi. Mehmonlar tarqagach, yigit shohona yasatilgan go'shangaga kirsam, zaru kimxoblarga o'ralgan qiz tizzasini quchgancha yum-yum yig'lab o'tirgan emish. «Ey, dilbarim, – deya murojaat qilibdi kuyov yigit, – bugun ikkimizning eng baxtli, eng saodatli daqiqalarimiz, o'ynab-kulish, xursandchilik qilish o'rniga nega bu ahvolda yig'layapsiz?» «Ha yig'layapman, – debdi qiz ko'z yoshlarini artib. – To'g'ri, siz mamnunsiz, demak, baxtiyor hamsiz, ota-onalaringiz ham mendek himoyasiz, chorasiz qolgan yetim qizdan bir og'iz roziligini so'ramadilar, so'raganingiz uchun endi ochig'ini aytay. Men o'zim tengi bir yetim yigitga ko'ngil qo'ygan edim, yigit ham menga ko'ngil bergan edi. Bir yaylovda birga o'sganmiz, turmush qurishga ahdu paymon ham qilgan edik. Hozir o'sha bechora yigit tog'u toshlarga boshini urib, yig'lab yuribdi. Men nechun yig'lamay, siz baxtlisiz, men esa dunyodagi eng baxtiqaro qizman. Yig'lab-yig'lab o'tsam kerak bu dunyodan».

Bek yigit ham adolatli, ham mard insonlardan ekan. Qizning ahvolini tushunibdi, unga rahmi kelibdi. Dilbarim, hozir sizni taloq qilib, sahrodagi o'sha cho'pon yigitni oldirib kelib, sizni unga nikohlab bersam o'zingizni baxtli hisoblarmidingiz, deb so'rabdi qizdan. Ha, ikkimiz umrbod sizning haqqingizga duo qilardik, debdi qiz. Mardlarni so'zi bitta bo'larkan. Sahrodan faryod chekib yurgan yigitni oldirib kelib, ko'pchilik oldida qizga taloq xatini berib, o'sha kuniyoq qiz bilan yigitning nikoh to'ylarini ham o'tkazib beribdi.

Bek yigitning ko'nglidan ana shu gaplar o'tgach, e Xudo, e Parvardigori olam, o'zing bir g'aribning ko'nglini ovlasang, ming savobning xosiyatini beraman degan eding. Mening ushbu qilmishim, zero, senga ma'qul kelgan bo'lsa-yu, ushbu falokatni o'zing daf qilsang, deya iltijo qilibdi.

Tog'larning bostirib kelishi hali to'xtagani yo'q ekan, juda-juda yaqinlashib qolgan ham emish. Shu daqiqalarda uchinchi sayyohning ham ko'nglidan yaxshi bir amali o'tibdi. Bu

sayyoh mamlakatning eng katta boylaridan ekan. Qiru adirlarda lak-lak qo'yu echkilari, yaylovlarda behisob quyurlari boqilarkan. Shaharlarda qator-qator savdo rastalari bor ekan. Olis yurtidan ish axtarib kelgan bir yigitni cho'ponlik xizmatiga olib, yiliga o'n tilla tangayu, besh urg'ochi qo'y berishga kelishib olishgan ekan. Yigit halol, xudojo'y, mehnatsevar ham ekan. Besh yil yaxshigina ishlabdi, bir kun boyning yoniga kelib, otaxon, endi menga javob bering, yurtimga ketay, tushlarimga otam bilan onam kirib, o'g'ilginam, qayerlarda qolding, seni behad sog'indik, deya yig'lashyapdi, debdi. Boy yigitga xursandchilik bilan javob berib, shartlashgan puli bilan qo'ylarni ham ajratib beribdi. Yigit pulni olib, beliga tugibdi-yu, bu qo'ylarni men sahroyu biyobonlardan, suvsiz cho'llardan haydab o'tolmayman, baribir nobud bo'ladi, deya hammasini tashlab ketibdi. Kunlardan bir kun boy yigitni olis yurtiga ziyoratga borib, oq tuyasini minib, shahar bozorini aylanib yurgan ekan, hammollikka chiqib, qo'lida arqon, ish so'roqlab xomush o'tirgan bir yigitni ko'rib qolibdi. Yigit o'sha o'zining qo'ylarini boqqan cho'pon ekan. Rangi siniqqan, kiyim-boshlari ham bir ahvolda, boshi g'amgin egilgan holda o'tirganmish. Boy tuyadan tushib, ko'rishib, hol-ahvol so'rabdi. Ey boy ota, debdi yigit, huzuringizdan qaytsam, otam bechora olamdan o'tib, qo'li katta onam uni qarzga ko'mgan ekan. Bergan pullaringizni otamning ruhi, arvohi chirqillamasin deb, onamning qarziga berdim. Ketidan kasalmand onam ham bandalikni bajo keltirdi. Arvohi armonda qolmasin deya, kichikkina kulbamni sotib, marhumning ham dafn marosimlarini eldan yuqoriroq qilib o'tqazdim, mana ko'rib turganingizdek, musofirlikda yashayapman. Kunim baholi qudrat o'tib turibdi.

Ey o'g'lim, o'rningdan tur, debdi, boy ota, sen bu yurtning eng katta boylaridan hisoblanasan. Esingdami, qaytayotganingda bir necha qo'ylaringni tashlab ketgan ekansan, men buni sen ketganingdan keyin bilib qoldim. Bildimu, darhol ularni qo'radan ajratib, alohida bir cho'pon



tainlab qo'ydim. Qo'ylaring ko'payib – ko'payib, hozir bir necha mingdan ham oshib ketgan. Hozir men bilan birga borib, ularni qabul qilib olishing kerak. Toki men dunyodan o'tsam, Xudoga shukur, yetimning haqqini yemadim-ku, deya mamnun bo'lib ketay. Shunday deb boy ota yigitni, o'zi bilan birga olib ketibdi. Yigit borsa chindan ham, o'ziga tegishli qo'ylarning hisobi yo'q emish. Bir emas, bir necha cho'pon boqayotgan emish. Yigit ularning haqlarini ajratib beribdi. Yarmini pullab o'zi yashayotgan shaharda shohona bir hovli sotib olibdi-da, shu yurtning go'zal qizlaridan biriga uylanibdi.

Boy otaning xotirida shu voqealar jonlangach, ey Xudo, ey Yaratgan Egam, o'zing-ku, bironing haqqini yemasang, hamisha diling pok, mushkuling oson bo'ladi der eding. Zero, mening ham ushbu harakatim senga ma'qul bo'lib, mushkulimni oson qilsang, o'zing yuborgan baloni o'zing daf qilsang, deya Yaratganning o'ziga qayta-qayta tavallo qilibdi va shu asnoda mo'jiza ham yuz bera boshlabdi. Hamma narsa Yaratganning ixtiyorida ekan, vahshat bilan siljib bostirib kelayotgan bahaybat tog'lar to'satdan joyida to'xtab, yana avvalgidek qasir-qusur ovoz chiqarib, asta-sekin orqasiga chekina boshlabdi. Ko'z yumib-ochguncha yana sayyohlar qarshisida avvalgi kenglik, ravon yo'llar, maysalar bilan qoplangan so'lim adirlar paydo bo'libdi. Sayyohlar Yaratganga shukronalar aytishib, yo'llarida davom etishibdi.

## **ROSTGO'Y BOLALAR BAHSI**

↑ zodlik ko'chasida ikkita bola yasharkan. Bittasining ismi Umarjon, boshqasining ismi Samarjon ekan. Ikkovlari bir kunda tug'ilgan ekan. Umarjon ko'chaning o'ng tomonidagi uyda, Samarjon chap tomondagi uyda yashar ekan. Ikkovlariyam beshinchi sinfda o'qishar ekan. 5 «A» dagilar rostgo'ylikda bizning Umarjon o'rtog'imizga teng keladigani yo'q deyishsa, 5 «B» dagilar, bo'lmagan gapni qo'yinglar, haq gapni so'zlashda bizning Samarjonni oldiga hech kim tusholmaydi, unaqasi hali tug'ilmagan, tug'ilmaydi

ham, deyisharkan. Ikkala sinf to'xtamay tortishgani-tortishgan ekan. Oxiri bo'lmabdi. Ikkala o'rtog'imizga musobaqa uyushtiraylik, qaysi biri rost gapni aytishda g'olib kelsa, o'shanga birinchi o'rinni berib, bir charm koptok bilan 12 ta daftar sovg'a qilaylik, deyishibdi. Xullas murosaga kelishibdi.

Maktabning hashamatli sport zaliga kirishibdi. «A» dagilar o'ng tomonni, «B» dagilar chap tomonni egallashibdi. Maktab direktori hakam bo'lib, sinf rahbarlari hakamga yordamchi bo'lishibdi. Alfavit tartibiga ko'ra «A» harfi «B» harfidan oldin kelgani uchun oldin gap boshlash navbati Umarjonga tegibdi. Hakam hushtak chalibdi, musobaqa boshlanib ketibdi. O'rtaga chiqqan Umarjon gap boshlamay, xomush bo'lib turaveribdi.

— Tezroq gapir, — debdi hakam.

— Uyqum kelyapti, — debdi Umarjon.

— Nega uyqung kelaverar ekan? — so'rabdi yana hakam.

— Kechasi bilan uxlamay Qatron tog'idan Tojikiston tomonga tuynuk ochaman, deb boshimni uraverdim, uraverdim, ertalabga yaqin 18 kilometrlik tuynukni arang ochdim. Shuning uchun uxlayolmadim, — debdi Umarjon.

Endi rost so'zlash navbati Samarjonga kelibdi.

Uning ham dum-dumaloq boshi egilgan, chiroyli ko'zlari ham yumilib yuborayotgan emish.

— Xo'sh, nega sen gap boshlamayapsan? — so'rabdi hakam.

— Mening ham uyqum kelyapti, — javob qaytaribdi Samarjon.

— Nega uyqung keladi?

— Amerika qit'asi bilan Afrika qit'asini birlashtirish uchun tuni bilan ovora bo'ldim. Ertalabga yaqin arang birlashtirdim. O'rtadagi Atlantik okeanining suvi toshib, Yevropani bosib ketmasin deya yarmini Hind okeaniga quydim. Yarmini o'zim ichib qo'ya qoldim. Shuning uchun kechasi bilan uxlaganim yo'q, — deb gapini tugatibdi Samarjon.

5 «B» dagilar rost gap mana bunaqa bo'ladi, deb qarsak chalib yuborishibdi. Gap navbati yana Umarjonga kelibdi.

«Ertalab oyim ishga ketaturib, qozonda shavla bor, o'shani isitib yegin, devdi, uyqusirab shavlaga qo'shib qozonni ham yeb qo'yibman, qornim og'rib turibdi, gapirmay qo'ya qolay», debdi, e o'rtoq deb gapni ilib ketibdi Samarjon, ikkovimiz bir bo'pmiz, ertalab nonushta qilmoqchi bo'lib muzlatgichni ochsam, hech narsa yo'q ekan, men ham muzlatgichning o'zini yeb qo'ya qoldim, lekin qornim og'rigani yo'q...

— Men dadamdan oldin tug'ilgan ekanman, — deya yana gap boshlabdi Umarjon.

— Men bobom bilan buvimni ko'tarib katta qilgan ekanman,— deb o'rtog'ining gapini bo'libdi Samarjon.

— Ona tili darsligini men yozganman, — deb so'zini davom ettiribdi Umarjon.

— Maktabimizning ilmiy bo'lim mudiri institutda o'qiganida men unga ximiyadan hamisha yordam berardim, — deb o'rtog'ini gapirtirgani qo'ymabdi Samarjon.

— Bir marta bog'imizdagi oshqovoqning ichiga tushib ketib, olti kun adashib yurganman,— debdi Umarjon.

— O'sha kuni men ham bog'imizda cho'milayotuvdim, — javob qaytaribdi Samarjon, — qattiq sho'ng'igan ekanman, suzib ketaverdim, ketaverdim, oxiri borib Orol dengizidan chiqib qolibman. Bunday qaragam dengizning suvi qurib, baliqlar quyon boladay sakrashib-sakrashib yurishgan ekan. Bir tonnachasini yig'ishtirib yaqinroqdagi bolalar bog'chasiga topshirib kelganman.

— Bir marta, — shoshilib so'z olibdi Umarjon, — shaharga borganimizda mashinamiz buzilib qoldi. O'shanda «Jiguli»ning ichidagi to'rtta odami bilan uyimizgacha o'zim ko'tarib kelganman.

— O'sha yili, — debdi Samarjon, — dadam traktorchi edi. G'ildiragining o'tkir tishlari ko'chadagi asfaltni buzmasin, deb men traktorni yelkamga ko'tarib dalaga olib borar edim. Kechqurun yana garajga keltirib qo'yardim. O'sha yili shunday qilganimiz uchun kolxozimiz raisi menga bitta Faxriy Yorliq bergan.

— Bir marta men shunday sakraganmanki, uchib borib Tojikistonning Shurob degan qishlog‘iga tushganman.

— O‘shanda men ham sakrab, balandlab borib-borib boshimni Zuhro yulduziga urib olganman.

— Men, — deb o‘rtog‘ini to‘xtatibdi Umarjon yengilishni istamay, — bir yeganda qirq kilo guruchning oshini yeb qo‘yaveraman.

— Men ham, — o‘rtog‘idan baland kelishga intilibdi Samarjon, — bir ichganda Sirdaryoning suvini ichib quritib qo‘yaveraman.

Musobaqa davom etaveribdi-etaveribdi. Goh «A» tomon, goh «B» tomon gurillatib qarsak ham chalaveribdi, chalaveribdi. Hakamlik qilayotgan maktab direktori bular bir-biriga yutqazadiganga o‘xshamaydi, musobaqani endi ertaga davom ettiramiz, degan gapni aytgan ekan, bolalar guvillashib qarsak chalishibdi, oyoqlar bilan pollarini tepishib, yo‘q bugun hal qilib ketamiz, deb turib olishibdi. «Sigirimiz bu yil shunaqa sersut bo‘lib qoldiki, — shovqinni bosib gap boshlab yuboribdi Umarjon, — sut tashiydigan mashina ulgurmay qoldi. Oxiri maslahatlashib sigirimizning emchaklariga shlanga ulab, sutni to‘ppa-to‘g‘ri zavodga quyadigan qilib qo‘ydik».

— To‘g‘ri, — deb gapni ilib ketibdi Samarjon, o‘zi bu yil nafaqat sigirlar, balki echkilar ham sersut bo‘lib qolgan. Biz ham echkimizning sutini tuman markaziga tashib ulgurmasimizdan, echkimizning qornida Italiya bilan qo‘shma korxonaga ochib, o‘sha yerda pishloq tayyorlaydigan bo‘ldik. Maktabimiz bufetida sotilayotgan pishloq bilan suzmalar bizning echkimizning qornida tayyorlanayapti.

Xullas, rost so‘zlar aytish musobaqasi o‘sha kuni poyoniga yetmabdi. Ertasiga ham, indinisiga ham qaysi tomon g‘olib ekanligini aniqlashning iloji bo‘lmabdi.

Ushbu ertak yozilgan paytda ham musobaqa davom etayotgan ekan.

## SIGIR SO'YGAN QASSOBNING QO'RQINCHLI TUSHI

**B**ir bor ekan, bir yo'q ekan, yaqin o'tgan zamonda Eski shaharning Chorsu dahasida, dorixonaning naryog'ida Tolibjon degan bir odam yashar ekanu, hamma uni Tolib qassob deb atar ekan. O'zi juda yaxshi odam ekan, qizi bitta shokolad so'rasa, bir qutisini keltirib berarkan. O'g'li popukli qand so'rasa, bir qopini hadya qilarkan. Hamma qassoblar qatori uning ham uzunligi bir quloch keladigan daraxtidan kesilgan kundasi bor ekan. O'zi qassob ekanu, lekin novvosdan qo'rqar ekan. Bitta novvos bir kuni uni devorga qisib rosa suzgandan buyon bozordan faqat g'unajinmi yoki sutdan qolgan sigirni olib kelib orig'ini semirtirib, semizini to'ppa-to'g'ri so'yib yuborar, go'shtini qanoraga osib:

— Kep qoling, yoshgina novvosning go'shti, lahmgina, seryoqqina, bilqillab turibdi, — deb goho yolg'on ham gapirarkan. Yolg'on gapirmasam go'shtim qari molning go'shti ekanligini bilib qolishadi, deb qo'rqarkan.

Bir kuni katta bir sigirni oldin sariq kunjara bilan boqib rosa semirtiribdi. So'ng yerga yotqizib bo'g'ziga endi pichoq olib borgan ekan, sigir to'satdan tilga kirib:

— So'yma, qornimda bolam bor, bolam nobud bo'ladi!  
— deb yolvoribdi.

Tolib qassob boshini ko'tarib u yoq-bu yoqqa qarasa, hech kim yo'q emish. Oqshom yomon ovqat yevdim, o'shanga qornim guldiragan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi-da, yana so'ymoqchi bo'lgan ekan:

— So'yma deyapman, eson-omon tug'ib olay, keyin bilganingni qilasan, so'yma! — degan ovoz yana eshitilibdi.

Qassob sigirning gapirishiga ishonmas ekan, ishonsa ham bitta buzoqchani deb uch yuz kilo go'shtdan ayrilib qolaymi, deпти-da, «Bismillahir rohmanir rohiym» deb sigirning bo'g'iziga pichoq tortib yuboribdi. Go'shtini qanorga ilib, maqtab-maqtab sotibdi ham. Yaxshigina pul bo'libdi, katta foyda ko'ribdi. Kechasi uxlab yotgan ekan, kunduzi so'yilgan

katta ola sigir eshikni sharaqlatib ochib, vahshat bilan kirib kelibdi-da, qassobning pichog'idek o'tkir shoxini uning bo'g'ziga qadab:

— Bolamni to'lab ber, — deb ma'rabdi.

— Bolangning o'ligini axlatxonaga oborib ko'mganman,— debdi Tolib qassob.

— Hoziroq uni tiriltirib berasan, — deb ola sigir o'tkir shoxini qassobning bo'g'ziga battarroq qadabdi.

— Shoxingni ol tomog'imdand, nafasim qisilyapti, — debdi Tolib qassob entikib.

Shu paytda rostdan ham nafasolishi og'irlashib, qora terga botib borayotgan ekan.

— Oldin bolamni tiriltirib berasan, — shundayt deb ola sigir endi oldingi ikki oyog'ini qassobning qorniga qo'yibdi.

Tolib qassob o'lgan buzoqni tiriltirish mening qo'limdan kelmaydi, deb qutulmoqchi bo'lgan ekan, ola sigir tiriltirish qo'lingdan kelmas ekan, nega o'ldirding bo'lmasa, deb qassobning bo'g'ziga shoxini sanchib olib tashqariga chiqib ketibdi. Hovliga chiqqach, qanot paydo qilib ucha boshlabdi. To'g'riga emas, vertolyotga o'xshab tepaga qarab ucharmish. Avval oppoq, nurdek yumshoq bulutlar orasidan olib o'tibdi. Keyin qop-qora bulutlar ummoniga sho'ng'ibdi. O'sha yerda yana:

— Bolamni tiriltirib berasan! — dermish.

Tolib qassob gapiray desa endi ovozi ham chiqmas emish. A aytgandek, bo'g'zim teshilgan edi-ya. Bo'g'zi teshilganda odamning ovozi chiqmaydi-da, deb o'ylabdi. Shunday bo'lsa ham yana bir unnagan ekan, tomog'idan piq-piq-piq degan g'alati ovozlari chiqibdi, xolos.

Ola sigir endi uni tashlab yuboribdi. Tolib qassob pardek yumshoq oq-qora bulutlar orasidan ipi uzilgan varrakdek salanglab pastlab kelaveribdi-kelaveribdi. Oxiri xuddi suvga sakragan baqadek shaloplab qorni bilan yerga yiqilibdi. Odam bolasi qari chol bo'lganda ham boshiga biron falokat tushsa, onasini eslarkan. Tolib qassob ham:

— Oyijon! — deya baqirib yuboribdi.

— Nima bo'ldi? — deb so'rabdi yonida yotgan xotini.

Tolib qassob yomon tush ko'rganini aytibdi. Mehribon xotini odam chap tomoni bilan yotganda shunaqa bo'ladi, o'ng tomoningiz bilan yoting, deya foydali maslahat berib erining yuzu peshonasidagi sovuq ter tomchilarini artib qo'yibdi. Eri uyquga ketibdi. Uyquga ketganini xurragidan bilsa bo'larkan. Chunki qassob «Xum-prr, pluq-pluq» deya hech kimnikiga o'xshamaydigan g'oyat chiroyli xurrak tortarkan. Tolib qassob yana tush ko'ra boshlabdi. Keng yaylov emish, elliktacha sigiru erta so'yilgan gunajinlar, har birining shoxi xanjardek o'tkir emish, qassobni mo'ljalga olib, ma'rashib baquvvat oyoqlari bilan yerni tepkilashib, bostirib kelayotgan emish. Bizni so'ymaganingda qanchadan-qancha bola tug'ardik, bolalarimizni to'lab ber, deb olamni boshlariga ko'tarib ma'rasharmish. Boshqa iloji qolmaganidan qassob qochishga tushibdi. Yoshligida mahalladagi jamiki bolalardan tez yugurarkan, hozir undan ham tezroq yugurarmish, suvga tushsa sigiru gunajinlar ham suvga tusharmish, devordan oshib o'tsa, quturgan mollar uning oldidan to'sib chiqisharmish.

— Oyijon! — deya baqirib yana uyg'onib ketibdi Tolib qassob.

Mehribon xotini peshonasidagi muzdek terni yana artib, yaxna choy berib, ko'nglini ko'taribdi. Kalima o'girishni maslahat beribdi. Kalima o'giribdi ham, lekin baribir uxlagani yuragi betlamabdi. Tong paytida ko'zi sal ilingan ekan, uyqu bilan uyg'oqlik o'rtasida mudrab o'tirar ekan, fildek keladigan katta bir ho'kiz, qo'lida oyboltasi ham bor emish, lapanglab kirib kelib:

— Xo'sh, mening xotinlarim bilan qizlarimni nega so'yding? — deb so'rarmish.

Tolib qassob sakrab deraza orqali hovliga chiqib ketibdi. Orqasidan, hoy dadasi, sizga nima bo'ldi, deb mehribon xotini ham yugurib chiqibdi. Uyda ho'kiz bor, qoch, seni ham suzadi, o'ldiradi, dermish Tolib qassob. Uch kungacha bechora qassob uxlayolmabdi. Ko'zi ilindi deguncha, pichoq o'qalgan buzoqchalar, goho shoxi o'tkir sigirlar, oybolta

ko'targan gunajinlar paydo bo'lib, oldiga solib quvlarmish. Qassob dodlab hovliga chiqib ketarmish. Do'xtirga ko'rsatishibdi, uyqu dori ichirishibdi, yana bo'lmabdi. Ko'zi ilindi deguncha avvalgisidan ham qo'rqinchliroq tushlar ko'rarmish. Kuppa-kunduz kuni uyg'oq paytida ham oldiga to'ppa-to'g'ri sigirlar to'dasi bostirib kelaverarmish. Qassobning xotini ko'p aqlli, ham tadbirkor ekan. Erini bu balolardan qutqarish uchun duoxon domlaga o'qitishini maslahat beribdi, duoxonga dam soldirishibdi. Hammasidan ham dahshatliroq tushni o'sha kechasi ko'ribdi. Katta bir sigir Tolib qassobning o'zini so'yib, go'shtini qanorga solib sotayotgan emish:

— Oyijon! — deb baqirib yuboribdi Tolib qassob. U shu kecha-kunduzda ham voy-voylab ko'chada chopib yurgan emish.

## *TULKI, SHER, FIL HAQIDA ERTAK*

**Q**adim-qadim zamonlardami, o'zimiz yashab turgan kunlardami, baland-baland tog'lar ortidami, qalin-qalin o'rmonlar ichidami, uzoq-uzoq qishloqlardami qiziq-qiziq voqealar tez-tez takrorlanib turarkan. Bu voqea esa Hazrati Odam Ato va Momo Havo hali o'zlarining zurriyodlarini yer yuziga tarqatmasdan oldin bo'lgan ekan. O'sha zamonlarda ham goh adolatli, goh adolatsiz voqealar tez-tez bo'lib turarkan. Adalotlisi shu ekanki, jamiki jonzotlarga shohanshoh saylash barcha jonzotlarning ishtirokida, qur'a tashlash yo'li bilan o'tkazilarkan. Qaysiki, jonzotning omadi kelsa, navbatdagi qur'a marosimigacha shohanshohlik qilarkan. Uning so'zi so'z, amri vojib bo'larkan. So'zini ikki qilganlarning boshi kesilarkan, tanasi kuydirilarkan. Shunday bo'libdiki, navbatdagi qur'a tashlash marosimida tulkiga omad kulib boqibdi. O'sha kuni o'rmonlaru sahrolarda, dashtu biyobonlarda yangi saylangan shohning sharafiga hisobsiz hamdu sanolar aytilibdi. Shohanshohga toj kiydirish



marosimi esa naqd o'n besh kun davom etibdi. Ketidan saroy lavozimlarini tayinlash boshlanibdi. Chiyabo'ri Vaziri a'zam bo'libdi. Bo'ri yasovulboshi bo'libdi. Kalamush xazinabon bo'libdi. Olaqarg'a karnaychilarga bosh bo'libdi. Qarg'a xabarchi bo'libdi. Chumchuqqa esa hech qanday lavozim tegmay qolibdi. Ammo uning shoirlikdan xabari bor ekan. Saroydagi baland bir daraxt shoxiga qo'nib darhol she'r to'qib o'qibdi:

Oqilu dono shohimiz,  
Go'zal, barno shohimiz.  
Adolatda tengsiz u,  
Va'z aytishda tengsiz u.  
Tovuq go'shti yemaydi,  
Tutib kelgin, demaydi.  
Saltanat ustuni  
So'zlar doim rostini.

She'r hammaga ma'qul bo'libdi. Birinchi Vaziri a'zam qarsak chalib yuboribdi. Unga boshqalar ham jo'r bo'libdi. Shohanshoh Tulki ham shu paytgacha bunaqa chiroyli maqtovlarni eshitmagan ekan. Beixtiyor u ham qarsak chalib yuboribdi. Vaziri a'zam g'oyat hushyor va ziyrak ekan. Hamonki, shohning o'zi ham qarsak chalayotgan ekan, chumchuqqa bir yaxshiroq lavozim berish kerak deb o'ylabdi. Chumchuqni bosh munshiy qilib tayinlashibdi.

O'sha kundan boshlab shohanshoh Tulkinging bir-biridan mazmunli farmoni oliylari e'lon qilina boshlabdi. Bir gal, hali shohanshoh bo'lmasdan oldin, tovuqni tutish uchun yer bag'irlab, emaklab borayotganida bir dakang xo'roz bor ovozi bilan qichqirib tovuqlarni ogohlantirib qo'ygan va o'sha kuni tulki och qolgan ekan. O'shandan buyon xo'roz zotini yomon ko'rarkan.

Shohanshoh o'zining «Dunyodagi barcha xo'rozlarni qirib tashlash haqida»gi birinchi farmonini e'lon qilibdi. Ikkinchi muborak farmoni dunyodagi barcha hayvonlarga va

jonzotlarga dum qo'ydirish haqida bo'libdi. Ketma-ket yangi farmonlar e'lon qilina boshlabdi. Yana bir farmoni oliyda jamiyki jonzotlar gaplashganda dumini o'ynatib gaplashsin deb ko'rsatma berilibdi. Endi saroy a'yonlari shohning huzuriga kirganda goh pusib, goho yer bag'irlab, emaklab kirisharkan. Suhbat davomida tobelik alomati sifatida dumlarini silkitib turisharkan. Goho a'yonlar o'rtasida dum silkitish bo'yicha bahslar, musobaqalar bo'lib turarkan. Dumlarning silkinishlarini ko'rib shoh huzur qilarkan, mast bo'larkan.

Shohanshohning nozik ko'ngli goho sayru sayohat qilishni istab qolarkan. Sayohatga chiqqanda uning hashamatli taxtiravonini tog'dek-tog'dek keladigan baquvvat fillar ko'tarib borisharkan. Arslonlar, qoplonlar dastyorlik qilarkan, zaharli ilonlar qorovullik qilib borarkan, olaqarg'alar guruhi karnay chalib, popushaklar o'yinga tushib borarkan. Shohanshohning huzurida qo'l qovushtirib, ta'zim bajo keltirmagan biror zot qolmas ekan. Vaziri a'zam ta'zim bajo keltirmaganlarni bo'ysinmagan hisoblab jazolab borarkan.

Bir sahrodan o'tib borishayotganida oldinda borayotgan poyloqchilar bir gala sherlarning kekkayib, mag'rur turganlarini ko'rib qolishibdi. «Egilib tur, shohanshoh kelyapti» deyishsa ham parvo qilishmasmish. Bu hol avvalo shohning, so'ng barcha saroy a'yonlarining hamiyatiga tegibdi, g'azabini qo'zg'atibdi. «O'h-hu, o'sha sherbachchalar kim bo'libdi. Menga mana, tog'dek-tog'dek keladigan fillar xizmat qilyapti, qudratli ajdarholar huzurimda turibdi. Yo'q, u haddidan oshib ketibdi, ushlab kelinglar» deb buyruq beribdi. Bir sherni ushlab kelishibdi. Sher hamon qaddini rostlab, boshini baland ko'tarib mag'rur turganmish.

— Egilib salom ber, shohanshohimizga! — deb buyuribdi xizmatkor.

— Kimga salom beraman? — debdi mag'rur sher.

— Shohanshohga! — debdi xizmatkor.

— U shohanshoh emas, dumi uzun tulki-ku?! — debdi sher.

— Lekin, u hozir shoh, unga hamma qulluq qilishi kerak, — deyishibdi lavozimdagilar.

— Men sherman, tulkiga salom berolmayman, — deb o'kiribdi sher yeru ko'kni larzaga solib.

— Egil, salom qil, senga lavozim beramiz, — deyishibdi, a'yonlar.

— Tulkiga ta'zim qilib lavozim olmayman, — debdi sher avvalgidan ham balandroq ovozdada o'kirib.

Shohanshohga sherning hadeb «tulki, tulki» deyaverishi yoqmabdi. «Qatl qilinsin!» deya farmon beribdi. Ona sher bilan bolalarini ham tutib kelish haqida farmon beribdi. Tutib kelibdilar. Ona sher o'g'illarini yoniga olib erkak sherdan ham mag'rurroq turganmish.

— Shohanshohga ta'zim qil, — deyishibdi unga ham.

— Sherlar hech qachon tulkilarga ta'zim qilgan emas, — debdi u.

— Seni zaharlab o'ldiramiz, — deyishibdi unga.

— Tulkiga ta'zim qilgandan ko'ra, o'lim afzal, — javob beribdi u.

Shohanshohning atrofini o'rab turganlar qo'rqib ketishibdi. Farmonlar ketma-ket bajarilmay qolaversa, bizga gap tegadi, lavozimdan ham olib tashlashlari mumkin, deb o'ylab Ona sherni egilishga, salom berishga majburlay boshlashibdi. «Agar shunday qilmasang, o'g'illaringni qatl qilamiz», deb qo'rqitishibdi. Sherbachchalardan birini tutib kelishibdi.

— Shohanshohga ta'zim qil! — deyishibdi.

Sherbachcha bunday qarasa, Ona sher hamon mag'rur turganmish, qat'iyatli emish, «O'limga bor, lekin tulkiga ta'zim qilma», deytoganday emish.

— Otam sher, onam sher, men sherbachchaman, tulkiga egilmayman! — deb javob beribdi sherbachcha ham.

— Qatl qilinsin! — deya buyuribdi shohanshoh.

Ikkinchi sherbachcha akasidan ham mag'rurroq ekan. Shohanshohga ta'zim qilmasang zaharlab o'ldiramiz, deyishsa ham, filning oyog'i ostiga tashlaymiz, deyishsa ham «yo'q,

yo'q, biz sher bo'lib tug'ildik, sher bo'lib o'lamiz. Lekin o'zimizdan yuz karra ojiz bo'lgan tulkiga ta'zim qilmaymiz», dermish. Ona sher bo'lsa boshini qimirlatib, bolasining gaplarini ma'qullab turganmish.

Bu sherbachchani ham Onasining oldida qatl qilishibdi.

— Endi ta'zim qilasanmi? — so'rashibdi ona sherdan.

— Yo'q! — deb o'kiribdi Ona sher.

Ona sherning uchinchi bolasini ham qatl maydoniga olib kirishibdi. Bo'ysundirish, tavba qildirish marosimi ham tantanali, ham vahimali o'tsin, boshqalarga saboq bo'lsin, deb qatl maydoniga barcha hayvonlarni, parrandalarni haydab kelishgan ekan. Shular qatorida o'zining yangi tug'ilgan bolasini ergashtirib Ona fil ham turgan ekan. Ona sherning ko'z oldida bolalarini qatl qilishayotgani uning g'azabini keltirayotgan ekan. Onaning ko'z oldida farzandlarini qatl qilish gunohlarning gunohi deb o'ylayotgan ekan. Sherbachchalarning mag'rur turishlari uning g'ururini oshiribdi. Shu bilan birga shohanshoh va a'yonlarning shafqatsizligi, adolatsizligi g'azabini keltiribdi, quturtirib yuboribdi. Fillar qutursa yomon bo'larkan, yeru ko'kni ostin-ustun qilib yuborishi hech gap emas ekan. Ona fil o'zining uzun xartumi bilan shohanshohning omonat qurilgan taxtiravonini bir urgan ekan, parcha-parcha bo'lib ketibdi, a'yonlar uzun-kalta dumlarini likillatishib har tomonga qocha boshlashibdi. Shohanshohning xizmatida turgan zaharli ilonlaru chiyabo'rilar isyonga qo'shilgan boshqa fillarning oyoqlari ostida majaqlanib ketishibdi.

Ertasi kuni qaytadan qur'a tashlanibdi. Adolatli bo'lgani uchun fil shohanshoh bo'libdi. O'z qadrini bilgani, g'ururi baland bo'lgani uchun sherbachchalardan biri vaziri a'zam bo'libdi. Hamma tinch-totuv yashay boshlabdi...

## МУНДАРИЖА

X.To'xtaboyev. Nabiralaringa ochiq xat .....	3
--	---

### JANNATI ODAMLAR

Erkacholning o'rigi .....	5
Erkacholning ko'prigi .....	9
Betoblik .....	17
Bo'rsiq oviga otlandik .....	27
Bo'rsiq quv bo'ladi .....	34
Chol bobolar suhbatlari .....	41
Enajonim ertak aytadi .....	50
«Odobli bola» o'yini .....	56
Tungi mehmon .....	64
Eshon bobom meni duo qildilar .....	70
Buvim tong otguncha yig' lab chiqdi .....	80
Qabristonda fotiha o'qidik .....	90
Enajonim aytgan ertak .....	97
Ahmadqul boboning oq o'rigi .....	107
Bo'ri bilan olishgan arslon .....	111
Eshon bobomni qamoqqa oldilar .....	117
Eshon bobomning o'n qop kitobi .....	128
Qishloqchamiz uch kun yig'ladi .....	132
Enajonim ertak aytadi .....	142
O'lgan cho'chqa o'rniga semiz qo'y so'rashyapti .....	144
Enam aytgan ertak .....	155
Ahmadqul bobom shum xabar keltirdi .....	159
Eshon bobom yana qochib keldilar .....	169
Xudoga nola qildik .....	177
Enajonim aytgan ertak .....	185
Bog'larimiz yana boshladi .....	188
Bobojonim jannatga ketdi .....	194

## TELEBOLA

Telebola .....	204
Televizor bilan muzlatgich o'rtasidagi omonsiz olishuvlar qissasi .....	217
Yovvoyi echkilar .....	220
Quvg'indagi hayvonlar .....	232
Osmondan muzqaymoq yoqqan kun .....	236
Birinchi rivoyat .....	241
Ikkinchi rivoyat .....	242
Mehnatim – beminnat nonim .....	243
Ona allasi .....	244
Tuyakashning da'vosi .....	246
Uch sayyohning safari .....	248
Rostgo'y bolalar bahsi .....	252
Sigir so'ygan qassobning qo'rqinchli tushi .....	256
Tulki, sher, fil haqida ertak .....	259

Adabiy-badiiy nashr

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

**JANNATI ODAMLAR**

*Roman va ertaklar*

Qayta nashr

Muharrir

Dilrabo MINGBOYEVA

Badiiy muharrir

Bahriddin BOZOROV

Texnik muharrir

Yelena DEMCHENKO

Musahhih

Nilufar JABBOROVA

Kompyuterda sahifalovchi

Feruza BOTIROVA

Bosishga 09.03.2015-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32.  
Bosma tobog'i 8.375+vkl.0.125. Shartli bosma tobog'i 14.07+vkl.0.21.

Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Gazeta qog'ozi.

Adadi 10000 nusha. Buyurtma № 64.

. Bahosi kelishilgan narxda.

“Yangi asr avlodi” NMMda tayyorlandi va chop etildi.

Litsenziya raqami: AI № 198. 2011- yil 28.08 da berilgan.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

**Murojaat uchun telefonlar:**

Nashr bo'limi – 278-30-52; Marketing bo'limi – 128-78-43

faks — 273-00-14; web-сайтмиз: [www.yangiasr.uz](http://www.yangiasr.uz)

интернет-дўкон: [www.yangidavr.uz](http://www.yangidavr.uz)

e-mail: [yangiasravlodi@mail.ru](mailto:yangiasravlodi@mail.ru)

**“ЯНГИ АСР АВЛОДИ” НАШРИЁТ-МАТБАА  
МАРКАЗИ ТАҚДИМ ЭТАДИ:**

**Зокир Замонов, Дилдора Зувайтова**  
**“ТОП... ТОП... ТОПИШМОҚ”**

**Бичими 84x108 1/32**

**120 бет.**

**Юмшоқ муқова**

Болаларни фикрлашга, топқирликка ўргатадиган топишмоқлар уларни келажакда жумбоқли вазиятлардан, муаммоли ҳолатлардан қийинчиликсиз чиқишга тайёрлаши шубҳасиз. Ўн бир мавзунини ўзида мужассамлаштирган мазкур тўплам болалар учун ажойиб топқирлик машқи вазифасини бажаради.

**Худойберди Тўхтабоев**

**“ШИРИН ҚОВУНЛАР МАМЛАКАТИ ЁКИ СЕҲРГАРЛАР  
ЖАНГИ”**

**Бичими 84x108 1/32**

**384 бет.**

**Қаттиқ муқова**

Ақромжоннинг бир-биридан қизиқ кечмишларини ўқиб мириқиб куласиз, фантастик лавҳалардан ҳайратга тушасиз, катталиги тоғдек келадиган қовун-тарвузлар, қовун ичидаги олам – ажойибу гаройиб шаҳарларга саёҳат қиласиз. Бу қаҳрамонимизга ҳам сеҳрли қалпоқча ёрдамга келади...

**ЛЕВ ТОЛСТОЙ ҲИКОЯЛАРИ**

**Бичими 70x84 1/16**

**44 бет.**

**Юмшоқ муқова**

**Ўзбек ва инглиз тилларида**

Азиз болажонлар, биз тақдим этаётган ушбу китобда машҳур ёзувчи ва дунё тан олган адиб Лев Толстойнинг энг сара ҳикоялари жой олган. Улар таққослаб ўрганиш учун инглиз ва ўзбек тилларида берилган.

Ёш китобхонлар ҳикоялардан баҳра олиб, тил кўникмаларини бойитишади, деган умиддамиз.



O‘zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” sarguzasht romanining ikkinchi qismi – “Sariq devning o‘limi”da asar qahramoni Hoshimjon hayotida mas‘uliyatli davr boshlanadi. Tabiatan ziyarak, fahm-farosatli Hoshimjon katta bir operatsiyada qatnashib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta‘minlaydi. Voqealar rivoji bilan esa asarni mutolaa qilish davomida tanishasiz.

**TO‘XTABOYEV X.** Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi (Ertak-roman). – 336 bet.

O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, bolalarimizning sevimli adibi Xudoyberdi To‘xtaboyevning sara asarlarini to‘rt jildda kitobxonlar hukmiga havola etmoqdamiz. Birinchi jildda «Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrganlar jangi» ertak-romani o‘rin olgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Sehrli qalpoqcha» kitobini o‘qigansiz. Esingizda bo‘lsa, o‘sha kitob qahramonlari orasida Akbar degan bola ham bor edi. Ha, ha, Hoshimjon Ro‘ziyevning yaqin do‘sti, bo‘ri bolasini chenaga qo‘shib tomosha ko‘rsatmoqchi bo‘lgan bir oz xayolparast, bir oz o‘yinqroq Akbarjon.

Ushbu fantastik-sarguzasht romanda Akbarjon o‘z sarguzashtlarini davom ettiradi. Shirin qovunlar mamlakatini har xil illatlardan tozalash maqsadida Sehrgar Iblis bilan jang qiladi. Bu kurashda unga ustozlari – professor Dar Daraja va Sehrli Qalpoqcha yaqindan yordam berishadi.

**Nashriyotimiz tomonidan 500 nomdagi turli-tuman kitoblar chop etiladi. Jumladan, siz quyidagi kitoblarni o'qishingiz mumkin:**

**“Tarixiy meros”** ruknida **“Navoiy haqida 22 maqola”**, **“Navoiyning armonlari”**, **“Xamsa”** dostonlarining nasriy bayoni; **“Muhammad Feruz kutubxonasi”**, **“Muntaxab at-tavorix”**, **“Firdavs-ul-iqbol”**, **“Siyosatnoma”**, **“Samariya”**; **“Zakovat durdonalari”** ruknida **“96 mumtoz faylasuf”**, **Jaloliddin Rumi**, **Aflotun**, **Arastu**, **Nitshe**, **Konfutsiy**, **sitseron**, **Plutarx**, **Gyote** kitoblari;

**Xudoyberdi To'xtaboyevning “Jannati odamlar”**, **“Sariq devni minib”**, **“Sariq devning o'limi”**, **“Qasoskorning oltin boshi”**, **“Besh bolali yigitcha”**, **“Shirin qovunlar mamlkati”**, **“Mungli ko'zlar”**, **“Quyong'ur saltanati”**;

**Tohir Malikning “Halovat”**, **“Voy, onajonim”**, **“Tosh qalblarga nazar solinmas”**, **“Ayovsiz ilon”**, **“Halol nimayu harom nima”**;

**Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub “Armon asirasi”**, **“Yovuzlik farishtasi”**, **“O'lim hech narsa emas”**;

**Ahmad A'zamning “O'zi uylanmagan sovchi”**; **Abduqayum Yo'ldoshevning “Bir kun va bir tun”**, **“Timsohning ko'z yoshlari”**; **Anvar Namozovning “Men – ko'rinmas odam”** va **“Onasi o'pmagan yigit”**, **“Jumboq”**; **Nilufar Umrzoqovanning “Begoyimning turmushi”**;

**Jahon adabiyoti namunalari – “Buzrukning kuzi”** (G.G.Märkes), **“Da Vinchi siri”** (Den Braun), **“Iblis va Primxonim”**, **“Portobello jodugari”** (Paulo Koelo), **“Ullis sarguzashtlari”** (J.Joys), **“Finansist”** (T.Drayzer);

**Dilbar ayollarimiz va lohar qizlarimiz uchun “Siz, so'zsiz, go'zalsiz”**, **“Onalik va homiladorlik psixologiyasi”**, **“Kelin bo'lish san'ati”**, **“Etiketning oltin kitobi”**, **“Hademay oila qurasiz”**, **“Hademay ona bo'lasiz”**;

**“Muvaffaqiyat kaliti”** ruknida mashhur ruhshunos **Deyl Karnegi** va **Napoleon Xill** kitoblari, **biznes, psixologiya bo'yicha “Amaliy psixologiya”**, **“Ko'ngil olish san'ati”**, **“Vaqtini boshqarish”**, **“Burjlar va pullar”**, **“Burj, taqdir va fe'l-atvor”**, **“Savdo san'ati”**, **“Raqamlarda taqdirlar”**;

Shuningdek, siz ma'rifiy-ommabop, salomatlik hamda turli-tuman ruknlarga oid boshqa kitoblarni o'qishingiz mumkin.


ЖАҲОН АДАБИЁТИ  
ДУРДОНАЛАРИ

Янги АСР  
авлоди 2012  
нашриёт-матбаа маркази тақдим этади

# АРТУР КОНАН ДОЙЛ, ЖЮЛЬ ВЕРННИНГ

**“ШЕРЛОК ХОЛМС ВА  
ДОКТОР УОТСОННИНГ  
САРГУЗАШТЛАРИ”,  
“ҮН БЕШ ЭШИИ КАПИТАН”**

**КИТОБЛАРИНИ  
МУТОЛАА ҚИЛИНГ!**



Дунё миёсида ўз асарлари билан машҳур француз адаби Жюль Верннинг “Үн беш ёшли капитан” ва англиялик Артур Конан Дойлнинг “Шерлок Холмс ва доктор Уотсоннинг саргузаштлари” энг сеvimли ва китобхонлар томонидан кўп ўқилган асрлар сирасига кирadi. Бир-биридан қизиқarli саргузаштлар ва ҳавф-хатарга тўла воқeалар, асар қаҳрамонларининг ақл-идрокию матонати сизнинг онг-шуурингизни заbt этади.

Асарлар мутолаасидан сўнг Дик Сенд каби кўрмас, уddaбурон, қатъиятли бўлиш хислатлари инсонийлик омили эканлигини англайсиз.

Шерлок Холмс ва доктор Уотсоннинг қатор жиноятларни фош қилишдаги изқуварлик маҳорати заковатингизни бойитади.

Маъзур асарлар китобхонларни меҳнатсеварлик, олижаноблик ва одамийликка ундайди.

Мурожаат учун манзил: 100113, Тошкент, Чилондор-8, Қатгорта кўчаси, 60. Тe.сфон: (+99871) 273-56-45, 128-78-43  
web-сайтими: www.yangidavr.uz интернет-тўқон: www.yangidavr.uz e-mail: info@yangidavr.uz

1. “Янги давр китоблари” савдо ташкилоти, Тошкент шаҳри, Қатор-тол кўчаси, 60-уй, тел: 273-42-67
2. “Шарқ зиёкори”, Бухоро кўчаси, 26-уй.  
тел.: 233-58-72, 421-50-26
3. Навоий китоб савдо растаси, Навоий кўчаси, 30-уй,  
тел: 505-11-88
4. “Мегам books”. “Ҳамза” метроси. тел: 473-00-35, 277-52-70
5. “Юридик адабиётлар”, Тошкент Яккасарой тумани, Бобур кўча-си, 4-уй. тел: 766-29-31, 233-73-32
6. “Акмал-Зиё”. Олмазор тумани, Талабалар кўчаси, 2-уй. тел: 761-61-18
7. “Эркин китоблар”, Беруний кўчаси, 12-уй, тел: 246-55-60.
8. “Applecar tashkent” Тошкент шаҳар, Чорсу, Навоий кўчаси, 44-уй. тел: 244-34-34, 244-30-40
9. “Илм шуъласи” савдо маркази, Тошкент вилояти, Зангиота ту-мани, ЧП “Азимов”, тел:704-77-22; “Чилонзор канц”, тел: 406-72-82; “Ануш канц.савдо”,  
тел:150-27-41; 180-38-01.
10. “Маънавият бўстони” китоб дўкони, А.Темур кўчаси, 6-уй. тел: 241-25-90. 307-28-58.
11. “Таълим манбаи” китоб дўкони, Шайхонтоҳур кўчаси, 10-уй  
тел: 241-07-14
12. “Brass Trade” китоб дўкони, Магнитагор 7-тор кўчаси, 12-уй,  
тел: 157-47-31
13. “Sinema market”, “Ихлос” дўкони, Навоий кўчаси, 3-уй, тел: 244-44-07
14. “Ўздавкитобтаъминот”, Навоий кўчаси, 30-уй, 1-китоб дўкони,  
тел: 244-19-91
15. “Хусусий тадбиркор Р.Исхакова”. Андижон вил. Балиқчи ту-мани, тел: +99891-602-10-77 савдо маркази.
16. “Андижон китобсавдо”, Андижон ш. Истиқлол кўчаси 8-уй,  
тел: 8-374-258-24-79
17. “Одина Эшон мероси”, Хоразм шаҳри, Боғот тумани, Дехқон бозори қишлоғи, тел. +99862-704-55-88
18. “Қутлуғ қадам”, Қарши ш. Ўзбекистон кўчаси 292-уй, тел: +99875-778-41-01.
19. “Ҳидоятхон савдо сервис” МЧЖ, Наманган, Гишткўприк даҳа-си савдо марказида китоблар дўкони, тел: 8-369-226-43-92.
20. “Диёнатли ҳамкор”, Жиззах ш. Иттифоқ маҳалла 12-уй, тел: +99872-366-76-19.
21. Жиззах ш. Кўкбозор китоб растаси, тел: +99872-227-99-27

18. "Qutlug' qadam", Qarshi sh. O'zbekiston ko'chasi 292-uy, tel: +99875-778-41-01.

19. "Hidoyatxon savdo servis" MChJ, Namangan, G'ishtko'prik dahasi savdo markazida kitoblar do'koni, tel: 8-369-226-43-92.

20. "Diyonatli hamkor", Jizzax sh. Ittifoq mahalla 12-uy, tel: +99872-366-76-19.

21. Jizzax sh. Ko'kbozor kitob rastasi, tel: +99872-227-99-27

**Murojaat uchun manzil:**

100113, Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Telefon: (+99871) 273-56-45, 128-78-43

e-mail: [yangiasravlodi@mail.ru](mailto:yangiasravlodi@mail.ru)



# Xudoyberdi TO'XTABOYEV

1932-yil 17-dekabrda Farg'ona viloyatining Katta Tagob qishlog'ida tug'ilgan. 1949-yilda Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yil Toshkent Davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tamomlagan. Ish faoliyatini Farg'ona viloyati tumanlaridagi maktablarda o'qituvchilikdan boshlab, keyinchalik ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori bo'lib ishlagan. 1958-yilda o'z jurnalistik faoliyatini boshlagan ijodkor 300 dan ortiq felyetonlarini e'lon qilgan. Qator nashriyot va jurnallarda faoliyat ko'rsatgan.

1958-yilda badiiy ijodga kirib kelgan X. To'xtaboyevning "Omonboy va Davronboy", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Qasoskorning oltin boshi", "Yo'llar va yillar", "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi", "Quyvonlar saltanati" va boshqa asarlarini bugun kitobxonlarimiz sevib o'qimoqdalar.

Sevimli bolalar yozuvchisi 1982-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, 1989-yili O'zbekiston Davlat mukofotining sovrindori, 1991-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlari bilan taqdirlangan.

Asarlari rus, ingliz, fransuz, nemis tillariga tarjima qilinib, dunyoning 28 ta mamlakatida nashr etilgan.